O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

ABDURASULOVA QUMRINISO RAIMQULOVNA

# AYOLLAR JINOYATCHILIGI VA ULARNING OLDINI OLISH MUAMMOLARI

**(O‘quv qo‘llanma)**

Toshkent-2009

Toshkent davlat yuridik instituti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2007-yil - ---dagi - --sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna.**
Ayollar jinoyatchiligi va ularning oldini olish muammolari. O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir: yu.f.d.,prof. M.H.Rustamboyev. – T.: TDYI nashriyoti, 2009. –161 bet.
Sarlavhada: O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYI.

**Mas’ul muharrir**: yuridik fanlar doktori, professor M.H.Rustamboyev.

**Taqrizchilar:** yuridik fanlar doktori, O.G‘.Zokirova
yuridik fanlar nomzodi, M.Usmonaliyev

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ayollar jinoyatchiligining o‘rganish tarixi, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, jinoyatchi ayollarning tipologiyasi, ayollar jinoyatchiligining sabablari, uning oldini olish mavzusiga oid ilmiy-nazariy adabiyotlardan va sud-tergov amaliyoti materiallaridan statistika ma’lumotlaridan foydalangan holda ochib berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma yuridik oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va magistratura yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar, aspirantlar, jinoyat huquqi, kriminologiya bo‘yicha mutaxassislar va barcha qiziqqan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan.

© Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna.
© Toshkent davlat yuridik instituti, 2009-yil.

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida ayollar va erkaklarning teng huquqliligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu huquqlarning amalga oshirilishi ayollarga erkaklar bilan teng asosda ilm olish, kasb egallash, mehnat qilish, xizmat pillapoya-laridan ko‘tarilish, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda faoliyat ko‘rsatish imkonini beradi.

Ayollar Respublikamiz aholisining 2004-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra 50,2 %ini tashkil etib, ular erkaklar bilan bir qatorda jamiyat hayotining turli jabhalarida, jumladan, ilgari faqat erkaklarga imtiyoz berilgan sohalarda ham banddirlar.

Keyingi yillarda ayollarning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida anchagina tadbirlar amalga oshirildi, jumladan, 1999-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollar rolini kuchaytirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori asosida Davlat dasturi qabul qilindi. Bu dastur ayollar hayotiy faoliyatining barcha soha va tarmoqlarini qamrab oladi hamda ular ahvolini yaxshilash, ularni ijtimoiy himoyalash obyektidan faol harakat qiluvchi shaxsga aylanishi uchun turli tadbirlarni amalga oshirishni belgilab beradi[1].

Bundan tashqari ayollarning ijtimoiy mavqeini oshirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. Albatta, bularning barchasi quvonarli hol, ammo ijtimoiy salbiy hodisa – jinoyatchi-lik davlat va jamiyat rivojiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Jinoyatchilikning o‘sishi nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid qiladi[2].

Jinoyatchilikning bir qismi bo‘lgan ayollar jinoyatchiligi bugungi kunda umumiy jinoyatchilikning 12,5 %ini tashkil qilmoqda. Keltirilgan raqamlar unchalik ko‘pga o‘xshamaydi, ammo har bir ayolning orqasida oilasi, bolalari turganligini ko‘z oldimizga keltirsak, bu fikrning unchalik to‘g‘ri emasligi ma’lum bo‘ladi.

Chunki onasi jinoyatchi bo‘lgan oilaning uyi kuyadi, bolalari qarovsiz qoladi, qarovsiz qolgan bolalarning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga “hissa” qo‘shishi ehtimoldan xoli emas.

Shu sababdan ayollar jinoyatchiligi bilan bog‘liq kriminologik va

[1] Аёлга эҳтиром. –Т.: Ўзбекистон, 1999, 17-20 б.

[2] Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари va тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б.85.

jinoyat huquqiy muammolarni bugungi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy, demografik islohotlar, o‘zgarishlarni hisobga olib, o‘rganish zarurati vujudga keldi.

Hozirgi zamon jinoyat huquqi va kriminologiya nuqtai nazaridan bunday tadqiqotlar olib borilgan emas.

Biroq mustaqillik yillarida jinoyatlar, xususan, ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, ularning oldini olish masalalariga O‘zbekistonlik olimlar, Z.S.Zaripov, I.Ismoilov, Y.M.Karaketov, M.Usmonaliyev, M.H.Rustamboyevlarning asarlarida e’tibor berildi.

Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ayollar bajarayotgan ijti-moiy funksiyalarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa o‘z navba-tida ayollar ijtimoiy faolligining ortishi, ular tomonidan sodir etiladigan jinoiy qilmishlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘zgarish-lar, ayniqsa, o‘tish davri qiyinchiliklari ayollar jinoyatchiligining miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘quvchilar hukmiga taqdim etilayotgan ushbu tadqiqot ishida ilk bor respublikamizda ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik jihatlari o‘rganilgan.

Monografiyada ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari va uning kriminologik tavsifi (1-bob); jinoyatchi ayollarning kriminologik tavsifi (2-bob); ayollar jinoyatchiligining sabablari (3-bob); ayollar jinoyatchiligining oldini olish choralari (4-bob); jinoyat sodir etgan ayollarga nisbatan jazo tayinlash muammolari (5-bob) emperik ma’lumotlar, ilmiy-nazariy adabiyotlar asosida tahlil etilgan.

## 1-mavzu: Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar tushunchasi va turlari

Erkaklar va ayollar jinoyatchiligining farqlarini tushuntirishda, odatda, jinoyatchilikning ijtimoiy va biologik xususiyatidagi sabablariga e'tibor beriladi. Umuman olganda, bunday farqlash an'anaga ko'ra jinoiy xulq-atvorni tushuntirishga nisbatan umumiy yondashuvlarga ham xosdir.

Ilmiy an'anaga ko'ra qaror topgan jinoyatchi shaxsining tipologik tavsifi va mazkur muammoga bag'ishlangan maxsus ishlarning natijalarini hamda shaxsiy izlanishlarimiz asosida chiqarilgan xulosalarga tayangan holda, ayollar jinoyatchiligi motivatsiyasining xususiyati va mazmuniga ko'ra, umumiy ko'rinishda ayollarni quyidagi jinoiy tiplarga ajratish mumkin:

a) zo'ravon shaxs tipi - bu tipga odatda maishiy zaminda bezorilik harakatlari, odam o'ldirish va badanga shikast yetkazish, o'z chaqalog'ini o'ldirish jinoyatlarini sodir etuvchi ayollarni kiritish mumkin. Bular inson hayoti, sog'lig'i jismoniy daxlsizligi va boshqalarga salbiy-pisand munosabatda bo'lgan shaxslardir;

Muborak tuman sudining 1998-yil 10-apreldagi hukmi bilan Abduraxmonova Natalya O'zR JKning 25-, 97-moddasi 1-qismi bilan aybli topilib, unga 10 yil ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlangan.

Sudning hukmiga ko'ra N.Abduraxmonova 1998-yil 24-yanvar kuni soat 20.00 lar chamasida Muborak shahri, 4 "a" mittitumanda joylashgan "Alvon yelkanlar" nomli bolalar bog'chasi oldida R.Omonov bilan janjallashib qolib, o'zi bilan olib yurgan pichoqni olib, R.Omonovni qasddan o'ldirish maqsadida unga pichoq uradi. Ammo N.Abduraxmonova o'zining jinoiy harakatini oxiriga yetkaza olmagan.

b) g'araz maqsadli - zo'ravon tip - shaxsiy, avvalambor moddiy manfaatlarga har qanday yo'l bilan, jumladan, inson hayotini garovga qo'yib bo'lsa ham erishishni nazarda tutadigan g'ayriijtimoiy qarashlarni puxta o'zlashtirgan, ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori bo'lgan shaxs tipi;

Qashqadaryo viloyat sudining 1997-yil 3-apreldagi hukmiga ko'ra M.Jo'rayeva (1969-y.t.) hech qayerda ishlamaydi.

U Shahrisabz shahar G'ofur G'ulom ko'chasi 23-uyning 17-xonadonida G.Chegay bilan qonuniy nikohsiz birga yashagan, mulkiga egalik qilish uchun uning ojizligidan foydalanib, g'araz maqsadda 1996-yil 14-dekabr kuni G.Chegayning bo'yniga bir marta pichoq urib, keyin bo'g'ib o'ldirib, 518229 so'mlik ro'zg'or buyumlarini mashina topib, ortib,

murdaga va uyga o‘t qo‘yib ketganligi uchun JKning 97-moddasi 2-qismi “v” bandi, 173-moddasi 2-qismi “b, v” bandlari, 166-moddasi 4-qismi “a” bandlari bilan aybli deb topilib, jinoyatlar jami bo‘yicha 16 (o‘n olti) yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan.

Qonunga binoan g‘araz maqsadda odam o‘ldirilganida JKning 166-moddasi 4-qismi “a” bandi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish maqsadga muvofiq emas.

M.Jo‘rayeva esa marhum G.Chegayning mulkini egallash maqsadi uning bo‘yniga pichoq urib, keyin o‘ta rahmsizlarcha bo‘g‘ib o‘ldirib, jinoyat izlarini yashirish maqsadida ko‘pchilik yashaydigan, atrofda-gilar uchun xavfliligini bilaturib uyga o‘t qo‘yib ketgan.

d) tamagir tip - jinoyatchi ayollarning g‘arazli tipiga xos bo‘lgan motivatsiya, shu jumladan, oilaviy barqarorlikni ta’minlash zarurati bilan bog‘liq motivatsiyali shaxs tipi;

Qarshi shahar sudining 1998-yil 20-yanvardagi hukmi bilan Tosheva Nazira fuqaro R.Qoraxonovaning uy sotib olmoqchi bo‘lib yurganligini eshitib, firibgarlik yo‘li bilan, ya’ni aldash yoki ishonchni suiste’mol qilish yo‘li bilan uning mulkini qo‘lga kiritish maqsadida o‘ziga tegishli bo‘lmagan uy-joyni o‘zimga tegishli uy-joy, shuni Sizga sotaman deb, 1997-yil 10-aprelda R.Qoraxonovadan 65000 so‘m pulini olib o‘ziga o‘zlashtirganlikda, 1997-yil aprel oyining o‘rtalarida fuqaro X.Sayfiyevaga uning gilamlarini sotib beraman deb, uning 17000 so‘mlik gilamini aldab olib, o‘zining shaxsiga o‘zlashtirib yuborganlikda, o‘zining bu jinoiy harakatlari bilan o‘zgalarning juda ko‘p miqdorni tashkil etgan 82000 so‘mlik mulkini qo‘lga kiritib, O‘z JKning 168-moddasi 4-qismi “a” bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli topilib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

Tadqiqotimiz natijalari bu toifa jinoyatchilar orasida oilalilarning foizi katta ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, mansabdorlik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning ko‘pchiligining oilasi (ayollar - 85%, erkaklar - 96%) va voyaga yetmagan farzandlari (ayollar orasida - 82%, erkaklar orasida - 77%) bo‘lgan[1].

e) ehtiyotkor bo‘lmagan tip – qonun-qoidalarga yengiltaklik, mas’uliyatsizlik bilan, loqayd munosabatda bo‘ladigan shaxslar - tasodifan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etadigan ayollar-ning katta qismini tashkil etadi;

D.X. Xaitova 2004-yil 3-yanvar’ kuni soat 18.00 larda o‘ziga tegishli VAZ-21083 rusumli 11 0 3588 davlat belgili avtomashinani THAY

[1] Зуфаров Р.А. Криминологическая характеристика взяточничества // Давлат ва хуқуқ. 2002. № 3 (11), -Б. 43.

tarkibiy qismi bo‘lgan Temur Malik ko‘chasi bo‘ylab, J.Obidova ko‘chasi tomonidan Abdullayeva ko‘chasi tomonga soatiga 60 km tezlikda harakatlanib, YXQning 1.4, 3.5 bandi 4-qismi va 16.3 bandi talablariga zid ravishda, ya’ni yo‘l harakati qatnashchilari harakatlanish vaqtida boshqa qatnashchilarning harakatlanishiga xavf tug‘dirmasliklari, harakatlanish jarayonida piyodalar, ayniqsa, qariyalarga nisbatan ehtiyotkorlik choralarini ko‘rishlari va tartibga solingan piyodalar o‘tish joylarida haydovchilar svetoforning ruxsat etuvchi ishorasi yongan taqdirda ham, piyodalarga qatnov qismini shu yo‘nalishda kesib o‘tishni tugallashiga imkon berishlari kerakligi to‘g‘risida talablarni buzib, YXQning 5.16.1 belgisiga amal qilmasdan harakati bo‘yicha piyodalar o‘tish joyidan uning yo‘nalishida o‘ngdan chapga yo‘lni kesib o‘tayotgan 54 yoshli piyoda M.Yuldashevani urib yuborib, unga hayoti uchun xavfli bo‘lgan og‘ir tan jarohati yetkazgan.

f) qaram tip - bu tip vakillariga giyohvandlik vositalari, spirtli ichimliklar yoki turmush o‘rtog‘iga ruhan qaramlik tufayli turli jinoyatlar sodir etish xosdir.

Kasbi tuman sudining 1997-yil 16-sentabrdagi hukmiga ko‘ra X.Amirova 3 ta gugurt qutilariga joylangan 13,7 gr. marixuanna – giyohvandlik vositasini X.Boymurodovga 4500 so‘mga sotgan, shuning-dek uning uyidan yana 8 ta gugurt qutilariga joylangan 46,7 gr. marixuanna – giyohvandlik vositasi topilgan. U jinoyatni o‘zi bilan nikohsiz yashab kelgan P.ning ta’siri ostida u bilan ishtirokchilikda sodir etgan.

Shaxsning kriminogen motivatsiyaga moyilligining chuqurligi va turg‘unligi jihatidan ayol jinsidagi jinoyatchilarni quyidagi shaxsiy tiplarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

a) tasodifiy jinoyatchi ayollar - tasodifiy holatlar natijasida, o‘zining avvalgi xulq-atvorining umumiy tavsifiga zid ravishda jinoyat sodir etgan ayollar;

b) vaziyatga bog‘liq jinoyatchi ayollar - beqaror shaxsiy xususiyatlar va turmush sharoitlarining ta’sirida jinoyat sodir etgan ayollar;

d) beqaror jinoyatchi ayollar - jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan chekingan, biroq shunga qaramasdan ularni qat’iy o‘zlashtirib olmagan ayollar;

e) professional jinoyatchi ayollar - jinoyat sodir etish orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishga qat’iy intiladigan ayollar.

Kriminogen motivatsiyaning xususiyati, chuqurligi va turg‘unli-giga asoslangan mazkur tipologiyani keltirar ekanmiz, biz uni sudlanganlik va

retsidivning rasman mavjud ekanligi yo yo‘qligi, tayinlangan jazo turi, yoshi, kasbi va boshqalar, ya’ni shaxsning jinoyat huquqiy va ijtimoiy-demografik tavsifi mezonlari bilan atayin bog‘lamadik. Shuningdek, tipologiyani jinoiy xatti-harakat-larning xususiyatiga, aniqrog‘i - ayollar bajaruvchi kriminal funk-siyalarning xususiyatiga qaratishga ham urinmadik, zotan, mazkur tipologiya kriminologiya fanida yetarli darajada ko‘rib chiqilgan. Bu qarash aynan shaxsni motivasiyaning yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganishga asoslangan yondashuvga javob beradi, chunki, bizning fikrimizcha, har qanday retsidivist ham professional jinoyatchi tipiga mos kelavermasligi, birinchi marta jazoga hukm etilgan shaxs esa qamoqqa tasodifiy holatlar tufayli tushib qolgan bo‘lishi ham mumkin.

## 2-mavzu: Ayollar jinoyatchiligining o‘rganish tarixi

Ayollar jinoyatchiligini jinoyatchilikning mustaqil tarkibiy elementi sifatida o‘rganishga XIX asrning ikkinchi yarmida asos solingan bo‘lib, ushbu masalaga dastlab Lamber Adolf Jak Ketle (1796-1874) va Chezare Lombrozo (1836-1909) e’tibor bergan.

Ilmiy statistika asoschilaridan biri, belgiyalik sotsiolog va kriminolog A.Ketle jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga harakat qilib, “jinoyat sodir etishga moyillik odamning yoshi, jinsi, kasbi, ma’lumoti darajasi, yilning mavsumi va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi»[1], degan xulosaga keldi. U erkaklar va ayollar jinoyatchiligidagi farqlarni faqat jinslarning jismoniy rivojlanishidagi farq bilan tushuntiribgina qolmay, ayollarning deviant xulq-atvorini ijtimoiy turmushdan uzilganlik, oilaviy majburiyatlar doirasida o‘ralashib qolganlik bilan ham izohladi. Ketlening fikricha, jinoyatga moyillik erkaklarda ayollarga nisbatan kuchliroq namoyon bo‘ladi, chunki ayollar ko‘p jihatdan his-tuyg‘ular ta’siri ostida bo‘ladi, ularga sharm-hayo va kamtarlik xosdir, shuningdek, o‘zining ijtimoiy qaramligi va yolg‘izligi tufayli ular jinoyat sodir etish uchun kamroq imkoniyatga ega bo‘ladilar; bundan tashqari, o‘zining jismoniy zaifligi tufayli ular (ayollar) jinoyatga turtki beradigan holatlardan doim ham foydalana olmaydilar.

U jinoiy xulq-atvorning vujudga kelishiga ijtimoiy muhit sababchi, ayollarning biologik xususiyatlari jinoyatlarning alohida turlarini belgilagan yoki ayrim hollarda ularning miqdor ko‘rsat-kichlarini chegaralagan holda, bu jinoyatlar sodir etilishining sababi hisoblanmaydi, degan fikrni ilgari surdi. Shu bilan bir vaqtda, ayollarning turmushdagi har xil qiyinchiliklardan ruhiy jihatdan kamroq himoyalanganligini ham hisobga olmasak bo‘l-maydi[2], deydi A.Ketle.

Antropologik maktab vakillari - Ch.Lombrozo va uning Rossiyadagi izdoshi P.N.Tarnovskaya bu hodisani bir qadar boshqacha tushuntiradilar[3]. Ch.Lombrozo ayollar jinoyatchiligining jadalligi erkaklarnikiga nisbatan past ekanligini ayol organizmining o‘ziga xosligi, ayol tabiati va uning ma’lum darajada «biologik norasoligi» bilan izohladi. Lombrozoning mashhur g‘oyalaridan yana biri bu ayollarning tajovuzkorligiga hayz ko‘rish sikllarining katta ta’sir ko‘rsatishi haqidagi fikrdir. Lombrozo tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, jinoyat sodir etganligi uchun qamoqqa olingan 80 nafar ayollardan 71 tasi jinoyat sodir

[1] Кетле А. Человек и развитие его способностей. Спб, 1865. С. 7-8.
[2] Криминология . М., 1997. 674.С.
[3] Ломброзо Ч. Женщина-преступница и проститутка. Киев, 1902; Ломброзо Ч., Ласки Л. Политичемкая преступность и революция. Спб, 1906; Тамовская П.Н. Женщины -убийцы. Спб, 1902.

etish paytida hayz ko‘rgan. Lombrozoning bu nazariyasi hozirgi kunda ham mashhurdir. Jumladan, jahon sud amaliyotida shunday hodisalar ham ma’lumki, yuqorida zikr etilgan holat ayollar tomonidan qasddan shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlar uchun chiqarilgan hukmni yumshatishga xizmat qilgan.[1]

Ayollar tomonidan sodir etilgan qasddan odam o‘ldirish har doim ham kriminologlarning e’tiborini tortib kelgan, zotan, ayollar tomonidan sodir etiladigan odam o‘ldirish va boshqa zo‘rlik ishlatib amalga oshiriladigan jinoyatlarning darajasi nisbatan yuqori ekanligi ancha oldin aniqlangan.

Lombrozoning izdoshi, italiyalik kriminolog Enriko Ferrining fikricha, ayollar erkaklarga qaraganda shafqatsizroq bo‘lib, «ashaddiy» retsidivist ayollar o‘z qilmishlaridan eng beshafqat jinoyatchi erkaklarga nisbatan kamroq pushaymon bo‘ladilar. Lombrozoning ayollarning ta’sirchanlik darajasi pastligi haqidagi fikrga qo‘shilgani holda E.Ferri bu ularda onalik funksiyalarini bajarishlari oqibatida sodir bo‘ladi, mazkur funksiyalarni bajarish shu qadar ko‘p kuch talab qiladiki, natijada ayollarning biologik rivojlanishi sekinlashadi va ruhiy rivojlanish darajasiga ko‘ra ular bolalar bilan katta odamlar o‘rtasida turadi[2], deydi.

Yuqorida nomi zikr etilgan antropologik maktabning yana bir vakili P.N.Tarnovskayaning ilmiy qarashlari e’tiborga molikdir. U insondagi jinoiy xulq-atvor uning jinoyat sodir etishga biologik moyilligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi, biroq, nobop turmush sharoitlari, tarbiya va namunaning salbiy ta’siriga ham e’tiborini qaratadi.

P.N.Tarnovskaya asosan Rossiyaning Yevropa qismi markazida yashovchi 160 nafar odam o‘ldirgan ayollarning shaxsi va xulq-atvorini puxta va mufassal o‘rganib chiqdi. Barcha jinoyatchilar antropologik tekshiruvlardan o‘tkazildi, ko‘pchiligining esa ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish, umumiy va og‘riqni his qilish qobiliyatlari tekshirib ko‘rildi. Mazkur ayollar va ular oilalarining o‘tmishdagi hayoti, jumladan, kasbi, kasalliklari, fe’l-atvori, nimaga moyilliklari va odatlari haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, jinoyatchilar bilan suhbatlashish jarayonida olingan psixologik ma’lumotlar to‘plandi.

Olingan materiallar va qiyosiy tahlil asosida P.Tarnovskaya jinoyatchi va jinoyatchi bo‘lmagan ayollar o‘rtasida, shuningdek, qotillarning alohida turlari o‘rtasida antropologik xususiyatdagi ayrim farqlar mavjud, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, bosh chanog‘i

---

[1] Женская преступность. Энциклопедия приключений и  катстроф. Минск, 1996. 517.с.

[2] Ферри Э. Преступные типы в исскустве и литературе.Спб., 1908.С. 47-48.

nisbatan yaxshi rivojlanmagan va hajman kichik bo‘lgan, «nasl buzilishining ko‘p sonli anatomik alomatlari - yuz, bosh, quloq, tish distrofiyalari ko‘rinib turgan, sezgi organlarining faoliyatida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan, yomon irsiyatdan yanada tubanlashgan qotil ayollar ruhiy va jinsiy jihatdan juda katta kamchiliklarga ega bo‘lganlar. Qiziqqon va jizzaki yoki ma’naviy zaif, yaxshi-yomon ishning farqiga bormaydigan, jinsiy funksiyasi noto‘g‘ri rivojlangan yoxud ruhiy va asab xastaliklari bilan kasallangan jinoyatchi ayollar chindan ham o‘sib kelayotgan avlodining zaiflashgan yoki o‘zgargan hayot energiyasining o‘ziga xos noraso mahsulini tashkil etadi... Bular homiladorlikning birinchi kunlaridanoq noto‘g‘ri rivojlangan odamlardir»[1].

Uzoq vaqt davomida, ya’ni XX asrning 30-yillariga qadar ayollar tomonidan zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarning sabablari asosan biologik, irsiy omillar bilan izohlanib kelindi. Biroq, shu bilan birga, jinoiy tiplarning faqat fiziologik jihatlarini baholab qolmay, ularning dunyoni his qilish va atrof muhitni idrok etish sohasini o‘rganishga harakat qilingan asarlar ham paydo bo‘la boshladi. Boshqacha aytganda, jinoyatchi ayollarning shaxsini o‘rganishda yana bir yo‘nalish - psixologik yo‘nalish vujudga keldi.

Ayollar jinoiy xulq-atvorining tabiati va uni vujudga keltirgan sabablar o‘rganilgan boshqa bir qator ishlarni ham tilga olish mumkin, Ularning ayrimlarida muayyan misollarni tahlil va talqin qilish usulidan samarali foydalanilgan. Ular jumlasiga E.K.Krasnushkin va N.G.Xolzakovaning «Gomoseksualist-qotil ayollar hayotidagi ikki hodisa» maqolasini kiritish mumkin[2]. Unda ayollar tomonidan sodir etilgan odam o‘ldirish jinoyatlarining, birinchi navbatda, keng va chuqur psixologik tahlili berilgan. Qolaversa, bu tahlil psixiatrik xususiyatga ega bo‘lgan noyob kuzatishlar va tibbiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. Jinoyatchilikka irsiy omillarning ta’siri ham o‘rganilgan.

Ayollarning tuban xulq-atvorining eng tipik ko‘rinishlaridan biri - ular tomonidan o‘z chaqalog‘ini o‘ldirish sabablari haqidagi ilmiy ishlar ham e’tiborga loyiqdir. 1928-yili B.S.Mankovskiy farzandkushlikning ko‘payishi sabablarini o‘tmishdagi oilaviy negizlarning ijtimoiy bo‘hronlar va inqilobiy o‘zgarishlar ta’sirida buzilganligi, yangi turmush tarzi hali yaxshi mustahkamlanib ulgurmaganligi bilan tushuntiradi. Buning natijasida jamiyatda jinsiy munosabatlarga yengiltaklik bilan qarash kuchaydi. Bu yengiltaklik, B.S.Man’kovskiyning fikricha, nikohsiz

---

[1] Тарновская П.Н. Женщины убийцы. С 4 5 6.

[2] Краснушкин Э.К., Холзакова Н.Г. Два случая из жизни женщин убийц-гомосексуалисток. Преступник и преступность. М., 1926.

homiladorlik va nikohsiz tug'ilgan bolalar sonining o'sishiga olib keldi. Bu esa o'zining ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolidan qanday yo'l bilan bo'lmasin qutulishni istagan ayollar sonining ortishiga sabab bo'ldi[1].

Mazkur ishlarni, ularda mavjud bo'lgan muammoga yangicha yondashuvni va ularning shubhasiz dolzarbligini obyektiv tan olgan holda, bu ishlar, yuqorida tilga olinganidek, faqat tavsifiy xususiyatga ega ekanligini qayd etib o'tish joiz. Tadqiqotchi-kriminologlar o'z ishlarida ko'p jihatdan ayollar jinoiy xulq-atvorining ma'lum qonuniyatlarini aniqlaganlar va qayd etganlar, biroq uning determinatsiyasini muvofiq ravishda tushuntirma-ganlar.

Mazkur holatni qayd etgan holda, bu tadqiqotlar amalga oshirilgan tarixiy davr, muhit haqida ham unutmasligimiz kerak. Siyosiy tuzum va rasmiy mafkura jinoyatchilikni butunlay yo'q qilish mumkinligi haqidagi nazariyani inkor etuvchi jinoyatchilikning sabablariga oid biron-bir asos, dalillarning keltirilishiga yo'l qo'ymas edi. Tabiiyki, bu vaziyat kriminologiya fanining SSSR miqyosida rivojlanishiga, shuningdek, ayollar jinoyatchiligi muammolarining o'rganilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Jinoyatchilikning mazkur turi faqat XX asrning 70-yillaridan boshlab olimlarning e'tiborini yana o'ziga torta boshladi. Bunda faqat jinoyatchi ayollar shaxsining statistik qonuniyatlari va xususiyatlarigina emas, ularning jinoiy xulq-atvorining turli ko'rinishlari hamda mikroijtimoiy muhitning, shu jumladan, jazoni ijro etish joylaridagi muhitning o'ziga xos jihatlari o'rganila boshlandi.

Shunga qaramay, ayollar jinoyatchiligi bilan bog'liq ko'pgina masalalar yuzasidan ilmiy ma'lumotlarning taqchilligini qayd etgan holda, mazkur muammoni yoritishga Rossiya kriminologlari tomonidan anchagina e'tibor berilganligini aytib o'tish lozim deb o'ylaymiz. Ular orasida Antonyan Y.M.[2], Berkashvili L.Sh.[3], Volkova T.N.[4], Ziryanov V.N.[5], Korzun I.I.[6], Serebryakova V.A.[7] va Shestakov D.A.[8]larning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir.

---

[1] Маньковский Б.С. Детоубийство.Убийство и убийцы. М., 1928. С. 261-262.
[2] Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. М.: Российское право, 1992, -250 с.
[3] Беркашвили Л.Ш., Криллова И.А. Кримнологическая характеристика женщин, совершивших преступления. М.: ВНИИ МВД, 1976, -42 с.
[4] Волкова Т.Н.Криминологическое и проавовые проблемы женской преступности в современной Росии . Дис. на соиск. Ученой.степ. док. юрид. наук. Рязань, 2001, -294 с.
[5] Зирянов В.Н. Групповая преступность женщин и её предупреждение органами внутренных дел. Горький, 1988. -142 с.
[6] Корзун И.В. Преступность среди женщин в Казахстане. Алматы: Жети жарғи, 1998, -181 с.
[7] Серебрякова В.А. Преступления совершаемые женщинами . М., 1973. -132 с.
[8] Щестаков.А. Супружеское убийство как общественная проблема. Санкт-Петербург: Издательство С. – Петербургского Университета, 1992, -96 с.

O‘zbekistonning kriminologiya fani haqida gapiradigan bo‘lsak, ayollar jinoyatchiligi muammolarini o‘rganishga oid biron-bir mufassal, izchil va chuqur tadqiqotni topa olmadik. Biroq kriminologiya va jinoyat huquqi fani rivojlanishining dastlabki davrlariga oid ayollar jinoyatchiligi haqidagi ayrim fragmentlar, uzuq-yuluq ma’lumotlarni topishga muvaffaq bo‘ldik va ularga keyingi paragraflarda to‘xtab o‘tamiz.

# 3-mavzu. Ayollar jinoyatchiligining holati, tuzilishi va dinamikasi

## Reja:

3.1. Ayollar jinoyatchiligining holati.
3.2. Ayollar jinoyatchiligining tuzilishi va dinamikasi.

## 3.1. Ayollar jinoyatchiligining holati

Ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilikning tuzilishida nisbatan oʻzgarmas kattalikka ega boʻlgan holda, ijtimoiy shart-sharoitlarga qarab oʻzgarib boradigan, shu bilan bir vaqtda umuman jinoyatchilik (erkaklar jinoyatchiligi)dagi oʻzgarishlarni takrorla-maydigan hodisadir. Yuqorida zikr etilgan sabablarga koʻra, ayollar jinoyatchiligi jinoyatchilikning oʻsib borishga moyil boʻlgan nisba-tan mustaqil qismini tashkil etadi[1].

An'anaga koʻra, ayollar erkaklarga qaraganda ancha kam jinoyat sodir etadi. Uzoq vaqt mobaynida erkaklar va ayollar jinoyatchiligining nisbati taxminan 7:1, 6:1 ni tashkil etib kelgan. Odatda, poraxoʻrlik, oʻzlashtirish, rastrata yoki xizmat vakolatini suiistemol qilish yoʻli bilan talon-taroj qilish, xaridor yoki buyurtmachi-larni aldash kabi jinoyatlar bundan mustasno boʻlgan. Mazkur jinoyat turlarida ayollar odatda aniqlangan jami jinoyatchilarning yarmini tashkil etgan. Bu holat xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy roli va funksiyalari, ular ijtimoiy ishlab chiqarishning ma'lum sohalari: savdo, umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat koʻrsatishda band ekanligi bilan izohlanadi. Bu yerda sobiq itifoqda mazkur sohalarda koʻrsatiladigan xizmat darajasining pastligi, aholiga zarur boʻlgan tovar va xizmatlarning surunkali taqchilligi ham oʻz ta'sirini koʻrsatganki, bular har xil qonunbuzarliklar, xizmat vakolatini suiiste'mol qilishlar va pirovard natijada jinoyatlarga qulay zamin yaratgan.

Statistika ma'lumotlari ayollar jinoyatchiligi tuzilishida iqtisodiyot sohasidagi, jumladan, oʻgʻrilik, firibgarlik, bezorilik, giyohvandlik vositalarini tayyorlash va oʻtkazish kabi «umumiy» jinoyatlarning salmogʻi ancha kattaligidan dalolat beradi. Odam oʻldirish, badanga shikast yetkazish kabi jinoyatlarni ayollar koʻpincha oilaviy-maishiy mojarolar negizida sodir etadilar, bunda koʻpincha jabrlanuvchilar, asosan, aybdorlarning er yoki jazmanining viktim, provokatsion xulq-atvori yetakchi rol oʻynaydi. Oʻzbekistonda ham boshqa chet el davlatlardagi singari onaning oʻz chaqalogʻini oʻldirishi ayollarga xos jinoyat boʻlib

[1] Карпец И.И. Преступность.: иллюзии и реальность. - М., 1992. 215.с

qolayotir. «Odam o'ldirishning boshqa turlaridan farqli o'laroq, yangi tug'ilgan chaqaloqni o'ldirish qishloq joylarida ham tarqalgan. Qator hollarda bu jinoyatlarning orqasida aybdorning eri yoki jazmani turadi, mazkur jinoyatlar zikr etilgan shaxslarning ta'sirida yoki ularning roziligi bilan sodir etiladi»[1]. Bezorilik xatti-harakatlarini sodir etgan shaxslar orasida ayollarning salmog'i odatda 5-6 %ni, barcha ayol jinoyatchilar orasida esa - 3-4 %ni tashkil etadi. Erkaklar singari, ayollar ham bezorilikni odatda mast holatda sodir etadi, bu surunkali ravishda alkogolli ichimliklarni iste'mol qilish, g'ayriijtimoiy turmush tarzining, ba'zan ruhiy xastalik bilan bog'liq umumiy ma'naviy tanazzulning oqibati hisoblanadi.

Jinoyatchi ayollar orasida daydi ayollarning salmog'i hamisha katta bo'lgan. Ammo 1991-yili bu qilmish Jinoyat kodeksidan dekriminalizatsiya qilindi. Bu, tabiiyki, ayollar umumiy jinoyatchiligining statistikasida ham o'z aksini topdi. Jinoyatchilikning statistik ko'rsatkichlari yaxshilandi, ammo ijtimoiy hodisa, uning ildizlari saqlanib qoldi.

Mazur g'ayriijtimoiy hodisaning keskinligini anglagan O'zbekistonning davlat-hokimiyat tuzilmalari so'nggi davrda bu yo'nalishda ma'lum choralar ko'rildi[2].

**1-Jadval**

| **Yil** | **Jami** |
|---|---|
| 1993-y | 8394 ta |
| 1994 - y | 6916 ta |
| 1995 - y | 6394 ta |
| 1996 - y | 6343 ta |
| 1997 - y | 6689 ta |
| 1998 - y | 7305 ta |
| 1999 - y | 8034 ta |
| 2000 - y | 7649 ta |
| 2001 - y | 7654 ta |
| 2002 - y | 8010 ta |
| 2003-y | 9305 ta |
| 2004 - y | 9073 (25 % ga kamaygan) |

Ayollar jinoyatchiligining umumiy tuzilishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1993-2004-yillarda jinoyat sodir etgan ayollar orasida og'ir zo'rlik va g'araz maqsadlarda zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etganlar

[1] Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. М., 1992. 34.с.
[2] Каримов И.А Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизлика таҳдид, барқарорлик шартлари vа тараққиёт кафолатлари. Т., Ўзбекистон, 1997. - 86-бет.

salmog'i uch baravar, o'zganing mol-mulkini o'g'irlaganlar salmog'i ikki baravar ortganini ko'rish mumkin. Shuningdek, ayollar jinoyatchiligi giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi va qo'shmachilik, fohishaxona saqlash hisobiga o'sib bormoqda. Ayniqsa, giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq qilmishlar 1993-2004-yillarda besh baravarga ko'paygan[1]. Ilgari kuzatilmagan odamlar (xususan) ayollar savdosida ham ayollarning ishtiroki kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning 12%dan ko'prog'ini tashkil etadi. Ushbu qilmishlarning bunday o'sishi jamiyatda ro'y bergan ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir.

Jinoyatchilik, eng avvalo, ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun, uning miqdor va sifat xususiyatlari, dinamikasi va tuzilishidagi o'zga-rishlarning tub sabablari jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, jug'rofiy-siyosiy va demografik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

Bu munosabat bilan V.A.Serebryakovaning quyidagi fikriga qo'shilmay bo'lmaydi: «Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichi qonuniy ravishda ayollarning shaxs sifatidagi holati o'zgarishiga olib keladi. Bunday aloqa jinoiy qilmishlar sohasida ham mavjud. Ayollarning bandligi va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik kuzatiladi. Bundan ayollar jinoyatchiligini va umuman jinoyatchilik muammosini muayyan tarixiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganish kerak, degan muhim metodologik prinsip kelib chiqadi. Muayyan ijtimoiy vaziyatlarning tahliligina mazkur murakkab muammoni hal qilish imkonini beradi»[2].

1987-yildan e'tiboran jamiyatning barcha faoliyat sohalarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishning «mevalari»ni fuqarolar aniq his qila boshladilar. Aynan shu davrda, xususan, oxirgi o'n besh yilda aholi umrining davomiyligi izchil kamayib borishi, ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar o'limining ko'payishi qayd etildi. To'g'ri, bunda ayollar o'limining ko'payishi ham kuzatildi, ammo mazkur tendensiya nisbatan katta yosh guruhlarida va erkaklarga qaraganda ancha kam qayd etildi.

Fikrimizcha, ayollar jinoyatchiligining tuzilishida salbiy tendensiyalar kuchayishining asosiy sababini avvalambor iqtisodiy tanazzul bilan bog'lab o'rganish kerak. Mintaqalar va korxonalar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning uzilishi hamda boshqa iqtisodiy tartibsizliklar

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Прокуратураси статистик маълумотлари. Т. 2005.

[2] Серебрякова В.А. Криминологическая характеристика женщин-преступниц//Вопросы борьбы с преступностью. 1971, №14. 5.с.

avvalgi turmush tarzining o‘zgarishi natijasida yuzaga keldi, ishsizlik paydo bo‘ldi. O‘zbekistonda 2002-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra (2003-2004 yillarga oid rasmiy ma’lumotlar e’lon qilinmagan) ishsizlarning 60 %dan ortig‘ini ayollar tashkil qilgan[1].

### 3.2. Ayollar jinoyatchiligining tuzilishi va dinamikasi

Ayollar jinoyatchiligi umuman jinoyatchilik tuzilishida o‘sib bormoqda. Respublikamizda 90-yillarning boshlarida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar jami jinoyatlarning 10 %ini tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich 12,5 %ga yetdi. U jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy shart-sharoitlarga mos ravishda o‘zgarib bormoqda. Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, demokratik o‘zgarishlar, uning dinamikasi, holati, tuzilishi, sifat va miqdoriy tavsiflarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ayollar jinoyatchiligi muammosi mamlakatimizda hozirgacha o‘rganilmagan.

Umuman olganda, o‘tgan asrning 20-30-yillarida ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan faqat soni jihatidan emas, balki o‘z xususiyatiga ko‘ra ham farq qilishi aytilgan. Kriminologiya fani o‘sha vaqtdayoq jinoyatchilikni o‘ziga kasb qilib olgan ayollar mavjudligini tan olgan va ularni to‘rtta: qotillar, abort qiluvchilar, qo‘shmachilar, tan jarohati yetkazuvchilar guruhiga ajratgan edi.

O‘tgan asrning 20-50-yillarida ayollar jinoyatchiligining ahvoli, ularning jazoni o‘tash joylaridagi turmush tarzi haqida ma’lumotlar yo‘q. Ammo xalq xo‘jaligining turli sohalarida ayollarning band bo‘lishi, ayollar faolligining ortishi natijasida ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning turi ko‘paydi.

Shuni aytish joyizki, ayollar jinoyatchiligini nazariy va emperik tadqiq etishga erkaklar jinoyatchiligiga qaraganda kamroq ahamiyat berildi. Hozirda mavjud bo‘lgan hisobga (ro‘yxatga) olish tizimi faqat jinoyatlar sonini tahlil qilish imkonini beradi. Boshqa axborotlarni olish uchun esa bir qator sotsiologik (hujjat-larni o‘rganish, so‘rovlar o‘tkazish, anketa savollariga javoblar olish, kuzatuv olib borish va h.k.) tadqiqotlar olib borildi.

Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi o‘zgarmas emas, balki hayotning turli sohalaridagi o‘zgarishlar, albatta, uning tuzilishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va u ilgari o‘zida bo‘lmagan xususiyatlarni kasb etib boradi.

---

[1] Труд и занятостьв Республике Узбекистан . 2002. Статистический сборник. Т., 2003, -С. 6.

Yuqoridagi fikrni atroflicha o‘rganish zarurdir, chunki ayollar jinoyatchiligi umumiy jinoyatchilik tuzilishi va ayrim turdagi jinoyatlar tuzilishining anchagina qismini tashkil qiladi.

Sobiq sovet davlatida 2-jahon urushidan keyingi yillarda ayollar jinoyatchiligining miqdor ko‘rsatkichi eng yuqori bo‘lgan, mahkumlar orasida ayollar ko‘pchilikni tashkil etgan, 50-yillarda esa ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonining kamayganligi va o‘tgan asrning 80-yillarning oxirigacha bu ko‘rsatkichning o‘zgarmaganligi kuzatiladi. Ammo jamiyatimizda ro‘y bergan o‘zgarishlar, o‘tish davri murakkabliklari tufayli 90-yillardan boshlab ayollar jinoyatining o‘sib borayotganligi tashvishlanarli holdir.

Uzoq vaqt mobaynida ayollar jinoyatchiligi tuzilishida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermadi, ammo bu tizimga kiruvchi qismlarda o‘zgarishlar bo‘lgan. Bu hol avvalo erkaklar va ayollar xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy shart-sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir.

Umuman ayollar jinoyatchiligidagi o‘zgarishlar bir xil emas. Ayrim turdagi jinoyatlarni qarab chiqadigan bo‘lsak, ularni jinoyatchi ayollar soni:

a) kamaygan;

b) barqaror qolgan;

d) yildan yilga ko‘payib borayotgan guruhlarga ajratish mumkin.

Ayollar jinoyatchiligi tuzilishida o‘g‘irlik, tovlamachilik, firibgarlik, giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi, savdo qoidalarini buzish, fohishaxonalar saqlash, qasddan badanga shikast yetkazish, xaridor va buyurtmachilarni aldash, tanosil kasalliklarini yuqtirish ko‘pchilikni tashkil etadi[1]. Ayollar, hatto eng og‘ir jinoyat-qasddan odam o‘ldirishga ham qo‘l urishmoqda.

Ayollar jinoyatchiligida tamagirlik jinoyatlarining soni ko‘pchilikni tashkil etib kelgan. Bu tarixiy faktdir: 50 yil oldin va hozirda ham shunday. Shu bilan birga ayollar jinoiy faoliyatining tamagirlik yo‘nalishini amalga oshirishning anchagina nozik mexanizmlari mavjuddir. Ayollarning kasbiy faolligi jinoyatchilarning jamiyatga qarshi qaratilgan maqsadlarini amalga oshirishlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Avvalgi yillarda ayollar tomonidan zo‘rlik ishlatib, g‘araz maqsadlarda jinoyat sodir qilish juda ozni tashkil etgan bo‘lsa, hozirda bunday jinoyatlar ayollar jinoyatchiligi tuzilishida ko‘payib bormoqda.

---

[1] Халимов Н.А. Аёл-оила қўрғони. Қонун ҳимоясида. 1998. №8. –Б.34

Bunday jinoyatlar ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning 6%ini tashkil etadi[1].

Ayollar jinoyatichiligi tuzilishidagi sifat o‘zgarishlari turli ma’muriy-hududiy bo‘linmalarda bir xil bo‘lmaydi. Turli viloyatlarda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning turi ham bir xil emas[2].

Respublikamizning turli viloyatlarida ayollar sodir etilgan jinoyatlar miqdori va turlari ham bir xil emas. Masalan, 1995-1998-yillarni taqqoslaydigan bo‘lsak, respublikaning ayrim viloyatlarida ayollar jinoyatchiligining oldini olish borasidagi ishlar e’tibordan chetda qolganligi natijasida viloyatlar bo‘yicha bu turdagi jinoyatchilik ko‘rsatkichi respublika miqyosidagi ko‘rsatkichlardan ortib ketgan. 1995-yilda 6394ta ayol turli jinoyatlarni sodir etgan.

1996-yilda – 6343ta ayol jinoyat sodir etgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich 1995-yilga nisbatan 0,8 % ga kamaygan bo‘lsa-da, Navoiy viloyatida 28,5 %, Surxondaryo viloyatida 5,3 %, Farg‘ona viloyatida 5 %, Andijon viloyatida 4,6 % ga oshganligi kuzatiladi.

1997-yil davomida 6689 ta ayol jinoiy javobgarlikka tortilgan, 1996-yilga nisbatan 5,5 % ga oshgan. Shu jumladan, jinoiy javobgarlikka tortilgan ayollar soni Samarqand viloyatida 24,3 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 17,6 %, Navoiy viloyatida 15,9 %, Toshkent shahrida 14,8 %, Andijon viloyatida 13,1 %, Toshkent viloyatida 12,6 %, Surxondaryo viloyatida 9,8 % ga oshgan.

1998-yilda – 7305 ta ayol jinoyat sodir etgan. Bu ko‘rsatkich 1997-yilga nisbatan respublika miqyosida 9,2 % ga oshgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 37,1 %, Namangan viloyatida 34,3 %, Navoiy viloyatida 28,6 %, Xorazm viloyatida 20,5 %, Farg‘ona viloyatida 12,5 %, Naqliyot prokraturasida 13,8 %, Toshkent shahrida 11,8 % ga oshgan.

1995-yildan 1998-yilga qadar ayollar tomonidan o‘ta og‘ir jinoyatlar qatoriga kirgan 427 ta odam o‘ldirish, 1293 ta o‘zgalarning mulkini turli yo‘llar bilan talon-taroj qilish, 129 ta poraxo‘rlik jinoyatlari sodir bo‘lgan. Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkichlar tegishlicha 27–145–25, Toshkent shahrida 105–258–39, Andijon viloyatida 32–52–13, Samarqand viloyatida 50–113–4 ni tashkil etadi.

Keltirilgan raqamlardan ko‘rinib turibdiki, ayollar ko‘proq QQR, Navoiy, Andijon, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida jinoyat sodir etganlar.

---

[1] Абдусаломов М.Каракетов Ю.Ответственность за вымогательство . Т. 1997. –С. 7

[2] Серебрякова В.А. Криминологическая характеристика женщин-преступниц.//Вопросы борьбы с преступностью 1979. вып. 30 с 17-27.

Ayollar va erkaklar jinoyatchiligi tuzilishi, shuningdek, darajasiga ko‘ra ham farq qiladi, aholining ko‘p qismini ayollar tashkil etsa, bu ma’lum ma’noda ruhiy kriminogen vaziyatni yumshatadi, ya’ni kamroq jinoyat sodir etiladi[1].

Qaysi hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sekin-asta amalga oshayotgan va aholi turli qatlamlari turmush darajasiga keskin ta’sir ko‘rsatmayotgan bo‘lsa, o‘sha yerda ayollar jinoyatchili-gining koeffitsenti pastdir.

Ayollar tomonidan shahar va qishloqda sodir etiladigan ji-noyatlar-ning ma’lum farqlari mavjuddir. Shaharga xos jinoyatlar: o‘g‘rilik, firib-garlik, savdo qoidalarini buzish, o‘zlashtirish, badanga shikast yetkazish hisoblansa, qishloqda: taqiqlangan ekinlarni yetishtirish ko‘proq uchraydi.

Shaharda oilaviy maishiy mojarolar natijasi sifatida shaxsga qarshi jinoyatlar ko‘proq sodir etiladi[2].

Masalan, Sh. TTZ zavodida shtampovkachi bo‘lib ishlagan va shu zavodda yig‘uvchi slesar bo‘lib ishlovchi turmush o‘rtog‘i bilan zavodga qarashli Buyuk ipak yo‘li ko‘chasida joylashgan 4-yotoqxonada istiqomat qilgan. Ikki nafar farzandlari bor. Sh. turmush o‘rtog‘ini shu yotoqxonada yashovchi A.ga rashk qilishi tufayli tez-tez janjal bo‘lib turgan. 1994-yil 25-avgustda navbatdagi janjallardan birida Sh. stol ustida turgan oshxona pichog‘ini olib, erining qorniga sanchadi. So‘ngra erini shu ahvolda qoldiradi va pichoqni lattaga o‘rab, “Do‘rmon” qishlog‘i hudidan oqib o‘tuvchi ariqqa tashlab yuboradi[3].

AQShda ham bir qator Yevropa davlatlarida bo‘lgani singari ayollarning o‘z turmush o‘rtoqlarini urishi ko‘paymoqda, 2143 ta oilada tadqiqotlar o‘tkazilganida, ayollar tomonidan kaltaklangan erkaklar 4.5 %ni tashkil etgan[4].

Ayollar jinoyatchiligining yana bir o‘ziga xos xususiyati – o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan ayollar sonining juda kam ekanligidir[5].

Ammo haqiqatda esa ular sodir etilgan ayrim jinoyatlar, masa-lan, o‘g‘rilik, firibgarlik va hokazolarning retsidivi yuqori hisob-lanadi. Qasddan badanga shikast yetkazish, qasddan odam o‘ldirish kabi jinoyatlarning retsidivi mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlarga nisbatan bir necha marta kam.

---

[1] Энциклопедия преступный преступлений и катасроф. Женская преступность. Минск, Литература 1996 г.

[2] Шестаков Д.А. Супружеское убийство, как общественная проблема. Санкт-Петербург. Из-во. С.Петербургское Университета, 1992 , - С.81.

[3] Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек тумани суди архивидан. 184-94 сонли жиноят иши.

[4] MAN.N.R Female crime and delinquency Alabama: Alabama press. 1985. XV – p.23 (331 p.)

[5] Голоднюк М.Н. Криминологическая характеристика женщин-рецидивисток.// Ж. II. Право Вестник СГУ. 1974 №6 -С.28.

Ayollarga xos xususiyatlardan yana biri ular jinoyatni asosan yolg‘iz o‘zlari sodir etadilar. Guruh tarkibida ko‘pincha o‘g‘rilik, kasb bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etadilar. Talonchilik, bosqinchi-lik sodir etishda ular asosan yordamchi sifatida ishtirok etadilar.

Ayollar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, bu jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni ham o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ayollar va umuman jinoyatchilikning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi.

## 4-mavzu. Jinoyatchi ayollar shaxsini o‘rganishning kriminologik asoslari, professional jinoyatchi ayollar tipologiyasi

### Reja:

4.1. Jinoyatchi ayollar shaxsini o‘rganishning kiriminologik asoslari.

4.2. Ayollar jinoyatchiligi va ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning viktimologik jihatlari.

4.3. Professional jinoyatchi ayollar tipologiyasi.

### 4.1. Jinoyatchi ayollar shaxsini o‘rganishning kriminologik asoslari

1897-yili Xalqaro kriminalistlar uyushmasining Geydelbergda bo‘lib o‘tgan syezdida jinoyatchilarning tasnifi qabul qilingan bo‘lib, u teng darajada jinoyatchi ayollarga ham tegishlidir. Ushbu tasnifga ko‘ra jinoyatchilar:

1. Tasodifiy, epizodik jinoyatchilar;
2. Xulq-atvorida jiddiy beqarorlik bo‘lgan yoki bir necha marta jinoyat sodir etgan;
3. Ashaddiy yoki professional jinoyatchilarga ajratildi.

Ch.Lombrozo ham o‘zining «Jinoyatchi va fohisha ayol» asarida jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan ayollarni bir nechta tiplarga ajratadi: 1. Tug‘ma jinoyatchi ayollar; 2. Tasodifiy jinoyatchi ayollar; 3. Ehtirosli jinoyatchi ayollar. Lombrozo o‘z joniga qasd qilgan va chaqalog‘ini o‘ldirgan ayollarni alohida ko‘rib chiqadi, fohishalarni ham ikkita: tasodifiy va tug‘ma toifadagilarga ajratadi[1].

Mazkur ma’lumotlar jinoyatchilarning asosiy tiplarini yetarli darajada keng va aniq ifoda etadi. Yuqorida ko‘rsatilgan tiplar amalda doim ham «sof» ko‘rinishda namoyon bo‘lavermasligini e’tiborga olish kerak. Ular har xil uyg‘unlikda namoyon bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, jinoyatchi tiplarning o‘zi ham muayyan tarkibiy qismlarga - kichik tiplar, kichik guruhlarga ajratilishi mumkin. Shuning uchun ham, bizning fikrimizcha, jinoyatchilik yoki uning alohida turining mukammal va barqaror tipologik tavsifi bo‘lishi mumkin emas, zotan, mazkur jarayon bilish va jamiyat taraqqiyoti jarayonlari hamda jinoyatchilikning o‘zida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jinoiy tiplarni klassifikatsiya qilish va ularning tipologiyasi har xil maxsus manfaatlarga xizmat qiladi, tadqiqotchilarning o‘z oldiga qo‘yilgan muayyan maqsadlarga erishishini ta’minlaydi. Ilmiy

[1] Ч.Ломброзо. Гениальность и помешательство.Симферополь: «Реноме», 1998. -С. 400.

adabiyotlarda jinoyatchilarni turkumlash va tipologiyasini farqlash masalalari hiyla munozarali hisoblanadi. Masalan, 1992-yilgacha nashr etilgan kriminologiya darsliklarida jinoyatchi-larning tasnifi va tipologiyasiga jiddiy ahamiyat beriladi, bunda jinoyatchilarni turkumga ajratish kriminologiya fanida odatda so‘zning keng va tor ma’nosida tushuniladi[1]. Tor ma’noda - bu jinoiy xulq-atvor sabablari bilan qonuniy bog‘langan jiddiy alomatlarga asoslanuvchi tipologiyadir. Keng ma’noda esa guruhlash, deganda ko‘rsatilgan tor ma’nodagi tipologiya va turkumlash tushuniladi. Ayrim mualliflarning ishlarida xuddi shunday ma’nodagi «guruhga ajratish» atamasi ham uchrab turadi.

Nisbatan keyinroq chop etilgan kriminologiyaga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va boshqa maqolalarda, shuningdek, jinoyatchining shaxsini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarda turkumlash tipologiyadan qat’iy farq qiladi[2], deb aytiladi.

Shunday qilib, jinoyatchilarni turkumlarga ajratish jinoyat sodir etgan shaxslarni kriminologik o‘rganish usuli hisoblanadi. U mazkur shaxslarning atributiv, ya’ni ajralmas alomatlariga asoslangan holda guruhlarga ajratilishini nazarda tutadi. Bularga tashqi, rasmiy xususiyatga ega bo‘lgan alomatlar, masalan: shaxsning ijtimoiy-demografik (jinsi, yoshi, ma’lumoti, kasbi va boshqalar); kriminologik (jinoiy qilmishning turi, aybning shakli, shaxsning sodir etilgan jinoyatdagi roli, jinoyatni takroriy sodir etish va h.k.)ga asosan guruhlarga ajratish kiradi. Ba’zan jinoyatchilarni turkumlash va guruhga ajratish uchun boshqa mezonlardan ham foydalaniladi: jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, aybdorning ruhiy holati, mastlik holati yo mast emasligi va h.k. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jinoyatchilarni tiplarga ajratish shaxs sodir etgan qilmishning mohiyati asosida amalga oshirilsa, turkumlash rasmiy xususiyatga ega bo‘ladi.

Tipologiya shaxslarni turlarga ajratish haqidagi ta’limot bo‘lgani holda, o‘z navbatida jinoiy xulq-atvorning o‘xshash namunalarini uning umumiy modeliga birlashtiradi. Bunda, birinchi navbatda, shaxsning eng muhim kriminologik yoki uning jinoyat-huquqiy alomatlari: jinoyatning sabablari, shaxsning kriminogenliligi yoki ijtimoiy xavflilik darajasi, ularning chuqurligi, qat’iyligi, yo‘nalishi e’tiborga olinadi. Masalan, jinoyat sabablari mezoni bo‘yicha, odatda, qilmishlar qasddan sodir etilgan jinoyatlarga, zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga va boshqa turlarga ajratiladi. Kriminogenlilik darajasiga ko‘ra esa professional

---

[1] Курс советской криминологии. М., 1985. С.293-309; Криминология. М., 1988. С. 99-101; Крминология. СПБ., 1988.С. 93-96; Ломброзо Ч. Женщина-преступница и проститутка. Киев, 1902.-С.162

[2] Шнайдер Г.И. Крминология . Перевод с немецкого 10. А. Неподаева –М.: Издательская группа “Прогресс”, “Универс”, 1994, –С. 332.

jinoyatni kasb qilib olgan, odatiy, beqaror, ehtiyotsizlik oqibatidagi, tasodifiy jinoyatchilarning turlari farqlanadi. Shu bilan birga, bunday usulda aniqlash mumkin bo‘lgan jinoyatchilarning turlari turkumlashda kuzatilgani singari qat’iy chegaralarga ega bo‘lmaydi.

Ilmiy atamalar bilan bog‘liq munozaraga kirishmasdan ushbu masala bo‘yicha o‘zimizning shaxsiy fikrmizni bildirishni istar edik, zotan, bu ham o‘rganilayotgan muammoga nisbatan ilmiy yondashuvni qisman asoslash uchun xizmat qiladi. Keltirilgan atamalar o‘rtasida jiddiy farq mavjud emas, chunki ularning har biri ko‘p sonli jinoyatchilar (bizning tadqiqotda jinoyatchi ayollar)ni har xil mezonlar bo‘yicha ma’lum turlar, guruhlar va tizimchalarga ajratishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham huquqiy fanlarda turkumlash mezonlari va tipologik mezonlar ko‘pincha aralashib ketadi va mazkur masalada bir qancha chalkashliklar mavjuddir. Biroq, ushbu jarayonning kriminologik tomoni haqida gapiradigan bo‘lsak, unga nisbatan «tipologiya» atamasini qo‘llash, bizningcha, o‘rinli bo‘ladi, zotan u, birinchidan, kriminologiya fani predmetining asosiy elementlaridan biri hisoblangan shaxsga ishora qiladi, ikkinchidan, jinoyatchining har xil vaziyatlarda ma’lum jinoyatlar sodir etadigan shaxslarning tegishli toifasiga rasman mansub ekanligini emas, eng avvalo, jinoyatchi shaxsini mazmunan tavsiflashni nazarda tutadi.

Biz «turkumlash», «guruhlash» tushunchalarining yanada univer-sal xususiyatga ega ekanligini qayd etishni istar edik. Ularning yordamida jinoyatchilarning jinsi va yoshi, sodir etilgan jinoyatning jinoyat huquqiy tasnifi, tayinlangan jinoiy jazoning turi va boshqa rasmiy mezonlar bo‘yicha farqlash va o‘rganish odatda qulayroq bo‘ladi.

Ma’lumki, jinoyatchining shaxsi jinoyatchi bo‘lmagan odamning shaxsidan ijtimoiy xavflilik darajasi bilan farq qiladi. Ijtimoiy xavflilik-ning mazmuni yoki xususiyati shaxs jinoiy xulq-atvorining yetakchi saba-biy yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi esa mazkur yo‘nalishning qat’iyligi va chuqurligidan kelib chiqib farqlanadi[1].

Jinoiy xulq-atvor, jumladan, ayollar jinoiy xulq-atvorining tipologik modellarini tuzishga qator qiziqarli tadqiqotlar bag‘ishlangan bo‘lib, ularda har xil shaxsiy xususiyatlar turlicha xulq-atvor motivlarining shakllanishiga olib kelishi qayd etiladi[2].

Bunda shaxsni kriminologik tadqiqotlar darajasida o‘rganish uchun boshqa bilim sohalari va tegishli fanlar - umumiy psixologiya, fiziologiya,

---

[1] Крминология, М., 1994. С. 110.

[2] Игошев К.Э. Типология личности преступника и мотивация преступного поведения. Горький. 1974; Меликишвили Л.А. Типологические модели личности женщин -преступниц. Современная преступность. Новые исследование. М., 1993.С. 136-141.

seksologiya, sud psixiatriyasi, patopsixologiya, seksopa-tologiya va boshqa fanlar sohasiga ham e'tibor berish talab qilinadi. Mazkur fanlarning metodologiyasi va ilmiy ustqurmasidan foydalanish shaxsni mufassal oʻrganish imkoniyatini beradi, ayrim holatlarda esa maxsus ilmiy usullar, atamalar va kriminologiya uchun muhim boʻlgan boshqa kategoriyalardan foydalanishga ham majbur etadi. Muammoga bundan uni har xil alomatlar bilan yanada kengroq qamrab olish, bir tomondan shaxsni turkumlash va uning tipologiyasini aniqlash, ikkinchi tomondan esa - kriminologik tadqiqotlarning bilish va gnoseologik funksiyalarini mumkin qadar chuqurlashtirish imkonini beradi.

Bu qonuniyatni erkaklar va ayollarning kriminal xulq-atvorida mavjud shaxsiy tafovutlarni oʻrganish misolida koʻrib chiqamiz.

Biz ayollarning agressiv xulq-atvorini insonning evolutsiyasi jarayonida shakllangan bioijtimoiy xususiyati hisoblanuvchi nisbatan murakkab boʻlgan agressivlik fenomeni doirasida koʻrib chiqish kerakligi[1] toʻgʻrisidagi olimlarning fikriga qoʻshilamiz. Shu munosabat bilan agressivlikni biologik obyekt, jumladan, insonga ham xos boʻlgan doimiy xususiyat sifatida, agressiyani esa - muayyan sharoitlarda sodir etiladigan harakatlar sifatida farqlash lozimligini qayd etish kerak.

Agressivlik fenomenini oʻrgangan olimlar tomonidan mazkur hodisaning mohiyati va kelib chiqishini tushuntiruvchi nazariyalar ishlab chiqilgan. E.Fromm[2] - agressivlik hodisasining kelib chiqishi ijtimoiy ekanligi toʻgʻrisidagi nazariyaning tarafdori boʻlsa, Lorens[3] agressiyani biologik, instinktiv hodisa sifatida tushunish kerakligini uqtiradi.

Shuni qayd etish lozimki, hozirga qadar ham erkaklar va ayollar agressiyasining farqlariga bagʻishlangan maxsus tadqiqotlar kriminologiyada ham, psixiatriyada ham olib borilgan emas, faqat bu borada empirik tajriba asosidagi ayrim qaydlargina mavjud. Bunda olimlar oiladagi shafqatsizlik muammosini muhokama qilib, erkaklarda agressiya tashqariga, ayollarda esa koʻproq ichkariga, oʻziga qaratilishini, erkaklarda instrumental agressiya, ayollarda esa - verbal agressiya koʻproq kuzatilishini qayd etadilar[4].

Adabiyotlardagi ma'lumotlarning tahlili, shuningdek, Moskva shahridagi V.P.Serbskiy nomidagi Ijtimoiy va sud psixiatriyasi Davlat

---

[1] Франк В. Человек в поисках смысла. - М., 1990. С. 368.

[2] Фромм Э.Анагомия человеческой деструктивности. М., 1994. С. 447.

[3] Лоренц К. Агрессия (так называемое Зло).//Вопросы философии. - 1992. №3. С.19.

[4] М.А Качаева, Д.М. Давидов. Влияние соотношения биологических и социальных факторов на формирование типов н механизмов агрессивных действий женщин с психическими расстройствами. Государственный научный центр социальной и судебной психиатрии им. В.П. Сербского. Москва, 2000. www/ rusmedserv.com/psyhsex//Русский медицинский сервер.Юганическая психиатрия. -С. 2.

ilmiy markazida o‘tkazilgan qator maxsus tadqiqotlarning natijalari, ayniqsa, ruhiy kasalliklarga chalingan ayollarning agressiv xulq-atvori muammosi juda murakkab va serqirra ekanligini ko‘rsatadi. Bu muammoning bir nechta: klinik, ijtimoiy, yuridik, sud-psixiatriyaga oid jihatlari mavjud bo‘lib, ularning har biri chuqur tadqiqotlar olib borilishini talab etadi. Mutaxassis-psixiatrlar tomonidan o‘tkazilgan tizimli tahlil natijasida ruhiy patologiyaning turlari, ayollarda agressiv xatti-harakatlar va mexanizmlarining shakllanishida turli ijtimoiy va biologik omillar ishtirok etishi aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqotlar jarayonida faqat mustaqil tipologik guruhni tashkil etuvchi ruhiy kasal shaxslar emas, balki ruhiy xastalik darajasi kuchsiz namoyon bo‘lgan ijtimoiy hayotda normal ishtirok etayotgan jinoyatchi ayollar ham o‘rganildi. Ularning o‘rtasidagi oraliq pozitsiyalar ham sud-psixiatrik tipologiyani tuzish nuqtai nazaridan tegishli ijtimoiy deviatsiya darajasiga ega bo‘lgan tiplar bilan to‘ldirildi.

Shunday qilib, ayollarning agressiv kriminal xulq-atvorini belgilaydigan, «sindrom - shaxs - vaziyat» uchligining o‘lchamlari o‘zining ifodasini topgan muayyan klinik-ijtimoiy komplekslar aniqlandi. Bu klinik-ijtimoiy komplekslardan ayollar tomonidan sodir etiluvchi agressiv harakatlarni prognoz qilish uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, ular o‘rganilgan ayollar kontingenti tomonidan sodir etiladigan agressiv harakatlarni profilaktika qilishga qaratilgan tibbiy va ijtimoiy yo‘sindagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga kompleks yondashuv uchun xizmat qilishi mumkin[1].

Klinik, ijtimoiy, shaxsiy va vaziyat bilan bog‘liq omillarning o‘zaro turlicha ta’sirini o‘z ichiga oluvchi ko‘p omilli tizimlarning tahlili asosida o‘tkazilgan ayollarning agressiv kriminal xulq-atvorining tipologiyasi ular tomonidan sodir etiladigan agressiv xatti-harakatlar vnenozologik (ya’ni tibbiy patologiya chegarasidan chiqadigan) mexanizmlarga ega ekanligini ko‘rsatadi va ularni sifat jihatidan boshqa darajada ko‘rib chiqish imkonini beradi[2].

Mazkur tadqiqotlar natijasida ruhiy patologiya turlarining shakllanishini belgilovchi omilli tafovutlar ham, o‘rganilayotgan

---

[1] Кондратьев Ф.В. Системно-структурный подход как когнитивный база судебно-психиатрического исследования. ВИП Всесоюзный съезд неврапотологов, психиатров и наркологов. М., 1988. Т. 3. С. 349-353. Кондратьев Ф.В. Системно-структурный анализ расстройств поведения как метод диагностики в психиатрии // Вопросы диагностики в судебно-психиатирической практики. М., 1990; Кондратьев Ф.В., Осколова С.Н. Обоснование методов проведения СПЕ и клинических критериев невменяемости, и ограниченной вменяемости в современных условиях / Назначение н поведение судебно-психиатрической экспертихы . Пособие для врачей. М., 1997. С. 36-52.

[2] Барденштейн Л.М.Клиника, дифференциално-диагностические и прогностические критерии, лечебно-восстановительные мероприатия при психипатологических нарушениях у подростков женского пола Автореф.дисс.докт.мед.наук. М., 1991. С. 46. Дмитриева Т.Б., Иммерман К.Л., Качаева М.А., Ромасенко Л.В. Криминальная агрессия женщин с психическими расстройствами. М.: ред.-изд Отдел ГНС им. В.П. Сербского. 1998. С. 272.

ayollarning barchasiga xos bo‘lgan rasmiy xususiyatga ega bo‘lgan qator o‘xshashliklar mavjudligi ham aniqlandi.

Tadqiq qilinayotgan ayollarning barcha tipologik guruhlariga xos bo‘lgan mazkur o‘xshashliklar biz o‘rganayotgan ayollar agressiyasi-ning tabiati masalasini yoritish nuqtai nazaridan o‘ta muhim krimi-nologik ahamiyatga egadir. Masalan, jinoiy tajovuz obyektlarining deyarli barchasi jinoyatchi ayollarning yaqinlari yo qarindosh-urug‘lari, aksar holatlarda erlari, o‘ynashlari, qaynonalari, boshqa qarindoshlari va kamdan-kam holatda farzandlari bo‘lishgan. Tajovuzkorlik xatti-harakatlari odatda beqaror va har xil ijtimoiy anomaliyalar tufayli murakkablashgan maishiy muhitda sodir bo‘lgan. Bunda bolalarga qarshi qaratilgan agressiv xatti-harakatlarni sodir etgan jinoyatchi ayollarning ko‘pchiligi ruhiy xasta bo‘lgan. Biroq, o‘rganilgan ayollar orasida jinsiy ehtiyojni qondirish maqsadida surunkali agressiv harakatlarni sodir etish holatlari qayd etilmagan.

Yuqorida keltirilgan barcha dalillar, shuningdek, shaxsiy kuza-tishlarimiz natijalari, mazkur tadqiqotning empirik negizini tashkil etgan jinoyat ishlari, sud-psixiatriya tadqiqotlari materiallarini o‘rganish erkaklar va ayollarning agressiv kriminal (ayniqsa, seksual xususiyatidagi) xatti-harakatlarida mavjud bo‘lgan farqlarni mukammal tushuntirishga, afsuski, hozircha muvaffaq bo‘lingani yo‘q, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Qayd etilgan qonuniyat rad etib bo‘lmaydigan fakt bo‘lib qolayotir. Bunda ayollar jinoyatchiligiga oid maxsus kriminologik tadqiqotlarda mazkur muammoga birinchi marta urg‘u berilayotganini hisobga olish lozim.

Xullas, jinoyatchi ayollarning shaxsini uslubiy o‘rganishga oid misollarni keltirar ekanmiz, biz, eng avvalo, mazkur jarayonda har xil tipologik mezonlarni hisobga olish zarurligiga e’tiborni qaratmoqchimiz. Bizningcha, bu yondashuvni tadqiqot predmetiga yaqinlashtirishda jinoyatchi shaxsini o‘rganishda o‘zaro yaqin bo‘lgan fan sohalari tomonidan taklif qilingan qator tiplarga ajratishning umumiy, mos keluvchi mezonlaridan bo‘lib, motivatsiyaga asoslangan tipologiya xizmat qilishi mumkin.

## 4.2. Ayollar jinoyatchiligi va ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning viktimologik jihatlari

XVII asrdan boshlab kriminologiya odamlarning jinoiy xulq-atvori, XIX asrning oxirlaridan esa - jinoyatchi shaxsi muammolari bilan

shug‘ullanib keladi. Jinoyatdan jabr ko‘rganlar esa faqat Ikkinchi jahon urushidan keyin kriminologik tadqiqotlarning obyektiga aylandi.

Shaxsning jinoiy xulq-atvorini chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak, viktimizatsiya va kriminalizatsiya ba’zan bir xil manbaga - bir xil ijtimoiy shart-sharoitlarga ega ekanligini ko‘ramiz. Biroq, jinoyat sodir etilganidan so‘ng, jamiyatning butun e’tibori jinoyatchiga qaratiladi. Ko‘pincha jabrlanuvchiga nisbatan jamiyat a’zolari ba’zan juda g‘alati munosabatda bo‘ladilar, ya’ni uni qoralaydilar. Odamning ongida, xuddi jabrlanuvchining ongida bo‘lgani singari, stigmatizatsiya – o‘zining ijtimoiy mavqeini jabrlanuvchining xulq-atvor stereotipiga o‘xshatish jarayoni ro‘y beradi. Biz ushbu ijtimoiy stigmatizatsiya (qoralash) jarayonida faqat jinoiy retsidivning emas, balki takroriy viktimizatsiyaning ham asoslari mavjud deb hisoblaymiz. O‘rganilayotgan muammoga xos bo‘lgan mazkur qonuniyatdan kelib chiqib, viktimologiya haqida uning ikki tarkibiy qismini e’tiborga olgan holda gapirish lozim bo‘ladi. Birinchisi – bu subyekti ayollar bo‘lgan jinoyatlardan jabr ko‘rganlar xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar bo‘lsa, ikkinchisi - jabrlanuvchisi ayollar hisoblanuvchi, ya’ni ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning turi va xususiyatidan kelib chiqqan holda, jinoyat obyekti ularning sog‘lig‘i, hayoti, mulkiy va boshqa manfaatlari sifatida ishtirok etadigan javob reaksiyaga sababchi xulq-atvor darajasi va xususiyatini baholash nuqtai nazaridan turib o‘rganish va tavsiflashdir.

Viktimologiyaga oid ma’lumotlariga ko‘ra, jabr ko‘rish (yoki jinoyat protsessual ma’noda jabrlanuvchi bo‘lish) ehtimolining katta yo kichikligi shunchaki shaxsiy sifatlar bilan emas, eng avvalo, ularning jinoyatni vujudga keltiradigan kriminologik vaziyat va viktimogen holatning tashqi omillari bilan muayyan o‘zaro ta’sirida bilan belgilanadi[1].

Aholining jinoyatchilikdan qo‘rqishi omilini hisobga olish viktimologik tadqiqotlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Kriminologlar uning darajasini jamoatchilik fikrini o‘rganish-ning sotsiologik usullari (so‘rov o‘tkazish, intervyu olish, anketa so‘rovlari o‘tkazish)dan foydalanish bilan aniqlashga harakat qiladilar. Bunday tadqiqotlarda respondentlarning «umumiy» jinoyatchilikni baholashini nazarda tutish kerak, zotan, iqtisodiyot sohasidagi, «oq yoqalilar» jinoyatchiligi shaxsning ongida umuman jinoyatchilik tushunchasi bilan kamdan-kam bog‘lanadi. Bu ma’noda ayollarda bunday sezgi, ayniqsa, kuchlidir. Mazkur sohada o‘tkazilgan shunday tadqiqotlarning natijalari bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, Germaniyada ayollarning 66,7% tunda o‘zini

---

[1] Ривман Д.В. Потерпевший от преступления: личность, поведение, оценка. Л., 1973. –с. 29.

xotirjam va dadil his qiladi, hech qanday jinoiy tajovuzlardan qoʻrqmaydi. Erkaklarda bu koʻrsatkich taxminan 87,6% ni tashkil etadi[1].

Jabrlanuvchilarning shaxsini tavsiflaydigan maʼlumotlarga ega boʻlgan holda, viktimologik tavsifni shu tarzda chuqurlashtirish va viktimlik koeffitsientini har xil mezonlar boʻyicha: Oʻzbekiston fuqarolarining har xil toifalari, chet ellik fuqarolar va fuqarolikka ega boʻlmagan shaxslarga nisbatan; jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilgan jinoyatning turidan kelib chiqib; alohida mintaqalarga tatbiq etish va boshqa mezonlar boʻyicha hisoblab chiqish mumkin boʻladi. Bunda mazkur mezonlarni uygʻunlashtirish prinsipidan ham foydalanish mumkin. U qoʻyilgan vazifani aniqlash, masalan, Toshkent shahrida maʼlum davr mobaynida sodir etilgan oʻgʻirliklarda ayollarning viktimlik koeffitsientini aniqlash imkonini beradi.

Oʻzbekistonda jinoyatlarning jabrlanuvchilari haqidagi maʼlumotlar shartli ravishda, taxminiy tahlildan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Roʻyxatga olingan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarning umumiy soni, yetkazilgan zarar miqdori va boshqa shunga oʻxshash maʼlumotlar eʼlon qilinsa, umumiy manzarani toʻliq boʻlmasa-da, uni har qalay tasavvur qilish mumkin. Faktlar miqdori, yaʼni ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar sonini aniqlab borishga harakat qilingan taqdirda ham bu manzara toʻliq boʻlmaydi. Oʻzbekistonda hozir aynan shunday qilinmoqda. Foydalanilayotgan hisoblash sxemasi juda oddiy. Qoida tarzida maʼlum davrda respublikada yoki viloyatlarda roʻyxatga olingan barcha nomusga tegish jinoyatlari eʼtiborga olinadi va bunga asoslanib ayollarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik muammosining umumiy ahvoli haqida xulosa chiqariladi. Soʻngra, mazkur jinoyat turining (maʼlumki, u mavsumiy xususiyatga ham ega) miqdor koʻrsatkichlaridagi tabiiy oʻzgaruvchanlikdan kelib chiqib, bu borada goʻyoki qoʻlga kiritilgan ijobiy natijalar va statistik tendensiyalar haqida shoshib-pishib xulosa chiqariladi. Monografiya muallifi eng yuqori idoralarda ham ilgari suriladigan bunday yuzaki yondashuvga mutlaqo qarshidir. Tabiiyki, yuqorida zikr etilgan holatda jinoyatlardan jabr koʻrganlarning real soni sodir etilgan jinoyatlar sonidan ancha koʻp boʻladi. Vaholanki, mamlakat, viloyat, shahar yoki tuman miqyosida jinoyatlarning jabrlanuvchilariga nisbatan profilaktika choralarini tashkil etish uchun jinoyatchilik oqibatlarining miqdor va sifat koʻrsatkichlarining aniqligi juda muhimdir.

Masalan, qasddan sodir etilgan zoʻravonlik jinoyatlari haqida gapiradigan boʻlsak, mazkur tadqiqotimizga asoslanib aytish mumkinki,

---

[1] Кури Х. Исследование проблем виктимизации в Германии. Криминологические исследования в мире. М., 1995. –С. –87.

qasddan va ehtiyotsizlik oqibatida odam o‘ldirish, badanga har xil og‘irlikda shikast yetkazilgan hollarda ayollar ancha kam jabr ko‘ragan, shu bilan bir vaqtda, jamoat joylarida sodir etilgan talonchilik, o‘g‘rilik va kissavurlikda ayollarning viktimlik darajasi erkaklardan «yuqori»dir. Aftidan, bu jinoyatlar sodir etiladigan joydagi vaziyatning o‘zi jinoyatchi tomonidan jabrlanuvchi-ning potensial xulq-atvorini (masalan, jismoniy qarshilik ko‘rsatishini) hisobga olishni nazarda tutadi va faollik darajasi past bo‘lgan jabrlanuvchining tanlanishini belgilab beradi.

Shunday qilib, jinoyatning jabrlanuvchisiga nisbatan munosabat hozirgi zamon kriminologiyasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. O‘n yillar mobaynida hukm surgan mafkura va uning ta’siri ostida shakllangan fuqarolarimizning o‘ziga xos mentaliteti, eng avvalo, aybdorlarni aniqlash va jazolash zarurligiga asoslangan edi. Jazoning muqarrarligi haqidagi jinoyat huquqiy prinsip jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash, ularga moddiy yordam ko‘rsatish prinsiplarini chetga surib qo‘ygandi. Sobiq itifoq davrida jamoat va davlat mulkining ustuvorligi shaxsiy manfaatlardan har doim, hatto gap kishining hayoti va sog‘lig‘iga qarshi tajovuzlar haqida ketgan hollarda ham, ustun qo‘yilardi. Davlat jabrlanuvchilarning o‘z haq-huquqlarini tiklash yo‘lidagi sa’y-harakatlarini (ayniqsa, gap jismoniy shaxslarning manfaatlari haqida ketganida) bir chekkada kuzatib turar edi. Darvoqe, aynan aybdorning o‘zi yetkazgan zararni qoplash yuzasidan olgan majburiyati va bu majburiyatning bevosita, izchil bajarilishi katta tarbiyaviy va profilaktik salohiyatga ega. Totalitarizm hamda jamiyat va iqtisodni boshqarishning ma’muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitlarida bu masalalarga panja orasidan qarab kelindi. Aybdor deb topilgan va jazoga hukm etilgan odam dastlab va, eng avvalo davlatga majburiy tartibda ishlab berishi – kanallar va yo‘llar qurilishi, xalq xo‘jaligi rejalarini bajarishi va so‘nggi navbatda, agar shundan ortsa, yetkazilgan zararni qoplashi lozim edi.

So‘nggi vaqtlarda keng tus olib borayotgan jinoyat tufayli yetka-zilgan zararni qoplash zarurati haqidagi ilmiy munozara jabrlanuvchilar viktimligini pasaytirishga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, shartli jazoni qo‘llash yoki jazoni o‘tashdan muddatidan avval shartli ravishda ozod qilish ama-liyoti faqat jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar jinoyatchi tomonidan butunlay (hech bo‘lmasa qisman) qoplangan taqdirdagina ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu borada jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan JK ga $66^1$-moddaning kiritilganligi maqsadga muvofiq bo‘ldi, bunda qonun chiqaruvchi organ tomonidan “jinoyatdan jabr ko‘rganlar, zararni qoplash (xun to‘lash) va ularning

jinoyatdagi o‘rni muammosi Yaqin Sharq, O‘rta Osiyo va, ayniqsa, O‘zbekiston xalqlarining tarixiy huquqiy yodgorliklari hamda feodal tuzumi sud organlarining qarorlarida muhim o‘rin tutgani”ni[1] e’tiborga olinmagan.

## 4.3. Professional jinoyatchi ayollar shaxsining tipologiyasi

Huquqni muhofaza qilish organlarining shaxs darajasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan faoliyati jinoyatchi shaxsi tipologiyasining ishlab chiqilishiga bog‘liqdir. Mazkur tipologiya individual xulq-atvorni prognoz qilish hamda differensiatsiya qilingan va individuallashtirilgan profilaktika va huquqiy ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash usulining negizini tashkil etadi[2].

K.E.Igoshev qayd etib o‘tganidek, «aynan shaxsni tiplarga ajratish orqali shaxsning o‘ziga xos modeli yaratiladi. Shaxsning mazkur modelga mos kelishini aniqlash uning muayyan shaxs tipiga mansubligidan dalolat berishi kerak»[3].

Jinoyatchining shaxsiga doir kriminologik tadqiqotlarda so‘nggi vaqtlarda deviant xulq-atvorga turtki beruvchi ma’lum sabablarni tavsiflashga ko‘proq urg‘u berilmoqda[4]. Shu bilan birga, biz mahkuma ayollar shaxsining tipologiyasi boshqacha bo‘lishi, ya’ni boshqa belgi va mezonlarga ko‘ra, masalan, jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega ijtimoiy-psixologik va jinoiy faoliyatda ishtirokchilik belgilariga, jinoiy tajovuz obyektiga ko‘ra tuzilgan bo‘lishi mumkin[5], degan fikrga to‘liq qo‘shilamiz.

A.B.Saharov jinoyatchilarni turkumlash uchun shaxsning ijtimoiy xavflilik, ma’naviy tubanlik va tarbiyasizlik darajasini aniqlash muhim, deb hisoblaydi[6]. Bu yerda shaxsning xususiyatlari va uning tomonidan sodir etilgan qilmish uyg‘unlikda asos qilib olinadi. Bunday qarashni N.S.Leykina[7], Y.M.Antonyan, V.P.Golubev, Y.N.Kudryakov[8] ham ma’qullagan.

---

[1]Каиржанов Э.И. Кўрсатилган асар. 113.б.
[2] Криминология. Санкт-Петербург: Лань, 1998.-С.135.
[3] Игошев К.Э. Типология личности преступника и мотивация преступного поведения. Горький. 1974.-С.55.
[4] Пахомов В.Д., Корзун И.В. Особенности профилактики женской преступности органами внутренних дел // Современная преступность: новые исследования. - М., 1993. - С. 108-109.
[5] Миненок М.Г. Личность расхитителя. Криминологическая характеристика и типология. Калининград. 1980; Выппевский Ю.В. Крмимнологическая характеристика личности вора. Омск. 1973; Меликишвили Л.А. роль личностного фактора в преступном поведении женщин. Тбилиси. 1993; Зирянов В.Н. Групповая преступность женщин и ее предупреждение органами внутренних дел. Горький, 1988 и др.
[6] Сахаров А.Б. О личности преступника и причинах преступности в СССР. М., Госюриздат, 1961.-С. 163-168.
[7] Лейкина Н.С. Личность преступника и уголовная ответственность. - Л.: ЛГУ, 1968.-С. 9-24.
[8] Антонян Ю.М., Голубев В.П., Кудряков Ю.Н. Личность корыстного преступника. Томск: ТГУ, 1989.-С. 69-73.

Ilmiy adabiyotlarda «tipologiya» atamasi shaxslar yig‘indisini tegishli tartibda turkumlarga ajratilishining mazmun xususiyati bilishning ma’lum darajasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi qayd etiladi[1]. Jumladan, olib borilgan kriminologik tadqiqotlarning mualliflari bir emas, bir nechta belgidan foydalanib, mazkur belgilar orasida majburiy tartibda qilmishning va sababning belgilari aniq bo‘lgan taqdirda tipologiya maqsadlariga erishilishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surganlar. Bunda bir tip doirasida qilmish va sababning belgilar o‘xshash bo‘lishi, ular kriminologiyada qayd etilgan ma’lum dinamik qonuniyatlarni va determinatsiya yo‘nalishlarni aks ettirishi kerak. Kriminologiyaga oid adabiyotlarda tavsiflangan turli hayotiy faoliyat sohalarining o‘zaro dialektik aloqasini, yaqin va uzoq kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni, voqea-hodisalarning turg‘un va o‘zaro aloqadorligini e’tiborga olish lozim[2].

Biz V.A.Kazakovaning sodir etilgan jinoyatning xususiyati va holatlari barcha kriminologik omillar bilan birgalikda shaxsning jinoiy xulq-atvori mexanizmini, uning jinoiy moyilliklarini, jinoyat sodir etishda faollik darajasini, yuzaga kelgan hayotiy vaziyatlarning mazkur shaxsga ta’siri darajasini aniqlash imkonini beradi[3], degan fikriga qo‘shilamiz. Jinoyatchilar, jumladan, jinoyatchi ayollarni turkumlash va tiplarga ajratishda mazkur mezonlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Jinoyatchi ayollarni tiplarga ajratib, o‘rganishning amaliy ahamiyati shundaki, u mazkur tipga mansub shaxs xulq-atvorining yuzaga kelishi va rivojlanishi sabablari, qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi[4].

Jinoyat sodir etgan shaxslarga umumiy ta’rif berish va ularni statistik darajada o‘rganish shaxslarning ma’lum turkumlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish va jinoyatchilikning oldini olish uchun tegishli choralar ko‘rish imkonini beradi. Jinoyatchilar shaxsining umumiy tipologiyasini ishlab chiqishda biz psixologiyada shakllangan quyidagi talablardan kelib chiqdik:

1.Tipologiya muayyan ijtimoiy shart-sharoitlardan uzilib qolmasligi kerak.

2.Tipologiya shaxslarni bir turkumga birlashtiruvchi muhim fe’l-atvor xususiyatlarini ochib berishi lozim.

---

[1] Типолоия и классификация в социологических исследованиях. М., 1982.-С.24.

[2] Долгова А.И. Криминологические проблемы отдельных видов преступности и проблемы борьбы с ними. М., 1989. –С. 6.

[3] Казакова В.А. Назначение и исполнение наказания в отношении женщин, осужденных к исправительным работам. Дисс. на соиск. уч. степ. канд. юр. наук. М., 1984. –С. 29.

[4] Личность преступника. М.: Юридическая литература, 1975. –С. 49.

3.Tipologiya hayotiy materialga asoslanishi va alohida muayyan vaziyatlarga xos bo‘lgan holatlarni tushuntirish uchun xizmat qilishi kerak[1].

Kriminologiyada jinoyatchi ayollar shaxsini tipologik tavsiflashga urinishlar ilgari ham bo‘lgan, ammo ayollar jinoiy xulq-atvorining professional ko‘rinishlariga tatbiqan bunday tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Biz o‘tkazgan tadqiqot professional jinoyatchi ayollarning mavjud tiplarini empirik aniqlash imkonini berdiki, ular, bizning nazarimizda, ayollar tomonidan sodir etilgan qilmishlarning xususiyatiga ko‘proq darajada javob beradi.

Biz ajratgan shaxs tiplarining birinchisi - bu «past malakali» shaxsdir. Bular ma’naviy, ruhiy, psixologik va fiziologik jihatdan buzilgan odamlar, ijtimoiy nuqtai nazardan ma’lum darajada tubanlashgan shaxslardir. Ular, odatda, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qiladi, jinoyatlar sodir etish bilan bir qatorda tasodifan uchragan ishlarni bajarib, kun kechiradi, ba’zan doimiy turar joyga ega bo‘lmasdan daydilik qiladi. Bunday shaxslar asosan o‘zganing mulkini oz miqdorda takroran o‘g‘irlash jinoyatlarini sodir etadi. Jumladan, ular odamlar ko‘p yig‘iladigan joylarda (aeroportlar, vokzallar, maktablar, bolalar bog‘chalari, qariyalar uylari va hokazolarda) qarovsiz qolgan buyumlarni o‘g‘irlaydi. Bunday shaxslar uchun jinoiy faoliyat asosiy tirikchilik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu ayollarning ko‘pchiligi oilasiz, doimiy turar joyga ega emas, tamagirlik jinoyatlari uchun takroran sudlangan[2], daydilik uchun ushlangan, onalik huquqidan mahrum etilgan[3] shaxslardir. Biz o‘rgangan bunday shaxslarning ko‘pchiligini 46-55 yoshdagilar tashkil etgan. Ularning o‘rtacha ma’lumot darajasi o‘rta. Mazkur professional jinoyatchi ayollarni biz jinoiy an’ana va udumlarning «passiv» tashuvchilari jumlasiga kiritdik, zotan, ular, o‘z shaxsiy sifatlariga ko‘ra, ma’lum tashkilotchilik faoliya-tiga qodir emas, ularning jinoiy «ixtisosligi»ga hatto jinoyatchilar muhitida ham past nazar bilan qaraladi. Bunday ayollarni faqat shartli ravishda professional jinoyatchilar deb atash mumkin, chunki ularning ko‘pchiligi o‘zining jinoiy-professional malakasini yo‘qotib boradi. O‘z jinoiy qilmishlarini ular ko‘pgina hollarda puxta tayyorgarlik ko‘rmasdan, oqibatlarini o‘ylamasdan sodir etadi[4]. Odatda, shaxsning yashash sharoitlari va ma’lum turmush tarzi, shaxsning

---

[1] Лейитов Н.Д. Психология характера. М., 1969. С. 300-301.

[2] Серебрякова В.А., Зирянов В.Н., Корыстные преступления, совершаемые женщинами. -М., 1990. 19.с.

[3] Кириллова И.А., Лыгсагин О.Б. Характеритика женщин, отбывающих наказание в ИТК. -М, 1981. 87.с.

[4] Меликишвили Л.А. Типологические модели личности женщин-преступниц. Современная prestupnost`. - М., 1993. - S. 136-142.

ichkilikka berilishi, giyohvandlik vositalari iste'mol qilishi, tartibsiz jinsiy hayot kechirishi oqibatlari jinoyat sodir etilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu shu jumladan, har xil ruhiy xastaliklar va somatik xususiyatga ega bo'lgan surunkali kasalliklarga chalingan shaxslarda ham o'z ifodasini topadi. Bir necha marta sudlanganligi va ozodlikdan mahrum qilish joylarida uzoq vaqt bo'lganligi natijasida mazkur tipga mansub bo'lgan ayollar o'zlarining ko'pgina ijtimoiy foydali ko'nikmalari va aloqalarini yo'qotadilar. Mohiyat e'tibori bilan, ular ayollarga xos bo'lgan ko'pgina jihatlari va xususiyatlarini yo'qotadi, ya'ni ular o'z farzandlarini (agar ular bo'lsa) tarbiyalash funksiyalarini bajarishga qodir bo'lmay qoladi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida aynan shunday ayollar gomoseksual aloqalarda faol ishtirok etishi, bunda ular erkaklar rolini bajarishi ham tasodifiy emas. Ularni biz professional jinoyatchi ayollar toifasiga shuning uchun ham kiritdikki, bu ayollar jinoyatchilar va o'g'rilar muhitini, ularning an'ana va udumlarini juda yaxshi biladi. Garchi ular professional jinoyatchilar ierarxiyasida eng past pog'onani egallagan bo'lsa-da, mazkur tadqiqot ular tamagirlik yo'nalishidagi jinoyatlar sodir etish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asos hayotiy qarashlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Ko'rib chiqilgan shaxs tipiga quyidagi holat juda yaxshi misol bo'ladi. Mahkuma V., 1963-yilda Samarqand viloyatida tug'ilgan, mazkur viloyatda yashaydigan ota-onasi bilan deyarli aloqa qilmaydi. Ma'lumoti - o'rta. Vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lgan ishlar bilan shug'ullangan, mardikorlik qilgan. Oilasiz, bolalari yo'q. Muqaddam uch marta: bir marta bezorilik uchun va ikki marta - o'g'rilik uchun sudlangan. Ozodikdan mahrum qilish joylarida jami yetti yil o'tirgan. So'nggi marta ayollar sumkasini o'g'irlagani uchun jazoga hukm etilgan. Oziq-ovqat va kiyim-kechak sotib olish uchun pulga muhtoj bo'lgani tufayli u jinoyatga qo'l urgan. Doimiy turar joyi bo'lmagan. Jinoyat sodir etgunga qadar u muqaddam sudlangan tanish ayolning uyida yashagan. Tergov hibsxonasida saqlangan paytda gomoseksual jinsiy aloqa qilgan. Kamerada u bilan birga saqlangan ayollar orasida qamoqxona an'analari va udumlarini bilishi, shuningdek, jismonan baquvvatligi, zo'rlik ishlatishi va shafqatsizligi bilan ma'lum "obro"ga ega bo'lgan. Ish bo'yicha o'tkazilgan narkologik ekspertiza mazkur ayolning spirtli ichimliklarni suiste'mol qilishini aniqlagan, ammo surunkali alkogolizm belgilarini topmagan.

Professional jinoyatchi ayollarning ikkinchi tipini biz shartli ravishda «g'araz maqsadli zo'ravon» tip deb nomladik. Bular, odatda, yosh professional jinoyatchi ayollar, alohida hollarda esa hatto voyaga

yetmagan shaxslardir[1]. Ma’lumotlarimizga qaraganda, bunday ayollarning 45% ga yaqini bir necha marta jinoyat sodir etganiga qaramay, muqaddam sudlanmagan. Mazkur shaxs tipining yosh chegaralari 17-35 yosh. O‘ziga xos xususiyatlari: jinsiy hayoti tartibsiz, ma’lumoti (to‘liq o‘rta) va kasbiy malakasi pastligiga qaramay, moddiy ehtiyojlari ancha baland. Ular, odatda, erkaklarning guruhlari tarkibida g‘araz maqsadlarda-zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etadi, mazkur guruhlarda ba’zan yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Mazkur tipga mansub ayollar orasida fohishalar ko‘p bo‘lib[2], ular jinoiy faoliyatda yordamchi, dalolatchi yoki tashkilotchi vazifasini bajaradi[3]. Jinoyatchi ayollarning mazkur tipiga giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish xosdir. Bu tipga mansub ayollar avvalgilariga qaraganda tubanlashgan, ularning xulq-atvorida shafqatsizlik va prinsipsizlik, ayniqsa, ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida ular mahkumlarning eng salbiy kayfiyatdagi qismini tashkil etadi. Ularning emotsional-psixologik holati intellektual-irodaviy nazoratning zaifligi natijasida impulsiv ravishda tug‘iladigan agressiv da’vatlarni bevosita ro‘yobga chiqarishga moyillik bilan uyg‘unlikda ichki qarama-qarshiligi darajasining kattaligi bilan ta’riflanadi.

Navbatdagi tip - odatda bir o‘zi yoki erkak bilan (kamdan-kam hollarda - ayol bilan) ishtirokchilikda jinoyat sodir etadigan yuqori darajada professional o‘g‘ri va firibgar ayollar. Bunday shaxslar jinoyatlarga puxta tayyorgarlik ko‘radi, jabrlanuvchilarning xatti-harakatlari, jinoyat izlarini yashirish va hokazolarning mumkin bo‘lgan barcha variantlari nazarda tutiladi, jinoyat sodir etish uchun qulay joy, shuningdek, jinoyat quroli va vositalari tanlab olinadi. Bunday tipdagi ayollarning yoshi 27-50 yosh doirasidadir. Yosh ayollar ko‘pincha jinoyatni ishtirokchilikda sodir etadi. Bunday ayollarning oilasi odatda buzilgan yoki faqat rasman saqlanib qolgan bo‘ladi. Shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlar: turli favqulodda vaziyatlarga psixologik moslashuvchanlik layoqatining kattaligi, o‘g‘rilik va firibgarlikka ixtisoslashganlik, o‘rta yoki o‘rta maxsus ma’lumotga, ma’lum hayot tajribasiga egaligi bilan izohlanuvchi intellektual saviyaning nisbatan balandligi. Bunday ayollar orasida maxsus retsidivning salmog‘i ancha kattadir. Bunday jinoyatlar retsidivida zo‘ravonlik jinoyatlari deyarli bo‘lmaydi. Jinoyat sodir etish uchun «gastrol»ga chiqish, har xil o‘g‘rilik qilishga mo‘ljallangan

---

[1] Мартиросова М.М. Преступность несовершеннолетних женского пола, ее принципы и организация предупреждения ОВД // Автореф. дисс. канд. юрид. наук. - М., 1992. 20.с.

[2] Проституция и преступность. Проблемы дискусси, предложения // Сборник научных трудов под общ. редакций Шмарова И.В. - М., 1992. С. 19-25; Габиани А.А., Меликишвили Л.А. Социальное лицо преступниц и проституток. - Тбилиси: Содно, 1993. -123. с.

[3] Абдусаломов М., Каракетов Ю. Ответственность за вымогательство. Т.: Адолат, 1997. –С.164

moslamalardan, soxta hujjatlar, pul kupyuralari va hokazolardan foydalanish holatlari keng tarqalgan.

Biz qayd etgan professional jinoyatchi ayollarning to‘rtinchi tipini jinoyatchilar orasida «o‘g‘rilar onasi» deb atash qabul qilingan bo‘lib, bu jinoyat olamida mazkur toifaga mansub ayollarning tutgan o‘rnini yorqin ifoda etadi[1]. Bular fohishaxonalar va giyohvandlik vositalari iste’mol qiluvchilar uchun bangixonalarning saqlovchilari, qo‘shmachilar, o‘g‘rilik mollar va giyohvandlik vositalari sotib oluvchilar va sotuvchilaridir[2]. Bu toifaga mansub jinoyatchilarni boshqa professional jinoyatchi ayollarga qaraganda qo‘lga olish anchagina qiyin hisoblanadi. Ularning g‘ayriijtimoiy qarashlari va hayotga munosabati turg‘un. Jinoyat olami vakillari bilan ular har tomonlama, shu jumladan, mintaqalararo aloqalarga ega. Bunday ayollar jinoiy an’ana va udumlarning faol tarqatuvchilari bo‘lib, yoshlar va voyaga yetmaganlarni g‘ayriqonuniy faoliyatga jalb etadi. Ularning ko‘pchiligi, odatda, oilasiz bo‘lib, muvaffaqiyatsiz oilaviy hayotning muqobili sifatida mana shunday jinoiy faoliyatni tanlagan[3]. Bunday ayollar kirishimli, irodali va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘ladi. Mazkur tipga mansub ayollarning yoshi ko‘pgina hollarda 40-55 yosh doirasida.

«Oq yoqalilar» deb nomlanuvchi professional jinoyatchi ayollar biz qayd etgan jinoyatchi ayol shaxsi tiplarining eng oxirgisidir. Bu yerda turli moddiy ishlab chiqarish sohalarida, kredit-moliya va bank tizimlarida, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘zganing mulkini talon-taroj qilish, mansab va xo‘jalik jinoyatlarini sodir etishni kasbga aylantirgan jinoyatchi ayollar nazarda tutiladi. Ular ijtimoiy nuqtai nazardan ancha yaxshi hayot kechiradi (oilali, farzandlari bor), boshqa tip vakillariga qaraganda ma’lumot darajasi ancha yuqori va yaxshi ta’minlangan, ammo, shu bilan birga, o‘z jinoiy faoliyati natijasida ular jamiyatga eng ko‘p miqdorda moddiy zarar yetkazadilar. Ular ko‘pincha uyushgan jinoiy guruhlarning vakillari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi yoki bunday guruhlarda faol ishtirok etadi. Professional jinoiy faoliyat xizmat, ishlab chiqarish va mansab vakolatlarini bajarish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yuqorida zikr etilgan shaxs tipining asosiy o‘ziga xos jihati hisoblanadi[4].

---

[1] Габиани А.А. Преступность среди женўин. - Тбилиси: Содно, 1986. - 77. с.

[2] Габиани А.А. На краю пропасти : наркомания и наркоманы. - М.: Юридическая литература, 1990. - 74. с.

[3] Н.И.Кузнецова . Личность осужденных за содержание притонов и сводничество, их исправление и перевоспитание. Психолого-педагогические проблемы исправления и перевоспитания осужденных. - М, 1985. 86 с.; Антонян Ю.М., Еникеев М.И., Эминов В.Е. Психология преступника и расследования преступлений. - М.: Юрист, 1996. - 107. с.

[4] Разинкин В.С. Воры в законе и преступные кланы. М, 1995. - 29.

1959-yili Navoiy shahrida tug‘ilgan Sh.ning faoliyatini misol qilib keltiramiz. U eri bilan ajrashgan, farzandi bilan o‘zining alohida uyida yashagan. Muqaddam sudlanmagan. Tashkilotda bosh hisobchi bo‘lib ishlash jarayonida ikki erkak bilan (ulardan biri ayolning jazmani bo‘lgan) oldindan til biriktirib, o‘zganing juda katta miqdordagi mulkini talon-taroj qilgan, ya’ni pul mablag‘larini o‘tkazish to‘lov hujjatlarini takroran qalbakilashtirish yo‘li bilan chet el firmalarining tranzit hisobvaraqlaridan bir necha yuz ming AQSh dollarini o‘g‘irlagan. Shu narsa e’tiborga molik-ki, tergov va sud tomonidan to‘plangan Sh.ning shaxsiga berilgan tavsifnomalarning hammasi ijobiy bo‘lgan, ayolning jinoiy faoliyati uzoq vaqt yashirin qolib kelgan.

Yuqorida keltirilgan tipologiya ancha shartli xususiyatga ega ekanligi shubhasiz, uni yanada kengaytirish, tipologiyaning butun tuzilishini ham, undagi har bir tipni ham yanada chuqur tavsiflash mumkin. Ammo, shu bilan birga, biz professional jinoyatchi ayollarning shaxsini tiplarga ajratish muammosining qo‘yilishiga e’tiborni qaratishni istar edik, zotan, ilgari ilmiy adabiyotlarda bu muammo ayollar jinoyatchiligiga tatbiqan ko‘rib chiqilmagan.

Shaxs tiplari, g‘ayriqonuniy xulq-atvor modellari va unga turtki beruvchi sabablarning o‘z holicha bir-biri bilan ma’lum darajada bog‘liqligi[1], sabablar darajasida ham, muayyan jinoiy qilmishlar darajasida ham aralash shakllarga ega bo‘lishi mumkinki, mazkur jinoyatlarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish jarayonida, avvalambor, profilaktika faoliyatining turli bosqichlarida ularni e’tiborga olish kerak.

---

[1] Меликишвили Л.А. Роль личностного фактора в преступном поведении женщин. Тбилиси: Содно, 1993. - 124.с.

## 5-mavzu: Ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari va kriminologik tavsifi

**Reja:**

5.1. Ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari va kriminologik tavsifi.

5.2. Ayollar jinoyatchiligini tahlil qilishda jinoyat statistikasining o'rni.

### 5.1. Ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari va kriminologik tavsifi

Hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligiga kriminologik tavsif berishda erkaklar va ayollarning agressiv xulq-atvorida jiddiy farqlar mavjudligiga, jumladan, maniakal-seksual xususiyatga ega bo'lgan qotilliklar ayollar uchun, hatto har xil ruhiy kasalliklarga ega shaxslar uchun ham qoidadan ko'ra ko'proq istisno tariqasidagi holat hisoblanadi. Yuridik amaliyotda bunday turdagi agressiya namoyon bo'lgan holatlar kamdan-kam uchraydi. Shunda ham ular asosan ayollar guruhining bezorilik yo'nalishidagi harakatlariga tegishli bo'lib, surunkali xususiyatga ega bo'lmaydi. Mazkur masalani aniqlash yo'lidan borib, biz balki bu vaziyat potensial jinoyat sodir etish jarayonida ayollarning erkaklarga nisbatan jismoniy zaifligi bilan izohlanadi, degan qonuniy taxminni ilgari surdik. Bu holda xotin-qizlarning bunday turdagi qilmishlarining obyektlarini voyaga yetmaganlar tashkil etadi, deb taxmin qilish qonuniy bo'ladi. Biroq, jinoyat statistikasini tahlil qilar ekanmiz, biz bunday xulq-atvor hatto voyaga yetmaganlarga nisbatan ham tipik emasligi-ning guvohi bo'lamiz. Maxsus tadqiqotlarning natijalari ham shuni ko'rsatadi[1]. Balki zo'ravonlik harakatlarining obyekti sifatida voyaga yetmaganlarni tanlashga to'sqinlik qiluvchi onalik instinkti o'z ta'sirini ko'rsatar? Biroq bu holda onalar tomonidan yangi tug'ilgan chaqaloqlarining o'ldirishi ancha keng tarqalganini qanday izohlash mumkin? Bizningcha, bu yerda Ch.Lombrozo bir asr muqaddam keltirgan dalillarga murojaat qilish o'rinli bo'ladi. O'zining mashhur «Jinoyatchi va fohisha ayol» asarida u mazkur hodisani ayollarning jinoyatga moyilligi ko'pincha fohishalik bilan shug'ullanishda o'z aksini topishi bilan tushuntiradi. Ayollarning jinoyat sodir etishga moyilligini ma'lum darajada amalga oshmagan seksual

---

[1] Антонян Ю.М., Ткаченко А.А. Сексуальные преступления. -М: Амальтея, 1993, С. 320. Пережогин Л.О. Нарушение половой идентичности у лиц с аномальным сексуальным поведением //Проблемы современной сексологии и сексопоталогии (сб. материалов научно-практической конференции сексопотологов). -М.: 1996. С.53-54.

fantaziyalari, mayllari, istaklaridan qutulish imkoniyati sifatida qarash mumkin.

Mazkur muammoli vaziyatni shu tarzda o‘rganar ekanmiz, biz qonuniy ravishda masalaning mohiyatiga yaqinlashib kelamiz. U faqat jinslarning ijtimoiy roli – dimorfizmi sohasida emas, balki xulq-atvor reaksiyalarini chuqur o‘rganishga asoslangan patopsixolo-giya va seksopatologiya sohasidagi ilmiy bilimlarni ham talab etadi, tadqiqotimizda erkaklar va ayollarning agressiv xulq-atvo-ridagi ko‘rsatkichlar eng yorqin farqlardan biri sifatida ishtirok etadi. Bu o‘rinda agressiv shaxs tipi kriminologik tadqiqotlarda jinoyatchilarni tiplarga ajratishda eng ko‘p e’tibor beriladigan shaxsning «asosiy» tiplaridan biri ekanligini nazarda tutish kerak.

Jinslar o‘rtasidagi kriminallikning farqlarini aniqlashda obyektiv ma’lumotlardan foydalaniladi, jinoiy xulq-atvor muammolari bilan shug‘ullanuvchi nazariyotchi olimlar bu haqida ikki xil fikr bildiradilar. Birinchi guruhga mansub olimlar bu muammolarni jinslarning tug‘ma psixobiologik xususiyatlari bilan tushuntirishga urinsa, ikkinchilari esa bunday xulq-atvorni erkaklar va ayollarga ijtimoiy omillarning turlicha ta’sir qilishi bilan bog‘laydilar. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik tadqiqotchilar, huquqbuzarliklar va delinkventlik nuqtai nazaridan ijtimoiy omillar ham biologik omillar ham hisobga olinishi ularning har ikkisiga ham e’tibor berilgan holda kompleks yondashuv zarurligini e’tirof etmoqdalar.

Jabrlanuvchilarning ijtimoiy va psixofiziologik tavsif-laridan kelib chiqib, kriminal vaziyatdagi ular xulq-atvorining har xil shakllari L.V.Frank, G.A.Avanesov, D.V.Rivman, V.I.Polubin-skiy, V.S.Minskaya, V.E.Kvashis va boshqa olimlarning asarlarida yoritib berilgan[1]. Bunda, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, har qanday tarixiy davrda va barcha davlatlarda ijtimoiy va yosh guruhlari ichida ayollarga zo‘ravonlikning eng tipik jabrlanuvchilari deb qaraladi.

Umuman erkaklar jinoyatchiligidan farq qiluvchi ayollar ji-noyatchiligining xususiyatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin:

birinchi xususiyati shundaki, ayollar soni mamlakatdagi erkak-lardan ko‘p (Respublika aholisining 50.2%) bo‘lishiga qaramasdan, ayollar jinoyatchiligi erkaklarnikiga nisbatan bir necha marta kam va ilgari ham shunday bo‘lgan;

ikkinchi xususiyati ayollar jinoyatchiligida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan erkaklar jinoyatchiligidagi o‘zgarishlar bir xil emas.

[1] В.Э.Квашис. Основы виктимологии. Проблемы защиты прав потерпевших от преступлений. М.: НОТА Бене. 1999. 233 с.

O‘zgarishlar umuman va ayrim jinoyat turlari bo‘yicha ham mos kelmaydi;

uchinchi xususiyati – ayollar jinoyatchiligi o‘z tuzilishiga ko‘ra erkaklar jinoyatchiligini takrorlamaydi va undan miqdor jihati bilangina emas, balki sifat ko‘rsatkichlariga ko‘ra ham farq qiladi. Umumiy jinoyatchilikka ayollar jinoyatchiligi asosan o‘zigagina xos bo‘lgan jinoyat turlarini sodir etish bilan hissa qo‘shadi. Bu jinoyatlarning sodir etilishi ma’lum ma’noda ba’zi vaziyatlar, konkret mikromuhitda, muayyan vaqtda shakllangan ayollarning xulq-atvori bilan bog‘liqdir.

Ayollar jinoyatchiligida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni o‘rganish, birinchi navbatda:

a) ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning statistik qonuniyatlarini;

b) ayol – jinoyatchiga kriminologik tavsif berishni;

d) ayollar jinoyatchiligi tuzilishini aniqlash imkonini beradi.

Qisqa qilib aytganda, erkaklar va ayollar jinoyatchiligining nafaqat o‘xshash tomonlari va farqlarini, balki ular rivojining yo‘nalishi, o‘ziga xos xususiyatlari va sifatiy o‘zgarishlarni aniqlash fan uchun ham, amaliy faoliyat yuritishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ayollar jinoyatchiligida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar erkaklar jinoyatchiligidagi bilan parallel holda bormaydi, ayollar jinoyatchiligi nisbatan mustaqil holda rivojlanadi. Ammo jinoyatchilik bir butun holda o‘zini tashkil etuvchi qismlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir qarama-qarshi aloqani vujudga keltiradi. Ya’ni ayollar jinoyatchiligida ro‘y bergan o‘zgarishlar umuman jinoyatlar va uning tuzilishida ham o‘zgarishlar ro‘y berishiga olib keladi.

Ayollar jinoyatchiligini tahlil etishda bu ijtimoiy xodisaning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlovchi belgilar asos bo‘lib xizmat qiladi. Fikrimizcha, birinchi navbatda, ayollar sodir etgan jinoyatlarni tahlil etishda jinoyatlarning tarqalganlik va og‘irlik darajasini keltirish mumkin. Jinoyatlarni bu belgilar bo‘yicha tasniflash ayollar jinoyatchiligida ro‘y bergan asosiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Yana bir belgi jinoyatning motivi esa ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning xususiyatini yanada chuqurroq tahlil etishga imkon beradi.

## 5.2. Ayollar jinoyatchiligini tahlil qilishda jinoyat statistikasining o‘rni

Jinsiy jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslar jabrlanuvchilar-ning o‘ziga xos tipi hisoblanadi. Ularning real soni statistik ko‘rsatkichlardan ancha ko‘pdir. Bunda ayollar mutlaq ko‘pchilikni tashkil etadi. Afsuski, hozirgi

zamon kriminologiya fanida alohida ijtimoiy tabaqalarning viktimligini aniqlash usuli ishlab chiqilganiga (va mazkur muammo favqulodda dolzarb ahamiyatga ega ekanligiga) qaramay[1], jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslarning salmog‘i haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumotlarga ega emasmiz.

Buning asosiy sababi jinoyatlar tufayli jabr ko‘rganlarini statistik hisobga olish va to‘la tavsiflash uchun bazaning mavjud emasligidadir. Shunga qaramay, aytaylik, O‘zbekistondagi ayollarning viktimlik darajasi (koeffitsienti)ni rasmiy statistika ma’lumotlaridan kelib chiqib aniqlash mumkin. Ma’lum davr mobaynida jinoiy tajovuzlarga duchor bo‘lgan shaxslarning muayyan ijtimoiy tabaqaga mansub shaxslarning umumiy sonidagi o‘rtacha salmog‘i odatda quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$W_i$

Kwi q - -x 100%, bu yerda:

$U_i$

Kwi - x 100%, bu yerda:

Kwi – I ijtimoiy tabaqaning viktimlik koeffitsienti;

Wi - ma’lum ijtimoiy tabaqaning jinoyatlardan jabr ko‘rgan vakillari soni (masalan, 1 yil ichida);

Ui - i ijtimoiy tabaqaga mansub shaxslar soni.

Respublika miqyosida ayollarning viktimlik koeffitsientini aniqlash uchun O‘zbekistonda yashaydigan ayollar soni va shu davr mobaynida jinoyatlardan jabr ko‘rgan ayollarning soni haqidagi ma’lumotlar zarur bo‘ladi.

[1] Криминология. Словарь. СПб., «Лань». 1999. –С. 16.

## 6-mavzu: Ayollar jinoyatchiligining sabablari va unga imkon beruvchi shart sharoitlar

### Reja:

6.1. O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari.

6.2. Ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-maishiy sabablari

6.3. Jinoyatchi ayollarning professionallashuviga olib keluvchi sabablar

6.4. Ozodlikdan mahrum etish muassasalaridagi ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta’siri haqida

### 6.1. O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari

Ushbu bobda biz ayollarning jinoiy xulq-atvoriga ta’sir ko‘r-satuvchi ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, maishiy omillar yig‘indisini tahlil qilamiz. Bunday omillar jumlasiga, birinchi navbatda, quyidagilar kiradi: ijtimoiy-demografik omillar (urbanizatsiya, migratsiya, jins va yoshga oid ma’lumotlar va ma’muriy-hududiy tuzilishning o‘zgarishi); iqtisodiy omillar (umumiy va tarmoqlardagi bandlik, mehnatga haq to‘lash, narx-navoni belgilash); siyosiy va ijtimoiy-ruhiy omillar (milliy mafkura, axborot texnologiyalari, demokratik institutlarning faoliyati, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga davlatning munosabati); tashkiliy-huquqiy omillar (amaldagi qonun hujjatlari, ularni qo‘llashni ta’minlovchi institutlarning samaradorligi) kiradi.

Shuningdek, yuqoridagi omillar ro‘yxati to‘liq emasligini ham qayd etib o‘tish lozim. Bu holat shu bilan izohlanadiki, pirovard natijada jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan katta-kichik omillar miqdorini to‘la va to‘g‘ri aniqlash mumkin emas. Kriminolog olimlar bunga intilmoqdalar va hozirda jinoyatchilikka 320 dan ortiq omillar ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.[1] Hozirgi zamon kriminologiyasida jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari tushunchalarining qo‘llanishi, ularning farqlari yuzasidan munozara tobora keskin tus olib bormoqda. Olimlar jinoiy xulq-atvorning asl sabablarini bugungi kunda (jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida) aniq va to‘liq bilish mumkin emas, degan xulosaga kelmoqdalar. Zotan, kishilarning xulq-atvorini tushuntiruvchi mukammal nazariya haligacha ishlab chiqilmagan. Bunday nazariya qachondir ishlab chiqilgan taqdirda ham muayyan jinoyatning

[1] Алексеев А.К.: Криминология. Курс лекций. М., 1999. –С. 67.

(shu jumladan, jinoyatchilikning ham) asl sabablarini tushuntirvchi holatlar va omillarni aniq belgilash mumkin emas, deb o'ylaymiz. Shu narsa diqqatga sazovorki, mazkur tendensiyalar eng yangi kriminologik tadqiqotlarda ham o'z aksini topmoqda. Masalan, M.O.Naukenov yuqorida zikr etilgan bahsli muammoning yechimini topishga harakat qilib, o'z asarida "sababiy omillar" tushunchasini qo'llagan.[1] Bu munosabat bilan E.I.Kairjanov, jinoyatchilik sabablarini o'rganish tarixidan kelib chiqib, jinoyatchilik sabablarining manbalari soniga qarab ularni bir omilli va ko'p omilliga ajratish mumkinligini qayd etadi.[2]

Mazkur qarashdan kelib chiqib, biz yuqorida zikr etilgan masalalar yuzasidan munozaraga berilmasdan, ayollar jinoyatchiligi-ning sabablari va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarini yoritishdan ham ko'ra , mazkur jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi omillarni tahlil qilishni ma'qul, deb o'ylaymiz. Bunda biz jinoyatchilik omillariga jinoyatchilikka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi (uni keltirib chiqaruvchi, unga turtki beruvchi yoki monelik qiluvchi) hodisa (hodisalar yig'indisi) deb qarashni taklif qilamiz. Bu o'rinda yana shuni ham inobatga olish kerakki, jinoyatchilikning umumiy sababi mavjudligi empirik jihatdan aniq isbotlanmagan, uning tavsifi ziddiyatli, gipotetik xususiyatga ega.[3]

Biz sabab va shart-sharoitlarga ma'lum tarixiy bosqichda ayollar jinoyatchiligi ko'rsatkichlarining dinamikasi – o'sishi yoki pasayishini belgilovchi holatlar deb qaraymiz.

Agar shart-sharoitlar atamasini qo'llaydigan bo'lsak, aynan ular – yashash sharoitlari ayollarning jamiyatdagi holatini yorqin tavsiflaydi.

Bu nuqtai nazardan olib qaraganda, V.A.Serebryakovaning ja-miyat taraqqiyotidagi har bir yangi bosqich ayolning shaxs sifatidagi holati o'zgarishiga olib keladi[4], degan fikriga qo'shilamiz. Zotan, jinoiy qilmishlar sohasida ham shunday aloqa mavjud. Masalan, ayollar band bo'lgan sohalar va ular sodir etuvchi jinoyatlarning turlari o'rtasida ma'lum aloqa mavjud. Bundan ayollar jinoyatchiligini, umuman jinoyatchilik muammosi qatori, muayyan tarixiy shart-sharoitlarga bog'lab o'rganish zarur degan muhim metodologik qoida kelib chiqadi. Muayyan ijtimoiy vaziyatlarni tahlildan o'tkazishgina yuqorida zikr etilgan murakkab muammoning yechimini topish imkonini beradi.

Fikrimizni yaqin o'tmishda sodir bo'lgan muayyan voqea-hodisalar bilan dalillashga harakat qilamiz.

---

[1] Наукенов М.О. Коррупционное преступления: криминологический и уголовно-правовой анализ. Алматы, 1999. –С. 62.

[2] Каиржанов Е.И. Криминология (общая часть`). Алматы, 1995. –С. 72.

[3] Максимов С.В. Краткий Криминологический словарь. М., 1995.

[4] Серебрякова В.А. Криминологичесая характеристика женщин-преступниц. Вопросы борьбы с преступностью. 1971. № 14. -С. 5.

Ma’lumki, o‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida sobiq SSSR, jumladan, O‘zbekiston SSRda ham ijtimoiy-iqtisodiy tizim nisbatan barqarorlashdi. Xalq xo‘jaligi, ancha past sur’atlarda bo‘lsa-da, rivojlana boshladi, aholining farovonligi oshdi. Shunga o‘xshash tendensiyalar jinoyatchilikning dinamikasi va tuzilishida ham ko‘zga tashlandi. Bu davrning “turg‘unlik davri” nomini olganligi ham bejiz emas.

1986-yildan boshlab jamiyat o‘sha davrdagi mamlakat rahbariyati e’lon qilgan va amalga oshirgan barcha faoliyat sohalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishning “mevalari”ni o‘zida his eta boshladi. Aholining turmush darajasi keskin yomonlashdi, o‘n yilliklar davomida yig‘ilib kelgan ichki siyosiy va millatlararo ziddiyatlar keskin tus oldi. Yaqin o‘tmishimizning qonli sahifalarini mazkur ish doirasida o‘rganishning hojati yo‘q deb o‘ylaymiz. Ammo mamlakatning “qaynoq” mintaqalaridan bosh olib chiqib ketishga majbur bo‘lgan odamlarning katta-katta oqimlari bilan bog‘liq migratsiya jarayonlari keyinchalik jinoyatchilikka, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatganligini ta’kidlash joizdir.

1986-yilda boshlangan ishlab chiqarishdagi inqiroz, mintaqalar va korxonalar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning uzilishi avvalgi turmush tarzining o‘zgarishiga olib keldi.

Sobiq itifoqning turli mintaqalarida sodir bo‘lgan millatlararo mojarolar va to‘qnashuvlar odamlarni, shu jumladan, ayollarni ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtlar va uylarni tashlab ketishga, o‘zlari, oila a’zolari va bola-chaqasining tirikchiligini ta’minlash uchun turli, jumladan, jinoiy yo‘llar bilan pul topish yo‘liga kirishga va nihoyat, qo‘liga qurol olish, qonunga zid ish tutishga majbur qildi. Binobarin, ayollarning jinoiy qilmishlaridan jabr ko‘rganlar soni izchil ko‘payib bordi.

O‘sha davrda sobiq SSSRning siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlik saqlangan oz sonli respublikalaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonda ham yuqorida zikr etilgan jarayonlar ma’lum darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Stixiyali, boshqarilmaydigan xususiyatga ega bo‘lgan migratsiya jarayonlarining kriminogen omil sifatidagi ta’siriga bugungi kunda ham e’tibor berish lozim.

2003-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelayotgan fuqarolar 25,9 %ga kamaygan bo‘lsa, ketayotgan fuqarolarning soni 4,5 %ga oshgan. Qiyosiy jihatdan asosan ruslar, qozoqlar, o‘zbeklar, tatarlar va koreyslarning ko‘proq ketayotganligi qayd etilmoqda.

2003 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar soni 2002-yildagiga qaraganda 3,3 %ga ko‘paydi.[1]

**3-Jadval**

**2003 yilga O‘zbekiston respublikasiga kelgan va jo‘nab ketayotgan fuqarolar soni**




Ichki migratsiyada ham tashvishli vaziyat yuzaga kelmoqda. Iqtisodiyotning agrosanoat majmuida amalga oshirilayotgan o‘zga-rishlar, qishloq xo‘jalik korxonalarining xususiylashtirilishi natijasida ko‘pchilik ishsiz qolmoqda. Birgina 2000-yilgi statistika ma’lumotlariga qaraganda, qishloqlardan respublika shaharlariga 26 mingdan ortiq xotin-qizlar ko‘chib ketgan va bu holat bugungi kunda ham davom etmoqda.[2]

Ishchi kuchiga bo‘lgan talab kamayib borayotgan sharoitlarda yoshi 45 dan oshgan oliy va o‘rta ma’lumotli ayollar o‘z ixtisosligi bo‘yicha ish topish istiqbollariga deyarli ega emaslar. Qishloqlar va shaharchalarda ish bilan ta’minlash muammosi, ayniqsa, keskin bo‘lib turibdi. Bu yerda xotin-qizlarning yoshi, ma’lumoti va ixtisosligidan qat’i nazar, ish topishlari juda ham qiyin. Umuman olganda, 1996-yili respublika bo‘yicha aholini ish bilan ta’minlash xizmatlariga murojaat etgan xotin-qizlarning atigi 13 % ish bilan ta’minlangan.

Keltirilgan statistika ma’lumotlariga kriminologik baho berishda mazkur muammo asosan “yashirin”, norasmiy ishsizlik bilan bog‘liqligini, bu esa muqarrar ravishda, iqtisodiyot va biznesning jinoiy sohalari tomonidan ta’minlanadigan “yashirin bandlik”ni keltirib chiqarishini ham nazarda tutish kerak.

O‘zbekistonda xotin-qizlar ishsizligining o‘sish sur’atlari ancha baland bo‘lib qolayotir. Jumladan, 2000-yilda ishsiz xotin-qizlar soni

[1] Ҳуқуқий статитика. // Ж. Ҳуқуқ. Право. Law. 2004., № 1 (25). –Б. 79.

[2] Женщины и мужчины Узбекистана. Статистический сборник № 68. Т., 2002. –С. 10.

oldingi yildagiga qaraganda ikki baravar ko'paygan. Ishsiz xotin-qizlarning eng ko'p soni Farg'ona, Andijon, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qayd etilgan. Ishsiz deb e'tirof etilgan ayollarning qariyb yarmi yosh bolali, 5 % dan ortig'i – so'qqabosh, 9 %ga yaqini – ko'p bolali onalardir. 2001-yilda rasman ishsiz deb tan olinganlarning 62 % ayollar, 38 % erkaklar hissasiga to'g'ri kelgan. 2002-yilda mehnat bo'yicha organlarda ro'yxatdan o'tganlar 34,8 ming bo'lsa, shularning 21,9 mingini ayollar tashkil etgan.[1] Xotin-qizlar ishsizligining o'rtacha davomiyligi davri erkaklarnikiga qaraganda ancha uzoq. Bir yildan ko'proq ishsiz deb e'tirof etilganlarning 88 %ini ayollar tashkil etadi.[2] Uzoq vaqt ishsiz bo'lgan xotin-qizlar guruhi ham shakllangan: olti oydan ortiq ishsiz bo'lganlar 38 %ni, bir yildan ortiq ishsiz bo'lganlar esa – 18 %ni tashkil etadi. Aholi umrining, ayniqsa, mehnatga layoqatli erkaklar umrining qisqarishi bilan bog'liq tashvishli tendensiya ham ayni shu davrda qayd etildi.[3] Bu quyida keltirilgan statistika ma'lumotlarida o'z aksini topgan.

**4-Jadval**

**Aholining jinsi va yoshiga ko'ra taqsimlanishi (ming kishi)**

| Yoshi | 1998 | | 1999 | | 2000 | | 2001 | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ayol | erkak | ayol | erkak | ayol | erkak | ayol | erkak |
| Butun aholi, shu jumladan: | 11952,4 | 11819,9 | 12127,4 | 12008,2 | 12294,4 | 12193,3 | 12449,2 | 12363,9 |
| 0-2 yoshlilar | 911,5 | 960,3 | 853,6 | 901,1 | 811,3 | 853,4 | 774,4 | 814,4 |
| 3-5 | 954,6 | 997,6 | 943,5 | 986,4 | 923,3 | 969,4 | 902,3 | 949,3 |
| 6-7 | 655,8 | 679,6 | 664,4 | 688,5 | 645,8 | 673,9 | 624,0 | 651,9 |
| 8-15 | 2380,3 | 2438,0 | 2435,0 | 2502,2 | 2497,0 | 2570,1 | 2534,3 | 2613,8 |
| 16-17 | 493,1 | 502,6 | 512,1 | 520,3 | 530,0 | 536,6 | 555,3 | 564,2 |
| 18-19 | 463,7 | 471,1 | 476,2 | 484,9 | 490,2 | 501,1 | 508,8 | 517,9 |
| 20-24 | 1049,0 | 1065,8 | 1071,9 | 1085,9 | 1101,5 | 1117,6 | 1126,2 | 1144,5 |
| 25-29 | 946,3 | 937,2 | 961,4 | 965,4 | 984,6 | 990,0 | 999,2 | 1013,6 |
| 30-34 | 867,3 | 829,7 | 871,7 | 832,8 | 867,5 | 835,2 | 878,1 | 848,1 |
| 35-39 | 821,8 | 801,5 | 839,0 | 812,8 | 851,2 | 822,3 | 856,3 | 820,8 |
| 40-49 | 1023,0 | 986,9 | 1102,9 | 1065,5 | 1177,7 | 1137,2 | 1242,9 | 1201,1 |
| 50-59 | 526,2 | 512,1 | 520,4 | 505,1 | 520,6 | 505,5 | 542,4 | 523,7 |
| 60-69 | 486,5 | 426,9 | 492,3 | 432,6 | 497,7 | 438,6 | 502,7 | 448,7 |
| 70 va kattalar | 373,3 | 210,6 | 383,0 | 224,7 | 396,0 | 242,4 | 402,3 | 251,9 |

Shu bilan bir vaqtda, tug'ilish darajasi ham pasayib bormoqda. 2000-yilda tug'ilish koeffitsenti 21,3 promille bo'lib, 1990-yilda bu ko'rsatkich 33,7 promillega teng bo'lgan. Vaholanki, xalqaro demografik tashkilotlar

[1] Труд и занятость в Респулики Узбекистан. Т., 2003. –С. 70.
[2] Ўша ерда. –С. 83.
[3] Нефедов В.В. В зеркале статисики. Аргументы и факты. 1993. № 42.

yordamida o'tkazilgan oxirgi tibbiy-demografik tadqiqotlar O'zbekistonda bolalar o'limi darajasi pasayganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda oilaning o'rtacha tarkibi 5,6 (qishloqda 6,1) kishini tashkil qiladi (statistik jihatdan har bir ayolga o'rtacha 5 nafar va undan ortiq bola to'g'ri keladi).[1] Ammo tug'ilish darajasi respublika aholisining turli etnik guruhlari o'rtasida jiddiy farq qiladi. Masalan, o'zbeklar orasida har bir ayolga o'rta hisobda 5,1 ta bola to'g'ri kelsa, rusiyzabon aholi orasida har bir ayolga 1,7 ta bola to'g'ri keladi. Sobiq itifoqning boshqa respublikalarida bo'lgani singari, O'zbekistonda ham abort tug'ilish darajasini tartibga solishning eng keng tarqalgan usulidir. Mazkur tadqiqot ma'lumot-lariga qaraganda, O'zbekistonda har bir ayol o'z umri davomida o'rta hisobda ikkita abort qiladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, abortlar darajasi rus va boshqa millat vakillari bo'lgan ayollar orasida (har bir ayolga - 2,8 tadan abort to'g'ri keladi) o'zbek ayollariga (har bir ayolga – 1,2 tadan abort) taqqoslaganda ancha katta.[2]

O'tish davridagi iqtisodiy kamchiliklar ayollar jinoyatchiligining tuzilishida salbiy holatlar kuchayishining asosiy sabablaridan biridir. O'z vaqtida xalq xo'jaligining byudjetdan ta'minlanadigan tarmoqlari (ta'lim, sog'liqni saqlash va h.k.)ga "quvg'in" qilingan ayollar o'z mehnati uchun hanuzgacha erkaklardan ancha kam haq oladilar. Bu, avvalambor, ularning oilaviy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ichki keskinlik, shu jumladan, o'z farzandlari va yaqinlarining taqdiri uchun tashvish hissi kuchayib boradi. Bu nuqtai nazardan olib qaralganda, O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalari va tarmoqlarida band bo'lgan xotin-qizlar soniga doir statistika ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

**5-Jadval**

**2000-yilda iqtisodiyot sohalarida band bo'lganlar.**

| Faoliyat turlari | Jami % hisobida | | Jinslarning % hisobida taqsimoti | |
|---|---|---|---|---|
| | ayollar | erkaklar | ayollar | erkaklar |
| Sanoat | 12,6 | 12,9 | 43,5 | 56,5 |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi | 33,2 | 35,4 | 42,5 | 57,5 |
| Qurilish | 2,3 | 11,6 | 13,7 | 86,3 |
| Transport va aloqa | 1,8 | 6,2 | 18,1 | 81,9 |
| Savdo, moddiy-texnik ta'minot, tayyorlov | 8,2 | 8,6 | 42,8 | 57,2 |
| Uy-joy kommunal xo'jalik sohalari | 2,3 | 3,2 | 36,0 | 64,0 |

[1] Ўзбекистон Республикасида хотин-қизларнинг аҳволи тўғрисида маъруза. Т., 1999. –Б. 25.
[2] Женщины и мужчины Узбекистана. Статистический сборник. Т., 2002. –С.42-43.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot | 11,2 | 2,8 | 75,6 | 24,4 |
| Ta’lim, madaniyat, san’at, ilmi ilmiy tadqiqot | 21,0 | 6,3 | 72,5 | 27,5 |
| Moliya, kredit,sug‘urta | 0,6 | 0,5 | 47,5 | 52,5 |
| Boshqaruv apparati | 1,1 | 2,0 | 29,4 | 70,6 |
| Boshqa yo‘nalishlar | 5,7 | 10,5 | 30,0 | 70,0 |
| Jami<br>Foiz | 100,0 | 100,0 | 44,0 | 56,0 |
| Ming kishi | 3955,1 | 5027,9 | | |

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xizmatlar ko‘rsatish, ta’lim, mehmonxona va restoranlar biznesi, savdo, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohalarida, shuningdek, iqtisodiyotning moliya tarmog‘ida xotin-qizlar mutlaq ko‘pchilikni tashkil etadilar. Bunda zararli ishlab chiqarishlarda band bo‘lgan xotin-qizlarning salbiy statistikasini ham unutmaslik kerak. Zotan, tibbiy xizmat ko‘rsatish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, og‘ir turmush sharoitlarida, zararli ishlab chiqarishlarda mehnat qilish shaxsning salomatligiga va ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

**6-Jadval.**

**MDH davlatlarida zararli mehnat sharoitlariga ega ishlab chiqarishlarda band ayollar**

| | Sanoat | | Qurilish | | Transport | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ming kishi | Ayollar-ning umumiy soniga nisbatan %da | Ming kishi | Ayollar-ning umumiy soniga nisbatan %da | Ming kishi | Ayollar-ning umumiy soniga nisbatan %da |
| **Armaniston** | 22,3 | 1M | 0,3 | 2,3 | 0,2 | 3,5 |
| **Belarus** | 125,8 | 20,4 | 2,5 | 4,1 | 2D | 3,7 |
| **Qozog‘iston** | 97, 1 | 17,6 | 8,8 | 8,0 | 4,4 | 3,7 |
| **Qirg‘iziston** | 19,3 | 15,3 | 0,3 | 2,5 | 0,6 | 5,4 |
| **Moldova** | 15,9 | 13,0 | 0,8 | 7,2 | 0,4 | 3,4 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Rossiya** | 1427,7 | 16,0 | 54,8 | 5,2 | 63,8 | 5,8 |
| **Tojikiston** | 12,9 | 14,9 | 0,4 | 3,6 | 0,4 | 7,2 |
| **Turkmaniston** | 5,2 | 9,5 | OD | 0,6 | 0,1 | 1,2 |
| **O'zbekiston** | 46,1 | 10,3 | 1,4 | 2,8 | 2,2 | 6,3 |
| **Ukraina** | 467,5 | 15,4 | 11,8 | 4,0 | 11,9 | 3,5 |

Jadvaldan ko'rinib turganidek, hamdo'stlik mamlakatlarida 2,4 milliondan ortiq xotin-qizlar og'ir ishlab chiqarishlarda band bo'lib, og'ir uy-ro'zg'or va tibbiy xizmat ko'rsatish sharoitlarida shaxsning umumiy sog'lig'iga, shu jumladan, uning ruhiyatiga, ayniqsa, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[1].

Jamiyatda ayollarni siyosatga kamroq aralashtirish tendensiyasi uzoq vaqt hukm surib keldi. Parlamentda va mahalliy vakillik organlarida ayollar juda ham kam edi. Respublikamizda ilk bor 1994-1999-yillarda xotin-qizlar ko'p partiyaviylik asosida o'tkazilgan saylovda ishtirok etdilar. 1994-yilda ayollar Parlamentda 6 %ni[2], 1999-yilda 7 %ni, 2004-yilda bo'lib o'tgan saylovlar natijasiga ko'ra Qonunchilik palatasida 18,8 % ni, Senatda 15 % ni tashkil etdi. Viloyat hokimlari orasida esa ayollar umuman yo'q. Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli ayollar ko'pchilikni tashkil etgani holda, ma'muriy boshqaruv apparatida ularning ulushi atigi 17,5 %ni tashkil qiladi.

Ammo so'nggi yillarda xotin-qizlarning siyosiy faolligi sekin-asta ortib bormoqda. Xotin-qizlarning jamoat tashkilotlari soni ko'paymoqda. Respublika Adliya vazirligida xotin-qizlar va bolalarning muammolari bilan shug'ullanuvchi 40 dan ortiq tashkilot ro'yxatga olingan. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtirish uchun 1995-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilingan Farmoni ularning barcha bosqichlardagi ijroiya hokimiyati organlarida ko'proq qatnashishlari uchun imkon yaratda. Farmonga muvofiq turli pog'onalardagi hokimlik ma'muriyatlarida tegishli darajalardagi xotin-qizlar qo'mitalarining raislari hokim o'rinbosarlari lavozimiga tayinlanadilar va ijtimoiy sohaning holati uchun

[1] Аргументы и факты, №42, 2003.
[2] Ўзбекистон Республикасида хотин-қизларнинг аҳволи тўғрисида маъруза. Т., 1999. –Б. 27.

javob beradilar. Ushbu Farmon kvota tizimini qayta tiklaydi va davlatning ayollarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini rivojlantiradi.

Xotin-qizlar muammolari hal qilishga qaratilgan muayyan qadamlar tashlanganiga qaramay, biz ularni hal qilishning tom ma’noda demokratik, ilg‘or darajasiga hali yetganimizcha yo‘q. Bu nuqtai nazarda Rossiya namunasi diqqatga sazovor. Chunonchi, Rossiya Federal Yig‘ilishiga saylovda mamlakat tarixida birinchi marta xotin-qizlar mustaqil ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ishtirok etdi. Ularning bir qismi alohida partiya – “Rossiya xotin-qizlari” partiyasini tuzdi. Bugungi kunda Rossiya parlamentarizmini yuqorida zikr etilgan partiya faoliyatisiz tasavvur qilish mushkul.

O‘zbekistonda ham xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatining konsepsiyasi ishlab chiqilgan, bu konsepsiyada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-fevraldagi “Oilada davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy manfaatlari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” Davlat dasturida o‘z aksini topgan. Biroq ayollarning muammolarini hal qilishning milliy mexanizmi hali shakllantirilganicha yo‘q. Teng imkoniyatlar to‘g‘risida qonun qabul qilinmagan. Xotin-qizlar jinsiga qarab kamsitilgan hollarda ularning huquqlarini himoya qiluvchi sud amaliyoti deyarli mavjud emas. Bu nuqtai nazardan Konstitutsiyaning barcha fuqarolar teng huquqliligi haqidagi demokratik qoidalari va tamoyillari milliy qonun hujjatlarining tegishli normalarida yanada mufassal mustahkamlab qo‘yilishi lozim.

O‘z-o‘zidan ayonki, biz ushbu ishda ko‘rib chiqayotgan muammolarning yuqorida qayd etib o‘tilgan alohida jihatlari o‘z holicha sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy yo‘sindagi salbiy hodisalar har xil darajada ijtimoiy beqaror odamlarni muqarrar ravishda jinoyat yo‘liga olib kiradi, degan ma’noni anglatmaydi. Zotan, jinoiy xulq-atvor insonning shunchaki turmush sharoitlariga emas, balki uning mazkur sharoitlarni qanday idrok etishi va ularga qanday baho berishiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, jinoiy xulq-atvorni ong doim ham qamrab olavermaydigan nozik, chuqur va o‘ziga xos ichki kechinmalar shakllantiradi. Bu kechinmalar inson hayotining asoslari, uning dunyoqarashi, o‘zining hayotdagi o‘rniga munosabati va turmush sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy huquqsizlik, umumiy ruhiy beqarorlik, ma’naviy – psixologik qadriyatlarning yo‘qolishi va buning natijasi o‘laroq, bunday sharoitlarda oilaviy turmushga, ijtimoiy muhim “oila o‘chog‘ining yoquvchisi” rolini bajarishga layoqatsizlik – jamiyatida, ayniqsa, yoshlar orasida ayollar jinoyatchiligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillardir.

Yosh ayollar va qizlar, jumladan, voyaga yetmaganlar ham qandaydir yo‘llar bilan boyib ketishi, ijtimoiy zinaning nisbatan baland pog‘onalariga ko‘tarilishga harakat qilmoqdalar. Intilish, albatta, yaxshi, ammo bu maqsadga erishish yo‘lida har qanday, hatto g‘ayri-qonuniy vositalar ishga solinmoqda.

Ma’lumki, boylik bu faqat moddiy ne’mat bo‘lib qolmay, jamiyatda nisbatan yuksak mavqeni qo‘lga kiritish, ijtimoiy nufuzga, har xil imtiyozlarga ega bo‘lish vositasi hamdir. Bu ko‘pchilikni, ayniqsa, yoshlarni o‘ziga tortmoqda. Boylikka odamlar nafaqat to‘g‘ri, balki egri yo‘llar bilan ham intilmoqda, zotan, pul, imtiyozlar va yuksak mavqe ularga qachondir, noaniq kelajakda emas, balki hozir, shu damda kerak. Afsuski, buning uchun hozir imkoniyatlar bor.

Yuqorida zikr etilgan jarayonlarning boshqa bir salbiy tomoni ham bor. Bu yoshlar orasida asosan moddiy ne’matlarning mavjudligi prinsipiga ko‘ra ijtimoiy tabaqalanishning kuchayib borayotganida ko‘rinadi. Hammayoqdan targ‘ib qilinayotgan “go‘zal hayot”dan chetda qolgan va o‘z muammolarini hal qilishning boshqa usulini topa olmagan ayrim yoshlar (ayni holda – xotin-qizlar) jinoyatga qo‘l urmoqdalar.

Ilmiy adabiyotlarda bu masala ilgari ham ko‘tarilgan edi. Masalan, Y.M.Antonyan ta’minlanmagan va kam ta’minlangan oilalarda yosh ayollar va qizlar yaxshi kiyinish hamda boshqa zarur va nufuzli buyumlarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega emasligi, buning natijasida ular o‘zini kamsitilgan his qilishi, ularda yuqorida zikr etilgan ne’matlarga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan hasad, ba’zan, hatto, nafrat tuyg‘ulari uyg‘onishi, bu ularning o‘g‘rilikka qo‘l urishi, fohishalik bilan shug‘ullanishiga turtki berishini qayd etadi.[1]

Ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan jinoyatchilar muammosiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarning natijalari ham bu fikrni tasdiqlaydi.[2]

Milliy ilmiy adabiyotlarda uchraydigan ayollar jinoyatchiligi to‘g‘risida ayrim ma’lumotlar umuman olganda yuqorida keltirilgan xulosalarni tasdiqlaydi. “Jinoyat sodir etgan shaxslarning o‘rta hisobda 4-18 % - voyaga yetmaganlar. O‘smir qizlar jinoyatlarning 70 %ga yaqinini guruh tarkibida sodir etadilar”.[3]

O‘smir qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Voyaga yetmagan jinoyatchilarning umumiy

---

[1] Антонян Ю.М. Преступность женщин // Социологическая законность. № 7. 1991. –С. 20.

[2] Антонян Ю.М., Персова Л.В., Саблина Л.С. Опасные девизи / Социологические исследования. № 6. 1991; Мартиросова М.М. Преступносить несовершеннодетных женского пола, ее причины и организация предупреждения ОВД. Автореф.дисс. канд. юрид. наук. – М., 1992. – С. 21.

[3] Ўзбекистон Республикаси прокуратураси маълумотлари. 2005 й.

sonida ularning ulushi ham ortib borayotir. Faqat 2002-yilning o'zida o'smir qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2001-yilga qaraganda 10.7 %ga ko'paygan. 2003-va 2004-yillarda voyaga yetmagan ayol jinsidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bir oz kamaygan.[1]

**7-Jadval.**

**Ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan mahkumlar umumiy soni va salmog'ining o'sishi**

| | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami** | 117 | 137 | 161 | 180 | 191 | 201 | 191 | 176 |
| **Salmog'i foizda** | 5.3 | 5.8 | 6.0 | 6.0 | 4.6 | 5.05 | 3.9 | 3.6 |

So'nggi besh yil ichida ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiluvchi odam o'ldirish, badanga og'ir shikast yetkazish, talonchilik, bosqinchilik va o'g'riliklar bilan bir qatorda, jinoiy xulq-atvorning yangi shakllari: uyushgan tovlamachilik (reket), narkobiznes va boshqalar ham paydo bo'ldi. Tadqiqotimiz natijalari hamda rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy sonida guruh tarkibida sodir etiladigan jinoyatlar 65-70 %ni tashkil etadi. Bunday hol mazkur shaxslarning o'ziga xos birdamlikka muhtoj ekanligi bilan izohlanadi: ulardan har biri alohida qo'l urishga jur'at eta olmaydigan qilmishni birgalikda sodir etadilar.

Ayollar jinoyatchiligi ijtimoiy muhitdagi madaniyat va jins-lar tengligi muammolari bilan, ayniqsa, bog'liqdir. Konservativ patriarxal madaniyat tipi, jamiyatimiz boshidan o'tkazilgan mustabid tuzum ayollar ijtimoiy qaramligining ikki xil mezonini shakllantirdi. Bu asossiz ikki xil standartlarga tayanuvchi axloqda, jinsiy tengsizlik shaklini aks ettiruvchi tilda, xurofiy qarashlarni bolalikdan shakllantiradigan ta'limda, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini yerga uradigan obrazni shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalarida o'z ifodasini topadi.

Hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligini tavsiflovchi yana bir muhim jihat shundaki, huquqiy nigilizm mavjud sharoitlarda davlat, avvalambor, o'zining huquqini muhofaza qilish organlari orqali mazkur hodisaga qarshi kurash olib borishga harakat qilmoqda va ko'rib turganimizdek, bu hozircha kutilgan natijalarni berayotgani yo'q.

---
[1] Ўзбекистон Респбликаси Бош прокуратураси маълумотлари.

Ilgari nisbatan samarali ta’sir ko‘rsatgan va hozir ham rasman amalda bo‘lgan huquq normalari ko‘pincha qo‘llanilmayapti. Ularning o‘rniga yangi normalar hali taklif qilingani yo‘q. Davlatning jinoyatchilikka qarshi siyosati uning insonparvarlik darajasini oshirish borasida isloh qilish, birinchi navbatda, mavjud tizimni buzishni, jinoyatchilikning o‘sishiga mos ravishda unga qarshi kurash va jazoni ijro etishning samaradorligini ta’minlashi lozim.[1] Toshkent, Namangan va boshqa yirik shaharlarda ijtimoiy-maishiy va madaniy ahamiyatga molik muassasalarda mansabdor shaxslar va xizmatchilarni, mahalliy hokimiyat organlari xodimlarini pora berish yo‘li bilan o‘ziga og‘dirishga asoslangan xufiya xonadonlar (amalda buzuqxonalar), qo‘shmachilarning keng tarqalgan va mukammal tarmog‘iga ega bo‘lgan fohishalar xizmatidan foydalanish uyushgan tijorat negiziga qo‘yilgan. Fohishalik bilan shug‘ullanishga va jinoiy faoliyatning boshqa shunga o‘xshash shakllariga voyaga yetmaganlar ham faol jalb etilmoqda. Ammo, masalan, tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish, voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish, pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish, fohishaxona saqlash yoki qo‘shmachilik qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonuni normalarini qo‘llash amaliyoti unchalik keng emas va hatto qisqarib bormoqda.

Voyaga yetmay turib jinoyat sodir etganligi sababli ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish bo‘limlarida hisobda turgan qizlarning shaxsini o‘rganiish, ular orasida o‘qishdan bo‘yin tovlash, spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish bilan birga jinsiy buzuqlik bilan ham shug‘ullanayotganlar erkak jinsidagi o‘smirlarga qaraganda ko‘proq uchraydi.

Jinsiy hayotning erta boshlanishi o‘smirlar, jumladan, qizlarga ham turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Bunday xulqning shakllanganligi qiz bolalarga, ularning oila a’zolariga anchagina ko‘ngilsizliklar tug‘dirishi mumkin. Ularda fiziologik qoniqishga ehtiyoj tug‘ilsa, qizlarning his-hayajonga tez beriluvchanligi, irodasining ojizligi o‘zini tiya olmasligi tufayli tartibsiz jinsiy aloqalarga kirishishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘ngilsiz oqibatlarga, xususan, fohishalik bilan shug‘ullanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida turli tanosil kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. 1998-yilda zaxm (gonoreya) bilan kasallanganlar orasida 14 yoshgacha bo‘lganlar 0,5%, 15-17 yoshlilar orasida 17%ni va 18-20 yoshlilar 77% ni tashkil qilgan. Jins nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsak, 14 yoshgacha bo‘lgan zaxm kasalligiga chalinganlarning 65,5 %ni; 15-17

[1] Нарбутаев Э. Уголовная политика : исходние критери и построения. //Ҳуқуқ.Право.Law. 2004. № 1 (25). –С.74.

yoshlilar orasida 62,2%ni; 18-20 yoshlilar ichida esa 57,7%ni qizlar tashkil qiladi[1].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, voyaga yetmagan qizlarda jinsiy aloqaga moyillikning erta uyg'onishi va fohishalikning keng tarqalishi OITS, tanosil kasalliklarining ko'payishi bevosita bog'liqdir. Fohishalik ko'p hollarda jinoyat sodir etilishi uchun zamin ham hisoblanadi. Voyaga yetmagan qizlar xulqidagi buzilishlar ularning fohishalik bilan shug'ullanishi va xulqining jinoiylashuviga, shuningdek, jinoiy qilmishning sodir etilishiga shart-sharoit yaratishi mumkin. Fohishalik bu jinoyatchilik olami bilan bevosita aloqador hodisa bo'lib:

-fohishalarning qo'shmachi (sutenyor)larga tobe ekanligi;

-ularning ko'pincha jinoiy tajovuzlar obyekti, chunonchi, giyohvandik vositalari bilan g'ayriqonuniy muomalaning ob'ektiga aylanib qolishi;

-fohishalarning jinoiy guruhlarning a'zolariga xizmat ko'rsatishi;

-jinoyatlarning sodir etilishi guruhning passiv a'zosi (laqmalar uchun tuzoq, soxta jabrlanuvchi va h.k.) sifatida ishtirok etishlarida namoyon bo'ladi.

Albatta, erta boshlangan jinsiy hayot muqarrar ravishda jinoyat sodir etilishga olib keladi deb bo'lmaydi, ammo u voyaga yetmagan qiz hayotining barcha tomonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulqi buzuq voyaga yetmagan qizlar orasida jinsiy hayotning erta boshlanganlik hollari ko'p uchraydi. Voyaga yetmagan qizlar o'rtasida so'rov yo'li bilan o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra voyaga yetmaganlar huquq-buzarliklarining oldini olish bo'linmalarida hisobda turgan qizlarning uchdan bir qismi jinsiy hayotni 14 yoshdan boshlaganligini, 6,7% esa jinsiy hayot kechirmaganligini aytgan. O'rganilayotgan qizlarning 43,3 % jinsiy hayotni 16-17 yoshdan, 5,8 % 13 yoshdan, 41,7 % 14-15 yoshdan boshlaganligini aytganlar, 2,5% esa qo'yilgan savolga javob bermaganlar.

Shunday qilib, huquqbuzar qizlarning yarmidan ko'pi 16 yoshga to'lmasdan jinsiy hayot kechirishni boshlaganlar. Ularning har uchtadan bittasi turli vaqtlarda bir qancha erkaklar bilan tartibsiz jinsiy aloqaga kirishganliklarini aytganlar. Bunda his-tuyg'ular hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan.

Qizlarning jinsiy buzuqligi ko'p hollarda spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan. Tekshirilganlarning yarmidan ko'pi (54,2%) birinchi marta jinsiy aloqaga mast holda kirishganlar.

---

[1] Оила психологияси.Т: Шарқ. 2001. –Б. 222.

Ularning faqat 43,3 %gina hushyor bo‘lganlar. Bu noxush hodisaning mast holda ro‘y berganligi yoki voqeaning tasodifan yuz berganligi haqidagi javoblar eng ko‘p bo‘lgan.

Bugungi kunda jinoyatlarning oldini olishda jinsiy sohadagi buzilishlarga yetarlicha e’tibor berilmayapti, chunki ular jinoyat sodir etish bilan har doim ham bog‘liq bo‘lavermaydi. Hatto, qizlarga tartibsiz, jumladan, guruh bo‘lib jinsiy aloqaga kirishish xos bo‘lsa ham, sud psixiatriya ekspertizasiga jo‘natilganida ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qarorning hech birida sodir etilgan jinoyat bilan bog‘liq jinsiy buzuqlik to‘g‘risidagi masala savol sifatida qo‘yilmagan. Mazkur jihatga jinoyat sodir etishning subyektiv holati sifatida qarab, yetarlicha e’tibor berilmayotganligini hozirgi zamon jinoyat huquqi nuqtai nazarida bemalol tushuntirsa bo‘ladi.

Agar aqli zaiflik, ruhiy kamchilikning mavjudligini aniqlash shaxsning muomala layoqatiga ega ekanligini aniqlash uchun kerak bo‘lsa, binobarin, u huquqiy oqibatlarga ega bo‘ladi, jinsiy anomaliyalar (normadan chetga chiqishlar) mavjudligini aniqlash aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi masalani hal etish chog‘ida uning ruhiy holatini tibbiy baholashda hech bir ahamiyat kasb etmaydi. Nazariya va amaliyot bu muammoni ko‘rib chiqmagan va ekspertlar (seksopatologlar, psixiatrlar) oldiga jinsiy anomaliyalar, ularning sabablari va xususiyatlari, oqibatlari haqidagi masalaning yechimini o‘ylash vaqti kelmadimikin?

Hozirgi vaqtda sud-tergov amaliyoti va ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoga yetarlicha e’tibor berilmoqda, deb ayta olmaymiz. Shunga qaramay, kompleks sud-psixiatriya va seksopatologik ekspertizalarda tekshirilgan qizlarning kamida 1,5% da xudbinlik, aqliy zaiflik, telbanamo xulq-atvor bilan kechadigan jinsiy buzuqlikning mavjudligi aniqlangan. Ammo bu nuqsonlar shaxsda muomala layoqatining yo‘qligini bildirmaydi va shu bois jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilishga va jazo tayinlanishiga ta’sir etmaydi.

Yuridik adabiyotlarda muomala layoqati doirasidagi ruhiy nuqsonlarning jinoiy qilmishga ta’siri va ularni jinoyatchilarni axloqan tuzatish jarayonida inobatga olish mumkinligi haqidagi masala qizg‘in muhokama qilinmoqda. Ayni paytda aybdor ruhiy holatining obyektiv voqeligi (binobarin, jinoyatning subyektiv tomoni ham) sifatidagi jinsiy anomaliyalarning o‘rniga hanuzgacha jinoyat huquqiy baho berilgan emas.

Aftidan, buni erta boshlangan jinsiy hayot, tartibsiz jinsiy aloqalar qizlar orasida ko‘proq tarqalganligi bilan izohlash mumkin. Ammo ayni paytda voyaga yetmagan huquqbuzarlar orasida ko‘pchilikni o‘smirlar

tashkil etadi, voyaga yetmagan qizlar jinoyatchiligi muammosi esa nisbatan yaqindagina maxsus kriminologik tadqiqotlar mavzuiga aylandi.

Tibbiyotga oid maxsus adabiyotlarga murojaat qilsak, bunday xulq-atvorning sabablari nafaqat tashqi ta'sir ostida, balki huquqbuzar qizlarning shaxsiyati bilan bog‘liq xususiyatlar tufayli mavjud bo‘lishi mumkinligini ham ko‘rsatmoqda. Voyaga yetmagan qizlar orasida jinsiy anomaliyalar biz aniqlaganimizdan ko‘ra ko‘proq, deb hisoblash uchun asoslar bor. Voyaga yetmaganlarning jinsiy buzilishi sabablarini tadqiq etish qo‘shimcha ravishda o‘rganilishi zarur bo‘lgan musgaqil mavzudir. Biroq ushbu ijtimoiy hodisalar-ning psixologik,iqtisodiy va boshqa sabablari mavjudligi shubhasizdir.

Respublikamizda hozirgi vaqtda aholining 40% dan ko‘pini 17 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar tashkil etadi[1]. Bu esa tanosil kasallik-larining, ayniqsa, bolalar orasida tarqalishining oldini olish chora-tadbirlariga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi. Ushbu tadbirlardan biri yoshlar orasida jinsiy tarbiyani amalga oshirish hisoblanadi.

Shunday ekan voyaga yetmaganlar (ko‘proq qizlar) orasida jinsiy tarbiyaga oid bo‘lgan suhbatlar (mutaxassislarni jalb etgan holda) o‘tkazilishi lozim. Masalan, Germaniyada boshlang‘ich sinf o‘quvchi-lariga maxsus darslarda bolalarning qanday dunyoga kelishi va h.k.lar haqida tushunchalar berib boriladi. Bu esa ularda o‘sib borish jarayonida jinslar, jinsiy hayot haqidagi muayyan bilimlarning shakllanishiga yordam beradi. Biz chet tarbiyasini shundayligicha respublikamiz ta'lim tizimiga kiritish lozim, degan fikrdan yiroqmiz. Chunki har bir holatda, ayniqsa, bolalar tarbiyasi, xususan jinsiy tarbiya bilan bog‘liq masalalar nihoyatda o‘ylab, ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi. Millatimiz, xalqimizning mentalitetini e'tiborga olgan holda maktab, kollejlarning o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklar yaratish, jinsiy tarbiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash vaqti kelamadimikin?

So‘nggi vaqtda, bolalarni qasddan o‘g‘irlash va ularning bedarak yo‘qolishi holatlari norasmiy seks sanoati sohasidagi uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining natijasi, deb taxmin qilish uchun barcha asoslar mavjud. Mazkur biznes sohasida ishlab chiqarish texnologiyasi juda puxta yo‘lga qo‘yilganligiga ishonch hosil qilish qiyin emas. Buning uchun jahon “Internet” tarmog‘i saytlariga kirishning o‘zi kifoya.

Qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti nomukammal bo‘lgan sharoitlarda uyushgan jinoiy tuzilmalarning roli kriminogen vaziyatga, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligiga ta'siri ham qonuniy ravishda ortadi.

[1] Оила психологияси. –Т: Шарқ. 2001. –Б. 105.

Jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi alohida shaxslar va guruhlar birlashadi. Bunday uyushmalarning qat'iy ierarxiya va intizomga bo'ysundirilgan infratuzilmasi maromiga yetkaziladi. Jinoiy uyushmalar faoliyatiga xotin-qizlar tobora faol jalb etiladi. Tabiiyki, jinoyatchilikning umumiy o'sishi sodir bo'layotgan, uyushgan jinoiy tuzilmalar faol ish olib borayotgan sharoitlarda ayollar jinoyatchiligiga huquqni muhofaza qilish organlarining qarshilik ko'rsatishi, xotin-qizlarning jinoiy uyushmalar tizimiga jalb etilishining oldini olishi ancha qiyinlashadi. 2003-yilda jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning umumiy sonidan ayollar ulushi sezilarli ravishda, ya'ni 10,4 %ga o'sgan. 1997-2000-yillarni solishtirsak, qasddan odam o'ldirish 94/102 ta, (8,4 %-9,4 %), qasddan badanga shikast yetkazish 65/77 ta 7,8 %-11,1 %); o'g'rilik 760/788 ta (11,4 %-10,3 %); firibgarlik 209/378 ta (3,1 %-5 %); bezorilik 658/778 (9,8 %-10,2%) va boshqa sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha ayollarning hissasi ko'payib borganligini ko'ramiz.[1]

O'zbekistonda shakllanayotgan fohishabozlik tizimining yana bir xavfli jihati shundaki, mazkur tizimni uyushgan jinoyatchilik o'z nazorati ostiga olishga harakat qilmoqda. Fohishalar xizmatidan foydalanishdan tushayotgan pullar uyushgan jinoyatchilikning, jumla-dan, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining xizmatchilarini pora evaziga og'dirishga sarflanayotgan kapitalning katta qismini tashkil etayotir.

Jinoiy jazoga loyiq faoliyat sohalarining kengayishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida uyushgan jinoiy guruhlarning "bir-lashishi", fohishalar xizmatidan daromad olish, pornografik narsalar va giyohvandlik vositalarini tarqatish hozirgi zamon bosqichida uyushgan jinoyatchilikni ta'riflaydigan asosiy belgilardan biridir.

Bunday sharoitlarda uyushgan jinoiy faoliyatda ayollarning ishtiroki masalalariga doir jiddiy ilmiy tadqiqotlarning yo'qligi ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jinoyatchilikning, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligining tuzilishida mavjud bir qator salbiy hodisalarni uzoq vaqt va sun'iy ravishda yashirib kelish (buning natijasi o'laroq, mazkur hodisalarga qarshi kurash chora-tadbirlarining mavjud emasligi) bugungi kunda o'z "hosili"ni bermoqda va jinoiy professionalizmning saviyasi tobora ortib borayapti[2], desak, adashmaymiz. Professional ayollar jinoyatchiligi muammosi mavjudligi, bu muammoning ilgari ham mavjud bo'lgani sir emas, ammo "jinoyatchilik sabablarini tubdan yo'qotishga qaratilgan

[1] Женщины и мужчины Узбекистана сатистический сборник. Т.: 2002. –С. 118-119.
[2] Закруллаев А.К. Жиноий уюшмалар томонидан содир этиладиган жиноятларни тергов ыилиш хусусиятлари. Юрид. фан. ном. Илмий дараж. Олиш учун дисс. автор. Т.: 2005, -Б. 24.

umumxalq kurashi" davrida bu muammoga, tabiiyki, e'tibor berilmagan. Bugungi kunda esa, mazkur hodisani oʻrganmasdan va uning xususiyatlarini aniqlamay turib, ayollar jinoyatchiligini obyektiv bilish, oʻrganish mumkin emas.

Professional oʻgʻri, tovlamachi, qoʻshmachi, giyohvandlik vosita-lari va oʻgʻirlangan buyumlarni sotuvchi ayollar jinoiy an'analar va udumlarning faol tarqatuvchilari boʻlib, oʻz faoliyati doirasini kengaytirmoqda, bu faoliyatga koʻplab ayollar, ayniqsa, yoshlar jalb etilmoqda. Soʻnggi vaqtda tarqalgan oʻziga xos madaniyati, jinoiy an'analari va udumlariga ega boʻlgan "oʻgʻrilik gʻoyasi" ham bunga koʻmaklashmoqda. Mazkur madaniyat, jinoiy an'analar va udumlar, bir qadar boshqacha shaklda boʻlsa-da, ozodlikdan mahrum qilish joylarida ham, ozodlikda ham rivojlanmoqda.

Bu oʻrinda umumiy professional jinoyatchilik tuzilmasida ayollar asosan yordamchi rol oʻynashini ham qayd etib oʻtish kerak. Ammo koʻpgina hollarda ayollar jinoyatni sodir etishda ancha faol rol oʻynaydi, ba'zi bir hollarda esa jinoyatda ayolning ishtirokigina uning "muvaffaqiyati"ni ta'minlashi mumkin. Bu masalaga keyingi paragraflardan birida atroflicha toʻxtalamiz.

Biz ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida, ichki ishlar organlarining amaliy xodimlari – tergovchilar, surishtiruvchilar, ayollar jinoiy jazoni oʻtayotgan muassasalarning xizmatchilari orasida oʻtkazilgan soʻrov natijasida olgan ayrim ma'lumotlarni keltirish oʻrinli boʻladi. Masalan, soʻralganlarning 65 % uyushgan jinoiy uyushmalarga xotin-qizlarning jalb etilishi tendensiyasi soʻnggi vaqtda kuchayib borayotganini qayd etdi. Respondentlarning 22,3 % oʻz javoblarida bunday hodisa mavjud emasligini koʻrsatadi. Soʻralganlarning 12,5 % javob berishga qiynalishini ma'lum qildi. Professional jinoyatchi ayollarning faolligi haqidagi savolga ichki ishlar organlari xodimlarining 37,5 % bunday tendensiya kuchayib borayapti, deb javob berdi, 25,0 % - ayollar professional jinoyatchiligida oʻsish sezilmayotganligini koʻrsatdi, 37,5 % - javob berishga qiynalishini ma'lum qildi.

Tanlab oʻtkazilgan soʻrovlarning yuqorida keltirilgan natija-lari qoʻyilgan savollarga javob berishga qiynalgan respondentlar sonining koʻpligi bilan e'tiborni oʻziga qaratadi. Bu munosabat bilan ularni mazkur xodimlarning ayollar professional va uyushgan jinoyatchiligi masalalari boʻyicha zarur ilmiy tadqiqotlar, amaliy tavsiyalarning mavjudligi haqidagi fikrlariga taqqoslash e'tiborga molik. Soʻralganlarning 87,5 % bunday izlanishlar shubhasiz dolzarb ahamiyatga ega va ularni amalda

qo'llash zurur deb ko'rsatdi, respondentlarning atigi 12,5 %dan salbiy javob olindi. Bundan kelib chiqib, ayollar jinoyatchiligiga qarshi bevosita kurash olib boruvchi va uning profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi amaliy xodimlar professional ayollar jinoyatchiligi va uyushgan jinoiy uyushmalar faoliyatida ularning ishtiroki masalalariga doir tegishli bilimlarning yo'qligi bilan bog'liq ma'lum qiyinchiliklarni his qilmoqda, deb taxmin qilish mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarida xotin-qizlarni saqlash va ular jazo o'tab chiqqanidan so'ng ularni yangi turmushi sharoitlariga moslashtirish bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi ham hozirgi kunda ayollar jinoyatchiligining ahvoliga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jinoyatchi ayollarni qayta tarbiyalash va ularning kelgusida jinoiy faoliyatning oldini olish bilan bog'liq ko'pgina masalalar ularning ozodlikdagi hamfuqarolari to'qnash kelgan muammolar oldida orqa planga surildi. Xotin-qizlar koloniyalarida, ayniqsa, tashvishli vaziyat yuzaga keldi. Umumiy tartibli koloniyalardagi mahkumlarning 46,3 %, qattiq tartibli koloniyalardagi mahkumlarning esa 58 % jinoyat sodir etgan paytgacha ma'lum bir ish bilan shug'ullanmagan. 2,4 %ni tashkil etuvchi uy bekalari, ya'ni oilaning boshqa a'zolariga boqimanda bo'lgan xotin-qizlar bular jumlasiga kirmaydi. Ozodlikdan mahrum qilingan xotin-qizlarning faqat 20 % jinoyat sodir etgan paytida doimiy turar joyga ega bo'lmagan.

Jinoyatga qo'l urishdan o'zini tiyishga majbur qiluvchi omil, ijtimoiy nazorat funksiyasini bajaruvchi oila ayollar ozodlikdan mahrum qilish joylaridan chiqquniga qadar odatda buzilib ketadi. Ota-onaning ajralishi va oilaning buzilishi natijasida bolalarga e'tibor susayadi. So'qqabosh, nikohda omadi yurishmagan onalar nikohda baxtiyor onalarga qaraganda o'z farzandlarining tarbiyasiga kam e'tibor beradilar. Otasizlik emas, balki nazoratning susayishi hamda farzand bilan qolgan onaning o'zining yangi maqomiga moslashishida muhim rol o'ynaydi.[1]

Shu narsa diqqatga sazovorki, yuqorida zikr etilgan hollarda erkak mahkumlarga qaraganda, mahkuma ayollarning oilalari ko'proq buzilib ketadi. Bunday holatlar sobiq mahkumalarning jamiyatga moslashishini o'z-o'zidan og'irlashtiradi, uzoq vaqt mobaynida normal turmush sharoitlaridan mahrum bo'lgan, jizoni o'tash davrida g'ayriijtimoiy ko'nikmalar va odatlardan qutulmagan ayollar oldida ba'zan faqat bitta yo'l – jinoiy faoliyatni davom ettirish qoladi.

---

[1] Фрайди Поль С. Преступность молмдежи и ее предупреждение: стратегия воздействия. Крмимнологические исследования в мире. М., 1995, - С. 122.

**8-Jadval**

**Ayol jinsiga mansub mahkumlar va aholining oilaviy aholiga ko‘ra taqsimlanishi, % da**




To‘g‘ri, bu avvalambor, jamiyatimizning bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida boshdan kechirayotgan obyektiv qiyinchiliklar bilan bog‘liq, ko‘p jihatdan qonuniy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy jarayondir. Bu yerda, jumladan, bozor iqtisodiga o‘tilishiga qarab, davlatning ochiq jahon iqtisodiyoti tizimiga muqarrar ravishda qo‘shilishi natijasida mamlakatning iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning roli ortib borishiga e’tiborni qaratishni istar edik. Bu ham obyektiv tarixiy jarayondir, ammo u doim ham ijobiy natijalarga olib kelavermaydi.

Tadbirkorlikda xotin-qizlarning ishtirok etishi – bozor iqtisodiyoti sharoitlarida yuzaga kelgan zarurat taqazosidir. Res-publikada kichik biznes sohasida band bo‘lganlarning 45 %ni xotin-qizlar tashkil etadi. Ularning aksariyati turli mulk shakllariga asoslangan nodavlat korxonalarda yollanma ishchi kuchi sifatida mehnat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti tuzilmalari shakllanayotgan, ilgari bizga ma’lum bo‘lmagan erkin tadbirkorlik shakllarini qonun yo‘li bilan samarali tartibga solish tizimi mavjud bo‘lmagan sharoitlarda jamiyat jinoiy faoliyat, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligining yangi shakllari bilan to‘qnash kelishga majbur bo‘ladi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida xotin-qizlar rolining ortib borishi bank operatsiyalari bilan bog‘liq firibgarlik, davlatning pul mablag‘larini o‘zlashtirish, soliq qonunlarini buzish kabi jinoyat turlari uchun qulay zamin yaratishini jahon amaliyotidan ko‘rish mumkin. Bu nuqtai nazardan mazkur jinoyatlar ayollarni erkaklarga qaraganda kamroq o‘ziga jalb etadi, deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lar edi.

Turli firibgarliklar va o‘z mansab vakolatini suiiste’mol qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan tijorat tuzilmalari (kooperativlar, xususiy va qo‘shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari va hokazolar) xizmatchilari soni tobora ortib borayotgani ham fikrimizning isbotidir. Bunday shaxslarning katta qismini xotin-qizlar tashkil etadiki, bu ular pul-moliya operasiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq mazkur faoliyat sohalarida band etilgani bilan obyektiv izohlanadi.

Masalan, 1969-yilda tug‘ilgan, “Speskomplektgaz” OTAJ buxgalteri S., ushbu jamiyatning boshqaruvi raisi D. va ombor mudiri A.lar bilan oldindan til biriktirib, o‘zlariga ishonib topshirilgan o‘zgalar mulkini talon-taroj qiladilar. S. O‘zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 4-qismi “a” bandi, JK 205-moddasi 2-qismi “a” bandi va JK 207-moddasi 1 qismi bilan aybdor deb topilgan, jinoyat jami bo‘yicha 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan.[1]

2000-yil oktabrda “Paxta-bank” AB boshqaruvining raisi, O‘zbekiston fuqarosi G. va 1,5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi. U bank muassislari bilan jinoiy til biriktirib, ularga g‘ayriqonuniy ravishda 100 million so‘m miqdordagi kreditni berganlikda ayblandi.

Mazkur tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining ayrim moddalari, jumladan, JKning soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 184-moddasini qo‘llash amaliyotini o‘rganish natijalari ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning doirasi kengayganligining guvohi bo‘lamiz.

Biz o‘rgangan shaxslarning aksariyatiga nisbatan jinoiy ta’qib dastlabki tergov bosqichida, qoida tariqasida, davlatga yetkazilgan zarar qoplanishi va aybdorlarga qonunda belgilangan jarimalar solinishi munosabati bilan to‘xtatilgan.

To‘g‘ri, hozirgi zamondagi ayollar jinoyatchiligining tavsifi yuqorida keltirilgan omillar bilangina cheklanmaydi. Yuqorida zikr etilgan omillar, bizning fikrimizcha, prinsipial ahamiyatga ega. Mazkur omillarga muvofiq ravishda ta’sir ko‘rsatish va ayollar jinoyatchiligiga ularning salbiy ta’sirining oldini olish maqsadida, ularga jiddiy e’tibor berish kerak.

“Barqaror iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina jinoyatchilikka qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkin”.[2] Mazkur huquqiy aksiomaga qo‘shilmaslik mumkin emas.

Ammo vaziyat yaxshi tomonga o‘zgarishiga hali ancha bor. Jinoyatchilik va iqtisod “muvoziy yo‘nalishda” harakatlanibgina qolmay,

---

[1] Тошкент шаҳар Мирзо Улуғбек туман суди архивидан. 1-382/99 рақамли жиноят иши.

[2] Карпец И.И. Экономика и преступность // Ж. Законность. № 3. 1992. –С. 50.

xo'jalik munosabatlari va siyosiy hayot barqarorlashganidan keyin ham moddiy ishlab chiqarishdagi inqirozning salbiy oqibatlari uzoq yillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.[1] Gap shundaki, mazkur o'tish davri qiyinchiliklari ta'sirida o'ta yashovchan g'ayriijtimoiy qarashlar va udumlar, axloqqa zid normalar va tasavvurlar shakllanmoqda. Bu qarashlar, normalar va tasavvurlarning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari yo'qolganidan keyin ham ular anchagacha saqlanib qoladi. Bu nuqtai nazardan ayollarda g'ayriqonuniy xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhitning, ayniqsa, mikroijtimoiy muhitning, shuningdek, ularning krimi-nogen faolligidagi tafovutlarni belgilovchi omillarning rolini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi[2].

## 6.2. Ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-maishiy sabablari

Yuqorida ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganganimizda jumladan, uni keltirib chiqaruvchi omillar – jamiyat va davlat rivojlanishining umumiy tendensiyalari, qonuniyatlariga ham to'xtalib o'tgan edik. Mazkur omillarga shaxs hayoti va faoliyatini belgilovchi mikromuhitini ham kiritish mumkin. Shaxsning yashaydigan va faoliyat ko'rsatadigan muhiti masalasiga kelsak, ayni holda muayyan shaxs va kichik ijtimoiy guruhlarning xulq-atvoriga ular yashayotgan muhitning ta'sirini tahlil qilishni maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan mikromuhitning asosiy tiplari, bir qator olimlar, jumladan, Y.V.Sichev tomonidan ham o'rganilgan. Uning fikriga ko'ra, mazkur tiplarga quyidagi: 1) shaxsning faoliyati turi (ishlab chiqarish – mehnat, oilaviy-maishiy, o'quv-tarbiya, madaniy-oqartuv, harbiy, majburiy mehnat)ga qarab; 2) hududiy belgi (katta shahar, shaharcha, qishloq va h.k.)ga qarab; 3) milliy-etnik belgiga qarab; 4) yoshiga qarab; 5) jinsiy belgiga qarab ajratish mumkin[3].

Mazkur tipologiyaning mikromuhitini kriminologik o'rganishga tatbiq etish mumkin, chunki unda mazkur mikromuhitning barcha asosiy turlariga e'tibor berilgan bo'lib, jinoyatchi shaxsining shakllanish yo'llari va mexanizmini tushunib yetish uchun ularni tahlildan o'tkazish zarur[4].

Ammo yuqorida taklif etilgan sxemani bizning tadqiqotimizga tatbiq etish uchun bir qadar o'zgartirish va aniqlik kiritish zarurligini qayd etib o'tmoqchimiz.

---

[1] Собиров М.С., Шомуротов Ш. Бозор муносабатлари шароитидаги иқтисодий жиноятлар, уларнинг қисқача криминологик тавсифи ва олдини олиш йўллари. Т.: Ўзбекисон Республикаси ИИВ Академияси, 1999. –Б.21.
[2] Антонян Ю.М. О прогнозе преступности в стране. – М., 1992. – С. 84.
[3] Сичев Ю.В. Микроседа личности и ее место в системе социальнқх связей. // Философские проблемқ обўесвенного развития. М., 1971. –С. 146.
[4] Антонян Ю.М. Социальная среда и формирование личности преступника (неблагоприятноепе влияние на личность в микросреде). — М., 1975. С. 16.

Birinchidan, tadqiqotimizning tuzilishida jinsiy belgi birinchi, umumiy planga chiqadi. Qolgan belgilarni esa shaxsning ayol jinsiga mansubligidan kelib chiqib, ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, taklif etilgan shaxs yashayotgan mikromuhitni faoliyat turlariga qarab ajratish usulini jinoiy faoliyat bilan bog‘liq mikromuhit bilan to‘ldirish lozim, chunki bu faoliyat kriminologik tadqiqotimizning predmetini tashkil etadi. Bundan tashqari, mazkur faoliyat turi bizning holatda shaxsning boshqa faoliyati turlariga nisbatan hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shunday qilib, aynan shaxsning jinoiy faoliyati va uning ma’lum jinsga mansubligi g‘ayriqonuniy xulq-atvor va ayollarning kriminogen faolligidagi yosh tafovutlarini belgilovchi omillarning shakllanishida mikroijtimoiy muhitning rolini o‘rganish jarayonida asosiy tayanch nuqtalar bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, biz g‘ayriijtimoiy yo‘nalishdagi kichik norasmiy ijtimoiy guruhlar, jumladan, jinoiy guruhlarning jinoyatchi ayollar shaxsiga ta’sirini, shuningdek, jinoyatchi ayollar ijtimoiy muhitining o‘zgarishida migratsiya jarayonlarining ahamiyatini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Mazkur elementlar ham tadqiqotimizda yoritilishi lozim bo‘lgan mikroijtimoiy muhitning mustaqil belgilari jumlasiga kiritildi.

Ma’lumki, oila mikromuhitning asosiy sohalaridan biridir. Oilaning muayyan shaxsga ta’siri uning tarkibi (ota-onaning yoki ulardan birining mavjudligi) va oiladagi o‘zaro munosabatlarning xususiyati bilan belgilanadi[1]. Ota-onali oilada inson odatda ijtimoiy aloqalarning dastlabki va umumiy tajribasini orttirsa, o‘zining shaxsiy oilasida munosabatlarni u shu vaqtgacha orttirgan ijtimoiy tajribasiga asosan quradi. Shuning uchun ham xotin-qizlarning deviant xulq-atvorining shakllanishida oila mikromuhitining roliga mana shu tafovutlardan kelib chiqib qarash kerak.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan jinoyatchi ayollardan 16,9 % - to‘liq oilada, 55,4 % - to‘liq bo‘lmagan oilada (shundan 93,1 % - yolg‘iz ona qo‘lida), 12,3 % - yaqin qarindoshlari tomonidan, 15,4 % - bolalar uylari, internatlarda tarbiyalangan. Bunda to‘liq oilada tarbiyalanganlarning 42,3% otasi yoki onasining ikkinchi nikohga kirishiga guvoh bo‘lgan.

O‘rganilganlarning 3,1% ginasi  irsiy nuqsonlarga ega bo‘lmagan. Qolgan hollarda quyidagi nuqsonlar qayd etilgan: alkogolizm - 49,0%, giyohvandlik - 23,1 %, ruhiy kasalliklar - 7,7 %, tanosil kasalliklar - 5,6 %, somatik xususiyatga ega kasalliklar - 34,5 %.

---

[1] Халматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбиясі. Т.: Ўзбекистон , 2000, -Б. 91-92.

O‘rganilgan ayollar va ularning ota-onalari o‘rtasidagi oilaviy munosabatlarni ta’riflovchi ma’lumotlar ham e’tiborga molik. «Voyaga yetmagan yoshda jinsiy tazyiq obyekti bo‘lganmisiz?», degan savolga respondentlarning 2,8 % tasdiq javobini berdi va o‘z otalari ularga bunday tazyiq ko‘rsatganini ma’lum qildi. So‘ralganlarning 10,9 % o‘gay otasi, 7,7 % ga qarindosh-urug‘lari, 4,6 % ga boshqa shaxslar jinsiy tajovuz qilgan.

Polshalik taniqli seksopatolog olim Z.Starovich bunday oilaviy munosabatlarni ta’riflab, o‘z farzandlariga nisbatan otalarda jinsiy moyillik kelib chiqishining quyidagi sxematik ketma-ketligini qayd etadi: shaxsning patopsixologik rivojlanishi - alkogolizm - shaxsning ichkilikka berilishi natijasida tubanlashishi - jinsiy aloqa (shu jumladan, o‘z farzandi bilan ham)[1].

Bu munosabat bilan biz Y.M.Antonyanning farzandning o‘z ota-onasidan psixologik uzoqlashishi jinoyatchi shaxsi shakllanishining yagona sababi emas, degan fikriga qo‘shilamiz. Ba’zan bu boshqacha kechadi: bola va o‘smir o‘z ota-onasi bilan zarur emotsional aloqalarga ega, ammo ota-ona o‘z farzandiga axloq va huquq normalariga bepisandlik bilan qarashlarni, g‘ayriqonuniy xulq-atvor namunalarini ko‘rsatadi. Yuqorida zikr etilgan aloqalar mavjudligi tufayli, o‘smirlar mazkur namunalar, tegishli qarashlar va tasavvurlarni o‘zlariga psixologik jihatdan yaqin odamlardan ancha oson o‘zlashtiradi. O‘zlashtirilgan g‘ayriijtimoiy va g‘ayri-qonuniy qarashlar va tasavvurlar o‘smirlarning shaxsiy qilmishlarini rag‘batlantira boshlaydi[2].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar jinoyatchi ayollar tug‘ilib o‘sgan oilalarda mavjud bo‘lgan nomaqbul manzarani yorqin aks ettiradi.

Olib borilgan tadqiqot mazkur ayollarning o‘z oilalaridagi mikromuhit ham ancha murakkab ekanligini ko‘rsatdi.

Jinoyat sodir etgunga qadar ularning 33,7 % - rasmiy nikohda, 11,2% - erkaklar bilan ro‘yxatdan o‘tkazilmagan munosabatlarda bo‘lgan, 41,2% - hech qachon nikohda bo‘lmagan, 13,9 % - eri bilan ajrashgan.

O‘z farzandlarining mavjudligi jihatidan ayollarning quyidagi nisbati qayd etildi: onalik huquqidan mahrum etilganlar - 10,1 %, bir bolali onalar - 27,6%, ikki bolali onalar - 19,3 %, uch va undan ortiq bolali onalar - 14,1 %, farzandsizlar – 28,9 %.

Mazkur ma’lumotlarni jinoyatchi ayollarning jinoyat-huquqiy tavsifiga oid ma’lumotlarga taqqoslash natijalari e’tiborga molikdir.

---

[1] Старович З. Судебная сексология. — М., 1991. С. 253.
[2] Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. - М, 1992. С. 84.

Chunonchi, odam o‘ldirish (shu jumladan odam o‘ldirishga suiqasd qilish) jinoyati sodir etganlar jami jinoyatchi ayollarning 12,3 %ni tashkil etadi. Shulardan 9,8 % o‘z bolasini, 44,6 % esa - eri yoki jazmanini o‘ldirgan.

Oilaviy, maishiy sohada ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi masalalariga maxsus kriminologik tadqiqotlarda katta e’tibor berilgan. Ularning deyarli hammasida spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish va ichkilikbozlikning jinoiy xulq-atvor bilan bevosita aloqadorligi alohida qayd etib o‘tilgan[1].

Bu o‘rinda D.A.Shestakovning oilaviy munosabatlar hamda jinoiy xulq-atvor bilan ularning o‘zaro aloqasi muammolariga bag‘ishlangan ishlarini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu olimning xizmati shundaki, uning tadqiqotlari ta’sirida hozirgi zamon kriminologiyasida mustaqil yo‘nalish - oilaviy kriminologiya shakllandi[2]. Shuning uchun ham bu yerda yoritilayotgan muammolarni tavsiflovchi qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tishni lozim deb topdik[3].

**9-Jadval**

**Spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilganlar (o‘rganilganlarning tegishli toifalariga foiz nisbatida)**

| | |
|---|---|
| Jinoyatchi erlar | 30 % |
| Jinoyatchi xotinlar | 16 % |
| Jabrlanuvchi erlar | 44 % |
| Jabrlanuvchi xotinlar | 22 % |

**10-Jadval**

**Spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish bilan oilaviy mojarolarning aloqasi (foizda)**

| Mojaro holatlari | Xotinini o‘ldirgan | Erni o‘ldirgan |
|---|---|---|
| Mast bo‘lmagan holatda | 80 % | 80 % |
| Er mast bo‘lgan holatda | 10 % | 10,5 % |
| Xotin mast bo‘lgan holatda | 3,5 % | 3,5 % |
| Er-xotin mast bo‘lgan holatda | 2,5 % | 3 % |
| **Jami** | **96 %** | **97 %** |

[1] Середа Э.В. Личность женщин, впервые осужденных за тяжкие насильственную преступления и их исправление и перевоспитание в И.ТК. Канд. дисс. -М., 1983. С. 204; Явчуновская Т.М. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика преступности женщин-алкоголичек. Автореф. канд. дисс. - М., 1981. С. 23.

[2] Шестаков Д.А. Семейная криминология. СПб., 1996. 148 с.

[3] Шестаков Д.А. Супружеское убийство как общественная проблема. СПб., 1992. С. 69-70.

Yuqorida keltirilgan jadvallardan ko‘rinib turibdiki, oila-ro‘zg‘or munosabatlari negizida odam o‘ldirganlar sonida spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilgan erkaklar va ayollar salmog‘i bir xil emas. Ammo bu har 10 ta alkogolizmga chalingan erkakka 3-5 ta ona shunday kasal deb topilgan ayol to‘g‘ri kelishini ko‘rsatuvchi mavjud statistikaga mosdir[1].

Oila-ro‘zg‘ordagi janjallar negizida ayollar O‘zbekiston Respublikasi JK 103-105, 108-109-moddalarida nazarda tutilgan va bezorilik jinoyatini (JK 277-moddasi) ham ancha ko‘p sodir etadilar. Ularning bunday harakatlari natijasida ko‘pincha ularning erlari, jazmanlari, qarindosh-urug‘lari va qo‘shnilari jabr ko‘radi.

Jinoyatchi ayollarning mikroijtimoiy oila muhitini ta’riflashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lum viktimologik jihat - jabrlanuvchilarning xulq-atvoriga e’tiborni qaratishni istar edik. Tadqiqotimiz ko‘rib chiqilgan jami jinoyatlarning 59,8 %da jabrlanuvchilarning xulq-atvori, shu jumladan: alkogolizm, aybdorning shaxsiga, uning farzandlariga hurmatsizlik, urish, kaltaklash ko‘rinishidagi zo‘ravonlik jinoyatga turtki berganini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, janoyat ishlari va qonuni qo‘llash amaliyotini o‘rganish natijasida biz tergov va sud organlari ko‘pincha jabrlanuvchilarning mohiyat e’tibori bilan jinoiy jazoga loyiq tegishli qilmishlar doirasiga mansub bunday xatti-harakatlariga muvofiq yuridik baho bermaydi, degan xulosaga keldik. Masalan, ayollarning jinoiy xulq-atvorini jinoyat-huquqiy baholashda mazkur viktimologik omilga bepisand qarash hollari odatda ularga qo‘yiladigan aybning darajasi va qonuniy ravishda - jinoiy jazo sanksiyalarining miqdorida ham o‘z aksini topadi.

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tuman sudining 1998-yil 23-oktabrdagi hukmi bilan S. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 1-qismi bilan 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

Sudning hukmiga ko‘ra S. 1998-yil 2-avgust kuni soat 13.00 larda kelinoyisi Yo‘ldosheva bilan janjallashib, qo‘lidagi oshpichog‘i bilan uning ko‘krak qismiga bir marta urib, uning hayoti uchun xavfli bo‘lgan tan jarohati yetkazganlikda ayblangan.

Sud jazo tayinlayotganida jabrlanuvchining g‘ayriaxloqiy xulqiga, uning kasalxonada 10 kun davolanganiga e’tibor bermaganligi tufayli S. va Yo‘ldoshevalarning kassatsiya shikoyatiga ko‘ra Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan ko‘rilib, qo‘shimcha sud ekspertizasining xulosasida Yo‘ldoshevaga yetkazilgan tan jarohati sodir etilgan vaqtida hayoti uchun xavfli bo‘lmagan deb

[1] Брон Э. Пить или жить ? //Аргументы и факты. 1997. № 45.

ko‘rsatilgan. Shularga asosan viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tuman sudining S.ga nisbatan chiqargan hukmini o‘zgartirib, uning jinoiy harakatlarini JK 105-moddasi 1-qismiga qayta kvalifikatsiya qilib, uni 3 yil ozodlikdan mahrum etishga ajrim chiqargan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 1-dekabrdagi “Amnistiya to‘g‘risida”gi Farmonining 2-moddasiga asosan S.ni jazodan ozod etgan.

Yakkabog‘ tumanida yashovchi S. 2000-yil 4-sentabrda eri Y.Xalturayev bilan o‘zaro janjallashib, uning boshiga bolta bilan urib, uning o‘limiga sabab bo‘lgan. Aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilingan.

1968-yilda Qarshi tumanida tug‘ilgan o‘zbek, oilali, 2 nafar farzandi bo‘lgan P. A.Davletov bilan yashagan, uni boshqa xotinlar bilan yurganlikda gumon qilib, uxlab yotganida boshiga bolta bilan urib, jabrlanuvchining hayoti uchun xavfli bo‘lgan og‘ir tan jarohatini yetkazgan va hodisa joyidan qochib ketgan.

Qarshi tuman sudining hukmi bilan P. JK 25-97-moddasi 2-qismi “v” va “j” bandlari bilan aybdor deb topilib, unga 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

O‘quv-tarbiya mikromuhiti shaxsning hayotiy qadriyatlari va qiziqishlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ma’lumot darajasi bilan kriminogenlikning o‘zaro bog‘liqligi umum e’tirof etilgan: shaxsning ma’lumot darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar sodir qilish ehtimoli shuncha kam bo‘ladi, zotan, yuqori ma’lumot darajasi shaxsga u yoki bu xulq-atvor variantining oqibatlarini yaxshiroq anglash, ijtimoiy maqbul ehtiyojlarni shakllantirish va ularni qondirishning qonuniy yo‘llarini topish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tadqiqot jarayonida jinoyatchi ayollarning ma’lumoti darajasi ham aniqlandi. Olingan ma’lumotlarni ozodlikdan mahrum qilingan ayollarning ma’lumot darajasini tavsiflovchi 1979-va 1989-yillardagi mahkumlarni ro‘yxatdan o‘tkazish natijalariga, shuningdek, ozodlikdan mahrum etilgan erkaklarning ma’lumot darajasi haqidagi ma’lumotlarga taqqoslab, biz juda qiziqarli manzaraga guvoh bo‘ldik.

**11-Jadval**

## Mahkumlarning ma'lumot darajasiga qarab taqsimlanishi, foiz hisobida[1]

| Ma'lumot darajasi | Mahkum ayollar | | | Mahkum erkaklar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 1979-yilgi ro'yxatdan o'tkazish | 1989-yilgi ro'yxatdan o'tkazish | Tadqiqotimiz natijalari | 1979-yilgi ro'yxatdan o'tkazish | 1989-yilgi ro'yxatdan o'tkazish |
| Boshlang'ich | 17,8 | 7,3 | 10,3 | 14,4 | 5,0 |
| To'liqsiz o'rta | 46,1 | 30,6 | 30,2 | 52,2 | 26,9 |
| Umumiy o'rta | 27,2 | 47,6 | 40,8 | 29,1 | 60,1 |
| O'rta maxsus | 7,3 | 11,2 | 16,2 | 3,1 | 6,2 |
| Tugallanmagan oliy | 0,4 | 0,6 | 1,2 | 0,4 | 0,5 |
| Oliy | 1,2 | 2,7 | 1,3 | 0,8 | 1,3 |
| **JAMI:** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** |

Keltirilgan jadvalda biz o'rgangan kontingentning ma'lumot darajasi ko'rsatkichlari 1989-yilgi mahkumlarni ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlaridan birmuncha «ko'tarilgani» e'tiborni o'ziga tortishi mumkin. Bu, asosan, jazoni o'tashning qattiq tartibi belgilangan ayollar bizning holatda 24,4 % (O'zbekiston hududidagi empirik ma'lumotlarga ko'ra) va 42,4 %ni (Rossiya Federatsiyasining empirik negiziga ko'ra) tashkil etgan bo'lsa, 1989-yilgi ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga ko'ra, mazkur kontingent xotin-qizlar ahloq tuzatish – mehnat koloniyalarida jazoni o'tayotganlarning 8,9 %ni tashkil etgani bilan izohlansa kerak[2].

Tabiiyki, shaxsning ma'lumot darajasini bunday shaxs mazkur ma'lumotni olgan ijtimoiy muhit bilan bog'lab baholash kerak. Ma'lumki, ta'lim jarayoni odamlar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy munosabatlarning turli shakllari, ta'limni tashkil etish, o'quv jamoasida shaxs ijtimoiylashuvining shart-sharoitlari va hokazolar bilan chambarchas bog'liqdir.

[1] Махкумларни рўйхатдан ўтказиш маълумотлари қуйидаги манбаадан олинган: Потемкина А.Т. Характеристика осужденных женщин, отбивающих наказание в ИТК (по материалам специальной переписи осужденных 1989 г.). - М., 1993. С. 14.

[2] Михлин А.С. Общая характеристика осужденных (по материалам специальной переписи осужденных 1989 г.). -М., 1991. С. 17.

Shuning uchun ham maktab va kollejlarda ta'lim berish va tarbiyalash bilan bog'liq muammolar alohida e'tiborga molik, zotan, bu muassasalarda o'quv-tarbiya jarayoni uzoq vaqt mobaynida «bir jinsli», umumlashtirilgan va tenglashtirilgan yondashuv asosiga qurilib kelgan. Bunday ahvol bugungi kunda ham qisman saqlanib qolayotir. Pirovard natijada o'smirlarda o'g'il bolalar va qizlarga xos bo'lgan individual ruhiy-jismoniy xususiyatlarning chegaralari «yuvilib» ketmoqda. Tarbiya chora-tadbirlarining mavjud tizimi aynan o'smirlar fe'l-atvori, ruhiyati, fiziologik ehtiyojlariga ko'proq mos keladi, ularga xos bo'lgan dunyoqarashni shakllantiradi. Qizlar esa, o'z shaxsining shakllanishi davrida bunday ta'sirni his qilish natijasida, birinchidan, o'ziga tabiat ato etgan ayollik asoslarini yo'qotadi, ikkinchidan, ularda erkaklarga xos bo'lgan jihatlar - erkakshodalik, yetakchilik qilishga intilish, bahsli vaziyatlarni hal qilishda kuchga tayanish, jizzakilik, shafqatsizlik va hokazo xususiyatlar shakllanadi.

Yuqorida zikr etilgan omillar ba'zan shaxsning anomal rivojlanishiga, insoniy aloqalarning asl qadriyatlarini noto'g'ri tushunishiga, g'ayriijtimoiy sifatlarning rivojlanishiga olib keladi. Agar mazkur salbiy omillarning ta'siri katta bo'lib, voyaga yetmagan qizlar jinoyat sodir etsalar ular ta'lim jarayonini majburiy-tarbiyaviy xususiyat kasb etadigan koloniyalar yoki maxsus o'quv muassasalarida ta'limni davom ettiradilar. Ayol jinsiga mansub voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganuvchilar ozodlikdan mahrum etish joylari va tergov hibsxonalarida bunday voyaga yetmagan qizlarda ta'lim jarayonida tajovuzkorlik ayniqsa kuchayishini qayd etadilar[1].

Biz o'rgangan ayollarning 25,7 % 18 yoshini maxsus maktablar, internatlarda qarshi olganini, 10,1 % esa bu davrda koloniyada jazoni o'taganini ko'rsatdi.

Shaxsning mehnat faoliyati alohida shaxs bilan jamiyatni bog'lovchi asosiy bo'g'inlardan biridir. Mehnat faoliyati jarayonida inson tegishli ijtimoiy muhitning ta'sirini o'zida his qiladi va o'z navbatida, bu ijtimoiy muhitga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish o'z holicha shaxsning shakllanishi, boshqa odamlar bilan aloqa qilish, tirikchilik uchun pul topish va boshqa shunga o'xshash tabiiy ehtiyojlarini qondirishi uchun muhimdir.

Biz o'rgangan jinoyatchi ayollarni jinoiy javobgarlikka tortilgan paytgacha shug'ullangan mehnat faoliyatiga qarab quyidagicha tabaqalash

[1] Бойко И.Б. Проявление агрессивности несовершеннолетних осужденных женского пола / Вопросы психологии. №4. 1993. С. 27-30; Данилин Э.М. Педагогизация деятельности ВТК. СП. научных трудов: Совершенствование деятельности ВТК.-М., 1992. С. 30-37.

mumkin: malakasiz ishchilar - 25,4 %, xizmatchilar - 10,2 %, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi xizmatchilari - 3,9 %, tijorat tuzilmalarining xizmatchilari - 0,9 %, o‘quvchilar, talabalar - 1,5 %, pensionerlar - 2,9 %, uy bekalari - 1,2 %, rasman ishsizlar - 0,8 %, ishlamaydigan va o‘qimaydiganlar - 53,2 %.

Jinoiy qilmishlari mehnat faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ayollar o‘tkazilgan tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra 14,5 %ni tashkil etdi. Ular savdo, moddiy-texnikaviy ta’minot va oziq-ovqat ta’minoti, har xil servis xizmatlari (maishiy xizmatdan turistik xizmatgacha) ko‘rsatish sohalarida moliya-kredit va tijorat faoliyati bilan bog‘liq lavozimlarni egallagan holda, asosan xo‘jalik, mansabdorlik va o‘zganing mol-mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari sodir etganlar. Bundan ish bilan band bo‘lish sohasida ayollarning jinoiy xulq-atvorini mansabi bilan bog‘liq bo‘lgan tamagirlik motivi belgilaydi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Ishlab chiqarishda zo‘ravonlik jinoyatlari sodir etish ayollarga xos emas. Buni mazkur muammoga oid tadqiqotlarning ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Masalan, ishlab chiqarishda odam o‘ldirish jinoyatlari asosan erkaklar tomonidan sodir etiladi - 96,5 %. Qotil ayollarning salmog‘i bu yerda odam o‘ldirishlarning umumiy sonidagidan besh baravar kam. Erkaklar mehnati yetakchilik qiluvchi sohalarda ham, asosan xotin-qizlar ishlaydigan sohalar - savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, ta’lim sohalarida ham vaziyatni erkaklar hal qiladi[1]. Ishlab chiqarish - mehnat faoliyati sohasida sodir etiladigan boshqa zo‘ravonlik jinoyatlarida ham taxminan shunday nisbat kuzatiladi.

Shunday qilib, xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi xulq-atvorini ko‘rib chiqishda, muallifning fikricha, «sohaviy jinoyatchilik»[2] tushunchasini ham e’tiborga olish kerak.

Umuman ayollar jinoyatchiligini va jinoyatlarning alohida turlarini kriminologik tavsiflash uchun ishlab chiqarish - mehnat ijtimoiy muhitini soha prinsipidan kelib chiqib o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega, zotan, xo‘jalik yuritishning har bir sohasiga, shu jumladan, jinoyat sodir etishga ham qulaylik tug‘diruvchi o‘z mikroijtimoiy muhiti xosdir. Aynan mana shunday mikroijtimoiy muhitning a’zolari o‘rtasidagi aloqa kanallari, norasmiy aloqalar, ularning asosiy xususiyatlari va belgilarini aniqlashda, jumladan, ayollar faol rol o‘ynaydigan bir guruh shaxs bo‘lib yoki

---

[1] Волошина Л.А., Горбатовская Э.Г., Растегаев А.А. Убийства на производственных обьектах. Характеристика. Предупреждение.// В сб. Предупреждение насильственниых преступлений / совершаемых в сфере производства и бита. - М., 1991. -С. 6.

[2] О понятии и характеристике «отраслевой» преступности. См.: Карпец И.И. Преступность. Иллюзии и реальность. С. 330-338.

uyushgan guruh tarkibida jinoyat sodir etish holatlari xos bo‘lgan mazkur sohalarda jinoiy tajovuzlarga qarshi kurash nuqtai nazaridan kriminologik prognoz qilish zarurati tug‘iladi.

Aytaylik, oila-ro‘zg‘ordagi ayollar jinoyatchiligidan farqli o‘laroq[1] ishlab chiqarishda jinoyat sodir etuvchi ayollarga jizzakilik, xulq-atvorning vaziyatga bog‘liqligi xos emas. Ishlab chiqarishda jinoyat sodir etuvchi ayollar puxta hisob-kitob qilishi, jinoyatga tegishli tayyorgarlik faoliyatini amalga oshirishi, xususan, zarur psixologik aloqalar, shaxsiy aloqalar o‘rnatishi, o‘z harakatlarini va jinoyatdagi sheriklari bilan o‘zaro aloqalarini ma’lum darajada niqoblashi, sir tutishi bilan ajralib turadi. Bunday mikroijtimoiy muhitda uzoq vaqt mobaynida jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish natijasida ayollarda jinoyat sodir etish sohasida tegishli professional ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.

Shu munosabat bilan yuqorida zikr etilgan jinoyatlarni ishtirokchilikda hamkasb ayollar bilan sodir etuvchi erkaklarning rolini ham qayd etib o‘tish kerak. Bunday hollarda ko‘pincha ayollar erkaklarga xizmat yuzasidan tobe bo‘ladi, hamkorlikdagi jinoiy faoliyat uchun javobgarlik masalasi ko‘ndalang bo‘lganida esa jinoyatning haqiqiy tashkilotchilari o‘z aybini ayollarga yuklashga zo‘r berib harakat qiladi, bunda ular, shu jumladan, tergov va sud organlari ayollarga ma’lum yengillik beradi deb umid qiladi, o‘zi bilan sherikchilikda jinoyat sodir etgan ayollarni tergovga xizmat majburiyatlarini ijro etishga sovuqqonlik shaklidagi shaxsiy xatolar qurboni qilib ko‘rsatishga intiladi. Masalan, Angren shahar sudining 1999-yil 11-martdagi hukmiga binoan I. P.Danilevskaya O‘zbekiston Respublikasi JKning 184-moddasi 2-qismi “b” bandi bilan aybli deb topilgan.

U “Qamchiqspendorrenkoltleks” boshqarmasida bosh buxgalter bo‘lib ishlab, yillik hisobot tuzish davrida soliq to‘lashi lozim bo‘lgan foyda 621100 so‘mni boshqarma boshlig‘i bilan kelishgan holda yashirgan.

G‘ayriqonuniy xulq-atvor shakllanadigan mikroijtimoiy muhitni baholashda ayollar jinoyatchiligida mavjud doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bilan bog‘liq tafovutlarga ham to‘xtalib o‘tish kerak. Bunday tafovutlar, masalan, shaharlarda va qishloq joylarida ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni tavsiflaydi.

Ayollar jinoyatchiligini o‘rgangan tadqiqotchilar qishloq joylarida bunday jinoyatchilik darajasi ancha pastligini ilgari ham qayd etganlar[2].

---

[1] Антонян Ю.М., Ткаченко А.А., Шестакович Б.В. Криминальная сексалогия. М.: Спарк, 1999. – С. 37.

[2] Габиани А.А. Преступность среди женщин. - Тбилиси. 1986. С. 74; Серябрекова В.А. Преступления, совершаемые женщинами. - М., 1973.С. 108.

Bu, jumladan, ijtimoiy muhitdagi omillarning ta'siri bilan ham izohlanadi. Shaharda insonning xulq-atvori ustidan yaqin maishiy muhitning nazorati ancha zaiflashadi, bu esa, tabiiyki, g'ayriqonuniy qilmishlar sodir etilishini yengillashtiradi. Qishloq joylarida shaharga nisbatan mustahkam ijtimoiy aloqalarning saqlanib qolganligi o'z holicha ijtimoiy nazorat elementi bo'lib xizmat qiladi va umumiy ijtimoiy-psixologik o'zaro bog'liqlik bilan hisoblashishga majbur qiladi. Y.D.Bluvshteynning fikricha, qishloq sharoitlarida shaxs o'z xulq-atvorini o'zini qurshagan odamlarning qarashlariga muvofiqlashtirishini onglilikdan ham ko'ra ko'proq konformizm, ya'ni murosasozlikning ifo-dasi deb bilish kerak. O'zi ko'nikkan muhit bilan aloqani yo'qotgach, qishloq aholisining vakili zararli ta'sirlarga juda oson berilishining sababi shu bilan izohlanadi[1].

Bu fikrni biz o'tkazgan tadqiqotlarning quyidagi natijalari ham tasdiqlaydi.

**12-Jadval**

**Shaharda va qishloqda jinoyat sodir etgan ayollar, foiz hisobida**

| | **Tug'ilgan joyi** | **Jinoyat sodir etilgan joy** | **Jinoyat sodir etgan ayolning yashash joyi** |
|---|---|---|---|
| **Shahar** | 30,5 % | 65 % | 56 % |
| **Qishloq** | 58,3 % | 27,7 % | 32,7 % |

Ma'lum yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar bu yerda 11,3% ni tashkil etganini ham qayd etib o'tish lozim.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, qishloqda yashaydigan ayollarning jinoiy faolligi ancha past. Binobarin, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar doirasi ham ancha tor. Qishloqda xotin-qizlarning jinoiy faoliyati asosan ishlab chiqarish - mehnat faoliyati bilan bog'liq. Bu xotin-qizlarning savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida bandligi bilan bog'liq xo'jalik va xizmat vazifasi bilan bog'liq, shuningdek, o'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlaridir.

Oila-ro'zg'or muhitida qishloq ayollari shaxsga qarshi jinoyatlar va o'g'riliklar ham sodir etadi, ammo bunday jinoyatlar jamoatchilik tomonidan shahardagiga nisbatan ancha qattiq qoralanadi. Buning ustiga, muallifning fikricha, qishloqda jinoyat sodir etgan va ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan ayollar ozodlikka chiqqanidan keyin ko'pincha

---

[1] Блувштейн Ю.Д. Теоретичемкие вопросы статистические изучения личности преступника. Автроеф. дисс. канд. наук. - М., 1968. С. 13.

uyiga qaytib kelmaydi, balki boshqa joylarda, asosan shaharlarda qoladi. Bu oʻziga xos qonuniyatda ham oʻziga xos mezonlariga ega boʻlgan qishloq mikromuhitining maʼlum xususiyati koʻzga tashlanadi, zotan, mazkur mezonlar, odatda, yuqorida zikr etilgan toifaga mansub ayollar oʻzining avvalgi yashash joyiga qaytib kelishiga sof psixologik toʻsiq boʻlib xizmat qiladi, chunki yashash joyidagi mustahkam ijtimoiy - foydali aloqalar ozodlikdan mahrum qilish tariqasida oʻtalgan jazoning muddati bilan bevosita bogʻliqdir. Bunday sharoitlarda orttiriladigan salbiy koʻnikmalar va xulq-atvor prinsiplari esa, ayollar tushunchasida, ozodlikdagi avvalgi turmush tarziga mos kelmaydi.

Shaharlarda va qishloq joylarida ayollar jinoyatchiligiga mikroijtimoiy muhit omillarining taʼsiriga umumiy taʼrif berishda, bizningcha, shaxs ijtimoiy muhitining oʻzgarishida migratsiya jarayonlarining ahamiyatini ham eʼtiborga olish kerak, avvalambor, oila, qarindosh-urugʻlar, qoʻshnilar, oshna-ogʻaynilar, mehnat jamoasi va xokazolar bilan bogʻliqlikda shakllangan ijtimoiy aloqalarning uzilishi oqibatlari aynan ayollarning jinoiy xulq-atvoriga ayniqsa salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Migrantlar yangi turmush va hayotiy faoliyat sharoitlariga moslashishi davrida ularning orasida jinoyatchilikning darajasi nisbatan katta boʻlishi olimlarning eʼtiborini ilgari ham oʻziga tortib kelgan[1].

Ammo, bugungi kunda, qishloq yoshlarining oʻqishga yoki pul topish uchun shaharlarga kelib qolib ketishi va boshqa shunga oʻxshash odatdagi migratsiya jarayonlariga sobiq Ittifoqning «qaynoq» hududlaridan kelgan qochoqlarning ancha katta oqimi ham qoʻshildi. Bu odamlarning asosiy marshruti Rossiyaga yoʻnalgandir. Statistika maʼlumotlariga qaraganda, ularning koʻpchiligi Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida, Markaziy va Markaziy - Qoratuproq hu-dudlarida joylashishga harakat qilmoqdalar. Bizning sharoitlarda bular tojikistonlik, armanistonlik qochoqlardir. Muqim turar joyga ega boʻlmagan, doimiy ish bilan taʼminlanmagan bu odamlar koʻpincha mahalliy aholi bilan ixtilofga kirishadi, ularning ayrimlari vaqtincha yashash joylarini yana tark etishga majbur boʻladi.

Bunday hududlarda ijtimoiy keskinlik darajasi ancha balanddir. Shuning uchun ham Y.M.Antonyanning bunday holatlarni ayollarda shu munosabat bilan uygʻonadigan tashvishga bogʻlab oʻrganish kerak, zotan, ular, shu jumladan, oila-roʻzgʻor sharoitlarida oʻzini qancha noqulay sezsa, yuqorida zikr etilgan tashvish hissi ham shuncha kuchayib boradi, degan fikriga qoʻshilmay boʻlmaydi[2].

[1] Антоняпп Ю.М. Социальная среда и формирование личности преступника. - М., 1975. С. 131-144; Заёнчковская Ж.А.Новосели в городах. - М., 1972.С. 105-108.
[2] Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. - М., 1992. С. 60.

Yashash joyining aniq emasligi , shaxsiy tirikchilik va oilani ta’minlash uchun mablag‘lar yetishmasligi ko‘pincha bunday shaxslarda hasadgo‘ylikning kuchayishiga olib keladi, ularni o‘zini va o‘z yaqinlarini qanday qilib bo‘lmasin himoya qilishga da’vat etadi, buning oqibatida ayollar ba’zan jinoyatga qo‘l uradi.

Ammo jamiyatda sodir bo‘layotgan tabiiy-tarixiy jarayonlarning natijasi bo‘lgan migratsiya jarayonlaridan tashqari, muayyan jinoyatlar yoki bir qator shunday qilmishlar sodir etishga intilish bilan izohlanuvchi migratsiya ham e’tiborga molikdir. Bunda migratsiya va jinoiy faoliyat bir-biri bilan chambarchas bog‘lanadi. Bu yerda biz «gastrolchi» jinoyatchilarni nazarda tutmoqdamizki, ularning orasida ayollar ma’lum mavqega egadir.

Tadqiqotimiz natijalari bunday jinoyatchi ayollar toifasiga yashash joyi va mashg‘uloti aniq bo‘lmagan shaxslargina emas, muqim turar joyga ega bo‘lgan, bolali ayollarning ham kirishini ko‘rsatdi.

Ammo tamagirlik jinoyatlarini sodir etishga yo‘naltirilgan g‘ayriijtimoiy moyilliklarning kuchliligi, orttirilgan professional jinoiy ko‘nikmalar va jinoiy faoliyat usullari ularda bunday g‘ayriqonuniy xulq-atvorga o‘ziga xos psixologik bog‘liqlikni vujudga keltiradi.

Bunday ayollar shaxsini o‘rganish ular odatda o‘zganing mulkini o‘g‘rilash va firibgarlikka ixtisoslashganligini ko‘rsatdi. Ko‘pgina hollarda ayollar jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishda ancha katta tajribaga egadirlar. Bunday jinoiy faoliyatning tuzilishida jadalligi ancha katta bo‘lgan maxsus reesidiv нetakchilik qiladi. Ayollar o‘z jinoyatlarini transportda, yirik shaharlarda, vokzallarda va aeroportlarda sodir etadi. Shuningdek, ularning orasida bunday «gastrollar»ga chiquvchi qishloq ayollari ham oz emas. Bunda ular o‘zlari muqim yashaydigan joyda qonunga rioya qilib hayot kechiradilar. Amaliyot bu professional jinoyatchi ayollar shaxsining eng barqaror g‘ayriijtimoiy tipi ekanligini ko‘rsatadi.

Migrant jinoyatchi ayollar orasida o‘zining doimiy yashash joyini u yoki bu sababga ko‘ra tark etishga majbur bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslar ham mavjud. Bunday qizlarning o‘z uylarini tashlab ketishiga ota-onalari bilan kelishmovchiliklar, shuningdek, irsiy va orttirilgan omillar bilan izohlanuvchi psixik rivojlanishdagi og‘ishlar, anomaliyalar sabab bo‘lgan. Ko‘pincha bunday shaxslarni jinoyatga kattalar jalb etadi. Ular har xil yo‘nalishdagi jinoiy guruhlar faoliyatida voyaga yetmagan qizlardan foydalanadi, ularni fohishalik bilan shug‘ullanishga majbur qiladi. Masalan, 1987-yilda Toshkent viloyati Bekobod tumanida tug‘ilgan N. 2004-yil oktabr oyida ota-onasi bilan urishib, Toshkent shahriga keladi

va fohishalik bilan shug'ullana boshlaydi, jinoiy guruh tarkibida o'zining mijoziga nisbatan bosqinchilik sodir etishda ayblanib, JKning 164-moddasi 2-qismi bilan jazoga hukm qilingan[1].

Migrantlar jinoyatchiligiga ularning alohida ijtimoiy muhiti ham xosdir. Odatda, ularga ushbu muhit "gastrollar" marshruti yo'lida joylashgan turli mintaqalarda keng aloqalarning mavjudligi xosdir va umuman olganda, unga qo'yiladigan o'ziga xos talablar - jinoyat sodir etish jarayonini yengillashtirish, uning izlarini yashirish, jinoiy yo'l bilan topilgan mulk va boyliklarni sotish talablariga javob beradi.

Mazkur tadqiqotni o'tkazish jarayonida biz milliy mansublik belgisiga ko'ra tuzilgan mikroijtimoiy guruhlardagi muhitning o'ziga xosliklari bilan ayollarning kriminogen faolligi o'rtasida bog'liqlik mavjudmi, degan savolga javob topishga harakat qildik.

Bu o'rinda ayollar jinoiy xulq-atvorining mazkur jihati juda katta qiziqish uyg'otishiga qaramay, u ilgari deyarli o'rganilmaganini qayd etib o'tish kerak. Faqat lo'lilar bundan mustasno bo'lib, aholining kriminogen guruhi sifatida ular tadqiqotchilar e'tiborini 70-yillarning o'rtalari 80-yillarning boshidagina o'ziga tortdi.

Lo'lilar orasida jinoyatlarning oldini olish va ular sodir etgan jinoyatlarni ochish muammosi yuzasidan e'lon qilingan adabiyotlarni o'rganish ularda lo'lilar migratsiyasiga ularning g'ayriqonuniy xulq-atvorining asosiy omili deb qaraladi, degan xulosa chiqarish imkonini beradi[2].

O'zbekistonning jazoni o'tash koloniyalarida saqlanayotgan mahkumalarning soni va tarkibi haqidagi tegishli statistika va hisobotlarda ularning milliy mansubligi haqida ma'lumot yo'qligi tufayli mumkin qadar ko'proq shaxslarni qamrab olish uchun, biz 2 ta manzil koloniyasi va UYa 64/17 raqamli umumiy va qattiq tartibli koloniyada 2004-yilning mart-aprelida saqlangan 500 nafar ayollarning shaxsiy ishlarini o'rganib chiqdik.

---

[1] Чилонзор туман судининг архивидан. 1/125-204 рақамли жиноят иши.

[2] Вакутин Ю.А. Некторые способы совершения преступлений, применяемые циганами // Вопросы совершенствования оперативной работы органов внутренных дел. -Омск. ВШ МВД СССР, 1975; Польской Н.Н. О специфике борьбы с преступностью среди циган // Передавой опыт: Сб. материалов МВД СССР. - 1976. №10. С. 36-41; Предупреждение и раскрытие преступлений среди циган: Учебно-методические пособие. - М., ВНИИ МВД СССР, 1981. С. 42

**13-Jadval**

**Mahkumalarning milliy belgiga ko‘ra taqsimlanishi (ularning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)**

| Millati | Ro‘yxatga olish ma’lumotlari | Tadqiqot ma’lumotlari |
|---|---|---|
| O‘zbeklar | 60 % | 61 % |
| Ruslar | 17,5 % | 15,5 % |
| Ukrainlar | 1,2 % | 1,1 % |
| Qozoqlar | 2,0 % | 2,5 % |
| Nemislar | 1,5 % | 0,5 % |
| Tatarlar | 8 % | 9,5 % |
| Uyg‘urlar | 2 % | 2,5 % |
| Beloruslar | 1 % | 1 % |
| Koreyslar | 2,5 % | 3 % |
| Ozarbayjonlar | 1 % | 1,5 % |
| Tojiklar | 2,2 % | 2,5 % |
| Armanlar | 1,1 % | 1,2 % |
| Greklar | - | 0,1 % |
| Turkmanlar | - | - |
| Lo‘lilar | 2 % | 2,4 % |
| Boshqa millatlar | - | - |

Toshkent shahridagi jinoiy jazoni o‘tash muassasasidagi voyaga yetmagan mahkumalar milliy belgiga ko‘ra quyidagicha taqsimlanadi (2004-yilning oxirigacha bo‘lgan holatga ko‘ra):

Jami 5 nafar tarbiyalanuvchidan:

Ruslar – 2 nafar, o‘zbeklar – 2 nafar, 1 nafari tatar millatiga mansub bo‘lgan.

Mutaxassislarga lo‘li ayollar tomonydan jinoyat sodir etishning an’anaviy usuli ham ma’lum - ular biron-bir fuqaroning uyiga “bolaning yo‘rgagini almashtirish” bahonasida yoki boshqa bahonada guruh bo‘lib kirib, xonalar bo‘ylab tarqaladilar va buyumlarni o‘g‘rilab chiqib ketadilar. Ba’zan lo‘li ayollar guruhida “chernya” deb nomlangan shaxslar ham bo‘ladi. Boshqa lo‘li ayollar uy bo‘ylab tarqalib, uy egalarining e’tiborini o‘ziga jalb etgan vaqtda, “chernya” uy egalarining ko‘z ifodasini kuzatib turadi va ularning o‘zini tutishiga qarab qimmatbaho buyumlar yashirib qo‘ylgan joylarni fahmlab, ularni o‘g‘irlaydi va boshqalardan oldin chiqib ketadi[1]. Biroq lo‘lilarning muqim yashash joyi bo‘lmaganligi, jinoyat sodir

[1] Петрунев В.П. Криминологическая характеристика квартирных краж. Проблемы предварительного следствия и дознания. Сб. научных трудов ВНИИ МВД СССР. М, 1990. С. 34-40.

etgan joylaridan zudlik bilan “g‘oyib” bo‘lishlari tufayli ular amalga oshirgan qilmishlarning latentligi yuqori hisoblanadi.

Shunday qilib, tanlab o‘rganilgan ma’lumotlarga asoslanib, ma’lum millatga mansublik bilan belgilanuvchi ayollarning jinoiy xulq-atvoriga mikroijtimoiy muhitning ta’siri lo‘li ayollar bilan bog‘liq holda yorqin namoyon bo‘ladi, degan farazni ilgari surish mumkin. Bundan tashqari, mazkur bog‘liqlikda ayollar va erkaklar jinoyatchiligi o‘rtasidagi tafovut ham ko‘zga tashlanadi. Agar ayollar uchun, yuqorida qayd etilgan holatdan tashqari, milliy omil ma’lum kriminologik ahamiyatga ega bo‘lmasa, erkaklarga, bizning fikrimizcha, milliy mansublik belgisiga ko‘ra uyushgan kichik norasmiy guruhlarga kriminal yo‘nalishdagi xatti-harakatlarning ma’lum tarzda jamlanishi xosdir.

Mikromuhitning bunday kriminogen ta’siri, birinchidan, ko‘pgina ijtimoiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida aynan mazkur ijtimoiy guruhlar yashaydigan makroijtimoiy muhit omillari birinchi o‘ringa chiqadi; ikkinchidan, bunday murakkab bog‘liqlik har xil ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy va demografik xususiyat-lardan tarkib topadiki, bu o‘ziga nisbatan mazkur tadqiqotdagiga qaraganda ham puxta, teran va muayyan yondashuvni talab etadi, ammo yuqorida zikr etilgan qonuniyatning belgilari aniqlangani uchun biz ularni o‘zimiz olgan ma’lumotlarni tavsiflashda foydalanishni lozim deb topdik; va nihoyat, uchinchidan, biz ma’lum milliy guruhlar va tuzilmalarga mansublik belgisiga qarab shaxsning kriminogenligi darajasi yuqori bo‘lishini asoslash niyatidan uzoqmiz, mazkur omilni, avvalambor, ayollarning muayyan ijtimoiy muhit sharoitlarida, ayniqsa, g‘ayriijtimoiy yo‘nalishdagi har xil norasmiy guruhlarning faoliyatida ishtirok etishiga qarab o‘rganish niyatidamiz.

Bunday guruhlarning ishtirokchilari o‘rtasidagi shaxsiy aloqalar tuzilishida mavjud jamoaviy axloq normalari, qadriyatlar va qarashlar muayyan shaxsning jinoiy xatti-harakatlarida xal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bir guruh shaxs bo‘lib sodir etilgan jinoyatlar tuzilishida ayollar jinoyatchiligining salmog‘i mazkur jinoyatchilikning holatini ta’riflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ayollar tomonidan bir guruh shaxs bo‘lib sodir etilgan jinoyatlarni maxsus o‘rganish ular javobgarlikka tortilgan ayollar umumiy sonining 26 %ni tashkil etishini ko‘rsatdi[1].

Tadqiqotimiz ma’lumotlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 30,8 %ni tashkil etdi. Bunday ayollarning 14,9 % jinoyatlarni erkak bilan birga, 6,1 % -

[1] Зирянов В.Н. Групповая преступность женщин и ее предупреждение органами внутренних дел. - Горький. 1988. С. 10.

boshqa ayol bilan birga, 3,3 % - faqat erkaklardan tashkil topgan guruhga qo‘shilib, 2,4 % - faqat ayollardan tashkil topgan guruhga qo‘shilib sodir etgan. Ayollarning 4,1 % tergov va sudda shaxsi aniqlanmagan kimsalar bilan ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgani o‘ziga e’tiborni tortadi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tuman sudida 2003-yil 20-oktyabrda M. G.Galeyevaning jinoyat ishi guruh tarkibida bir nechta jinoyat sodir etilganiga misol bo‘loladi. Muqaddam giyohvandlik vositalarini sotganlik uchun sudlangan ushbu ayol bir guruh shaxslar bilan oldindan til biriktirib, qonunga xilof ravishda qalbaki hujjatlar tayyorlab, o‘z qizi V.Galeyevani shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun pul evaziga Dubay shahriga yuborgan.

Jinoiy guruh turg‘un xususiyatga ega edimi? degan savollarga respondentlarning 67,5 % foizi tasdiq javobini, 25,3 % - rad javobini berdi. Guruh “tasodifiy ishtirokchilik” xususiyatiga ega edi, deb ko‘rsatganlar so‘ralganlarning 7,2 % ni tashkil etdi.

Guruhlarda voyaga yetmagan shaxslarning mavjudligini aks ettiruvchi ma’lumotlar ham e’tiborga molik. Chunonchi, guruhlar tarkibida erkak jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslar 22,4 %ni, ayol jinsiga mansub voyaga etmaganlar esa - 17,5 %ni tashkil etgan. Jinoiy guruhlarda ikkala jinsga mansub voyaga yetmagan shaxslar ishtirok etganini respondentlarning 8,8 % ko‘rsatdi. Bir guruh shaxs bo‘lib sodir etilgan jinoyatlarda voyaga yetmaganlarning yo‘qligi 51,3 % holatda qayd etildi.

Ayollar orasida bir guruh shaxs bo‘lib jinoyat sodir etish ho-latlarini ta’riflashga berilmasdan, mazkur muammo ancha batafsil yoritilgani tufayli, avvalambor, norasmiy, shu jumladan, jinoiy guruhlarda ishtirok etuvchi ayollar shaxsi shakllanadigan mikroijtimoiy muhitga xos bo‘lgan xususiyatlarga e’tiborni qaratishni istar edik.

Bizningcha, bu o‘rinda, eng avvalo, mikroijtimoiy muhitning shaxsga giyohvandlik va fohishalik kabi ijtimoiy salbiy hodisalar orqali salbiy ta’sirini ko‘rib chiqish kerak. Zotan, jinoyatchilik bilan fohishalik o‘rtasida bevosita aloqa mavjudligi bejiz emas. Bu holatni, jumladan, M.N.Gernet 1906-yildayoq ko‘rsatib o‘tgan, ayollar jinoyatchiligi darajasining pastligini izohlashda ayollar jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy sabablar tufayli vujudga keladigan fohishalikda ko‘proq ishtirok etishini ham nazardan qochirmaslik kerakligini qayd etgan edi[1].

Masalan, ijtimoiy muhitning yuqorida ko‘rib chiqilgan xusu-siyatlari nuqtai nazaridan, Gruziyada fohisha ayollarni maxsus o‘rga-nish asosida

[1] Гернет М.Н. Избранные произведения. - М., 1974. С. 140.

chiqarilgan xulosalar e'tiborga molikdir. Tadqiqot mualliflari, jumladan, fohishalik - asosan shaharda tarqalgan faoliyat bo'lib, unda eng qadimgi "kasb"ning boshqa joylardan kelgan vakillari ko'pchilikni tashkil etishini qayd etadi[1]. Ushbu tadqiqotning ma'lumotlariga ko'ra, so'rovdan o'tkazilgan fohishalarning 22,2 % giyohvandlik vositalari iste'mol qilgan.

Jinoyatchilik, giyohvandlik va fohishalik o'rtasida uzviy bog'-liqlikning mavjudligini bizning tadqiqotimiz ma'lumotlari ham ta'riflaydi. Jumladan, jami respondentlarning 13,3 % jinoyat sodir etgan paytda giyohvandlik vositasidan mast holatda bo'lgan. Fohishalik bilan shug'ullanganmisiz? degan savolga so'ralganlarning tasdiq javobini berganlarning 27,7 % fohishalik bilan muntazam shug'ullangan; jinoyatchi ayollarning 9,2 % esa fohishalik bilan ora-sira shug'ullanganini ko'rsatdi. Asosiy daromad manbai haqida berilgan savolga respondentlarning 30,8 % bunday daromad manbai fohishalik bo'lganini qayd etdi.

Giyohvandlik vositalarining tarqalishi bilan bog'liq muammolarni o'rganuvchi tadqiqotchilar bunday vositalarni iste'mol qiluvchilar orasida ayollar salmog'i ancha baland - 8,3 %ni tashkil etishini ko'rsatadi, bunda mahkumlar orasida mazkur ko'rsatkich ozodlikdagi giyohvandlar orasidagi bunday ko'rsatkichdan uch baravar ko'p bo'lib, tegishli ravishda 15,2 % va 5,3 %ga[2] tenglashgan.

O'ziga xos ijtimoiy guruhlarning vakillari bo'lgan fohishalar va giyohvandlar muhitida o'ziga xos submadaniyat hamda norasmiy xulq-atvor va axloq normalarining mavjudligi, ularning jinoyatchilik bilan bevosita aloqadorligi haqida, shu jumladan, maxsus kriminologik tadqiqotlar darajasida ham juda ko'p aytilgan[3]. Adabiyotlarda, masalan, giyohvandlik bilan ma'lum ish bilan shug'ullanmaslik o'rtasida o'ziga xos aloqa mavjudligi qayd etiladi: "bu, avvalambor, shaxsning aloqalari doirasini toraytiruvchi va uning ijtimoiylashishida qiyinchiliklar tutdiruvchi giyohvandlik vositalarining ta'siri bilan bog'liq. Giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchi shaxs, odatda, giyohvandlar muhitida yashaydi, o'zining boshqa ijtimoiy aloqalarini, shu jumladan, ish joyidagi aloqalarini ham yo'qotadi"[4]. Qayd etilgan holatlar fohishalikka ham to'la darajada taalluqlidir. Bugungi kunda fohisha ayollar o'zlarining mazkur "mashg'ulotlari"ni yashirmay qo'ydilar, ba'zan uni "asosiy mehnat faoliyati"ga qo'shib olib bormoqdalar, zotan, ko'plab tijorat firmalari va

---

[1] Габиани А.А. Наркотизм вчера и сегодня. - Тбилиси. 1988. С. 55.

[2] Габиани А.А., Мануальский М.А. Цена любви.//Ж. Социологические исследования. 1987. №6. -С. 61-68.

[3] Проституция и преступность. Проблемы, дискусси, предложения. Сб. научных трудов под обвд. ред. Шмарова И.В. - М., 1992. С. 302; Алферов Ю.А. Жаргон и татуировки наркоманов в ИТУ. - М., 1992. С. 165.

[4] Пахомов В.Д., Казакова В.А., Фирсаков С.В. Наркомания и совершение корыстных преступлений //Ж. Советская юстиция. №12. 1993. С. 5.

korxonalar, fohishalarni ekspluatatsiya qilib, ayollarga go‘yoki har xil xizmatlar ko‘rsatish sohalarida rasmiy mehnat bilan bandlikni ta’minlamoqdalar. Ammo tashqi rekvizitlarning o‘zgartirilishi qadimgi “kasb”ning mazmunni mut-laqo o‘zgartirmadi, balki hatto bu “kasb” bilan shug‘ullanish ten-densiyasini ancha kuchaytirdi.

Shaxsda kriminogen moyillikning vujudga kelishiga mikro-ijtimoiy muhitning salbiy ta’sirining yana bir shakliga e’tiborni qaratishni istar edik. Bu yerda biz xotin-qizlarning ma’lum yosh toifasini, aynan - yoshlarning norasmiy guruhlari ta’sirida jinoyat yo‘liga tushayotgan voyaga yetmaganlar va yosh qizlarni nazarda tutmoqdamiz.

Ma’lumki, g‘ayriijtimoiy yo‘nalishdagi yoshlarning har xil tuzilmalari muhitida jinsiy axloqsizlik, ichkilikbozlik keng tarqalgan bo‘lib, zo‘ravonlik targ‘ib qilinadi. Xotin-qizlarga munosabat mazkur guruhlarda qabul qilingan norasmiy aloqalarning prinsipial normalaridan biridir. Bunday aloqalar muhitida voyaga yetmagan qizlar muqarrar ravishda buzuq yo‘lga kiradi. Ularning ko‘pchiligida dastlabki jinsiy aloqalar bunday guruhlarning a’zolari bilan tartibsiz jinsiy aloqalarga aylanib ketadi. Bunday muhitda yo‘qotiladigan ijtimoiy foydali aloqalar mazkur guruhlarga o‘ziga psixologik tobelikni keltirib chiqaradi. Bashqa tomondan tartibsiz jinsiy aloqalar tanosil va OITS kasalliklarining keyingi vaqtda ayniqsa voyaga yetmagan va 18-20 yoshli qizlar orasida ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammolar ham olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan[1]. Biz ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashda, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yosh qizlarning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishining oldini olish nuqtai nazaridan mazkur muammolar o‘ta keskin va muhim ahamiyatga ega bo‘lib turganini yana bir karra qayd etib o‘tmoqchimiz.

Ijtimoiy muhitni va uning ayollarning g‘ayriqonuniy xulq-atvoriga tasirini tavsiflashni yakunlar ekanmiz, mazkur ta’sir hayot yo‘lining turli bosqichlarida ma’lum tarzda o‘z ifodasini topishini qayd etib o‘tmoqchimiz. Ko‘pgina hollarda shaxs ijtimoiylashishining barcha bosqichlari, oila muhitidan boshlab jinoyat sodir etilgan muhitgacha, ayolni qonuniy ravishda muqarrar salbiy natijaga - jinoyat sodir etishga olib keladi. Ammo ba’zan faqat hayotiy faoliyatning ma’lum bosqichlaridagina ijtimoiy muhitning salbiy omillari ta’siri kuchayadi va jinoyatchi shaxsining shakllanishiga ko‘maklashadi.

---

[1] Башкатов И.П. Групповая интеграция несовершеннолетних правонарушителей. Совершенствование деятельности воспитательно-трудовых колоний и профилактика молодежной преступности. - М. 1992. С. 80-82; Кашелкин А.Б. Насилие, как форма антиобщественного поведения молодежных группировок. Криминологи о неформальных молодежных объединениях. - М., 1990. С. 235. Оила психологияси. Т., 2001, -Б. 222.

Ayollarning yoshiga qarab jinoiy faolligi juda oʻziga xos hodisa boʻlib, u xuddi mana shunday belgiga qarab aniqlanadigan erkaklar jinoyatchiligidan ancha farq qiladi. “Jinoyat sodir etgan ayollarning oʻrtacha yoshi 34,6 ga, erkaklarniki esa 32,3 ga tengdir. Mahkuma ayollarning yoshi haqidagi maʼlumotlarning tahlili ozodlikdan mahrum etilganlarning koʻpchiligi - 68,0 foizi 25-49 yosh toifalariga mansubligidan dalolat beradi. Mahkum erkaklar bilan taqqoslash ularning orasida 20-39 yosh toifalariga mansublar koʻpchilikni tashkil etishini koʻrsatadi.

Olingan natijalar mazkur muammo bilan shugʻullangan boshqa olimlarning maʼlumotlariga umuman olganda mos keladi. Masalan, M.N.Golodnyuk oʻzi oʻrganib chiqqan ayollarning yarmidan koʻpi jinoyatlarni 30 yoshdan oshganda sodir etganini, bunda ikki guruh - 30 dan 40 yoshgacha va 40 dan 50 yoshgacha boʻlgan ayollar guruhlari eng kriminogen guruhlar hisoblanishini koʻrsatgan[1].

Katta yosh guruhlariga mansub boʻlgan ayollarning kriminogen faolligi kriminolog olimlarning asarlarida ancha mukammal tushuntirib berilgan[2]. Bu masala yuzasidan keltirilgan dalillarning qisqacha mazmuni quyidagicha: koʻrsatilgan yosh guruhlariga mansub ayollarning jinoiy faolligi ularning mehnat va ijtimoiy faoliyati sohasi kengayishi, ular ijtimoiy aloqalarining kengayishi bilan bogʻliq; koʻpchilik ayollar jinoyat yoʻliga nisbatan kech tushadi, jinoyat sodir etgach va oʻziga xos jinoiy muhitga tushib qolgach, ijtimoiy reabilitatsiya jarayoniga erkaklarga qaraganda ancha qiyin boʻysunadi; hayotdagi qiyinchiliklar, oiladagi mojarolar, shaxsiy hayotdagi omadsizliklar yoshi katta ayollarga juda qattiq tegadi, bu esa maʼlum sharoitlarda jinoyatlar uchun qulay zamin yaratadi; huquqni muhofaza qilish organlari va sudlar insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, koʻpincha ayollarga yengillik beradi va birinchi jinoyat uchun (ogʻir jinoyatlardan tashqari) ularni ozodlikdan mahrum etmaydi, keyingi jinoyatlarni esa ayol maʼlum vaqt oʻtgach, nisbatan katta yoshda sodir etadi (ozodlikdan mahrum etilgan ayollarning yosh darajasi erkaklarnikidan kattaligi mana shu holat bilan izohlanadi).

Sodir etilgan jinoyatlar tasnifi va jinoyatlar sodir etilgan yosh toifalarining oʻzaro bogʻliqligini tahlildan oʻtkazish zoʻravonlik va tamagirlik - zoʻravonlik jinoyatlari sodir etganlar, shu jumladan, bunday jinoyatlarni bir guruh shaxs boʻlib sodir etganlar orasida 30 yoshgacha

---

[1] Голоднюк М.Н. Криминологическая характеристика женщин, отбивающих наказание в ИТК / Вестник МГУ. Сер. 11. №5. 1983. С. 18.

[2] Масалан, қаранг: Берекашвили Л.Ш., Кириллова И.А. Криминологическая характеристика женщин, совершивших преступления. - М., 1976. С. 42; Кириллова И.А., Люягин О.Б. Характеристика женщин, отбиваюших наказание в ИТК. - М., 1981. С. 64.

bo‘lgan ayollar ko‘pchilikni tashkil qiladi, mahkumalarning yoshi katta bo‘lib borgani sari bu turdagi jinoyatlarni sodir etuvchilar soni sekin-asta kamayib, jinoiy jazoga loyiq qilmishlar doirasi esa kengayib boradi, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Mahkumalar 50 yoshdan o‘tganidan so‘ng mazkur tendensiya kamayib boradi va bunday yoshdagi ayollarda jinoyatlarning maxsus retsidivi yorqin namoyon bo‘ladi.

Mazkur qonuniyatlar jinoyatchi ayollar shaxsiga ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish joylaridagi omillarning salbiy ta’sirini o‘rganganimizda ham o‘z tasdig‘ini topdi.

## 6.3. Jinoyatchi ayollarning professionallashuviga olib keluvchi sabablar

Jinoyatchilikning sabablarini ilmiy tushuntirish, ma’lumki, kriminologiya fanining eng murakkab muammolaridan biridir. Bunda jinoyatlarning alohida turlarining sabablarini, ayniqsa, o‘rganishga nisbatan yaqinda kirishilgan professional va uyushgan jinoyatchilikning sabablarini tadqiq qilishga alohida e’tibor beriladi.

V.N.Kudryavsev, I.I.Karpes, N.F.Kuznetsova, A.B.Saxarov va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan jinoyatchilikning sabablari konsepsiyasidan kelib chiqib, salbiy ijtimoiy hodisa - jinoyatchilikka qanday sabablar xos bo‘lsa, mohiyat e’tibori bilan, professional jinoyatchilikka ham shunday sabablar xos, degan asosli xulosa chiqarish mumkin. Shu bilan birga, professional jinoyatchilikka mazkur ta’sirning muayyan xususiyatlarini ko‘rib chiqish darajasida uning o‘z sabablari va uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarining o‘ziga xos aloqasi aniqlanadi. Bu aloqa, eng avvalo, jinoiy xulq-atvorning sabablari darajasida namoyon bo‘ladi. Professional jinoyatchilik bilan bog‘liq holda bunday sabablar odamlar - professional jinoyatchilarning hayotiy qadriyatlari, dunyoqarashi, psixologiyasi va psixikasi bilan belgilanadigan ongli faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jinoiy muhitning tabaqalashishi va ixtisoslashishi jarayonlari, uning har xil uyushish shakllari va norasmiy xulq-atvor normalari vujudga kelishida salbiy holatlarning butun boshli majmui ishtirok etuvchi professional jinoyatchilikka xos bo‘lgan xususiyatlardir.

Bularning barchasi professional jinoyatchilikning sabablarini tushuntirishga nisbatan yondashuvda metodologik xususiyatga ega bo‘lgan ma’lum qiyinchiliklarni qayd etish imkonini beradi, zotan, kriminologiya tarixida jinoyatchilikning sabablariga doir qarashlar ko‘p marta o‘zgargan. Hatto jinoyatchilikning ijtimoiy negizlari obyektiv qonuniyat deb e’tirof

etilgan hollarda ham jinoyatlar (huquqbuzarliklar)ning alohida turlariga nisbatan bunday jinoiy qilmishlar jamiyatimizda sodir bo‘lishiga turtki beruvchi sabablar mavjud emas, degan qarash saqlanib qolgan. Bu giyohvandlik, fohi-shalik singari salbiy illatlarning sabablariga doir qarashlarda, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘lgan. Bunday qarashlar mazkur salbiy hodisalarning tarqalishiga, pirovard natijada esa ommaviy hodisaga aylanishiga faqat ko‘maklashdi. Professional jinoyatchilik, shu jumladan, uning uyushgan shakllari bilan bog‘liq hollarda ham xuddi shunday bo‘ldi.

Shunday qilib, biz mazkur tadqiqot doirasida yagona ijtimoiy hodisa - jinoyatchilikning tuzilishidagi ikki nisbatan mustaqil yo‘nalish - ayollar jinoyatchiligi va professional jinoyatchilikning o‘zaro ta’siri jarayonini ko‘rib chiqishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Biz ayollar jinoiy professionalizmining sabablarini mukammal tushuntirishga da’vo qilmasdan, biz mazkur hodisani yuzaga keltiruvchi o‘ziga xos omillarning tahliliga to‘xtalishni lozim ko‘rdik.

Bu o‘rinda biz, eng avvalo, umumijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan omillarga to‘xtalib o‘tishni istar edik.

Ilmiy adabiyotlarda kriminal professionalizm va uning uyushgan shakllarining yashovchanligini belgilovchi asosiy ijtimoiy omillar jumlasiga avvalambor quyidagilar kiritilgan: taqsimlash munosabatlaridagi ziddiyatlar; alohida ma’naviy va ijtimoiy institutlarning zaiflashishi; professional jinoyatchilik va uning oqibatlarining ijtimoiy xavfliligiga jiddiy e’tibor bermaslik; huquqni muhofaza qilish organlarining ish shakllari va usullari jinoyatchilikda sodir bo‘lgan sifat o‘zgarishlaridan orqada qolganligi[1].

Biz yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy omillarni ko‘rib chiqish jarayonida ularning umuman ayollar jinoyatchiligiga ham, uning retsi-div, uyushgan jinoiy faoliyatda ayollarning ishtiroki, fohishalik, giyohvandlik singari ko‘rinishlariga ham e’tiborni qaratishni, shu-ningdek, mazkur muammolarni jinoiy-professional an’analarning yashovchanligiga bog‘lab o‘rganishni istar edik, zotan, ular, bizning fikrimizcha, professional jinoyatchilikning mustaqil omillari rolini bajaradi.

Taqsimlash munosabatlaridagi ziddiyatlar - mazkur muammoga berilgan ta’rifning o‘zi jamiyatimiz taraqqiyotining o‘tmishda qolgan bosqichiga taalluqli. Yaqin o‘tmishda, sotsialistik tuzum davrida hukm surgan taqsimlash munosabatlari bugungi kunda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yangilanishlar va eksperimentlar davrida boshqacha xususiyat kasb etmoqda. «Taqsimlovchi» vazifasini bajargan davlatning o‘zi bunday

[1] Гуров А.И. Профессиональная преступность: прошлое и современность . М., 1990. 229.С.

munosabatlardan voz kechmoqda, tashabbusni fuqarolarning qo‘liga bermoqda. Bu yaxshimi yoki yomonmi? – degan savolga javob berish tadqiqotimiz mavzusidan yiroq masala hisoblanadi. Ammo taqsimlash munosabatlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq jarayonlarning oqibatlari doim ham ijobiy ijtimoiy natijalarga olib kelayotgani yo‘q. Agar ilgari «xalq farovonligining izchil oshib borishi» qayd etilgan bo‘lsa, bugungi kunda batamom teskari jarayon sodir bo‘layotir. Mamlakat aholisi 5-7% ning moddiy farovonligi oshib bormoqda, xolos. Qolganlar uchini uchiga ulab tirikchilik qilish uchun bor imkoniyatini ishga solishga majbur bo‘lmoqda yoki qashshoqlik chegarasida hayot kechirmoqda.

Xo‘jasizlik va huquqiy nigilizm, hokimiyat uchun siyosiy kurash va ijtimoiy nazoratning yo‘qligi uyushgan professional jinoyatchilar faoliyatining faollashishiga olib keldi. Professional jinoyatchilar uzoq vaqt mobaynida jinoyatchilik sohasiga ishchi va xizmatchilarning katta kontingentini jalb etib kelib, xalq xo‘jaligining alohida sohalarini mehnatsiz daromad olish va boyish manbaiga aylantirdilar. Qonunni buzish asosida olingan yirik va o‘ta yirik daromadlar jamiyatda yangi elitaning shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur jarayon biz ko‘rib chiqayotgan muammoda o‘zining bevosita aksini topmoqda. Birinchidan, yuzaga kelayotgan vaziyat muqarrar ravishda eng qonunga itoatkor fuqarolarning tubanlashishiga, g‘ayriijtimoiy axloq va o‘ziga xos mafkuraning vujudga kelishiga olib keladi. Bizningcha, bunday fuqarolar orasida ayollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ikkinchidan, ayol-ona o‘z psixologiyasiga «yangi» hayotiy qadriyatlarni singdirib, ularni o‘z farzandining xulq-atvoriga va ongiga joylaydi. Uchinchidan, mazkur vaziyat har xil jinoyatlar uchun hukm etilgan shaxslarga nisbatan jamiyatning tarbiya-reabilitatsiya funksiyalarini bajarishiga to‘sqinlik qiladi. Bizningcha, mazkur jarayon jamiyat jinoyat sodir etgani uchun jazoga tortgan ayollarga ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatadi, buni takroriy jinoyatchilikka doir maxsus tadqiqotlar misolida ham ko‘rish mumkin. Bu munosabat bilan E.Y.Stumbina jinoyat yo‘liga kirgan ayollar erkaklarga nisbatan kamligini, ammo ularda tubanlashish jarayoni boshlangudek bo‘lsa, erkaklarga qaraganda tezroq sodir bo‘lishini qayd etadi. U qiziqarli ma’lumotlarni keltirgan: takroriy jinoyat sodir etishdan oldin ayollarning 70,2 % ishlamagan (erkaklar 2,5 baravar kam - 27%), umuman hech qanday ish bilan shug‘ullanishni isgamagan ayollar esa 89,5 % ni tashkil etgan (erkaklar orasida bundaylar ancha kam – 12,7 %)[1].

M.G.Golodnyukning ma’lumotlariga ko‘ra, u o‘rgangan retsidivist ayollarning 50 % oxirgi jinoyatni sodir etishdan oldin ijtimoiy foydali

[1] Стумбина Э.Я. Рецидивная преступность: понятие и криминологическая характеристика. Рига. 1983. 67. с.

mehnat bilan shug'ullanmagan[1]. Mazkur ko'rsatkichlarga bizning tadqiqotimiz ma'lumotlari ham deyarli mos keladi. Biz o'rgangan mahkuma ayollarning 58,3 % oxirgi jinoyatni sodir etishdan oldin hech qayerda ishlamaganini ko'rsatdi.

Retsidivist ayollarda ma'naviy tubanlashish nisbatan tez sodir bo'lishi, aftidan, qonunni buzgan ayollarning jamiyatdan uzoqlashi-shi ancha murakkab kechishi bilan izohlansa kerak (ijtimoiy muhit ayollarga qo'yadigan nisbatan katta talablar bunday talablarga qarshi borgan ayollarning jamiyatga qaytishini ancha qiyinlashtiradi; jinoiy javobgarlikka tortilgan ayollarga ishonchsizlik uzoq vaqt saqlanib qoladi; ularning o'zlari ko'nikkan muhitdan uzoqlashishi nisbatan keskin sodir bo'ladi).

Retsidiv jinoyatchilikning mazkur jihatlari ayollar jinoyatchi-ligining professionallashishi bilan chambarchas bog'liq. Fikrimizning tasdig'i sifatida yana E.Y.Stumbinaning retsidivist ayollar haqidagi ma'lumotlarini keltiramiz: «Ular jinoiy jazoga loyiq qilmishlarni ehtiyotsizlik orqasida taxminan besh baravar ko'p sodir etadi, qasddan jinoyat sodir etishga oldindan tayyorgarlik ko'rgan ayollar esa ikki baravar ko'p (jinoyatga oldindan tayyorgarlik ko'rgan ayollar 36,7 % ni, erkaklar esa - 18,6 % ni tashkil etadi)»[2].

Tadqiqotimiz ma'lumotlariga ko'ra, mazkur ko'rsatkich retsidivist ayollarda bundan ham katta bo'lib chiqdi - 47,3 %. «Impulsiv harakat qilish, qo'qqisdan tug'ilgan niyatni amalga oshirish - retsidivist erkaklarga ko'proq uchraydigan holatdir (tafovut taxminan 10 %)»[3].

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish darajasi haqida keltirilgan ma'lumotlar jinoyat sodir etishga nisbatan ma'lum professional yondashuvning mavjudligidan dalolat beradi. Darvoqe, bu manzara umuman ayollar jinoyatchiligiga xos emas. M.N. Golodnyuk bu haqda shunday deb qayd etadi: «Ayollar jinoyat sodir etishga uncha puxta tayyorgarlik ko'rmaydi, ularning o'g'rilik sodir etish usullari esa eng keng tarqalgan tamagirlik jinoyatlari sodir etgan ayollarning yengiltakligidan va tamagirlik niyatlari doirasining torligidan dalolat beradi»[4].

Bunday hodisalar, tabiiyki, ham ijtimoiy, ham biologik asoslarga ega. Ayollarda jinoyatchiga, ayniqsa, retsidivistga xos bo'lgan jihatlarning shakllanishini ko'proq ijtimoiy omillar bilan izohlash mumkin, chunki ayollarga, ayollar ruhiyatiga xos deb e'tirof etilgan sifatlarning ko'pchiligi aslida ularda uzoq tarixiy ijtimoiy jarayon davomida tarbiyalangan[5].

---

[1] Голоднюк М.Н. Некоторые вопросы женской преступности. Вестник МГУ. Право, 1978. №1. 26. с.

[2] Stumbina E.Ya. Residivnaya prestupnost`: ponyatie i kriminologicheskaya xarakteristika. Riga. 1983. 69.s.

[3] Ўша ерда. 70. б.

[4] Голоднюк М.Н. Некоторые вопросы женской преступности./ Вестник МГУ. Право, 1978. №1.25.с.

[5] Гернет М.Н. Избранные произведения. 520.с.

Masalan, ayollar jinoyatchiligiga doir maxsus tadqiqotlar avvalambor tamagirlik an’analari, qarashlari va munosabatlari ayollarning jinoiy xulq-atvori negizida yotuvchi va ayollar jinoyat-chiligining sababi hisoblanuvchi keng tarqalgan an’analar va udumlar ekanligini ko‘rsatadi (olingan ma’lumotlarga ko‘ra, barcha jinoyatlarning yarmidan ko‘pini ayollar tamagirlik niyatlarida sodir etgan)[1]. Ayollar jinoyatchiligining tuzilishida bunday nisbat uzoq vaqt mobaynida nisbatan barqaror bo‘lib qolayotir. 1921-yildayoq mulkka qarshi jinoyatlar ayollar sodir etuvchi jinoyatlar umumiy sonining 40% ni tashkil etgan[2], 1922-yilda esa bunday jinoyatlar (shu jumladan, davlat mulkini o‘zlashtirganlik, rastrata qilganlik, bunday mulkka shikast yetkazganlik, undan jinoiy maqsadlarda foydalanganlik uchun) hukm etilganlar soni jami jinoyatchi ayollar sonining 42,3% ni tashkil etganki, bu erkaklardagi shunday ko‘rsatkichdan 7,5% ko‘pdir[3].

Aynan shaxsning xulq-atvorida shakllangan va ijtimoiy axloq darajasiga ko‘tarilgan tamagirlik niyatlari (professionalizmning asosiy belgisi bo‘lgani holda) muqarrar ravishda eng ijobiy ijtimoiy-ma’naviy institutlarning zaiflashishiga olib keladi.

Oila ijtimoiy rolining kamayishi va ma’naviy xususiyatga ega bo‘lgan hayotiy qadriyatlarga nisbatan qarashlarning o‘zgarishi jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalaridan uzoqlashishga va jinoiy muhitning yosharishiga olib keladi. Agar 60-chi yillarda kriminologlar tamagir jinoyatchi, ayniqsa, o‘g‘rining nisbatan qariganini qayd etgan bo‘lsalar, bugungi kunda buning batamom teskarisi qayd etilmoqda. Bu umuman ayollar jinoyatchiligiga ham, ayollarning retsidiv jinoyatchiligiga ham taalluqli, zotan, retsidivist jinoyatchi ayollarga hayotning mazmunini o‘zicha tushunish, umumiy qabul qilingan hayot falsafasidan farq qiluvchi o‘z «hayot falsafasi»ning mavjudligi xosdir. Bu shunchaki individual maqsadlarning mavjudligi emas, balki, eng muhimi, ularni mazkur maqsadlarga har qanday yo‘l, har qanday samarali vositalar bilan erishish mumkinligi va zarurligi bilan uyg‘unlashtirishdir. Maqsadlarga erishish vositalari va usullarini esa, agar ular istalgan maqsadga erishish imkonini bermasa, bunday ayollar salbiy deb e’tirof etadi. Yashash prinsiplari va maqsadlari yosh residivist ayollarda yagona qadriyatlar va hayot negizini tashkil etadi, bularning barchasi o‘ziga xos hayot strategiyasiga aylanadi va shaxsni o‘z niyatlarini amalga oshirishga yo‘naltiradi. Kelajakda

[1] Голоднюк М.Н. Некоторые вопросы женской преступности./ Вестник МГУ. Право, 1978. №1. 26.с.; В.А. Серебрякова, В.Н. Зирянов. Корыстные преступления, совершаемые женщинами. М., 1990. 16.с.
[2] Ходаков Ю.В. Современная преступность женщин. Власть советов. 1923. №10. 89. с.
[3] Родин Д. Преступность мужчин, женщин и несовершеннолетних в 1922 г. Бюллетень ССУ. 1923. №79. 73 .с.

moddiy to‘qlikka erishibgina qolmasdan, o‘z yashash prinsiplariga muvofiq, jamiyatda qabul qilingan va belgilangan normalar, uning axloqiy va huquqiy prinsiplari bilan hisoblashmasdan kun kechirish imkoniyatini ham qo‘lga kiritish mazkur hayot negizining asosini tashkil etadi. Shaxsning dunyoqarashi, siyosiy, ma’naviy va huquqiy tasavvurlarini ixcham ko‘rinishda aks ettiruvchi mazkur hayot negizi tamagirlik jinoyatlari sodir etuvchi yosh retsidivist ayollarga xosdir. «Moddiy farovonlikka erishishga intilish ular uchun ham maqsadga erishish, ham o‘zini namoyon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi»[1]. Yosh jinoyatchi ayollarning mazkur toifasi, bizningcha, uyushgan jinoiy faoliyatda professional asosda ularning ishtirok etishi nuqtai nazaridan, kriminogen jihatdan o‘ta xavflidir. Tabiiyki, ozodlikdan mahrum qilish joylariga tushib qolgach, bunday shaxslar professional jinoyatchilarning jinoiy an’analari va udumlarini juda tez o‘zlashtiradi.

Ayollar jinoyatchiligining professionallashishiga ko‘makla-shuvchi yuqorida qayd etilgan omillarni o‘rganishning dolzarbligi ayollar professional jinoyatchiligi muammosiga jiddiy e’tibor berilmayotganligi, davlat, shu jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari mazkur jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish usullari va shakllarini ishlab chiqmagan sharoitlarda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Umumdavlat miqyosida bu avvalambor professional va uyushgan jinoyatchilik ham, mazkur hodisalarga qarshi kurash choralari ham huquq normalari va qonun hujjatlari bilan tegishli yo‘sinda tartibga solinmaganligi tufayli seziladi. Jinoiy professionalizmga qarshi bevosita kurash miqyosida bu vaziyatni biz o‘z tadqiqotimiz jarayonida olgan quyidagi ma’lumotlar yaqqol ko‘rsatadi. «Ayollar jinoiy professionalizmi o‘sib borayotganini qayd eta olasizmi?», degan savolga ichki ishlar organlarining mazkur muammo bilan bevosita bog‘liq xodimlarining 37,5% javob berishga qiynalishini ma’lum qildi va buni ko‘pgina hollarda tegishli nazariy bilimlarning yo‘qligi bilan tushuntirdi. Bunday vaziyat yuqorida zikr etilgan ijtimoiy illatga qarshi kurashda ko‘rilayotgan choralarning samaradorligiga salbiy ta’sir etmay qolmaydi, albatta.

Bu munosabat bilan jinoyatchilarning «ko‘payishi» jarayoniga jinoiy an’analar va udumlarning ta’siri qonuniy ravishda ortadi. Yulg‘ichlik va parazitizm psixologiyasi bilan zararlangan shaxslar professional jinoyatchilar, ularning an’analari bilan to‘qnash kelganidan so‘ng pirovard natijada o‘z hayot yo‘lini jinoiy faoliyat bilan bog‘laydi.

[1] Юскова Э.М. О базовой ценностей ориентации молодых рецидивистов. Причины отдельных видов преступности и проблемы борьбы с ними. Сб. научн. трудов. М., 1989. 58. с.

Ayollar jinoyatchiligiga tatbiqan olganda, mazkur jarayon «jinoiy romantizm» an'analari ancha kuchli bo'lgan ozodlikdan mahrum qilish joylari, tergov hibsxonalari va maxsus maktablarda ayniqsa sezilarli kechadi. Yosh jinoyatchi ayollar, odatda, jinoiy muhitda erkak jinsiga mansub tengqurlari bilan katta aloqalarga ega bo'ladi. Vaholanki, bunday shaxslar orasida so'nggi vaqtlarda «qonundagi o'g'rilar»ga va boshqa jinoiy avtoritetlarga taqlid qilib yashash anchagina keng tarqalgan. g'ayriijtimoiy yo'nalishdagi yoshlarning guruhlarida mikroijtimoiy muhit jinoyatchi-o'g'rilar muhitining ko'pgina yozilmagan qonunlarini u yoki bu darajada takrorlaydi. Masalan, so'nggi yillarda badanga tatuirovkalar tushirish udumi ayniqsa ayollarda yana urf bo'lmoqda. Modaning bu elementi ham voyaga yetmaganlar va yosh qizlarni o'ziga tortmoqda. Biz o'rgangan voyaga yetmagan jinoyatchi qizlarning yarmidan ko'pida tatuirovkalar borligi aniqlandi. Bunda mazkur tatuirovkalarning qariyb 30% yorqin ifodalangan ma'noli xususiyatga ega, qolganlari esa, voyaga yetmagan jinoyatchi qizlarning iqroriga ko'ra, «qiziqish tufayli» tushirilgan. Shunisi e'tiborga molikki, nisbatan katta yoshli jinoyatchi ayollar orasida tatuirovkalarga yoshlar muhitidagidek jiddiy ahamiyat berilmaydi. Buning ustiga, biz suhbatlashgan professional jinoyatchi ayollarning ko'pchiligi tatuirovka tushirish udumi haqida ancha salbiy fikr bildirdilar va bir paytlar o'z badanlariga bunday tatuirovkalarni tushirganliklaridan bugun afsus qilayotganliklarini ko'rsatdilar. Aftidan, bu tatuirovka professional jinoyatchining o'ziga xos «tashrif kartochkasi» bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, shaxs tashqi ko'rinishining individual belgilariga ham urg'u berishi, huquqni muhofaza qilish organlari shaxsni identifikatsiya qilishi jarayonida ma'lum hollarda professional jinoyatchi ayol zarariga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlansa kerak.

Umuman olganda, tatuirovkalar, jargonda so'zlashish, har xil jinoyatchilar va o'g'rilar orasidagi folklor ayollar orasida erkak-lardagidek keng tarqalmagan. Bu jinoyatchi ayollarning barcha toifa-siga taalluqli. Ammo o'g'rilarga xos «tarallabedod hayot»ning yuqorida sanab o'tilgan elementlari jinoiy malakasi giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy muomalada bo'lish va professional fohishalik bilan bog'liq bo'lgan ayollarga ko'proq darajada xosdir[1]. O'z holicha bu salbiy qilmishlar ayollar jinoiy professionalizmi bilan bog'liq holda ko'pincha professional jinoyatchi ayolning shaxsini shakllantiruvchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyatchilik bilan fohishalik o'rtasida aloqadorlik qadimdan mavjud. Mazkur hodisaning tarixiga murojaat etmasdan (mazkur

[1] Миляненков Л.А. По ту сторону закона. Энциклопедия преступного мира. М., 1992; Алферов Ю.А. Жаргон и татуировки наркоманов в ИТУ. М., 1992 ва бошқалар.

muammoga juda ko‘p maxsus ilmiy tadqiqotlar va adabiy-badiiy asarlar bag‘ishlangan)[1], shaharlardagi parazitik elementlar –buzuqxonalar, uylar yoki xonadonlarning egalari avval ham, xuddi hozirgidek, fohishalikka yaqin turgan. Ko‘pgina hollarda ular biron-bir ish bilan shug‘ullanmagan, ammo o‘z «ijarachi»lari hisobiga ma’lum daromadlarga ega bo‘lgan. Faqat fohishalik bilan kun kechirgan shaxslar - «alfonslar» yoki «mushuklar» ham mana shunday parazitik elementlar jumlasiga kirgan. Bunday shaxslar ko‘pincha o‘zlari homiylik qiluvchi shaxslarni jinoiy harakatlar sodir etishga ham og‘dirgan. Fohishalik, fohishabozlik bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy guruhlar alohida o‘rin tutgan. Bular restoranlar va mehmonxonalarning izvoshchilari, shveysarlari, ofisiantlari va boshqalardir. Ko‘pgina izvozchilar fohishaxonalar joylashgan manzillarni yoki fohishalarning uylarini yaxshi bilgan va bunday shaxslar bilan ularning mijozlari o‘rtasida vositachilik qilgan. Bunga izvoshchilarni ham mijozdan, ham fohishalarning o‘zidan «vositachilik haqi» olish imkoniyati turtki bergan. Ko‘pincha ofitsiantlar ham fohishalar bilan mijozlar o‘rtasida vositachilik qilgan. Ammo fohishalarning professional jinoyatchilar bilan aloqalari jamiyat uchun juda katta xavf tug‘dirgan. Professional jinoyatchilar ko‘pincha fohishalarni o‘ziga, o‘z jinoyatlariga sherik qilib olgan. Buzuqxonalarda jinoiy yo‘l bilan topilgan boylik taqsimlangan, buzuqxonalarning egalari o‘g‘irlik molni sotish bilan shug‘ullangan. Shunisi e’tiborga molikki, buzuqxonalarning egalari rolini asosan ayollar - jinoyat olami bilan yaqin aloqalarga ega bo‘lgan qo‘shmachilar bajargan. «Achinsk okrugida 1926-27-yillarning qishida Bibich boshchiligidagi jinoyatchilar shaykasi faol ish olib bordi. Oltita qurolli hujum uyushtirganiga qaramay, mazkur jinoiy guruh uzoq vaqt jazodan qochib yurishga muvaffaq bo‘ldi. Shunda Achinsk jinoyat qidiruv bo‘limi buzuqxonalarni kuzatishga qaror qildi. Pirovard natijada mazkur banda ishtirokchilarini aniqlash va ular buzuqxonalarga fohishalarning oldiga keladigan vaqtni aniqlashga muvaffaq bo‘lindi. Shundan so‘ng jinoyatchilarni qo‘lga olish bo‘yicha operatsiya rejalashtirildi. Natijada bir buzuqxonada o‘g‘irlangan molni taqsimlash paytida shaykaning to‘rt a’zosi, ikkinchi buzuqxonada esa - uch jinoyatchi qo‘lga olindi. Jinoyatchilar qo‘lga olish paytida o‘qotar quroldan o‘t ochib qarshilik ko‘rsatgani, ayollardan jonli devor sifatida foydalangani ham ularning xavfliligi darajasi qayd darajada katta bo‘lganidan dalolat beradi»[2].

Uyushgan, professional jinoiy faoliyatda fohishalarning ishtirok etishi bilan bog‘liq vaziyat bugungi kunda ham bir necha o‘n yil

---

[1] Куприн А.И. Яма. Собр. Соч. Т. 3. М., 1973; Проституция и преступность. М., 1991; Габиани А.А., Меликишвили Л.А. Социальное лицо женщин преступниц и проституток. Тбилиси, 1993 ва бошқалар.

[2] Угроватов А.П. Проституция в Сибире в 20-е годы. ЭКО. 1993. №4. 166.с.

oldingidek keskin bo‘lib turibdi, Professional prostitutsiya bugungi kunda ayniqsa kuchaygan. Tungi klublar, saunalar, massaj salonlari turli tijorat tuzilmalari niqobi ostidagi har xil jinoiy guruhlarning homiyligida faoliyat ko‘rsatmoqda.

1994-yilning martida Moskvada ichki ishlar organlari bunday tijorat tuzilmalarini tekshirish bo‘yicha keng ko‘lamli operatsiya o‘tkazdi. Natijada birgina «Ditya nochi» firmasining o‘zida bir necha birlik o‘qotar qurol topildi, buzuqxona vazifasini bajargan ko‘p sonli xonadonlarning biridan qidiruvda bo‘lgan ikki jinoyatchi qo‘lga olindi. Shuningdek, firma ijaraga olgan turar joy, sauna va shu kabilarning ayrimlari fohishalar doimiy mijozlarning qat’iy cheklangan doirasi bilan uchrashishiga mo‘ljallangani, bunday mijozlar orasida yirik tijorat tashkilotlarining katta mavqega ega bo‘lgan mansabdor shaxslari va xodimlari borligi aniqlandi[1].

Bunday buzuqxonalar va ularda «ishlaydigan» ayollardan uyushgan jinoiy guruhlarning foydalanishi masalasi ham qonuniy ravishda kriminologiya nuqtai nazaridan qiziqish uyg‘otadi. Bu, eng avvalo, aytaylik, fohishalar bilan turli hokimiyat organlari vakillarining uchrashuvini uyushtirish shaklida sodir bo‘ladi (yoki sodir bo‘lishi mumkin). Ushbu muammo haqida G.A.Matkarimova: “Nazarimizda seks bilan pora olish va berishni ham kiritish kerak, chunki ayollar jinoyatining ushbu turidan asrlar mobaynida muvaffaqiyatli foydalanib kelmoqdalar”[2], deydi.

Biroq biz olimaning dissertatsiya ishi bilan tanishish ja-rayonida “seks bilan pora olish va berishni” JKga kiritish haqidagi fikrning isbotini topmadik. Fohishalik uchun respublikamiz JKda javobgarlik belgilanmagan, bu hodisa bevosita jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli kriminologiya fani tomonidan o‘rganiladi.

Biz G.Matkarimovaning “dunyoda jinoyat qilgan ayollarning 70 foizi retsidivistlardir”[3], degan fikriga ham qo‘shila olmaymiz, chunki birinchidan, tadqiqotchi o‘z fikrining dalili sifatida aniq argumentlarni keltirmagan, ikkinchidan, dissertatsiya bilan tanishib chiqib, ayollarning gender va reproduktiv huquqlarining ayollar jinoyatchiligi bilan qanday aloqadorligi mavjud? degan savolga javob topa olmadik.

Tabiiyki, bundan mazkur «tadbirlar»ni tegishli yo‘sinda huj-jatlashtirish va ulardan obro‘sizlantiruvchi materiallar sifatida foydalanib,

---

[1] Московские новости. №10. 1994.

[2] Маткаримова Г.А. Халқаро ва миллий ҳуқуқда аёлларнинг гендер ва репродуктив ҳуқуқлари. Юрид. фан. док. илмий даражасини олиш учун дисс. Т., 2002., -Б. 79.

[3] Маткаримова Г.А. Ўша ерда. –Б. 78.

yuqorida zikr etilgan hokimiyat organlari vakillariga kelgusida tazyiq ko‘rsatish (ularni shantaj qilish) maqsadi ko‘zlanadi. Bu professional fohishalardan foydalangan holda, mansabdor shaxslarni og‘dirishning eng naqd «texnikaviy» usullaridan biridir. Bunday hollarda fohishalar boshqa shaxslarning jinoiy niyatlarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ammo ba’zan ularning o‘zlari ham qonunni buzishda faollik ko‘rsatadi. Masalan, 1993-yilning bahorida Toshkent shahrida jinoyatchilar guruhi fuqarolarning uylariga bir qator hujumlar uyushtirdi. O‘tkazilgan tezkor-tergov tadbirlari natijasida barcha jabrlanuvchilar bitta fohisha – 1971-yilda tug‘ilgan K.ning xizmatlaridan bir necha marta foydalangan tijorat tuzilmalarining xizmatchilari ekanligi, bu fohisha ayol o‘z mijozlarining uyida pul mablag‘lari va qimmatbaho buyumlar qayerda turishini aniq bilgan holda, uyushtirilgan talonchiliklarning bevosita tashkilotchisi bo‘lgani, bunga ijrochi sifatida tanish erkaklarni jalb etgani, bu erkaklarning uchtasi ilgari sudlangani, biri esa - uzoq vaqt qidiruvda bo‘lgani aniqlandi. O‘g‘irlangan mollar va qimmatbaho buyumlar K.ning tanishi - fohisha ayol T.ning uyida yashirilgan[1].

Shu narsa e’tiborga molikki, taxminan mana shu vaqtda Toshkent shahar ichki ishlar organlari S. ismli bir jinoyatchi ayol-ning faoliyatini fosh qildi. Ma’lum bo‘lishicha, bu 30 yashar so‘qqabosh ayol ma’lum haq evaziga o‘zining tanishi bo‘lgan fohishalar va erkak mijozlarning uchrashuvlarini uyushtirish bilan shug‘ul-langan. Mazkur uchrashuvlar fohishalarning uylarida yoki S.ning o‘z uyida uyushtirilgan. Mazkur jinoyati uchun ayol javobgarlikka tortildi hamda keyinchalik fohishaxona saqlaganlik va qo‘shmachilik qilganlik uchun jazoga hukm etildi. Yuqorida zikr etilgan K. va T.lar ham mazkur ish bo‘yicha guvoh tariqasida ishtirok etdilar, chunki S. bilan aloqada bo‘lgan fohisha ayollar orasida ular ham bor ekan.

Tag‘in shu narsa e’tiborga molikki, S.ning jinoyat ishini ko‘rib chiqish jarayonida ayrim guvohlar - ayblanuvchining xizmatlaridan foydalangan erkaklar huquqni muhofaza qilish va tergov organlarining faoliyatiga faol qarshilik ko‘rsatdi, chunki ularning shaxsiy hayotining mazkur jihatlari oshkor bo‘lishi ularning obro‘yi va egallagan mavqeiga putur yetkazishi mumkin edi. Aftidan, bunga o‘xshash jinoiy faoliyatlarni fosh qilish va isbotlash jarayonida mazkur omil ma’lum hollarda jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilsa kerak. Fohishaxona saqlaganlik yoki qo‘shmachilik qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning

---

[1] Мазкур жиноят ишини ўрганиш жараёнида биз К.нинг шахсини таърифловчи қизиқ бир ҳолатни қайд этдик – у профессионал фоҳишалик билан шуғулланиш учун чет элга – Туркия ва Бирлашган Араб Амирликларига бир неча марта чиққан экан.

soni so'nggi yillar davomida biroz kamayib borayotganligi ham bejiz emas. Vaholanki, mazkur jinoiy qilmishlar haqida bunday deb aytish mushkul. Bunga ishonch hosil qilish uchun poytaxt markazida joylashgan mehmonxonalar oldidagi xiyobonga tashrif buyurish kifoyadir. Bu joy fohishalar va ularning muhiti tilida «ugolok» deb ataladi. Fohishalarning xizmatidan foydalanishni istagan shaxslarga bu yerda bunday xizmatlarning keng doirasi taklif etiladi. Qo'shmachilik bilan bu yerda, odatda, erkaklar shug'ullanadi, ammo shunga o'xshash xizmatlar ko'rsatuvchi ayollar ham bu yerda anchagina. Bizningcha, bunday shaxslarni professional jinoyatchilar deb hisoblash uchun barcha asoslar mavjud, chunki fohishalar xizmatini tashkil qilish mazkur hodisaning barcha belgilariga ega: doimiy va barqaror daromad manbai; kriminal muhit bilan aloqa; tegishli ixtisoslashish va malaka darajasi; o'ziga xos jinoiy an'analar, udumlar, til (jargon)ni bilish va h.k.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning yana bir muhim jihati shundaki, jinoyatchilar - asosan ijtimoiy foydali aloqalari uzilgan, oilasiz va umuman hech qanday ijtimoiy tormozlarga ega bo'lmagan shaxslar bo'lib, ular ozodlikda o'ziga oshna-og'ayni (erkak)lari orasidan jazman qidiradi. Jazmanni ular ko'pincha fohisha ayollar orasidan topadi. Jinoyatchilar bu ayollarni o'z turmush tarziga jalb etadi, ularning ongiga hayot haqidagi o'z qarashlarini singdiradi. Bunday hol hayotda shusiz ham to'g'ri yo'lni topa olmagan ayollarga kuchli ta'sir qiladi. Bunday ayollarning ko'pgina mijozlari har xil, shu jumladan, g'ayriqonuniy yo'llar bilan boylik orttirgan jamiyatning «ilg'or» tabaqalarining vakillaridir. Ular o'z boyligini qanday yo'llar bilan orttirganini vaqtinchalik jazmanlari - fohishalardan yashirmaydi. Shuning uchun ham fohisha bilan yaqin aloqada bo'lgan jinoyatchi, o'g'ri unga bunday mijozlarining patini «yulib» qo'yishni taklif qilganida, fohisha bunga bajonidil rozi bo'ladi, chunki u o'zining yuqorida zikr etilgan mijozlarini yoqtirmaydi. Ba'zan sentimental kayfiyatdagi fohisha o'z mijozining xotiniga hamdardlik ko'rsatadi va «ayollar birdamligi» psixologiyasidan kelib chiqib, unga bajonidil shunday zarbani beradi.

Fohishalar ko'pincha tajribali jinoyatchilar qo'lida ko'ngilxushlik qidirgan yengiltak erkaklarni tuzoqqa ilintirish uchun «xo'rak» bo'lib ham xizmat qiladi. Fohishalarning mijozlarini ular fohisha bilan jinsiy aloqa qilishga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda o'ldirgan va talagan professional qotillar va talonchilar o'z vaqtida ancha ko'p bo'lgan. Olingan daromadni jinoyatchi va fohisha o'zaro bo'lishgan. Bunday hodisalar bugungi kunda ham uchrab turadi[1].

---

[1] Карпец И.И. Преступность: илюзии и реальность. М., 1992. С. 405-406.

Fohisha ayollar ko‘pgina hollarda farzand ko‘ra olmaydi yoki ularning farzandlari qarovsiz qoladi. Ular (tobora tarqalib borayotgan) bolalar fohishaligiga jalb etiladi yoki o‘g‘rilar va boshqa jinoyatchilar safini to‘ldiradi, alkogoliklar va giyohvandlar qatoriga qo‘shiladi.

Fohishalik va u bilan bog‘liq ayollarning har xil jinoiy faoliyati ba’zan giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi bilan birgalikda sodir etiladi.

Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning krimi-nologik xususiyati jinoyatlarning muayyan turlari va, tegishli ravishda, jinoyatchilar toifalarining xilma-xilligidan iboratdir, zotan, giyohvandlik vositalari bilan jinoiy manipulsiyalar rang-barang bo‘lib, ularning har biri o‘z kriminologik xususiyatiga, jinoyatchilarning tipologiyasiga (jinoiy faoliyatning tashkilotchilari, giyohvandlik vositalarini tarqatuvchilar, sotuvchilar, tayyorlovchilar, o‘g‘irlovchilar, tashuvchilar va hokazolardan tortib ularni iste’mol qiluvchilargacha) ega. Amaliyot giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlarning bunday zanjirida ayollar giyohvandlik vositalari (ko‘knori va nasha)ni etishtirish, tayyor giyohvandlik vositalarini sotish, shuningdek ularni iste’mol qilishga mo‘ljallangan joylarni saqlashda ancha katta rol’ o‘ynashini ko‘rsatadi. Ayollarning so‘nggi «ixtisosligi» ko‘pincha yuqorida zikr etilgan qo‘shmachilik qilish va fohishaxona saqlash faoliyati bilan chatishib ketadi. Bu erda ayollarning salmog‘i 88,1 %ni (erkaklar 11,9 %ni) tashkil etadi[1]. Shunga o‘xshash ma’lumotlarni A.N. Ignatov ham keltiradi: «50 ayblanuvchiga doir 47 ta jinoyat ishini o‘rganish fohishaxonalar saqlaganlik uchun hukm etilganlar orasida ayollar 90% ni, erkaklar esa - atigi 10% ni tashkil etishini ko‘rsatadi»[2].

Giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi sohasida ayollar jinoiy «qobiliyati» qo‘llanadigan yana bir soha mavjud bo‘lib, u haqda ham batafsil to‘xtalib o‘tish lozim. Bu o‘rinda biz farmatsevtika sanoati sohasida va sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida - dorixonalar va kasalxonalardagi jinoyatlarni nazarda tutmoqdamiz. Ko‘pchiligini xotin-qizlar tashkil etuvchi mazkur muassasalarning xodimlari ba’zan jinoyatchilar bilan til biriktirib, tarkibida giyohvandlik moddalari bo‘lgan dorilar va preparatlar bilan g‘ayriqonuniy savdo qiladi va buning evaziga jinoyatchilardan katta haq oladi. Bu yerda mazkur pullar ham jinoiy yo‘l bilan topilishini qayd etib o‘tish kerak. Giyohvand erkaklar shaxsan iste’mol qilish yoki boshqalarga sotish uchun giyohvandlik vositalarini

[1] Кузнецова Н.И. Уголовно-правовая борьба с содержанием притонов разврата и сводничеством. Канд. дисс. М., 1982. 66.с.
[2] Игнатов А.Н. Квалификация половых преступлений. М., 1974. 242. с.

tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lish maqsadida tibbiy muassasalar va korxonalarda ishlaydigan ayollar bilan atayin intim aloqaga kirishgan hollar ma’lum. Bunday kriminal muhitda ayniqsa farmatsevtika sanoati obyektlaridan uzluksiz o‘g‘irlik kanallarini yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor bo‘lgan uyushgan jinoiy tuzilmalarning ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday hollarda, odatda, turli mansabdor shaxslar, shuningdek, mazkur obyektlarni qo‘riqlovchi shaxslar va tuzilmalar, huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari pora evaziga og‘diriladi[1].

Giyohvandlik vositalarining o‘g‘irlanishi bilan bog‘liq bunday ayollarni uzil-kesil professional jinoyatchilar deb atash mumkin emas. Ammo, mazkur muammoga ayollar jinoyatchiligining professio-nallashishiga ko‘maklashuvchi omillar nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, qayd etilgan tendensiyalarning xavfligiga shubhasiz dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan umumijtimoiy omillar: turmush darajasining pasayishi, oilaviy va ijtimoiy foydali aloqalarning uzilishi va hokazolar mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Masalan, ko‘pchiligini xotin-qizlar tashkil etuvchi tibbiy xodimlar bugungi kunda mehnatkashlarning eng kam haq to‘lanadigan toifasiga mansub. Binobarin, o‘z moddiy ahvolini yaxshilashga intilish ma’lum hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri kriminogen salohiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Ba’zan ayollarning o‘zlari giyohvandlik vositalari bilan g‘ayriqonuniy muomalada bo‘lish bilan bog‘liq faoliyatga qo‘shilib, bunday vositalarni iste’mol qilishga ruju qo‘yadilar, bu esa tarkibida giyohvandlik moddalari bo‘lgan dorilar va preparatlarni qo‘lga kiritishdan manfaatdor bo‘lgan alohida shaxslar va jinoiy guruhlar o‘z maqsadiga erishishini yengillashtiradi.

Bu o‘rinda giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishning oqibatlari va mazkur jarayonning ayollar jinoyatchiligi bilan o‘zaro aloqasi haqida ham to‘xtalib o‘tish kerak. Avvalambor, giyohvandlik vositalari iste’mol qilishga ma’lum darajada fiziologik bog‘liqlik katta xavf tug‘diradi, chunki bu giyohvandlik, vositalarini yoki giyohvandlik vositalari tayyorlash uchun xom ashyoni sotib olish uchun mablag‘lar topish maqsadida giyohvandlar, eng avvalo, tamagirlik yo‘nalishidagi jinoyatlarni sodir etishiga turtki beradi. Ma’lumki, giyohvandlik vositalarini uzoq vaqt va surunkali isge’mol qilish natijasida shaxs ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan tubanlashadi, ijtimoiy foydali mehnat qilishga layoqat va xohish-istakni yo‘qotadi. Giyohvandlik vositasini har qanday yo‘l bilan qo‘lga

[1] Бундай фактлар, жумладан, техник морфин ишлаб чиқариладиган Тошкент кимё-фармацевтика заводида бир неча марта қайд этилган.

kiritishga yo‘naltirilgan jinoiy faoliyat bunday shaxs hayotining asosiy maqsadiga aylanadi. Bunday intilishlarning ijtimoiy xavfliligi yaqqol ko‘rinib turadi.

Tadqiqot darajasida 2003-yil davomida jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumani sudida jinoyat sodir etgan ayollarning jinoyat ishlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, retsidiv jinoyatlar hissasi 2002-yilga nisbatan ko‘paygan, ya’ni jazoga hukm qilingan 111 nafar ayollarning 27 nafari (25, 22 %)ni muqaddam sudlanganlar bo‘lgan. Masalan, 2000-yilda JK 131-modda 1-qismi bilan sudlangan B. yana shunday qilmishni sodir etgan.

X. 1997-yilda Toshkent viloyati Olmaliq tuman sudi tomonidan va 2000-yilda Yunusobod tuman sudi tomonidan o‘g‘rilik sodir etganligi uchun sudlangan bo‘lib, jazoni o‘tash muassasasidan ozod bo‘lganidan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmasdan yana o‘g‘rilik (JK 169-modda 3-qismi) sodir etgan.

Muqaddam ikki marotaba sudlangan B.V. 2003-yil 13-fevraldagi sud hukmiga ko‘ra JK 131-modda 2-qismi (xavfli retsidivist tomonidan fohishaxona saqlash) bilan javobgarlikka tortilgan.

Ayollar jinoyatchiligining professionallashishiga olib keluvchi omillarni ko‘rib chiqishni yakunlar ekanmiz, biz salbiy ijtimoiy hodisa - ichkilikbozlik haqida ham o‘z fikrimizni bildirib o‘tishni istar edik. Ichkilikbozlik – alkogolizm bilan jinoyatchilik, shu jumladan ayollar jinoyatchiligining o‘zaro aloqasi haqida juda ko‘p yozilgan[1]. Jinoyat statistikasi spirtli ichimliklar iste’mol qilish ko‘p bo‘lgan joyda jinoyatchilikning darajasi ham katta, xususiyati xavfli jinoyat sodir etish usullari va ularning oqibatlari esa og‘ir bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, 1998-yil 24-noyabrda Toshkent shahar sudi 1964-yilda tug‘ilgan S.ning jinoyat ishini keltirish mumkin. S. 1998-yil 30-iyundan 1-iyulga o‘tar kechasi mast holda o‘zining tanishi P.I.Nikulinning xonadonida spirtli ichimliklarni iste’mol qilib, o‘zaro janjal natijasida tamagirlik niyatida odam o‘ldirish maqsadida jabrlanuvchilar P.I. Nikulin va uning nikohsiz xotini G.Tolipovalarning mast holatda uxlab yotganligi – ojizligidan foydalanib, ularning boshiga o‘ta shafqatsizlik bilan bolg‘a bilan bir necha marta urgan. Buning natijasida jabrlanuvchilar voqea joyida vafot etganlar.

Alkogolizmning takroriy jinoyatchilikka ta’siri ham katta. Ko‘p jinoyatlar sodir etgan retsidivistlar orasida surunkali ichuvchi shaxslar va

---

[1] Явчуновская Т.М. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика преступности женщин-алкоголичек. Автореф. канд. дисс. М., 1981; Бадальянс Э.Ю. Криминологические и уголовно-правовые проблемы социальной реабилитации осужденных женщин, признанных хроническими алкоголиками. Автореф. канд. дисс. Рязань, 1993 ва бошқалар.

narkologik dispanser ro‘yxatida turuvchilarning salmog‘i birinchi marta jinoyatni sodir etgan kimsalar orasidagi bunday shaxslarning salmog‘idan ancha kattadir. Bunday holatni ayollar jinoyatchiligida ham kuzatish mumkin. Ammo, bizningcha, alkogolizmga umuman ayollar jinoyatchiligining omili deb qarash lozim bo‘lsa-da (zotan, ayollar alkogolizmi shaxsga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatadi va uning tubanlashishiga olib keladi), professional jinoiy faoliyatga nisbatan uning kriminogen omil sifatidagi roli ancha bahslidir. Bu, avvalambor, organizmning alkogollashishi muqarrar ravishda shaxsning ma’naviy va jismoniy tubanlashishiga, uning umumiy madaniyati yo‘qolishiga va, bizning holatda eng muhimi - shaxs har qanday (va nafaqat jinoiy) kasbiy ko‘nikmalarini yo‘qotishiga olib kelishi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham biz jinoiy professionalizmning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan ixtisoslashish va malaka orttirish yakuniy hisobda shaxsning alkogolga tobeligi bilan yonma-yon turishi mumkin emas, deb hi-soblaymiz. Biz bunda piyonista ayollarning rasman professionalizm belgilariga ega bo‘lgan jinoiy faoliyati ochiq-oydin ko‘rinadigan xususiyatga egaligidan, professional jinoiy muhitda jinoyatchining obro‘si ichkilikka ruju qo‘ygan yoki bunday illatdan xoli ekanligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shunday qilib, biz ayollar jinoyatchiligining professio-nallashishiga ko‘maklashuvchi omillarni ko‘rib chiqib, ular keng qam-rovli, har xil xususiyatga ega ekanligini aniqladik. Mohiyat e’tibori bilan, har bir omilning ortida yaxlit bir ijtimoiy hodisa yoki muammo turadi. Ularning bir-biriga va ayollarning professional jinoyatchiligiga ta’siri ko‘pincha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi va rang-barang, aralash shakllar kasb etadi. Tabiiyki, biz bu yerda faqat ayollarda professional jinoiy moyillikning shakllanishi bilan bog‘liq eng muhim va keskin muammolarni ko‘rib chiqish bilan kifoyalandik. Bu tadqiqotlar mukammal bo‘lmay, ularni yanada chuqur o‘rganish va ularga yanada keng tavsif berish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, professional jinoyatchi ayollar shaxsining tegishli tiplarga ajratib o‘rganishni ham talab etadi.

## 6.4. Ozodlikdan mahrum etish muassasalaridagi ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta’siri haqida

Jinoyat qonunlarida sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra turli jazo choralari belgilangan. O‘zbekisgon Respublikasining yangi Jinoyat va Jinoyat-ijroiya kodeksida bu borada bir qancha imkoniyatlar nazarda tutilgan. Biroq, jinoiy jazoni ijro etish turlarining xilma-xilligi va vaqt o‘tishi bilan ular doirasining tobora

kengayib borayotganligiga qaramay, mahkumlarga ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlash eng an'anaviy va ommaviy bo'lib qolayotir.

Masalan, O'zbekistonda bugungi kunda 49 ta jinoyat-ijroiya muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 47 ming nafar mahkum jazoni o'tamoqda, shulardan 668 nafari - ayollardir[1]. Bunda penitensiar aholining ayollar kontingenti soni respublikada so'nggi bir necha yil mobaynida turg'un bo'lib qolmoqda va 650-960 kishini tashkil etgan, 2004-yilgi ma'lumotlarga ko'ra UY 64/7 jinoiy jazoni o'tash muassasasining umumiy va qattiq tartibli koloniyalarida jazoni o'tayotgan ayollarning umumiy soni 1480 nafar bo'lib, ularning 1155 nafari jazoni umumiy tartibli koloniyada o'tamoqdalar.

Ma'lumki, ozodlikdan mahrum etish jazosiga odatda xavfli jinoyatchilar hukm etiladi, ozodlikdan mahrum etish joylarida esa mahkumlarni tarbiyalash va takroriy jinoyatlarning oldini olish maqsadida tarbiyaviy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Tarbiyaviy chora-tadbirlarning ko'pchiligi jazoni o'tayotgan shaxslarda ozodlik-dagi mikroijtimoiy muhitning salbiy ta'sirida shakllangan g'ayriijtimoiy qarashlar, moyilliklar va odatlarni tubdan yo'qotishga qaratilgan. «Biroq, jazoni o'tash joylaridagi boshqa jazoni o'tayotgan jinoyatchilarning mahkumga ta'siri yuqorida aytilgan maqsadlarga erishishga jiddiy to'siq bo'ladi. Qolaversa, bu ta'sir mazkur jinoyatni sodir etishga turtki bo'lgan salbiy omillarning shaxs ongida yanada chuqurroq o'rnashishiga olib kelishi, shuningdek, yangi g'ayriijtimoiy qarashlar va intilishlarning shakllanish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin[2].

N.A.Struchkov bu haqda shunday deb yozadi: «Ozodlikdan mahrum etishning samarasi haqida axloq tuzatish-mehnat muassasalaridan ozod qilinuvchi shaxslar yangi jinoyat sodir etadilarmi, ular jazoni o'tash davrida jinoyat sodir etish imkoniyatiga ega bo'ladilarmi, mahkumlarning ayanchli qismati boshqa shaxslarni jinoyatdan qaytaradimi - ana shularga qarab xulosa chiqarish mumkin»[3]. Bu fikr sotsialistik penitensiar tizim «ravnaq topgan» davrda aytilganligiga qaramay, o'z mohiyatiga ko'ra u bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolayotir.

Ayollar koloniyalaridagi hayot erkaklarnikidan jiddiy farq qilishi, ozodlikdan mahrum etilgan ayollar mikroijtimoiy muhitining o'ziga xos-liklari, unda qabul qilingan norasmiy qonun-qoidalar haqida chiqarilgan xulosalarni Y.M.Antonyan, M.I.Dutov, G.F.Xoxryakov, T.A.Shmayeva, V.Serebryakova va boshqa olimlarning ishlarida uchratish mumkin.

---

[1] Жиноят- ижроия ҳуқуқи.Т., Ўқитувчи, 2002, -39 б.

[2] Антонян Ю.М.Социальная среда и формирование личности преступника. -М., 1975.108.С.

[3] Стручков Н.А. Советская исправительно-трудовая политика и ее роль в борьбе с преступностью. - Саратов, 1970. 164.С.

O‘z tadqiqotimizda biz, birinchidan, olingan alohida ma’lu-motlarni mazkur muammoga oid boshqa tadqiqotlardagi ishlarga taq-qoslashga, ikkinchidan, ozodlikdan mahrum etishga mahkum etilgan ayollarga mikroijtimoiy muhitining tavsifiga ba’zi yangi ma’lumotlarni kiritishga harakat qildik. Bu maqsadlar uchun mahkumalardan savollariga javob olish, ayollarning axloq tuzatish muassasalari va tergov izolator xodimlari orasida o‘tkazilgan so‘rovlar, mazkur muassasalarning xodimlari va jinoyatchi ayollar bilan o‘tkazilgan ko‘p sonli suhbatlardan chiqarilgan xulosalar, shaxsiy kuzatishlar, shuningdek, ayrim koloniyalarning har xil faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari haqidagi hisobotlarining tahlili natijalaridan foydalanildi.

Biz o‘rgangan shaxslarning 31,5 %ni qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o‘tashga hukm etilgan ayollar tashkil etdi. Biroq, biz umumiy tartibli ayollar koloniyalaridagi mikromuhitni o‘rganishga ham jiddiy e’tibor berdik va bunday shaxslar respondentlar umumiy sonining 33,2% ni tashkil qildi. O‘ta xavfli jinoyatchilar o‘rganilgan jinoyatchi ayollarning umumiy sonida 5 %ni tashkil etdi. Bu o‘rinda mazkur nisbat ozodlikdan mahrum etilgan ayollarning umumiy manzarasiga xos emasligi haqida izoh berib o‘tish lozim, chunki, masalan, 1989-yili SSSRda o‘tkazilgan mahkumlarni maxsus ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, qattiq tartibda saqlangan ayollar 8,9% ni, umumiy tartibda saqlanganlar esa - 91,1% ni tashkil etgan. O‘rganishning mazkur empirik asosini tanlash, jumladan, shu holat bilan belgilanadiki, hozirgi zamon sharoitlarida, ayniqsa, mahkumlarni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartib turlari bo‘yicha taqsimlash borasidagi talablarga qat’iy rioya qilish uchun sharoit deyarli bo‘lmagan O‘zbekistonda so‘nggi yillarda birinchi marta ozodlikdan mahrum etilgan ayollarga mo‘ljallangan umumiy tartibli jazoni ijro etish muassasalariga asosan bir necha marta sudlangan, shartli jazo berilgan, jazoni ijro etish muddati kechiktirilgan, axloq tuzatish ishlariga hukm etilgan mahkumlar kelib tushmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi ayollar jazoni o‘tash koloniyasining birida bolalar uyining yo‘qligi ham bolali mahkumlarni tartib turlari bo‘yicha qat’iy taqsimlashga to‘sqinlik qiladi. Davlatda mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar jinoyat-ijroiya qonun hujjatla-rida belgilangan qoidalarni amalga oshirish imkonini bermaydi. Olimlarning jazoni ijro etish muammolariga bag‘ishlangan asarla-rida ham biz mazkur xulosalarning bilvosita tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin[1].

Biroq, shunga qaramay, biz olingan natijalarni so‘nggi marta o‘tkazilgan mahkumlarni ro‘yxatga olish yakunlari bo‘yicha jami

[1] Чукмаитов Д.С. Теоретические основы системы исполнения наказаний по законадательству Республики Казахстан. Алматы, 1999, -С. 140.

ozodlikdan mahrum etilgan ayollar kontingentining jinoiy jazoni ijro etish, ijtimoiy-demografik va jinoyat huquqiy tavsiflari ma’lumotlariga ham, ayollarning jazoni o‘tash tartibi turlari bo‘yicha taqsimlanishining umumiy statistik manzarasini aks ettiruvchi tadqiqotlarning ma’lumotlariga ham taqqoslab chiqishga muvaffaq bo‘ldik.

Ushbu tadqiqotda bir necha marta jinoyat sodir etgan va bir martadan ortiq sudlangan ayollarning tavsifiga jiddiy e’tibor berilgan. Birinchidan, bu avvalambor oddiy jinoyatchi ayollarning tipik alomatlarini o‘rganish, g‘ayriijtimoiy qarashlari qat’iy shakllangan bu jinoyatchilar shaxsining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq qilishga intilish bilan izohlanadi. Ikkinchidan, mazkur shaxslar toifasini o‘rganish jinoiy faoliyatning rasmiy bosqichlarini ham, sodir etilgan birinchi jinoyatdan (uning uchun hukm etilgandan) boshlab shaxsning ijtimoiy deformasiyasi (buzilishi) shart-sharoitlarini ham kuzatib borish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu tanlov varianti mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan ayollarning jinoiy professionalizmini o‘rganish zarurati bilan ham izohlanadi.

Qo‘llanilgan jazo va tarbiyaviy yo‘sindagi majburlov choralarini idrok etishning muhim shaxsga oid tavsiflaridan yana biri mahkumlarning sodir etilgan jinoyatga va uning oqibatlariga munosabati hisoblanadi. Biz o‘rgangan barcha shaxslardan 24,6% o‘z javoblarida qilmishlaridan pushaymon ekanliklarini bildik. O‘zini qisman aybdor hisoblagan va qilmishidan qisman afsus chekkanlar 27,7% ni tashkil etdi. O‘z aybini tushunib yetgan, biroq pushaymon chekmaganlar 15,4% ni tashkil qildi. O‘zini mutlaqo aybsiz hisoblovchilar ham 15,4% bo‘lib chiqdi. So‘ralganlarning 16,9% sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlariga befarq ekanliklarini bildirdi.

Tayinlangan jazoga nisbatan mahkum ayollarning munosabatlari quyidagicha taqsimlandi: jazoni adolatli deb hisoblovchilar - 12% ni, adolatli, biroq haddan tashqari qattiq deb hisoblovchilar - 52,8% ni, nohaq deb hisoblovchilar - 50,8% ni tashkil etdi.

O‘rnatilgan tartib talablariga rioya qilish, buning zarurligini anglab yetish jazoning, maqsadlariga erishishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi va mahkumlarning xulq-atvorini baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Mahkumlarning jazoni o‘tash tartibiga munosabatining tahlili ham ularning axloqan tuzalganlik darajasini baholash imkonini beradi. Biz o‘rgangan shaxslarning 30,8% jazoni o‘tash tartibini buzmaslikka harakat qilishini, 36,9% - tartibning ayrim talablarini ataylab buzishini va 32,2% - bu talablarni ataylab surunkali buzib kelishini

ko‘rsatdi. Bu o‘rinda bunday ajratish va olingan natijalar ma’lum darajada shartli ekanligini qayd etish lozim. Biroq, bizning fikrimizcha, bu ma’lumotlarning ahamiyatini inkor etib ham bo‘lmaydi, zotan, ular intizom amaliyotining shunchaki statistik ko‘rsatkichlari bo‘lmay, jazoni o‘tash sharoitlariga shaxsning ichki, ruhiy munosabatini ham ko‘rsatadi.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi mikroijtimoiy muhitni tavsiflovchi muhim mezonlardan yana biri bu mahkum ayolning boshqa mahkumlar, kameradoshlari orasidagi o‘z ijtimoiy holatiga munosabatidir (bu yerda mazkur tadqiqot o‘tkazilgan tergov izola-torlarida saqlangan shaxslar (ayblanuvchilar) ham nazarda tutiladi).

Mazkur masala yuzasidan qo‘yilgan savolga javobida respon-dentlarning 21,5% jamoada, guruhda peshqadamlik qilishga intila-yotganini ko‘rsatdi. Peshqadamlikka da’vo qilmagan holda shaxsiy obro‘ orttirishga intilayotganlar - 18,5% ni, o‘zini yetarli darajada erkin his qiluvchi va obro‘sini mustahkamlashga muhtoj bo‘lmaganlar - 26,2% ni tashkil etdi. So‘ralganlarning 15,4% o‘zini noo‘rin kamsitilgan, tushunilmagan, e’tiborsiz qoldirilganlar qatoriga kiritdi. Boshqa mahkumlar davrasidagi o‘z mavqeiga befarq qaraydigan ayollar 18,4% ni tashkil etdi.

Jamoa va guruhda jinoiy faoliyatga va «jinoyat olami» vakillariga bo‘lgan munosabat zaminida vujudga keladigan kayfiyatlar ham mahkumlarning shaxsiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi[1].

Biz o‘rgangan jami ayollarning 13,1% o‘zlarini «jinoyat olami» vakillari qatoriga qo‘shdi. So‘ralganlarning 8,5% «jinoyat olami» vakillarining urf-odat va an’analariga xayrixoh ekanligini ko‘rsatdi. O‘zini faqat hukm etilgani munosabati bilan jinoyatchi deb hisoblovchilar 47,7% ni tashkil qildi. Ayollarning 16,9% «Jinoyat olami» va uning vakillariga befarq ekanliklarini ko‘rsatdi. Mahkumlarning 13,8% esa o‘z javoblarida «jinoyat olami»dan nafratlanishi, biroq uning «qonunlari» va urf-odatlari bilan, ayniqsa, ozodlikdan mahrum etish joylarida hisoblashishga majbur ekanligini qayd etdi. So‘nggi savolga berilgan javoblar munosabati bilan biz qiziq bir qonuniyatni qayd etdik: aynan bir necha marta sudlangan va jazoni ijro etish joylarida ko‘p yillar o‘tirgan jinoyatchi ayollar jinoiy an’analar va urf-odatlarga hamda ularga rioya qiluvchi shaxslarga nisbatan o‘z salbiy munosabatlarini bildirdilar va faqat ozodlikdan mahrum etish joylaridagina ular bilan hisoblashishga majbur ekanliklarini qayd etdilar. Jinoiy tajribaga ega bo‘lmagan, nisbatan yosh ayollarning ko‘pchiligi jinoiy muhit haqida salbiy fikr bildirmadilar. O‘zini «jinoyat olami»ga

[1] Глоточкин А.Д., Пирожков В.Д. Психология коллектива заключениях. - М, 1968. 27.с.

mansub deb bilganlar ham aynan ularning orasida ko‘pchilikni tashkil etdi. Bizningcha, bunday manzara haqiqiy ahvolni aks ettirmaydi, to‘g‘rirog‘i, jinoiy muhit va uning vakillariga mahkumlarning munosabatini yetarli darajada to‘g‘ri aks ettirmaydi. Biz buni aynan «professional» jinoyatchilar, jinoiy an’ana va urf-odatlarning faol tarqatuvchilari, so‘rovlar va suhbatlar yashirin tarzda o‘tkazilganligiga qaramay, «jinoyat olami»da qabul qilingan o‘sha stereotiplardan o‘zlari puxta o‘zlashtirgan xulq-atvor normalaridan kelib chiqib, o‘zlari jinoyatchilarning aynan shu toifasiga mansub ekanliklarini yashirishga harakat qilganliklari bilan bog‘liq deb o‘ylaymiz. Nisbatan yosh va tajribasiz jinoyatchilar esa, aksincha, mahkumlar orasidagi o‘z mavqeiga urg‘u berishga, uni oshirib ko‘rsatishga uringanlar. Shunday qilib, mazkur o‘ziga xoslikni qayd etgan holda, mahkumlarning qo‘yilgan savollarga bergan javoblariga oid keltirilgan ma’lumotlarni baholashga ma’lum tanqidiy yondashuvning zarurligini ham ta’kidlashni istar edik.

Jinoiy faoliyatni davom ettirish yuzasidan berilgan savollarga quyidagi javoblar olindi: jazoni o‘tab bo‘lgandan so‘ng jinoiy faoliyatga barham berish niyatidagilar - 36,9%; bu muayyan turmush sharoitlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatganlar - 16,9%; javob berishga qiynalganlar - 25,4%; jazodan ozod etilganidan so‘ng jinoiy faoliyatni davom ettirish niyatini bildirganlar - 20,8%.

Jinoyatchilarning sodir etilgan jinoyatlar va jazoga bo‘lgan munosabatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, zotan bu, bizning fikrimizcha, ularning umumiy kayfiyati, ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yashash sharoitlariga munosabati, tarbiyaviy yo‘sindagi choralarni id-rok etishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi hamda muayyan shaxs va u mansub bo‘lgan mikroijtimoiy muhitning ma’lum ruhiy «zaharlanish» darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, bu jinoyatchilarni to‘g‘ri yo‘lga solish va qayta tarbiyalash hamda takror jinoyatlar sodir etilishining oldini olish uchun muhimdir.

Ayollarning jinoyat va jazoga nisbatan mazkur munosabatini baholashda ularning ko‘pchiligi ozodlikdan mahrum ekanliklaridan juda qattiq qayg‘urishlarini nazarda tutish kerak. Jazoni ijro etish koloniyalariga tushgach, ular shaxsiy jihatdan erkaklardan ham ko‘proq narsa yo‘qotadilar. Jamiyatdan ajratish joylaridagi sharoit ularda chorasizlik, tushkunlik, umidsizlik, odamlarga va o‘z kuchiga ishonchsizlik hislarini uyg‘otadi.

Mahkumalarning oilaviy va qarindosh-urug‘chilik aloqalarini yo‘qotishi yoki bu aloqalarning zaiflashishi mazkur holatni yanada

kuchaytiradi. Bu jihatdan mahkum ayollarning o‘z oilasi va qarindosh-urug‘lariga bo‘lgan munosabatiga oid ma’lumotlar e’tiborga molikdir. O‘rganilgan ayollarning 34,1% oilasi va qarindosh-urug‘larining taqdiriga qiziqishi, ular bilan aloqa bog‘lab turishini bildirdi. Ularning 35,8% imtiyozlarga ega bo‘lish va o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab ular bilan aloqa qilishini ko‘rsatdi. Oila a’zolari va qarindosh-urug‘larini yomon ko‘ruvchilar 12,3% ni tashkil etdi.

Oilaning buzilishi ayol kishining hayotida erkaknikiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Vaholanki, jazoni o‘tash davrida mahkum ayollarning har ikkinchi oilasi (erkaklarda - har uchinchisi) buzilib ketadi.

Bolalardan ajralganlik, ularni tarbiyalashda (ular uch yoshdan katta bo‘lgan bolalarni ham) ishtirok etish imkoniyatidan mahrumlik erkaklardan ham ko‘ra ayollarga kuchli ta’sir qiladi.

Shu narsa e’tiborga molikki, o‘rganilgan koloniyalardagi mahkumlarning 76,2 % bolali ayollar bo‘lib, shulardan 36,4 % ikki yoki undan ortiq farzandga ega. Oilasi buzilganlar orasida bolali ayollarning salmog‘i undan ham katta - 98,4 %. Koloniyalar qoshidagi bolalar uyiga joylashtirilgan bolalarning tarbiyasi bilan asosan ma’muriyat va bolalar uyi xodimlari shug‘ullanishidan guvohlik beruvchi amaliyot mazkur statistika fonida mantiqqa zid bo‘lib tuyulishi mumkin (mazkur holatda bu doim ham faqat onaning o‘z bolalari tarbiyasi bilan shug‘ullanishni istamasligi bilan bog‘liq bo‘lavermasligi, bunga ko‘pincha tashkiliy yo‘sindagi hamda koloniyadagi tartib va sanitariya-gigiyena tartibi bilan bog‘liq muammolar, koloniyada ona va bolaning birga yashashiga sharoit yaratish uchun moddiy imkoniyatlarning mavjud emasligi sabab bo‘lishini nazarda tutish lozim)[1].

Mahkumalarning oilaviy munosabatlari bilan bir qatorda, ularning ozodlikka chiqqandan so‘ng mehnat faoliyatiga bo‘lgan munosabati ham o‘rganildi. Ayollarning 37,7 % o‘z kuchi, bilimi va kasbiy o‘quviga ishonch hamda qonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish niyatini bildirdi. Ozodlikka chiqqandan so‘ng ishsiz qolishdan cho‘chiyotganlar 35,8 %ni tashkil etdi. So‘ralganlarning 26,9% bu muammoga befarq ekanliklarini bildirdi. Nihoyat, mahkumlarning 20,6% ongli ravishda o‘zini jinoiy faoliyatni davom ettirishga tayyorlayotganini tan oldi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, g‘ayriijtimoiy niyatlari va ruhiy moyilliklarini ochiq-oydin bildirayotgan shaxslar tashkil etishi e’tiborni tortadi. Bu ozodlikdan mahrum etilgan

---

[1] Сушко В.А. Совершенствование условий и порядка отбивания наказания в виде лишения свободы осужденные женщинами. Диссертация канд.юр.наук. М, 1994; Женщина с ребенком в колонии. Советская юстиция, 1993. №24 и др.

ayollarning qariyb 1/5 qismi ancha mustahkam g‘ayriijtimoiy moyillikka ega va yashashdan maqsadi jinoyat sodir etishdan iborat, deb taxmin qilishimizga asos bo‘ladi. Jinoiy submadaniyatning eng faol tarqatuvchilari ham, boshqa mahkumlarga eng salbiy ta’sir ko‘rsatuvchilar ham aynan shulardir. Umuman olganda, mazkur nisbat birinchi marta ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan ayollarga ham, ozodlikdan mahrum etish jazosini takroran o‘tayotganlarga ham xosdir. Amaliyotning ko‘rsatishicha, axloq tuzatish-tarbiyalash yo‘sinidagi choralar jinoyatchi ayollarning bu toifasiga kamdan-kam ta’sir qiladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan ayollar muhitida bu toifa jinoyat-chilarning tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, mazkur shaxslarning ijtimoiy va ma’naviy tubanlashishi darajasining yuqoriligi haqidagi fikr-mulohazalarga bundan oldingi tadqiqotlarda ham duch kelish mumkin. Masalan, A.A. Gabiani keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, «jinoyat olami», uning an’ana va urf-odatlarini hurmat qiluvchi, ular bilan g‘ururlanuvchi yoki hatto ular oldida bo‘yin eguvchi shaxslar 27,6 %ni, o‘zini ularga mansub deb biluvchi ayollar esa 21,5 %ni tashkil etgan[1].

Tadqiqotimizning tavsifiy qismini yakunlar ekanmiz, mah-kumlarning o‘z ijtimoiy muhiti va turmush tarziga munosabatlarining umumlashtirilgan subyektiv tavsifidan ozodlikdan mahrum o‘tish joylaridagi mikroijtimoiy muhitning bevosita tahliliga o‘tamiz.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, ayollarning axloq tuzatish koloniyalarida o‘ziga xos muhit hukm suradi. «Mahkum ayollar davra-sida yolg‘on-yashiq, hasadgo‘ylik, gumondorlik, qizg‘anish erkaklar davrasidagiga qaraganda kuchliroq bo‘ladi, o‘ziga xos urf-odat va an’analar vujudga keladi»[2]. Mazkur o‘ziga xosliklarni, jumladan, ayollar tomonidan jazoni o‘tashni begilangan tartibini buzish holatlari ham tavsiflaydi. Bunday tartibbuzarliklarning asosiy qismini quyidagilar tashkil etadi: ishlashdan bosh tortish va ataylab brak mahsulot ishlab chiqarish - 10,4%; jinsiy yo‘sindagi axloqsizlik - 19,8%; mahkumlarni urib-do‘pposlash - 11,5%; spirtli ichimliklar tayyorlash va iste’mol qilish - 10,9%; mayda o‘g‘irlik - 8,2%; bezorilik - 7,7%; taqiqlangan buyumlarni olib kirish, yasash va saqlash - 5,6%.

Shuningdek, erkin yollangan xizmatchilar bilan qonunga zid bo‘lgan aloqalar o‘rnatish, ma’muriyat vakillariga qo‘pollik qilish va ularni haqoratlash, «chifirxo‘rlik» va boshqa tartibbuzarliklar ham keng tarqalgan bo‘lib, bizning ma’lumotlarga qaraganda, ularning har biri ayollar

[1] Габиани А.А. Преступность среди женщин. - Тбилиси, 1968. 67.с.

[2] Дутов М.И. Правовая и организационное вопросы исполнения наказания и перевоспитания женщин, переведенных в ИТК-поселения. Автореф. дисс. канд. юрид. наук.-Томск, 1977. 13.с.

ozodlikdan mahrum etish joylarida sodir etadigan tartibbuzarliklarning umumiy sonida 4 % dan oshmaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 112-moddasida belgilangan jazoni o‘tash tartibini ashaddiy buzuvchilar ro‘yxatini tahlil qilar ekanmiz, mahkum ayollarning xulq-atvoridagi quyidagi o‘ziga xosliklarga ham e’tibor bermasdan o‘ta olmaymiz.

Erkaklar koloniyasidan farqli o‘laroq, ozodlikdan mahrum etilgan ayollar muhitida giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi bo‘lishi va iste’mol qilinishi, qimor o‘ynash, mahkumlar shaxsiga nisbatan zo‘ravonlik qilish bilan bog‘liq tartibbuzarliklar juda kam tarqalgan. Bu, eng avvalo, mahkum ayollarning o‘zini o‘zi tashkil etish tizimining boshqachaligi hamda qadriyatlar va moyilliklar tizimidagi farqlar bilan izohlanadi. Masalan, erkaklardan farqli o‘laroq, mahkumalar davrasida kriminal avtoritetga asoslangan qat’iy ierarxik tizim mavjud emas. O‘zini «jinoyat olami»ning vakili deb hisoblaydigan mahkumalar jazoni o‘tash davrida bu olam bilan deyarli aloqa qilmaydi. Erkaklar koloniyalarida bo‘lgani singari «ozodlikdagilar» bilan aloqa qilish, ulardan pul, giyohvandlik vositalari, spirtli ichimliklar olib turish, umuman olganda, xotin-qizlarga xos emas. Jinoyatchi erkaklar muhitidan farqli o‘laroq, jinoiy «davra» koloniyalardagi ayollarni va ularning ozodlikdagi oila a’zolarini ta’minlab turmaydi. Xotin-qizlar ozodlikdan mahrum etish joylarida ma’lum yordam olsalar-da, bunday yordam odatda ular bilan yaqin qarindosh-urug‘chilik munosabatlari va intim aloqalarda bo‘lgan shaxslar tomonidan ko‘rsatiladi. Bunday holatlar amaliyotda juda kam uchraydi. Xullas, professional jinoiy birdamlik ozodlikdan mahrum etish joylariga tushib qolgan ayollarning «manfaatlari»ni doim ham hisobga olavermaydi.

Fikrimizcha, ayollarning o‘zini o‘zi tashkil etishi asosan o‘z «meni»ga qaratilganligini qayd etgan G.F. Xoxryakov mutlaqo haqdir. Biroq ular uchun o‘z «meni»ning ahamiyati obro‘ orttirish, boshqalarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini qo‘lga kiritishga intilishdan ham ko‘ra ko‘proq emotsional mazmunga egadir[1].

Bu o‘ziga xoslik ozodlikdan mahrum etilgan ayollarning muhitini o‘rganishga bag‘ishlangan boshqa qator tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Masalan, T.A. Shmayevaning yozishicha, ishlashdan bosh tortish, ataylab brak mahsulot ishlab chiqarish ko‘pincha ayolning emotsional kechinmalari tufayli sodir bo‘lib, bunga o‘ch olish, g‘araz, hasad, rashk

[1] Хохряков Г.Ф. Социальная среда и личность. - М., 1982. 79.с.

turtki berishi mumkin. Bunday tartibbuzarliklar shunisi bilan xavfliki, ular ba’zan butun bir jamoaning mehnatini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Bu ba’zan tartibbuzarlar va boshqa mahkumalar o‘rtasida janjal chiqib, jiddiy to‘qnashuvlar ro‘y berishi bilan tugaydi. Shu bilan bir vaqtda, bir qarashda ahamiyatsiz ko‘ringan mehnat intizomini buzish holatlari ham jiddiy janjallarga sabab bo‘ladi. Bu, ayniqsa, ayollarning koloniyalariga xos bo‘lib, bu yerda barcha reaksiyalar (xoh ijobiy bo‘lsin, xoh salbiy) erkaklarning koloniyalaridagiga qaraganda qizg‘inroq kechadi[1].

Shu bilan birga, biz mahkuma ayollarning xulq-atvorida emotsionallik va ta’sirchanlik kuchli ekanligiga qaramay, odam o‘ldirish u yoqda tursin, badanga jiddiy shikast yetkazish ham erkaklar koloniyalaridagiga qaraganda juda kam sodir bo‘ladi. Mazkur tadqiqot natijasida ozodlikdan mahrum etish joylarida ayollar tomonidan atigi beshta jinoyat sodir etilgani aniqlandi. Shulardan ikki holatda aybdorlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 221-moddasiga binoan jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatining qonuniy talablariga bo‘ysunmaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ikki holatda ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish jinoyati sodir etilgan.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi ayollarning ko‘pchiligi «oilalar»ga birlashib yashaydi. Biroq, erkaklarning ozodlikdan mahrum etish joylaridagi «oilalari»dan farqli o‘laroq, bu yerda aynan jinsiy aloqalar birinchi o‘ringa chiqadi. Bu oilalardagi munosabatlar oddiy oilaviy munosabatlarga o‘xshab ketadi. Ularda mahkumlardan biri er, ikkinchisi esa xotin vazifasini bajaradi.

«Oilalar» turg‘un hodisa hisoblanadi. Buning ustiga, alohida shaxsga mazkur munosabatlarning ta’siri shu qadar katta bo‘ladiki, ma’muriyat mahkumlar bilan ishlashda, shu jumladan, axloq tuzatish-tarbiyaviy yo‘sindagi muayyan choralarni tanlashda ham bu munosabatlarga befarq qaray olmaydi.

Notabiiy jinsiy aloqada bo‘lish bilan bog‘liq saqlash rejimini buzish holatlarining soni real ahvolni va bu hodisaning tarqalganlik darajasini aks ettirmaydi. O‘rganilgan amaliyotning ko‘rsatishicha, bunday xatti-harakatlar ularning zaminida ikki tomonlama munosabatlar doirasidan chiquvchi va otryaddagi yoki butun muassasadagi psixologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa jiddiy tartibbuzarliklar - mushtlashish, haqoratlash va janjallar chiqqan taqdirdagina saqlash rejimini buzish sifatida tasniflanadi.

[1] Шмаева Т.А. Организационное и правовые вопросы предупреждения правонарушений осужденных женщин в ИТК. Дисс.канд.юрид. наук. - М., 1982. бз.с.

G.F.Xoxryakovning ma’lumotlariga qaraganda, mahkum ayollarning 40% dan ortig‘i, asosan yosh mahkumlar bir-biri bilan jinsiy aloqada bo‘ladi[1]. Bizning tadqiqotimiz ma’lumotlariga ko‘ra esa, bu ko‘rsatkich taxminan 20% ni tashkil etadi.

Biroq hamma ayollar ham «oila» bo‘lib yashamaydi. Qarindosh-urug‘lari, erlari va farzandlari bilan aloqalarini saqlab qolgan ayollar qamoqxonadagi jinsiy aloqalardan o‘zini tiyadi va ularni qoralaydi.

Tadqiqot jarayonida biz, jumladan, shaxsning ijtimoiy-demografik va jinoyat-huquqiy tavsiflari bilan ayollar orasidagi jinsiy aloqalarda ishtiroki o‘rtasida biron-bir bog‘liqlik bormi yo yo‘qligi bilan qiziqdik. Mahkumlar va koloniyalarning ma’muriyati xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlar va ko‘p sonli suhbatlar natijasida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yoshga oid bog‘liqlik mavjudligi qayd etildi. Bu asosan yosh ayollarning jinsiy aloqa qilishga nisbatan fiziologik ehtiyojlarining yuqoriligi bilan izohlanadi. Mahkum ayollarning jinsiy moyilligiga ozodlikdagi oilaviy aloqalarning mavjudligi ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, sodir etilgan jinoyatning tasniflanishi ham qamoqxonada jinsiy aloqalarga moyillik sezuvchi ayollarning xulq-atvor xususiyatlariga biron-bir ta’sir ko‘rsatmasligi aniqlangan. Amaliyot ozodlikdan mahrum etish joylarida mazkur o‘ziga xos jinsiy muhit o‘g‘rilarga ham, tovlamachilarga ham, qotillarga ham birdek ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Jinsiy aloqaga sherik tanlashda tomonlarning milliy mansubligi borasida ham biron-bir qonuniyat aniqlanmadi. Shu bois biz Y.M. Antonyanning koloniyalarda har xil odamlar jinsiy aloqa qilishi, bu asosan mahkumning fe’l-atvori, mijozi, o‘zi haqidagi tasavvuri hamda boshqa shaxsiy va tug‘ma omillarga, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish muddatining uzoqligiga bog‘liq bo‘lishi haqidagi fikriga to‘la qo‘shilamiz[2].

Mahkum ayollar muhitidagi mazkur hodisani tavsiflashni yakunlar ekanmiz, tadqiqotimiz jarayonida qayd etilgan bir o‘ziga xoslikka e’tiborni qaratishni istar edik. U ayollar o‘rtasidagi jinsiy aloqalarda lo‘li millatiga mansub ayollarning ishtirokiga taalluqlidir. So‘ralgan jinoiy jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining 75% va mahkumlarning 63% ozodlikdan mahrum etish joylarida aynan shu toifa ayollar bunday aloqalarga salbiy muno-sabatda bo‘lishi va ularda kamdan-kam ishtirok etishini ko‘rsatdi. Bunday munosabat mahkum ayollarning boshqa biror toifasida qayd etilmadi. So‘ralganlarning o‘zlari bu holatni lo‘lilarning o‘z oilalari, avvalambor, erlari bilan juda mustahkam aloqalarni saqlab qolishlari bilan

[1] Хохряков Г.Ф. Парадокси тюрмы. Проблемы, дисскусии предложения. - М., 1991. 135.с.
[2] Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. М., 1992. 141.с.

izohladi. Ayollarning koloniyalari xodimlari, masalan, shunday bir qiziqarli holatni qayd etdilar: lo‘li ayollar qamoqdan chiqadigan kuni odatda ularni muassasa eshigi oldida yaqin qarindosh-urug‘lari qarshi oladi. Boshqa millatga mansub ayollarga nisbatan bunday holat kamdan-kam kuzatiladi.

Qattiq tartibli koloniyalarning sharoitlarida bu aloqa ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu yerda jazo muddatining uzoqligi va takroriyligi oilaviy va qarindosh-urug‘chilik xususiyatiga ega ijtimoiy aloqalarning barqarorligiga ta’sir qiladi. Biroq, yuqorida qayd etilgan o‘ziga xoslik bu yerda ham mavjud. Bundan tashqari, koloniyalarga tushib qolgan lo‘li ayollarga aynan milliy belgiga ko‘ra qandaydir guruhga birlashish tendensiyasi ham xosdir. Ular ma’lum bir muassasa doirasida bir-birlari bilan qalin aloqa bog‘laydilar, o‘z muhitida biron-bir nizo tug‘ilgudek bo‘lsa, ko‘pincha mazkur koloniyadagi eng tajribali va hurmatli qabiladoshiga murojaat qiladilar. Bunday holat ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o‘tayotgan ayollarning boshqa biron-bir toifasida qayd etilmaydi. Bu o‘rinda biz qayd etgan lo‘li millatiga mansub ayollarning guruhga birlashib aloqa qilish tarzi yaqqol ko‘zga tashlanuvchi xususiyatga ega emasligiga ham izoh berib o‘tish lozim. Bu odatda biron-bir salbiy, shu jumladan, ma’muriyatga qarshilik ko‘rsatishga qaratilgan yo‘nalishga ega bo‘lmaydi, biroq mahkum ayollar bilan ishlashda mazkur holatni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biron-bir kichik norasmiy guruhlarga birlashish ozodlikdan mahrum etilgan xotin-qizlarning mikroijtimoiy muhitiga umuman xos emas. Bunday guruhlarning sardorlari ham yo‘q. Shaxsiy obro‘ ma’lum imtiyozlarga, masalan, u yoki bu oziq-ovqat mahsulotlari, choy, sigaret va shu kabilarni sotib olish imtiyoziga ega bo‘lish imkoniyati asosiga quriladi.

Bunday imtiyozlar ko‘p jihatdan ma’muriyatning munosabati bilan ham belgilanadi. Bu munosabat bilan shuni qayd etish mumkinki, ayollar muhitida ma’muriyat bilan hamkorlik qiladigan mahkumlarga munosabat yaxshi emas. Biroq ular, erkaklar koloniyalaridagi shunday mahkumlardan farqli o‘laroq, davradan jiddiy chetlatilmaydi va guruhdan chiqqan yoki koloniya ma’muriyati bilan yashirin aloqalari fosh bo‘lgan taqdirda bu qadar shafqatsiz va izchil ta’qib qilinmaydi. Ularning ahvolini yana shu narsa yengillashtiradiki, xotin-qizlarning koloniyalarida «chetga surilganlar» mavjud emas. O‘zining tashqi qiyofasi, xulq-atvoriga ko‘ra erkaklarning koloniyalaridagi «chetga surilganlar»ga o‘xshab ketadigan ayollar ko‘pchilik tomonidan qoralanadi, biroq erkaklar jazoni o‘tayotgan muassasalarda bo‘lgani singari ajratib qo‘yilmaydi.

Ayollarning koloniyalarida shaxsiy obro‘ jinsiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyati asosiga ham quriladi. Jumladan, er vazifasini bajaradigan ayollar birvarakayiga bir nechta ayollar bilan aloqa qilishlari va bir nechta «xotinlar»ning ehtiyojlarini qondirishlari mumkin. Xotin vazifasini bajaruvchilar esa ba’zan ularga ruhiy jihatdan qaram bo‘ladi va «erlari»ning har xil yumushlarini - kir yuvishdan tortib ovqat pishirishgacha - bajaradi.

Mahkumlar orasida chiqadigan nizolarni odatda nizolashuvchi-larning o‘zlari hal qiladi. Ba’zan bunday nizolarni hal qilishga shaxsiy sifatlariga ko‘ra davrada hurmat va obro‘-e’tibor qozongan ayollar aralashishi mumkin. Biroq bu holat mavjud ijtimoiy mavqe ierarxiyasi bilan bog‘liq emas, zero, yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, ayollarning koloniyalarida erkaklarnikidagiga o‘xshash dispozitsiya va sanksiyalarni o‘z ichiga oluvchi tizim kuzatilmaydi.

Bu munosabat bilan saqlash rejimiga rioya qilishning rasmiy ko‘rsatkichlariga ham, mahkumlarning o‘zaro munosabatlariga oid joriy vaziyatga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi umumiy obyektiv shart-sharoitlarni ham qayd etib o‘tish joiz. Bu yerda biz ayollarni ish bilan band etishni nazarda tutmoqdamiz. Iqtisodiy muammolar va ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi oqibatida doimiy ish bilan ta’minlanmagan xotin-qizlar soni ortib bormoqda. Buning natijasida mahkumlar muassasalarning do‘konlaridan kundalik iste’mol mollarini sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lmayaptilar. Qarindosh-urug‘lar tomonidan yordam ko‘rsatmasligi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Buning oqibatida har xil buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlarini sotish va ayirboshlash bilan bog‘liq tartibbuzarliklar hamda janjallar soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, mazkur sharoitlarda mahkumlarga jinoiy qilmishdan jabrlangan tomonidan qo‘yilgan da’vo talablari bo‘yicha yetkazilgan zararni qoplash imkoniyatining mavjud emasligi buning oqibatida esa jazoni ijro etishning bu muhim funksiyasi amalga oshmay qolayotganini qayd etish lozim.

Ayollar koloniyasidagi ijtimoiy muhitning o‘ziga xos xusu-siyatlari tavsifini yakunlar ekanmiz, olib borilgan tadqiqotlar ozodlikdan mahrum etish joylaridagi mahkumlar xulq-atvorini harakatlantiruvchi sabablar buzilgan hayotni ta’minlash tizimini tiklashga urinishlardan iborat ekanligini tasdiqlaganini qayd etish mumkin.

Ozodlikdan mahrum etish jazosi asosiy ijtimoiy funksiyalar ijrosining barham topishiga olib keladi, shu sababdan mahkumlar hayotini ta’minlash tizimini tiklash jarayonida, eng avvalo, yetakchi ijtimoiy vazifalarni bajarish usullarini yoki ularning o‘rnini bosuvchi vositalarni topishga urinadilar.

Biroq aynan mana shunday ijtimoiy surrogatlar ozodlikdan mahrum etish sharoitlarida shaxsda izchil g‘ayriijtimoiy moyillikning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday ta’sirning oqibatlarini jamiyat ayollar jazodan qutulib chiqqanidan so‘ng, ular o‘z turmush tarziga va dunyoqarashiga mos bo‘lmagan sharoitlarda «o‘zligini topishga» urina boshlagach o‘zida his qiladi.

Tabiiyki, mazkur paragraf doirasida ozodlikdan mahrum etilgan ayollarning ijtimoiy muhitida mavjud o‘ziga xosliklarni tavsiflashga faqat harakat qilindi, xolos. Ko‘pgina masalalar yoritilmay qoldi. Shu bilan birga, olingan ma’lumotlarni tahlildan o‘tkazgan holda, biz mazkur muammoning avval o‘rganilgan va ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada to‘liq yoritilgan jihatlariga imkon qadar e’tiborni qaratmaslikka harakat qildik.

Shunday qilib, ayollarda qonunga zid xulq-atvori shakllanishining kriminologik tavsiflari va o‘ziga xosliklarini o‘rganish: 1) ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar, avvalambor, ijtimoiy omillar bilan belgilanishini; 2) faqat ayollar jinoyatchiligiga xos bo‘lgan va shuning uchun ham uni barcha jinoyatchilik orasida alohida hodisa sifatida ajratib turadigan ma’lum o‘ziga xosliklarni qayd etishning zarurligini; 3) bu o‘ziga xosliklar faqat obyektiv tavsiflarni taqqoslashdagina emas, avvalambor, jinoiy faoliyat sabablarining yo‘nalishini baholashda aniqlanishini; 4) ayollarning jinoiy faoliyati ijtimoiy voqelikning obyektiv va subyektiv omillarining o‘zaro ta’siri bilan belgilanishini; 5) hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligi jamiyatda sodir bo‘luvchi tarixiy, jug‘rofiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va demografik o‘zgarishlar bilan belgilanadigan o‘z ijtimoiy xususiyatlariga ega ekanligini; 6) ko‘rsatilgan o‘zgarishlar ayollar turmushining mikroijtimoiy muhitida o‘zining eng yorqin ifodasini topishini; 7) mikroijtimoiy muhitning salbiy ta’siri turmushning har xil bosqichlarida turlicha ekanligi va ma’lum ijtimoiy-demografik o‘ziga xosliklar bilan belgilanishini; 8) bunday hodisa mahkum ayollar jazoni o‘taydigan ozodlikdan mahrum etish joylarida ayniqsa keskin his qilinishini, bu joylardagi ijtimoiy muhit esa faqat o‘zigagina xos xususiyatlarga ega bo‘lib, erkaklar koloniyalaridagi muhitdan jiddiy farq qilishini ko‘rsatdi.

## 7-mavzu: Ayollarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ra-vonlik muammosi ham hali munosib baholangani va o'zining zarur yechimini topganicha yo'q[1]. Bunday zo'ravonlikka ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki fohishalikka majbur etish, nomusiga tegish, turmushdagi zo'ravonlik yoki ichkilikbozlik, giyohvandlik, sadizm zaminida odam o'ldirish, muntazam urib-do'pposlash va ruhiy zo'rlikni kiritish mumkin[2].

Ayollarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatiga jinoiy tajovuzlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Agar 1995-yili respublikamizda 588 ta nomusga tegish holatlari ro'yxatga olingan bo'lsa, 1996-yili bunday og'ir jinoyatlar soni 666 taga, 1997-yili - 664, 1998-yili - 567, 1999-yili – 461, 2000-yili – 427, 2001-yili – 451, 2002-yili –478, 2003-yili 501, 2004-yili –522 tani tashkil etgan[3].

Ayollarning o'z joniga qasd qilishi 1995-1998-yillarda kamaygan, so'nggi yillarda birmuncha ko'paygan.

Masalan, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Beshkent jamoa shirkat xo'jaligida yashovchi 1980-yilda tug'ilgan Hamroqulova Umida ustiga solyarka sepib, o'zini yoqib yuborgan va olgan jarohatlari natijasida vafot etgan. Unga doimo rahmsiz muomala qilgan, urib-qiynab kelgan, otasiga nisbatan JK 103-moddasi 2-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, sudning hukmi bilan 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan.

Shu bilan bir vaqtda, rasmiy statistika ayollarga nisbatan jinoyatlarning real manzarasini to'la darajada aks ettirmaydi. Amaliyot, bizning shaxsiy kuzatishlarimiz va bu sohadagi maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jabrlanuvchilar ko'pincha turli sabablarga ko'ra huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etmaydilar.

Asosiy sabablar sifatida: jabrlanuvchining «stigmatizatsiya (atrofdagilar uni qoralashlaridan)»dan va shaxsiy turmushiga oid faktlarning oshkor bo'lishidan qo'rqishi; huquqni muhofaza qilish va sud organlarning uni real himoya qila olishiga ishonchsizlik; zo'rlik sodir etgan shaxsga moddiy, ruhiy va boshqa xil qaramlik; aholi umumiy huquqiy madaniyatining pastligini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlarining kundalik ish amaliyoti bunday toifa ishlarni tergov qilish, ularning suddagi istiqboli nuqtai nazaridan vaqtni behuda o'tkazish ekanligini nazarda tutadigan stereotiplarga tayanishda

---

[1] Абдухалимова М. И др. Проблемы защиты прав женщин против насилия в Наманганской области. // Ж. Женщины централбной Азии. Спец. выпуск. Т. 2004. –С. 61-62.

[2] Ражабова М.А. Шариатда жиноят ва жазо. Т.: Адолат., 1997. –Б. 96.

[3] Ўзбекистон Республикаси прокуратураси маълумотларидан.

davom etayotganini ham qayd etish zarur. Shuning uchun ham bunday qilmishlar ro‘y berganida zo‘rlikni yashirish holatlariga juda ko‘p misollar keltirishimiz mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlarning isboti sifatida aytish mum-kinki, xizmat yoki moddiy jihatdan aybdorga qaram bo‘lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi JK 121-moddasida javobgarlik belgilangan. Bu qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan va ro‘yxatga olinganlar soni har yili respublika bo‘yicha bir necha kishidan ortmaydi. Tabiiyki, bu haqiqiy ahvolni ifoda etmaydi, chunki tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, bunday holatlar rasmiy ma’lumotlarda ko‘rsatilganlarga nisbatan bir necha marotaba ko‘pdir.

Ko‘rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligini qayd etgan holda, jinoiy tajovuzlarning jabrlanuvchilari bilan bog‘liq muammolarga, jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy masalalariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarda ham katta e’tibor berilayotganini aytib o‘tish zarur. Masalan, 1995-yili Qohirada bo‘lib o‘tgan BMT IX Kongressi bayonnomasining 86-bandida sud amaliyoti va huquqni muhofaza qilish faoliyati doirasida jinoyatlarning jabrlanuvchilariga jiddiy e’tibor berilayotgani, ikkilamchi viktimizatsiya ehtimolini minimallashtirish maqsadida maxsus shart-sharoitlar (alohida kutish xonalari, guvohlik ko‘rgazmalarini videoplyonkaga tushirib berish singari)ning yaratilayotgani ijobiy omil sifatida qayd etib o‘tildi. Jabrlanuvchilarning ahvoli asosiy mavzulardan biri bo‘lgan mazkur Kongressda bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha videoplyonkaga yozilgan guvohlik ko‘rgazmalarining samaraliligiga, shuningdek, jinoiy sudlov ishlarini yuritishda jabrlanuvchi ayollarning xavfsizligini ta’minlovchi milliy dasturlar qabul qilinishining zarurligiga e’tibor qaratildi[1].

Ayollar jinoyatchiligi va ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatga xos bo‘lgan viktimologik omillarni tahlil qilishni yakunlar ekanmiz, hayotdagi muayyan vaziyatda bir xil kriminologik va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisaning bu ikki tomoni ba’zan aralash, o‘zaro bog‘langan holda bo‘lishini qayd etib o‘tmoqchimiz. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi JK 110-moddasiga ko‘ra rasman muttasil ravishda do‘pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan qiynash deb kvalifikatsiya qilinadigan jabrlanuvchining xulq-atvori ba’zan viktim omil bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo‘rlik ma’lum sharoitlarda jabrlanuvchining javob reaksiyasi uchun zamin yaratadi. Bunday holatlarda uzoq muddatli ruhiy zo‘riqishning tipik oqibatlari yaqqol ko‘zga

[1] Бруншин Л.В. Международно-правовые и коституционное основы обеспечения безопасности лиц, содействующих уголовному правосудию./ Ж. Государство и право. 1996. № 3. –С. 53.

tashlanadi, ya'ni bunday sharoitda yashayotgan ayollarning kuchli ruhiy hayajonlanish holatida badanga turli darajadagi shikast yetkazish va, hattoki, odam o'ldirish jinoyatlarini sodir etganlar. Bundan tashqari, shaxsiy kuzatuvlarimiz va empirik ma'lumotlar, erkaklardan farqli o'laroq, ayollar tomonidan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish va sog'liqqa ziyon yetkazish jinoyatlarining sodir etilishi (O'zbekiston Respublikasi JK 98-, 106-moddalari) asosan turmush va oila muhitida ro'y berishini ko'rsatadiki[1], bunga ayollar deviant xulq-atvorining yana bir o'ziga xos jihati deb qarash mumkin.

Fikrimizcha, kelajakda o'zi jabr ko'rgan shaxs tomonidan sodir etilgan muayyan jinoiy qilmishning viktimologik tavsifini o'rganish zarurati ushbu muammo doirasida yanada kengayadi. Ya'ni mazkur holatda kriminologiyada **rollar inversiyasi**[2] deb ataladigan qonuniyatni kuzatish mumkin bo'lib, bunda jinoyatning potensial jabrlanuvchisi (real jabrlanuvchi) potensial (real) jinoyatchiga nisbatan jinoyat sodir etadi.

Yuqorida aytilganlarni xulosa qilib, biz viktimizatsiya muam-mosini ayollar jinoyatchiligiga tatbiqan nazariy ishlab chiqishning muhimligini hamda uni tavsiflovchi va belgilovchi omillarni tahlil qilishning amaliy ahamiyatini qayd etib o'tmoqchimiz. Zero, bu har xil huquqiy tabiatga ega bo'lgan jinoyatlarning obyektiv ravishda kvalifikatsiya qilinishi uchun bevosita zarur va muayyan jinoiy xulq-atvorning chinakam subyektiv sabablarini tushunib yetish imkonini beradi.

Tabiiyki, bu mazkur salbiy hodisalar ijtimoiy beqaror shaxslarni muqarrar ravishda jinoyat sodir etishga olib keladi, degan ma'noni bildirmaydi, zotan, jinoiy xulq-atvor insonning turmush sharoitlariga emas, balki bu sharoitlarni ular qanday idrok etishi va baholashiga bog'liqdir. Inson bunday sharoitlarni mutlaqo nomaqbul idrok etishi ham mumkin, zotan, kimgadir maqbul bo'lgan holatlarni boshqalar mutlaqo nomaqbul deb topishi mumkin.

**2-Jadval**

**Ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan mahkumlar umumiy soni va salmog'ining o'sishi**

| | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami** | 117 | 137 | 161 | 180 | 191 | 201 | 191 | 176 |
| **Salmog'i foizda** | 5.3 | 5.8 | 6.0 | 6.0 | 4.6 | 5.05 | 3.9 | 3.6 |

[1] Зокирова О. Рашк мотиви Билан содир этиладиган жиноятларга қарши кураш муаммолари. Т.: ТДЮИ, 2004. – Б. 100.

[2] Криминолигия. Учебное пособие под бвд.ред. В.Э. Эминова. М., 1997. -С. 57.

# 8-mavzu: Ayollar jinoyatchiligining oldini olish choralari

## Reja:

8.1. Ayollar jinoyatchiligining oldini olishning umum ijtimoiy choralari

8.2. Ayollar jinoyatchiligining oldini olishning maxsus choralari

8.3. Ayollar jinoyatchiligining kriminologik prognoz qilish yo‘nalishlari

## 8.1. Ayollar jinoyatchiligining oldini olishning umum ijtimoiy choralari

Kriminologiyada jinoyatchilikning oldini olish (jinoyatchilikni profilaktika qilish)ning[1] ikkita: umumijtimoiy va maxsus-kriminologik turi tafovut etiladi[2]. Bunda birinchi va ikkinchi turga mansub chora-tadbirlar jinoyatchilikni profilaktika qilishning bir nechta bosqichda amalga oshirilishi mumkin[3].

Birinchi bosqichda jamiyat hayotining yirik ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarini hal qilish, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish va boshqa shunga o‘xshash chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Ikkinchi bosqich esa nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan va salbiy hodisalar sodir bo‘lishi kutilayotgan muayyan ijtimoiy tabaqalar (mikromuhit)ga profilaktik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarini qamrab oladi. Uchinchi bosqich (daraja) shaxs shakllanishining noqulay sharoitlariga tushib qolgan yoki jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning qadriyatlari va qarashlari tizimini ijobiy tomonga o‘zgartirishga yo‘naltirilgan individual tarbiya-profilaktika ishlarini amalga oshirish, ularning g‘ayriijtimoiy qarashlari va moyilliklarini yengish, qonun va umum e’tirof etilgan ijtimoiy xulq-atvor normalariga nisbatan hurmatni shakllantirishni nazarda tutadi[4].

---

[1] Адабиётларда «жиноятчиликти профилактика қилиш», «жиноятчиликни огоҳлантириш», «жиноятчиликнинг олдини олиш» тушунчаларининг варо нисбати юзасидан ҳар хил фикрлар билдирганини эътиборга олиб, биз, мазкур масала юзасидан мунозарага киришмасдан, юқорида зикр этилган тушунчалар бир хил маънони билдиришдан келиб чиққан муаллифларнинг қарашларига таяниши маъқул деб топдик, зотан, уларни қарама-қарши қўйиш мазкур атамаларнинг маъносига зиддир. – бу ҳақда қаранг: Антонян Ю.М. О понятии профилактики преступлений. Вопросы борьбы с преступностью. Виш. 26. - М, 1977. С. 25-29; Теоретические основы предупреждения преступности. - М., 1977. 41.с.; Зирянов В.Н. Групповая преступность женщин и ее предупреждение органами внутренних дел. 1988. 70. с. Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология. – Т. 1966. –Б. 14-226; Усмоналиев М., Каракетов Ю. Криминология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001. –Б. 247-248.

[2] Зирянов В.Н. Групповая преступность женщин и ее предупреждение органами внутренних дел. - Горький. 1988. 27.с.; Жалинский А.Э. Специальное предупреждение преступности в СССР (вопросы теории). – Львов. 1976. 25.с.

[3] Кудрявцев В.Н. Социально-психологические аспекты антиобщественного поведения / Вопросы философии. 1974. №1. С. 108-109.

[4] Аванесов Г.А. Кримнология и социальная профилактика. - М., 1980. 459.С; Каиржанов Э. Кримнология. Общая часть. –Алматы: Оркенист, 2002. –С. 223.

Bu umumiy qoidalardan yuqorida aytilgan bosqichlarga muvofiq umumiy va maxsus oldini olish choralarini ayollar jinoyatchiligining profilaktikasiga nisbatan ham to'la qo'llash mumkin degan xulosaga olib keladi. Shu bilan birga, erkaklar va ayollar g'ayriqonuniy xulq-atvorning genezisida ba'zan turlicha (ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, fiziologik va h.k.) omillar yotishi tufayli, shuningdek ijtimoiy hayotdagi bir xil hodisalar erkaklar va ayollarning xulq-atvoriga har xil ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olib, ayollar jinoyatchiligining oldini olish, shu jumladan, umumiy xususiyatga ega bo'lgan omillargagina emas, aynan ayollarda g'ayriqonuniy xulq-atvorni vujudga keltiruvchi omillarga ham ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilishi kerak. Shuning uchun ham ayollar jinoyat-chiligining oldini olishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui ma'lum xususiyatga ega bo'lish, profilaktika chora-tadbirlarining umumiy tizimida farq qilish lozim, zotan, ta'sir obyekti – ayollar jinoyatchiligi juda o'ziga xos hodisadir.

Shunday qilib, biz mazkur tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarning xususiyatidan kelib chiqib, birinchidan, ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilishga qaratilgan faoliyatning turli bochqichlari xususiyatlarini ko'rib chiqishni, ikkinchidan, profilaktik xususiyatiga ega bo'lgan muayyan chora-tadbirlarning o'zaro ta'sirini va umuman ayollar jinoyatchiligiga ta'sirini ko'rsatib berishni, uchinchidan, jinoyatchilikning oldini olishning eng murakkab va dolzarb yo'nalishlaridan biri – professional ayollar jinoyatchiligining oldini olishning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Tabiiyki, ijtimoiy salbiy hodisa – jinoyatchilikka qarshi kurashning muvaffaqiyati uning subyektlari davlatning ilmiy ishlab chiqilgan, dasturiy siyosatiga asoslangan profilaktika faoliyatining barcha bosqichlarida qat'iy va rejali ravishda o'zaro hamkorlik va aloqa qilishiga bog'liqdir. Bunda "siyosat" tushunchasi bu yerda mazkur atamaning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari bilangina cheklanib qolishi mumkin emas. Bu ijtimoiy, iqtisodiy, xalqaro, huquqiy, mafkuraviy va hokazo xususiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlarning keng majmuini o'z ichiga oluvchi davlatning global, keng qamrovli siyosati bo'lishi mumkin. Bu chora-tadbirlar bevosita kriminologik yo'nalishga ega bo'lmasligi, jinoyatchilikka qarshi kurash mahsadlarini bevosita ko'zlamasligi mumkin, ammo ular jinoiy muhitda sodir bo'layotgan jarayonlarga bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak[1]. Davlat tomonidan ko'rilayotgan

---

[1] Абдухалимова М. и др. Проблемы защиты прав женщин против насилия в Наманганской области. // Женшины Центральной Азии. 2001, Спец. выпуск. –С. 66.

choralar qancha keng qamrovli bo‘lsa, umuman jamiyatga va o‘z navbatida – jinoyatchilikka ham ularning ta’siri shu darajada salmoqli bo‘ladi.

Biz Y.M.Antonyanning aholini zarur tovar va xizmatlar bilan ta’minlash masalalari hal qilinmasa, ta’lim-tarbiya ishlari jiddiy yaxshilanmasa va jamiyatdagi ijtimoiy keskinlik darajasi pasaymasa, jinoyatchilikning kamayishiga umid qilib bo‘lmaydi, degan fikrga to‘la qo‘shilamiz. Umuman jinoyatchilikka va alohida jinoyatlarga turtki beruvchi mazkur holatlar ayollarga ayniqsa kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘rinda ayollarni ijtimoiy himoya qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganini, qabul qilingan deklaratsiyalar va qonunlarga qaramay, jamiyatda ular erkaklar bilan teng huquqli emasligini ham unutmaslik kerak[1].

Umumdavlat siyosatining bu va boshqa muammolari, bizningcha, jamiyatni ta’riflovchi qarashlar va g‘oyalar tizimi – mafkura bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir odamlar jamoasi, shu jumladan, milliy-davlat tuzilmalari ham o‘z mafkurasiga, ma’lum turmush tarzi, hayotiy, ma’naviy, ruhiy, huquqiy va boshqa qadriyatlariga ega. Bu qadriyatlar va ustuvorliklar o‘z holicha jamiyatning uzoq va tadrijiy tarixiy taraqqiyotining natijasidir. Ularni qisqa vaqt ichida o‘zgartirib, binobarin, jamiyatda batamom teskari mafkurani shakllantirib bo‘lmaydi. Davlatning qat’iy ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bo‘lmagan, surunkali iqtisodiy inqirozlar sharoitida bunday mafkurani shakllantirish yanada katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Vatanparvarlik tuyg‘ulariga asoslangan mafkura bunday sharoitlarda muvaffaqiyatsizlikka mahkumdir. Oila, onalik kabi vatanparvarlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan institutlarning mavqeiga ham putur yetadi. Vaholanki, ayolning ijtimoiy qiyofasi va mavqei aynan mana shu ijtimoiy institutlar doirasida shakllanadi. Jinoyatchilik, jumladan, ayollar jinoyatchiligining oldini olish-ning yo‘nalishlaridan biri – oila-ro‘zg‘or munosabatlari sohasidagi jinoyatchilikning oldini olish muammolariga kriminologik qizi-qishning kattaligi shu bilan izohlanadi[2].

Biz zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan og‘ir jinoyatlar (odam o‘ldirish, badanga og‘ir shikast yetkazish, bezorilik va h.k.) ayollar tomonidan asosan oila-ro‘zg‘or muhitida amalga oshirilishini yuqorida ham qayd etib o‘tdik. Bunday hodisalarni umumijtimoiy darajada profilaktika qilishga nisbatan umumiy yondashuv bu oilani jamiyatning kichik bir bo‘g‘ini sifatida mustahkamlash, uni saqlash va ravnaq toptirish haqida g‘amxo‘rlik

---

[1] Антонян Ю.М. Преступность сред женщин. –М., 1992. –С. 217.

[2] Шестаков Д.А. Супружеское убийство убийство как общественная проблема. – Санкт-Петербург, 1992. –С. 91.

qilishdir. Jinoyatchilikka oilaviy munosabatlarning ijobiy (antikriminogen) ta'siri haqida yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni takrorlamasdan, har bir muayyan holatga nisbatan qat'iy tabaqalashtirilgan (differensiatsiyalash-gan) yondashuv zarurligini qayd etib o'tmoqchimiz. Bu o'rinda er-xotinning birga yashashi muqarrar ravishda oilada vujudga kelgan nizoning o'sishiga olib keladi. Mazkur muammoga bag'ishlab o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarning natijalari ham keskin nizoli vaziyat mavjud bo'lganida oila a'zolarining birga yashashi katta kriminogen ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra, er-xotindan birining shaxsiga qarshi zo'ravonlik jinoyatlari sodir etilgan er-xotinlarning 70 %ga yaqini nizoli vaziyat yuzaga kelganiga qaramay, birga yashashda davom etgan, ularning to'rtdan bir qismi qonunan ajrashgandan so'ng ham birgalikda yashashni davom ettirgan[1]. Bundan tashqari, amaliyot er-xotinlik munosabatlarining uzilishi bilan sudga murojaat etish va arizaning ko'rib chiqilishi o'rtasida ancha uzoq vaqt – bir necha oy, ba'zan hatto bir necha yil o'tishini, odatda, aynan mana shu muddat davomida jinoyatlar sodir etilishini ko'rsatadi. Mazkur vaziyatda maishiy sohadagi jinoyatchilikni profilaktika qilishning samaradorligini oshirishning ancha keng, to'la darajada foydalanilmagan imkoniyatlari ko'zga tashlanadi. Bu salohiyatdan to'liq foydalanish uchun adliya organlari bilan oilada nizolarning oldini olish bilan shug'ullanuvchi xizmatlarning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash zarur. Masalan, ajrashish haqida ariza bergan er-xotinlar haqida oilaviy nizolarining oldini olish bilan shug'ullanuvchi xizmatlarga o'z vaqtida xabar berish ma'lum hollarda oiladagi zo'ravonlik jinoyatlarining oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Bunda o'zini-o'zi boshqarish organlari fuqarolar yig'inidagi yarashtiruv komissiyalari faoliyatining ham o'z o'rni bor. Har xil ijtimoiy aloqalarning ta'siri ancha zaiflash-gan yirik shaharlarda bunday faoliyat, ayniqsa, katta samara berishi mumkin. Tabiiyki, bu yerda odamlarning intim aloqalari sohasiga har qanday aralashish oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham e'tiborga olish kerak. Shuning uchun ham biz amaliyot xodimlar beqaror oilalarda er yoki xotinning xulq-atvorida salbiy xususiyatlarni aniqlasalar, o'rgansalar bu jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga nisbatan, ayniqsa, g'ayriqonuniy xulq-atvor shakllanishining dastlabki bosqichlarida profilaktika ishlarini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi, deb o'ylaymiz.

[1] Юркевич Н.Г. Мотивы заключения и стабильность брака. Проблемы бита, брака и семьи. – Вильнюс. 1970. –С. 100-101; Дубовик О.Л. Проблема принятия решения о совершении преступления в криминологической науке / Вопросы борьбы с преступностью. Вып. 22. –С. 45. Шестаков Д.А. Супружеское убийство как общественная проблема. – Санкт-Петербург. 1992. – С. 32.

Bu jinoiy niyatning tug‘ilishi va uni amalga oshirish mexanizmi erkaklar va ayollarda har xil ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, erkaklar va ayollar o‘z jinoiy xulq-atvoriga ham har xil baho beradi. Binobarin, profilaktika chora-tadbirlarini tanlash va qo‘llashga nisbatan ham, ayniqsa, individual darajada, turlicha yondashish zarur. Vaholanki, amaliyotni o‘rganish, shu jumladan individual darajada profilaktika qilishga nisbatan diferensiatsiyalashtirishli yondashuv deyarli mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Bir necha o‘n yillar davomida vujudga kelgan jinoyatchilikning oldini olish tizimi, avvalambor, uni amalga oshirishning irodaviy usullariga, turli jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, partiya tashkilotlari va mehnat jamoalarining yordamiga yo‘naltirilgan, bir xil ta’sir ko‘rsatish mexanizmidan foydalanishga asoslangan bo‘lib, qat’iy (shu jumladan, mafkuraviy qarashlar bilan belgilangan maqsadlarni ko‘zlar edi. Mazkur profilaktika chora-tadbirlari tizimida rasmiy va yuzaki yondashuv oldindan belgilab qo‘yilardi.

Profilaktika ishlarini olib borish amaliyotini o‘rganish mazkur faoliyatga tegishli amaliy tajriba va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan shaxslarning jalb etilishi bu sohada mavjud kamchiliklarning muhim sabablaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ko‘pgina oilaviy nizolarning oldini olish ma’lum pedagogik va psixologik ko‘nikma va bilimlarni, nizolarning tabiatini teran tushunishni talab etadi. Oila-ro‘zg‘or nizolari yuzasidan berilgan arizalarni ko‘rib chiqishni rad etish bilan bog‘liq materiallarni tahlildan o‘tkazish bunday tushunishning yo‘qligini ko‘rsatadi. Odatda, bunday materiallar bo‘yicha oddiy qaror qabul qilinadi – jinoyat tarkibi yo‘qligi tufayli jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etiladi va ular bo‘yicha hech qanday profilaktik ta’sir choralari ko‘rilmaydi. Bunday ishlar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning mazmuni nizoning asl mohiyatini ochib bermaydi, balki “janjal negizida”, “shaxsiy munosabatlarida sovuqchilik ro‘y bergani tufayli” va boshqa shunga o‘xshash umumiy ta’riflarga asoslanadi.

Amalda janjal sodir bo‘layotgan xonadonga kelishdan boshlab huquqbuzarga nisbatan chora ko‘rish va kelgusida jabrlanuvchining xavfsizligini ta’minlashgacha juda ko‘p taktik, ruhiy va huquqiy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Militsiya oilaviy janjallarga aralashishni yoqtirmaydi. Bu, shu jumladan, janjalkashlar kayfiyatining omonatligi bilan izohlanadi: bugun erini javobgarlikka tortishni so‘rashsa, ertaga uni tinch qo‘yishni talab qilishadi. Bunday sharoitlarda oila bilan ishlaydigan xodimlardan murakkab emotsional vaziyatda nizoga va jinoyatning oldini olish choralarining maqbul tarzini tanlashi talab etiladi.

Ushbu muammo bilan shug‘ullangan olimlar tomonidan o‘tkazil-gan maxsus tadqiqotlar ichki ishlar organlari xodimlarining katta qismi yuqorida zikr etilgan bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi, oila-ro‘zg‘or munosabatlari sohasida profilaktika ishlarini yuksak professional darajada amalga oshira olmasligini ko‘rsatdi[1]. Mana shu tadqiqotga asoslanib, ichki ishlar organlarining ko‘pgina xodimlari, ichki ishlar organlarida maishiy huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo‘yicha maxsus xizmat tashkil etilsa, u ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni yanada sifatli profilaktika qilishni ta’minlash imkonini berar edi degan xulosaga kelganlar. Bizningcha, bu taklif e’tiborga va o‘rganishga loyiq, zotan, mazkur xizmat doirasida ayollar jinoyatchiligining oldini olishga yo‘naltirilgan maxsus bo‘linma tashkil etish mumkin. Bunday yechim yana shuning uchun ham qonuniyki, mavjud statistika ayollar tomonidan sodir etiluvchi jinoyatlarning 30 %ga yaqini aynan oila-ro‘zg‘or sohasida sodir etilishini, bunday nizolardan ko‘pincha ayollarning jabr ko‘rgan-ligidan dalolat beradi.

Bu o‘rinda ayollar jinoyatchiligiga, shu jumladan, maishiy soha-dagi jinoyatlarga doir statistika ma’lumotlarining kamligini ham qayd etib o‘tish kerak. Kriminolog olimlar taxminiy hisob-kitoblar orqali oilada og‘ir jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni, bundan jabr ko‘rish mumkin bo‘lgan shaxslar va aybdorlarning toifalarini aniqlashga harakat qilayotgan bo‘lsalar, ichki ishlar, adliya, sud va prokuratura organlari bugungi kunda tegishli aniq ma’lumotlar berishga qodir emaslar. Jinoyatchilikni statistik hisobga olish bo‘yicha shakllarga jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslar va ularning jinoyatchi bilan o‘zaro munosabatlari haqida tabaqalashtirilgan ma’lumotlarni zudlik bilan kiritish zarur. Bunda profilaktika ishlarini tashkil etish uchun ularning dinamikasi haqida taxminiy emas, balki aniq ma’lumotlar kerak. Statistika ma’lumotlarini kengaytirish va chuqurlashtirish muammolari ayollar jinoyatchiligiga ham taalluqli ekanligini qayd etib o‘tish lozim. Jinoyat sodir etuvchi ayollar shaxsiga ijtimoiy-demografik va jinoyat-huquqiy tavsif statistika ko‘rsatkichlarida ancha umumiy shaklda berilgan[2].

Oiladagi mojarolarni profilaktika qilishga nisbatan yondashuvi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar miqyosida biz er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish va oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish yo‘nalishida jalb etilgan kuchlarning xilma-xilligi jihatidan

---

[1] Рахманов А.И., Толпекин К.А. Проблемы совершенствования деятеьности правоохранительными органов по борьбе с правонарушениями в сфере бита. –М., 1991. –С. 63.

[2] Бунга ишонч ҳосил қилиш учун ИИВ Аҳборот-таҳлил маркази томонидан эълон қилинган жиноятчиликнинг ҳолати, тузилиши ва динамикаси ҳақидаги статистик тўпламларга назар ташлаш кифоя. Қаранг: Женщины и мужчины Узбекистана / Статистический сборник. – Т., 2002. –С. 117-120.

rivojlangan chet el mamlakatlaridan ancha orqada qolganligimizni qayd etish zarur. Xorijiy mamlakatlarda oilada zo‘ravonlik holatlari bilan to‘qnash kelganda politsiya bunday oilalar bilan ishlashga maxsus kengashlarni, oila sudlarini, mahalliy advokatlarni, yuridik yordam xizmatlarini, maxsus klinikalarni, giyohvandlikdan davolash markazlarini, psixologik agentliklarni, anonim yordam agentliklarini, eridan jabr ko‘rgan ayollar yashashi uchun mo‘ljallangan joylarni, xotin-qizlar markazlarini, kam ta’minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish xizmatlarini, diniy muassasalarni, jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslar va jinoyatlarning guvohlariga yordam ko‘rsatish markazlarini, birinchi ijtimoiy yordam agentliklarini, turar joy xizmatlarini, iqtisodiy imkoniyatlarni baholash idoralarini va boshqa tashkilotlarni jalb etadi[1]. Ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan zo‘ravonlik qilgan hollarda ham shunday bo‘ladi.

Tabiiyki, yuqorida sanab o‘tilgan xizmatlar va tashkilotlarning aksariyati bizning mamlakatimizda mavjud emas. Ularni zudlik bilan tashkil etish yo‘lidan borish ham, bizningcha, aqlga va maqsadga muvofiq bo‘lmas edi. Biroq, eng avvalo, milliy xususiyatlardan va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, aytaylik, aholiga psixoterapevtik yordam ko‘rsatish markazlari ishini faollashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish haqidagi takliflar diqqatga sazovordir. Bunday markazlarda er-xotinlar o‘rtasidagi nizolarni tartibga solish metodikalari ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday muassasalar kechayu kunduz ishlashi, nizoning ishtirokchilaridan birini mazkur nizoni hal qilish davrida qisqa muddatga joylashtirish uchun kichik statsionar faoliyat ko‘rsatishi lozim.

Diniy muassasalar bilan aloqani yo‘lga qo‘yish zarur. Ichki ishlar organlari din peshvolari bilan oilaviy nizolar negizida diniy-ma’naviy yordamga muhtojlik sezayotgan shaxslarni o‘zaro bog‘lashga tayyor bo‘lishlari kerak.

Sud tizimimizni oila sudlari bilan to‘ldirish uchun ham barcha asoslar mavjud. Hozirgi kunda tumanlararo fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning ishi juda ko‘p ekanligi hech birimizga sir bo‘lmagan bir sharoitda ushbu taklif nihoyatda o‘rinli, deb o‘ylaymiz. Bu sudlarga oilaga taalluqli bo‘lgan huquqiy masalalar-ajrashish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, turar joydan ko‘chirish, oiladagi jinoyatlar va hokazolarni ko‘rib chiqish vakolatlari berilishi kerak. Bunday sudlar AQShning ayrim shtatlarida, Yaponiyada va boshqa mamlakatlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

[1] Шестаков Д.А. Супружеское как общественная убийство как общественная проблема. СПб. 1992. –С. 61.

Maishiy sohadagi retsidiv jinoyatlarning oldini olish muammosi ham alohida diqqatga sazovordir, zotan, u sudlangan ayollarni tarbiyalash va ularni axloqan tuzatish muammolari bilan chambarchas bog‘liq. Bunda oila a’zolariga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir qilgan jinoyatlari uchun jazoga hukm etilgan ayollar bilan ishlash ularning yaqinlari, ayniqsa, farzandlari bilan munosabatlarini (agar bunday munosabatlar saqlanib qolgan bo‘lsa) puxta o‘rganishni talab etishidan kelib chiqishi kerak.

Mahkumaning qarindosh-urug‘lari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash muassasalariga tashrif buyurgan paytda hamda IIV profilaktika xizmati xodimlari ular bilan xat yozishish yoki uylariga tashrif buyurish orqali oila a’zolari bilan ish olib borishi kerak. Mahkuma ozodlikka chiqadigan payt yaqinlashgani sari bunday ishning ahamiyati ortib boradi. Jazoni o‘tashda muddatidan avval yoki muddat tugashi munosabati bilan ozod etiluvchi ayol va oila a’zolari bilan o‘zaro munosabatlarni tiklashga oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Mahkuma ayol va uning oilasi o‘rtasida nizoning yuzaga kelishi yoki ilgarigi salbiy munosabatlar tiklanishining oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlari qonun hujjatlari bilan tegishli yo‘sinda tartibga solinishi, shuningdek, bu sohada kadrlarni maxsus tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Oila-ro‘zg‘or munosabatlari sohasida er-xotin o‘rtasidagi mo-jarolarning oldini olish masalalari muayyan shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloq normalariga zid bo‘lgan xulq-atvorni profilaktika qilish muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu yerda biz ayol jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslarning ko‘p jihatdan ularning ota-onasi o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlar bilan belgilanuvchi deviant xulq-atvorining oldini olishni nazarda tutmoqdamiz[1].

Ayollarning maishiy turmushini yaxshilash, aholini tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlash, oilani mustahkamlash va uni qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, oiladagi munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning o‘z farzandidan uzoqlashishi, uning tarbiyasi va xulq-atvoriga befarqligi, ota-ona bilan bola o‘rtasida zarur emotsional aloqalarning yo‘qligi yoki bunday aloqalarning zaiflashishi odamlarda o‘zining ijtimoiy holati va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik tuyg‘usini paydo qiladi. Yuqorida zikr etilgan hodisalar bunday shaxslarning tashqi holatlar va shart-sharoitlarga qaram bo‘lishiga olib keladi. Bu voyaga yetmagan qizlarga ayniqsa salbiy ta’sir qiladi, ular muhitning bunday salbiy ta’siri

---

[1] Юнусов А.Б. Ўсмир ёшларда ижтимоий девиантлик ҳолатларининг социологик ҳуқуқиятлари. Соц. фан. ном.илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати . Т., 2004. –Б. 12-13.

natijasida juda tez degradatsiyalasha boshlaydi. Ularning ma'naviy va ijtimoiy tiklanishi erkaklarning ma'naviy va ijtimoiy tiklanishiga qaraganda hamisha qiyin kechadi. Shuning uchun ham biz oila va oiladagi tarbiya ommaviy profilaktik ta'sir ko'rsatish obyektlari bo'lishi kerak, degan fikrga to'liq qo'shilamiz. Jinoyatchilik, jumladan, ayollar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining darajasi oilaga va oiladagi tarbiyaga ommaviy ta'sir ko'rsatishning muvaffaqiyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir[1]. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'sishi esa, ma'lumki, retsidivning ko'payishi bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda Respublikamizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi biz yuqorida qayd etib o'tgan voyaga yetmagan qizlarni fohishalikka, giyohvandlik vositalari bilan savdo qilishga, qimor o'ynashga, pornografik narsalarni tayyorlashga va boshqa jinoyatlarga, shu jumladan, uyushgan jinoiy guruhlarning faoliyati negizida sodir etiluvchi jinoyatlarga tortish tendensiyalariga davlat va uning jinoyatlarni profilaktika qilish bilan bevosita shug'ullanuvchi huquqni muhofaza qilish organlari tegishli ta'sir ko'rsatishi lozim.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan bolalar va yoshlar siyosati sohasida bir qator ishlar amalga oshirilyapti, biroq voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan olib borilayotgan profilaktika choralari ushbu tizimda mavjud bo'lgan kamchiliklar va qator sabablarga ko'ra kutilgan samara bermayapti.

Birinchidan, mazkur tizim haddan tashqari katta, uning subyektlari har xil idoralarga bo'ysunadi. Birgina shahar, tuman miqyosida o'smirlar orasidagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilishga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan davlatning ko'plab organlari, jamoat tashkilotlari, jamg'armalar va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirish borasidagi sa'y-harakatlar ko'plab qo'shma qarorlar, kompleks dasturlar qabul qilinayotgani, profilaktika tadbirlari, operatsiyalar, reydlar, oyliklar hokazolar o'tkazilishiga qaramay, jiddiy natija bermayapti.

Ikkinchidan, mazkur tizimning elementlari o'z maqsadlari, vazifalari va ish shakllariga ko'ra ko'pincha bir-birini takrorlaydi. Ko'pgina organlar va idoralarga ularga xos bo'lmagan funksiyalar yuklangan. Masalan, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini profilaktika qilish bo'linmalari o'smirlarning yozgi dam olishi, hordiq chiqarishini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Yuqorida zikr etilgan organlar va idoralarning vakolatlari aniq ajratilmagan. Bularning barchasi kuch va vositalar, moddiy resurslar va kadrlarning har yoqqa tarqalib ketishiga, pirovard natijada esa mas'uliyatsizlikka olib kelmoqda.

---

[1] Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. - М., 1992. С. 215.

Uchinchidan, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan tizim zamon talablariga, yangi ish shakllari va usullariga javob bermaydi. U keskin muammolarni taqiqlash taktikasi yordamida hal qilishga ko‘proq moyil. Bolalarga ham, ularning ota-onalariga ham pedagogik va psixologik yordamning taqchilligi ko‘p jihatdan shu bilan izohlanadi. Bunda asosan militsiya faoliyatiga tayanilishining sababi ham shundadir. Vaholanki, maxsus tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, ichki ishlar organlari jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi 320 ta omildan atiga 50 tasiga samarali ta’sir ko‘rsata oladi[1].

To‘rtinchidan, profilaktika ishlari har bir shaxsga nisbatan individual yondashuvni talab etadi. Bu, avvalambor, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga taalluqli. Masalan, jinoyatchilikning dastlabki bosqichda profilaktika qilish muammosi so‘nggi yillarda bir necha marta ko‘tarildi. Ammo o‘smirlar va qizlar orasidagi huquqbu-zarliklarning oldini olishga nisbatan tabaqalashtirilgan yondashuvning zarurligi bu holda ham juda kam tilga olindi. Yuqorida qayd etilgan umumiy, bir xil yondashuv bu yerda ham yetakchilik qildi. Beqaror oiladan chiqqan o‘smir yoki qizni ro‘yxatga qo‘yish, o‘z vaqtida chora ko‘rganlik haqida rahbariyatga hisobot berish va shu bilan o‘smir yoki qiz u yoki bu huquqbuzarlikni sodir etgunga qadar profilaktik ta’sir ko‘rsatishni to‘xtatish ichki ishlar organlari profilaktika xizmatining, avvalambor, voyaga etmaganlarning ishlari bo‘yicha inspeksiyalar xodimlarining va uchastka nozirlarining ishida qotib qolgan shtampdir.

Beshinchidan, profilaktikaning barcha subyektlari faoliyatini baholash mezonlari, odatda, ular faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs ijtimo-iylashishining ma’lum bosqichi bilan chegaralanadi. Maktabgacha muassasalar, maktablar, kollejlar va mehnat jamoalari o‘rtasida tarbiya ishlarining vorisiyligi muammosi hal qilinmagan. Buning ustiga, voyaga yetmaganlar, ayniqsa, qizlar maxsus o‘quv-tarbiya muassasalariga yoki koloniyalarga tushib qolgach, ba’zan ijobiy ijtimoiy faoliyat ko‘nikmalarini orttirish zarurligini idrok etish layoqatini yo‘qotib qo‘ymoqda. Bu muammoning ildizlarini, bizningcha, tizim subyektlari o‘z faoliyatining yakuniy natijalaridan manfaatdor emasligidan qidirish kerak. Zotan, mazkur muammo, bizning nazarimizda, mamlakatda butun ta’lim tizimini isloh qilish, shu jumladan, ta’lim jarayonida olinadigan bilim va ko‘nikmalardan bevosita mehnat faoliyatida foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bilan chambarchas bog‘liq. Bu munosabat bilan erkak va ayol jinsiga mansub shaxslarga alohida ta’lim berish elementlarini joriy

[1] Семенхин В. Подросток ждет защиты //Ж. Милиция. №1. 1992. 13.с.

etish taklifi ham diqqatga sazovordir, zotan, bu jamiyatda mavjud tarixiy an'analarga mos keladi.

Nihoyat, davlat profilaktika tizimi hozirgi holida (tuzilishi, huquqiy negizi, moddiy resurslari, kadrlari va hokazolarga ko'ra) bolalik va onalikni muhofaza qilish sohasida davlat tomonidan imzolangan va ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlarning, shu jumladan, BMT 1989-yil 20-noyabrda qabul qilgan va 1990-yilning 2-sentabrida kuchga kirgan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya talablarining to'la hajmda bajarilishini ta'minlashga qodir emas. Yuqorida zikr etilgan Konvensiyaga muvofiq, barcha davlatlar milliy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda bolalarni g'ayriqonuniy, shu jumladan, jinsiy ekspluatatsiya qilishning barcha shakllarining oldini olish uchun hamma zarur choralarni ko'rish majburiyatini oladi[1].

Bu nuqtai nazardan voyaga yetmagan jinoyatchini qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilish, uning bu muddatni saqlash tartibi qattiq bo'lgan maxsus muassasada o'tashini ta'minlash chorasini qonuniy tartibda o'rnatish haqidagi taklif e'tiborga molikdir.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar uchun maxsus adliya organlari - yuvenal sudlar, ixtisoslashgan advokatura, tergov apparatlarining mustaqil kichik tizimlarini tashkil etish fursati etdi. Buning uchun barcha huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini malakali tayyorlash va ularning ishini ixtisoslashtirish choralarini ko'rish lozim.

## 8.2. Ayollar jinoyatchiligining oldini olishning maxsus choralari

Shaxs ijtimoiylashishining dastlabki bosqichidagi beqarorlik ayolning ruhiyatiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi, ayol ichkilikka, giyohvandlikka ruju qo'ygani sari, u o'zlashtirgan salbiy ijtimoiy ko'nikma va odatlar uning ongida tobora mustahkamlanib boradi. Amaliyot yuqoridagi holatlar deviant xulq-atvorning belgilari ekanligini ko'rsatadi.

Alkogolizm va giyohvandlikka ruju qo'ygan ayollarning shaxsini ta'riflaydigan ma'lumotlardan ularning hayotiy qarashlari, xulq-atvori, atrofdagilarga, jamiyatga munosabati va hokazolardagi ma'lum o'xshashlik profilaktika vazifalarining o'xshashligini ham belgilab beradi. Buni alkogolik va giyohvand ayollarning shaxsi shakllanadigan shart-sharoitlar misolida ko'rish mumkin. Bular: o'zlari yashagan ijtimoiy muhitning ichkilikka va giyohvandlikka ruju qo'yish bilan bog'liq an'analarini o'zlashtirish, spirtli ichimliklar va giyohvandlik vosi-talari

[1] Конвенция о правах ребенка. Правовые документы ООН. - М., 1993.

iste'mol qilishga qarshilik ko'rsatmaydigan qarashlar va qadriyatlarning hamda g'ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishi; qiz bolaning ko'chadagilarga (norasmiy guruhga) qo'shilishiga turtki beruvchi, uning spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalari bilan tanishishi ehtimolini oshiruvchui ijtimoiy omillar, shu jumladan, moda, taqlid qilish, guruhda a'zolikni saqlab qolishga intilish; spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalari ta'sirida yangi taassurotlar olishga inti-lishning shakllanishi, pirovard natijada bu vositalarni iste'mol qilishga turg'un fiziologik qaramlikning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ayollarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini profilaktika qilish uchun N.G.Shumskiy keltirgan ma'lumotlar e'tiborga molik. Spirtli ichimliklarni suiiste'mol qiluvchi ayollarning ko'pchiligiga (fe'l-atvor xususiyatlaridan qat'i nazar) ruhiy infantilizm xos. Ruhiyatning reaktiv va affektiv buzilishi ham ayollar fe'l-atvorining umumiy jihatlaridan hisoblanadi. Ular 30-35 yoshdan keyin ayollarda alkogolizm bilan kasallanish ehtimoli ancha ortgan davrda kuchayadi (ayollar jinoyatchiligiga doir statistika ma'lumotlari ham, maxsus tadqiqotlarning, shu jumladan, bizning tadqiqotimiz ma'lumotlari ham 30-50 yoshlilar ayollarning eng kriminogen yosh guruhini tashkil etishini ko'rsatadi)[1].

Giyohvand ayollar asosan giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish va ularning g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni, shuningdek, bunday vositalarni sotib olish uchun mulkka qarshi jinoyatlarni sodir etadi. Olib borilgan maxsus tadqiqotlar natijasida giyohvand ayollarning ko'pchiligi 30 yoshga to'lmaganini, ularning giyohvandlik vositalarini asosan 15-25 yoshidan boshlab iste'mol qila boshlashganini ko'rsatadi. Ayollar orasida opiomaniya ayniqsa keng tarqalgan - 67%. Polinarkomaniya - 35%, gashishizm - 7% ni tashkil etadi. Piyonista ayollar orasida bo'lgani singari, giyohvand ayollar orasida ham ma'lumoti va ijtimoiy maqomi past, doimiy ish joyi va ma'lum ixtisoslikka ega bo'lmagan shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi[2].

Giyohvandlikka ruju qo'ygan ayollarning ruhiyati ham bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shaxsning gedonizmga moyilligi[3], egoizm, o'zini tuta olmaslik, g'ayriijtimoiy qilmishlarga monelik qiluvchi ma'naviy to'siqlarning yo'qligi, yalqovlik va tekinxo'rlikka moyillik shular jumlasidan. Giyohvandlikka ruju qo'yish bu xusu-siyatlarni yanada

[1] Шумский Н.Г. Алкоголизм у женщин. -М., 1983. С. 165-166.

[2] Антонян Ю.М. Кўрсатилган асар. 185 — бет; Габиани А.А. На краю пропасти : наркомания и наркоман.-М., 1990. 55.с.

[3] Гедонизм – лаззатланиши ҳаётнинг мақсади ва олий неъмат деб эътироф этган қадимги юнон фалсафий-этик таълимоти.

keskinlashtiradi, asosiy hayotiy omillar tizimining yo'lini to'sadi, psixologik moyillik kompleksini barqaror ishlovchi xulq-atvorni boshqarish tizimiga aylantiradi[1].

Ayollar giyohvandligi ko'pincha yalqovlik, jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lib, odatda fohishalik va gomoseksualizm bilan birga kechadi. Giyohvand ayollarning OITS, so'zak va boshqa tanosil kasal-liklar bilan xastalanish ehtimoli boshqalarga nisbatan yuqoridir.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, biz ayollar alkogolizmi va giyohvandligining oldini olishda, birinchi navbatda, ularga nisbatan ko'riladigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Tabiiyki, mazkur ijtimoiy illatlarga qarshi kurashda davlat tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika choralarining ahamiyatini kamaytirmaslik kerak. Bular jumlasiga, avvalambor, ichkilikbozlik va giyohvandlikning tarqalishiga mafkuraviy qarshilik ko'rsatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi tadbirlar kiradi. Bizningcha, giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan idoralararo kompleks dasturni ishlab chiqish va uni qonuniy rasmiylashtirish fursati yetdi.

Bunda tibbiy xizmatlar ko'rsatish, dori-darmonlar ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan turli tijorat tuzilmalarini litsenziyalash va ularning faoliyatini huquqiy tartibga solish muammosi ham nazarda tutilishi kerak. Tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan preparatlarni qo'llash huquqini beruvchi litsenziya olish hollari (shu jumladan, tegishli mansabdor shaxslarga pora berish yo'li bilan) so'nggi vaqtda ancha ko'paydi. Davlat, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan bunday faoliyat qat'iy nazorat qilinishi, ushbu sohada bo'lgan tibbiyot xodimlari orasida ayollarning ko'pchilikni tashkil etishi nazarda tutilishi lozim.

Giyohvandlik va alkogolizmni ayollar jinoyatchiligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida profilaktika qilish muammolari muayyan shaxs darajasida ham, umuman jamiyat miqyosida ham jinsiy tubanlashish bilan chambarchas bog'liq. Bu yerda biz fohishalikni nazarda tutmoqdamiz.

Bizningcha, fohishalikka ijtimoiy salbiy hodisa sifatida qarshilik ko'rsatishga nisbatan yondashuvlarni aniqlash ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilishning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bunda, eng avvalo,

---

[1] Баценко М.С. Психологическая характеристика личности женщин, употребляющей наркотики и ее учет в воспитктельной деятельности в местах лишения свободы. Автореф. канд. дисс. - М., 1991. 16.с.

fohishalikning oldini olish, uni kamaytirishga nisbatan davlat siyosatining konseptual asoslarini ishlab chiqish zarur. Jahon amaliyotida fohishalikka qarshi kurashni, qonuniy tartibga solishning uchta asosiy yo‘nalishi (turi) ishlab chiqilgan: taqiqlash, tartibga solish va abolisionistik yondashuvlar[1].

Taqiqlovchi yondashuvga muvofiq fohishalik bilan shug‘ullanish jinoiy yoki ma’muriy huquqbuzarlik deb e’lon qilinadi. Bunday huquqbuzarlik uchun, odatda, jarima solish nazarda tutiladi.

Tartibga soluvchi yondashuv fohishalikka nisbatan bag‘rikeng-likni, aholining sog‘lig‘ini va ma’naviyatni muhofaza qilish manfaatlaridan kelib chiqib, uni majburiy tartibga solishni nazarda tutadi. Bu, masalan, fohishalikni fohishaxonalar doirasida cheklash, fohishalarni majburiy yo‘sinda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini joriy etish va boshqa nazorat choralarini ko‘rishga harakat qilayotgan davlatlarning siyosatida o‘z aksini topgan.

Abolisionistik yondashuvda fohishalikka inson qadr-qimmatini yerga uradigan mashg‘ulot deb qaraladi, ammo jamiyatning har bir a’zosi bu masalani o‘zi hal qilishga haqli deb hisoblanadi. Shuning uchun ham fohishalik taqiqlanmaydi, faqat ayollarni ekspluatatsiya qilish ta’qib ostiga olinadi. Ammo bu yerda ham davlatlar jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida fohishalar faoliyatiga ma’lum cheklashlar joriy etishga majbur bo‘lmoqdalar (masalan, jamoat joylarida, maktablar yaqinida, shaharlarning alohida hududlarida mijoz qidirishni taqiqlash va h.k.).

Davlat, jumladan, milliy va ma’naviy qadriyatlar tizimidan va jamoatchilik fikridan kelib chiqib, fohishalikka qarshi kurash siyosatini mustaqil belgilashga haqlidir. Shuning uchun ham hatto bir konseptual yondashuv tanlangan mamlakatlarda ham uni amalga oshirishning yo‘llari va usullari har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, federativ davlatlarda federatsiya subyektlari amalga oshirayotgan siyosat bir-biridan jiddiy farq qilishi mumkin. Jumladan, AQShda bugungi kunda ayrim shtatlarning qonun hujjatlarida fohishalik taqiqlangan. Ularning ayrimlarida mijoz ham javobgarlikka tortiladi. Boshqa shtatlarda fohishalar daydilik to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiq ta’qib qilinishi mumkin. Nevada shtatida esa fohishalik bilan shug‘ullanishga fohishaxonalar doirasida rasman ruxsat etilgan.

Buyuk Britaniyada faqat mijoz qidirib shilqimlik qilganlik ta’qib ostiga olinadi. Fransiya Jinoyat kodeksida fohishalik bilan ko‘chada shug‘ullanish, ya’ni jamoat joylarida shilqimlik qilishni taqiqlovchi ikki

[1] Аболюционизм – келиб чиқиши лотинча атама бўлиб, бекор қилиш, тугатиш деган маънони билдиради; яна бир маъноси - бирон-бир қонунни бекор қилишни талаб қилувчи ижтимоий харакат. -қаранг: Словарь иностранных спов. - М., 1984. 8. с.

moddasidan tashqari, fohishalik bilan shug'ullashishni cheklovchi boshqa normalar mavjud emas[1].

Biroq, fohishalikka nisbatan jamoatchilik fikri va rasmiy hokimiyat doiralarining munosabati qanday bo'lmasin, ekspluatatsiya qilish juda ko'p davlatlarda ta'qib qilinadi. Bunda qonun chiqaruvchilar «mijoz-fohisha» bitimi ortida asosiy daromadni oluvchi uchinchi shaxs (yoki shaxslar) turishidan kelib chiqadi. Bular: yollovchilar, qo'shmachilar, sutenyorlar, rasmiy yoki norasmiy fohishaxonalar, massaj salonlari, barlar, mehmonxonalarning egalari va h.k. Odatda, ularning faoliyati jinoyat olami, ko'pgina hollarda - uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq bo'ladi.

Bu o'rinda fohishalikka jalb etish va ayolni ekspluatatsiya qilish bo'yicha norasmiy biznesning xalqaro ahamiyat kasb etib borayotganini ham qayd etib o'tish kerak[2]. Bu esa mazkur jinoiy faoliyatga qarshi kurashda samarali xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishni talab etadi. Bunda, bizningcha, fohishalarni «eksport-import» qilish operatsiyalarining maqsadi seksual xizmatlar ko'rsatish bozorini kengaytirish va shakllarini ko'paytirishdan iborat ekanligini nazarda tutish kerak. Bunday harakatlar ko'pincha immigratsiya qonunlarining buzilishi, hujjatlarni qalbakilashtirish, soxta nikohga kirish va h.k. orqali amalga oshiriladi. Boshqa MDH mamlakatlari qatori O'zbekiston ham xalqaro seks-biznes korchalonlarining e'tiboridan chetda qolmaganligini, ko'pgina ayollar ularning ta'sirida fohishalik yo'liga kirganini ham nazarda tutish kerak.

Bu munosabat bilan maxsus ma'lumotlar banki tashkil etish hamda Interpolga a'zo mamlakatlarning politsiya xizmatlari o'rtasida tegishli axborot almashishni faollashtirish haqidagi takliflar alohida diqqatga sazovordir. Bunday yondoshuv xalqaro hamjamiyatning fohishalik va xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga qarshi kurashga yo'naltirilgan bir qator huquqiy hujjatlar doirasida amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarga to'la mos keladi[3].

Bizningcha, yuqorida bayon etilgan konseptual qarashlardan kelib chiqib, milliy qonunchilikni takomillashtirish choralarini ko'rish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda bu muammo yuzasidan har xil qarashlar bildirilgan. Masalan, professor A.N.Ignatov shunday deb yozadi: «Voyaga yetmaganlarnigina emas, yoshidan qat'i nazar, barcha ayollarni fohishalik

---

[1] Дяченко А.П., Игнатов А.Н. Сексбизнес в оценке уголовного права зарубежных государств. Проституция и преступность.-М., 1991. С. 197-210.

[2] Хамроева Ш.Х. Аёллар траффиги (пуллаш)ни бартараф этишнинг халқаро ҳуқуқий муаммолари. Юрид.фан.номз.илм.дараж. олиш учун дисс. Автореф. Т., 2004. –Б. 22.

[3] Конвенция о Ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин. Генеральная Ассамблея ООН. 18 апреля 1979 г.; Конвенция о борьбе с торговлей людьми и с эксплуатаций проституции третьими лицами. Генеральная Ассамблея ООН. 7 июля 1949 г. Правовые документы ООН. -М., 1993.

bilan shug'ullanishga jalb etganlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatish haqidagi taklif diqqatga sazovordir. Fohishalik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga voyaga yetmagan shaxsni jalb qilishga esa aybni og'irlashtiruvchi holat deb qaralishi kerak. Moddiy naf ko'rish maqsadida qo'shmachilik qilish, shuningdek fohishalikka har qanday shaklda ko'maklashganlik uchun jinoiy javobgarlik o'rnatish haqidagi taklif ham yetarli darajada asoslangan»[1].

I.I.Karpesning fikriga ko'ra, fohisha o'z «kasbi» bilan bevosita bog'liq biron-bir jinoyat sodir etgan taqdirdagina, «fohishalik bilan shug'ullanishni sud aybni og'irlashtiruvchi holat deb topishi mumkin»[2].

Bizningcha, fohishalik muammosi bilan bog'liq barcha jinoyat-huquqiy qarorlar, eng avvalo, jinoyat sodir etuvchi bunday ayollar shaxsiga va fohishalikni ekspluatatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan alohida yondashish imkoniyatiga tayanishi kerak. Bunday yondoshuv, birinchidan, jinoyat protsessida dalil-isbotlar bilan ta'minlash nuqtai nazaridan yuqorida zikr etilgan shaxslarni yanada keng tavsiflash imkonini beradi, ikkinchidan esa, individual profilaktika ishlarini amalga oshirishda shaxsning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olishning zarur sharti bo'lib xizmat qiladi.

Bizningcha, jinoiy javobgarlikka tortilgan jinoyatchi ayollar va fohishalarga nisbatan sud-psixiatriya ekspertizasi va psixologik-psixiatrik ekspertiza bilan bir qatorda, majburiy tartibda seksologik ekpertiza ham o'tkazish zarur. Bu esa bunday shaxslarga profilaktik ta'sir ko'rsatishni takomillashtirishning yo'nalishlaridan biridir. Bunda biz jinsiy xususiyatga ega bo'lgan har qanday jinoyatlar qatori fohishalik ham ba'zan shaxsning (shu jumladan, jinoiy) xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi ruhiy kasalliklari bilan izohlanishi mumkin, degan nuqtai nazardan kelib chiqamiz.

Bu munosabat bilan alohida ayollarda fohishalik bilan shug'ullanishga subyektiv moyillikning mavjudligini belgilovchi omillar haqidagi ma'lumot qiziqish uyg'otadi. «Muayyan shaxslarda u yaxshi tarbiya ko'rgani va qulay turmush sharoitlarida yashagani tufayli hech qachon real tus olmasligi, boshqa ma'qullanuvchi shakllarga kirishi mumkin. Ammo fohishalarning bu psixologik xususiyatini bilish, uni e'tiborga olish ular bilan individual tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Alohida ayollarning fohishalik bilan shug'ullanishga moyilligi haqidagi ma'lumotlardan, masalan, ularga psixoterapevtik ta'sir ko'rsatishda foydalanish mumkin»[3].

---

[1] Баценко М.С. Психологическая характеристика личности женщин употребляющий наркотики и ее учет в воспитательной деятельности в местах лишения свободы. Автореф. канд. дисс. - М., 1991. 16.с.
[2] Карпец И.И. Преступность: иллюзии и реальность. - М.. 1992. 408.с.
[3] Антонян Ю.М. Кўрсатилган асар 209.б.

Ayollar shaxsini maxsus psixoseksologik o‘rganish imkoniyati, bizningcha, juda ham zarurdir. Rossiyalik olimlar tomonidan jinsiy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga kriminologik, jinoyat-huquqiy, seksologiya, psixiatriya va psixologik tavsif berilganligi fikrimizning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi.[1]

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan zo‘ravonlik xususiyatiga ega bo‘lgan jinsiy jinoyatlardan jabr ko‘rganlarning shaxsini o‘rganishda foydalanish mumkin, zotan, kriminologik tadqiqotlarda bunday tajovuzlardan jabr ko‘rgan ayollarning tubanlashishi muammosi ilgari ham ko‘tarilgan[2]. Oilada jinsiy tazyiq ko‘rgan voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvorini profilaktika qilishda bunday tadqiqotlar ayniqsa muhim rol o‘ynaydi.

Ayollarni ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq barcha hollarda maxsus seksologik tadqiqotlar o‘tkazilishi kerak, chunki tadqiqot natijalari jazoni ijro etish muassasalarida uzoq vaqt bo‘lish ayollarning seksual xulq-atvorida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berishiga sabab bo‘lganligini ko‘rsatdi. Buning negizida xulq-atvorning notipik, shu jumladan, deviant shakllarining yuzaga kelishi ko‘plab salbiy oqibatlarning ro‘y berishiga olib keladi. Nikohda jinsiy muammolarning tug‘ilishi, er-xotin o‘rtasida jan-jal chiqishi, ozodlikda ham, ozodlikdan mahrum qilish joylarida ham zo‘ravonlik jinoyatlarining sodir etilishi shular jumlasidandir.

Yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlar pirovard natijada ozodlikdan mahrum qilish joylarida tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va jazoga mahkum etilgan ayollarni qayta tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilish, ayniqsa, ular tomonidan sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan retsidiv jinoyatlarning oldini olish jazoni o‘tash amaliyotini takomillashtirish, uni imkon qadar individuallashtirish bilan bog‘liqdir. Bu masalalar so‘nggi vaqtda boshqa tadqiqotchilar tomonidan ancha faol o‘rganilgani, bu jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlarining alohida normalarida o‘z aksini topgani tufayli, qaytariqlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, jazoni ijro etish institutining samaradorligini oshirishning ayrim jihatlariga to‘xtalib, ularni tadqiqot olib borishda empirik asos bo‘lib xizmat qilgan ma’lumotlar misolida ko‘rib chiqamiz.

Ayollar jinoiy jazoni o‘tash koloniyalari va tergov hibs-xonalarining xodimlaridan so‘rovlar o‘tkazish jarayonida ularga, shu jumladan, qanday jinoyatlar (jinoyat turlari) uchun hukm etilgan ayollarga profilaktik ta’sir ko‘rsatish oson kechadi, degan savol bilan murojaat etdik. Natijada

---

[1] Антонян Ю.М., Ткаченко А.А., Шостакович Б.В. Кримнальная сексология. М.: Спарк, 1999, 464 с.

[2] Арсеньева М.И., Серебрякова В.А. Особенности формирования противоправного поведения. Исправительно-трудовые учреждения. №8. 1982. С. 11-15.

so‘ralganlarning 43,7% xo‘jalik, mansab jinoyatlari sodir etgan va o‘zganing mulkini juda ko‘p miqdorda talon-toroj qilgan shaxslarga profilaktik ta’sir ko‘rsatish oson kechishini ko‘rsatdi. So‘ralganlarning 42,3% oila-ro‘zg‘or negizida og‘ir jinoyat sodir etgan - odam o‘ldirgan va badanga shikast yetkazgan mahkumlarni birinchi o‘ringa qo‘ydilar. Giyohvandlik vositalari bilan g‘ayriqonuniy muomala qilganlar, shuningdek, bezorilik uchun jazoga hukm etilganlar tarbiyasi «og‘ir» shaxslar jumlasiga kiritilganlar.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan ayollarning qaysi yosh toifasiga tarbiyaviy-profilaktik ta’sir ko‘rsatish oson? degan savolga berilgan javoblar quyidagicha bo‘ldi: 14-17 yosh guruhi - 25,1%, 18-24 yosh - 37,5%, 25-30 yosh - 22,6%, 31-40 yosh - 12,3%, 41-50 yosh - 0,9%, 50 yoshdan kattalar guruhi - 1,6%. Ko‘rib turganimizdek, tarbiyaviy-profilaktik ta’sir ko‘rsatish oson bo‘lgan shaxslarning asosini yosh ayollar va voyaga yetmaganlar tashkil etgan.

Ayollarning koloniyalarida maxsus psixologik yordam xizmatlari faoliyat ko‘rsatishiga ehtiyoj bormi yoki bu funksiyalarni ma’muriyat vakillari amalga oshirishi mumkinmi? degan savolga respondentlarning 81,2% bunday ehtiyoj bor deb ko‘rsatdi. Shulardan 59% o‘z javoblarida mazkur xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislar muassasa ma’muriyatiga bo‘ysunmasligi, balki erkin yollangan shaxslar bo‘lishi kerak, deb qo‘shimcha qildilar.

Tadqiqot o‘tkazish jarayonida biz amalyot xodimlaridan ayollar koloniyalarida diniy targ‘ibotning ta’siri haqida ham so‘radik. Natijada so‘ralganlarning 68,7% diniy targ‘ibot, ayniqsa, voyaga yetmaganlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, 12,5% - diniy targ‘ibotga ehtiyoj yo‘qligini ko‘rsatdi, respondentlarning 6,3% esa javob berishga qiynalishini ma’lum qildi.

Birinchi marta jinoiy jazoga hukm etilgan ayollarni ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarida takroran jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan jinoyatchilardan alohida saqlashning maqsadga muvofiqligini aks ettiruvchi ma’lumotlar ham diqqatga sazovor. Natijada so‘ralganlarning 56,2% bunday ajratish zarurligini, 31,2% - buning shart emasligini ko‘rsatdi. Javob berishga qiynalganlar yana 6,3% ni tashkil etdi. Bizningcha, ayollar nechanchi marta ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan bo‘lishlaridan qat’i nazar umumiy tartibli koloniyalarda jazo o‘taydilar[1], degan fikr xatodir.

Mahalliy (viloyat, mintaqa) ayollar axloq tuzatish-mehnat muassasalari tizimini tashkil etishga munosabatingiz qanday, degan savolga

---

[1] Ахроров А.ва бошқалар. Жиноят ижроия ҳуқуқи. Т.: Ўқитувчи, 2002. Б. 40.

respondentlarning 87,5% ijobiy javob berdiki, bu mazkur muammoni yanada chuqur tahlildan o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Nihoyat, so‘ralganlarning 87,2% hozirgi vaqtda yuridik oliy o‘quv yurtlarida ayollar koloniyalari, umuman jazoni ijro etish muassasalari uchun yuqori malakali xodimlarni maxsus tayyorlash zarurati mavjudligini qayd etdilar.

Mahkuma ayollar bilan profilaktika ishlarini amalga oshirishni takomillashtirish yo‘nalishlariga nisbatan jinoiy jazoni ijroiya qilish O‘zR JIKga bu haqida respondentlar tizimiga amaliy xodimlarining munosabatini ta’riflovchi bu ma’lumotlar, bizning fikrimizcha, penitensiar profilaktika faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va bu boradagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilishi lozim.

Bu o‘rinda umuman jinoyatchilik, jumladan, ayollar jinoyatchili-gini profilaktika qilish jarayonida ayollar jinoyatchiligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish muammosiga ham e’tiborni qara-tishni istar edik. Bunda ayollar jinoyatchiligini kriminologik prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kriminologik prognoz qilishning asosiy vazifasi jinoyatchilikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashdir. So‘ng bu omillar istiqbolga «ko‘chiriladi» va yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Bunday yondashuv xilma-xil omillarning umumiy tizimida prognozga tadqiqot doirasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan omillarni ajratish imkonini beradi[1].

Shuning uchun ham biz o‘z tadqiqotimiz doirasida ayollar jinoyatchiligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ba’zi bir omillarini ko‘rib chiqishga harakat qildik. Bu kelgusida ilmiy kriminologik prognoz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda uning mintaqaviy xususiyatlarini ham e’tiborga olish, uni mana shu xususiyatlaridan kelib chiqib prognoz qilish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, bu ayollar jinoyatchiligini, shu jumladan, mintaqaviy miqyosda kriminologik prognoz qilishning obyektivligi darajasini yanada oshiradi.

Tabiiyki, kriminologik prognozning ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilishning yo‘nalishlaridan biri sifatidagi imkoniyatlarini ushbu tadqiqot doirasida ochib berish va ko‘rsatishning iloji yo‘q. Zotan, mazkur omillar majmui, birinchidan, juda rang-barang, ikkinchidan, ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, huquqiy va hokazo omillarning har biri profilaktika faoliyatining turli darajalarida o‘z xususiyatlariga ega,

---

[1] Аванесов Г.А.Криминология, прогностика, управление. - Горький. 1975. 323.с.

uchinchidan, ayollar jinoyatchiligini prognoz qilishning o'zi umuman jinoyatchilikning oldini olishga nisbatan umumiy prognoz qilish kabi yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Bu o'rinda biz jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirishga nisbatan shunday umumiy yondashuvlardan biriga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu yerda hozirgi kunda dolzarb muammo - bo'lgan tayyorlanayotgan va amaldagi huquqiy hujjatlarni kriminologik ekspertizadan o'tkazish zarurligi muammosi nazarda tutilmoqda. Bunday faoliyat, eng avvalo, qonun hujjatlarini qabul qilish miqyosida zarurdir. Bunda kriminologik ekspertiza, aytaylik, Konstitutsiyaviy sud yoki prokuratura funksiyalarini bajarmasligi kerak. Uning qarorlari ko'proq tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lishi va tegishli huquq normalarining qabul qilinishi keskinlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan (yoki olib kelgan) u yoki bu omillarning salbiy ta'sirini prognoz qilish elementlarini o'z ichiga olishi lozim. Mazkur faoliyat jarayonida ayollar jinoyatchiligi bilan bog'liq muammolarga ham e'tibor berish zarur.

Biz O'zbekiston Respublikasi JK 184-moddasini qo'llash amaliyotini o'rganish natijasida olgan ma'lumotlar bunday kriminolo-gik yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Foyda (daromad) yoki soliq to'lanadigan boshqa obyektlarni yashirganlik uchun javobgarlikka tortilganlarning umumiy sonida ayollar 60,9% ni tashkil etadi. Bizningcha, bunday ko'rsatkich, masalan, qonunning mazkur normasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida to'g'ri prognoz qilish mumkin edi, zotan, ushbu jinoyatni, odatda, moliya-buxgalteriya faoliyati sohasida xizmat qiladigan mansabdor shaxs sodir etadi. Ma'lumki, bu funksiyalarni asosan ayollar bajaradi.

Kriminologik ekspertiza faoliyatining prognostik jihatlari ayollarning, shu jumladan, mehnat faoliyati sohasidagi ijtimoiy funksiyalari elementlariga asoslanishi lozim. Ayollarning «sohaviy» jinoyatchiligi haqida biz yuqorida aytib o'tdik. Ayollarning bunday g'ayriqonuniy faoliyati ham kriminologik prognoz predmeti bo'lishi mumkin. Masalan, 1996-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risida Qonuni[1] qabul qilinishi bilan «xususiy notariuslar» faoliyatiga ruxsat berildi. Amaliyot xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanuvchilar orasida ayollarning salmog'i katta ekanligini ko'rsatadi. Bu tabiiy holdik, chunki ularning ko'pchiligi mazkur Qonun qabul qilingunga qadar davlat notarial idoralarida xizmat qilgan. Biroq, aynan mana shu jihat, bizningcha, kriminologik xususiyatga ega. Gap

[1] Ўзбекистоннинг янги қонунлари. №15. Т., Адолат. 1997.

shundaki, kuzatishlarimizga qaraganda, soxta notarial tasdiqlangan hujjatlardan foydalanish bilan bog‘liq jinoiy faoliyat ko‘lami tobora ortib bormoqda. Ko‘chmas mulkni xususiylashtirish, ko‘chmas mulk bi-lan oldi-sotdi qilish, bankda hisobvaraqlar ochish va naqd pullarni o‘tkazish sohasidagi firibgarliklar asosan soxta tasdiqlangan notarial hujjatlar yordamida amalga oshirilmoqda. Bizningcha, bunday qilmishlarning ijtimoiy xavfliligini tegishli iqtisodiy-huquqiy tahlildan o‘tkazish jinoyat qonunining notarial hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini qasddan buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatgan bo‘lur edi.

Ayollar jinoyatchiligiga ta’sir ko‘rsatuvchi kriminogen xusu-siyatga ega bo‘lgan salbiy omillarni baholash umuman jinoyatchilikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning tahlili bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham ayollar professional jinoyatchiligini profilaktika qilishning xususiyatlarini ko‘rib chiqishga kirishishdan oldin ular, eng avvalo, jinoyatchilikka, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashning umumiy siyosati hamda kriminal professionalizmning oldini olish choralari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini qayd etib o‘tish kerak.

Ayollar professional jinoyatchiligining oldini olish professional jinoyatchi ayollarning jinoyat sodir etish usullarini, jinoyatchi ayollarning shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olish, ularning kriminogen aloqalarini aniqlashni nazarda tutishi lozim. Professional jinoyatchi ayollar faoliyatining xususiyatlarini o‘rganishda ularga xos bo‘lgan jihatlarni, jumladan, bunday jinoyatlar latentligi darajasining yuqori ekanligi, jabrlanuvchilarning xulq-atvoridagi viktimologik belgilardan jinoyatchi ayollarning foydalanishini, jinoyat ishi bo‘yicha tergov jarayonida jinoyatchi ayollarning xulq-atvorini e’tiborga olish kerakki, bu, o‘z navbatida, professional jinoyatchi ayollar ishtirokida alohida tergov harakatlari va prosessual harakatlarni o‘tkazishning tegishli taktikasini ishlab chiqishni talab etadi.

## 8.3. Ayollar jinoyatchiligini kriminologik prognoz qilish yo‘nalishlari

Jinoyatchilikni, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilish haqida so‘z yuritar ekanmiz, mazkur jinoyatchilikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish muammosiga ham e’tiborni qaratishni istar edik. Bunda ayollar jinoyatchiligini kriminologik prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitlarida har qanday prognozning uzoq muddatliligi va aniqligi, tabiiyki, kamayadi. Birinchidan, prognoz muddati qancha katta bo‘lsa,

uning oldiga shu darajada umumiy vazifalar qo‘yiladi, degan aksiomaga asoslanuvchi kriminologik qonuniyatning ta’siri seziladi[1]. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik sharoitlarida ilmiy va tizimli o‘rganish hamda prognoz qilish imkoniyatlari ancha kamayadi.

Kriminologik prognoz qilishning asosiy vazifasi jinoyatchilikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashdir. So‘ng bu omillar istiqbolga «ko‘chiriladi» va yangi nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi[2]. Bunday yondashuv xilma-xil omillarning umumiy tizimida prognostik tadqiqot doirasida xal qiluvchi axamiyatga ega bo‘lgan omillarni ajratish imkonini beradi. Mazkur metodologiya kriminologiyadan boshqa sohalarda ham aksariyat ilmiy izlanishlar uchun ma’lum darajada asos bo‘lib xizmat qiladi. U bizning tadqiqotimiz tizimida ham qo‘llanilgan. Shuning uchun ham biz o‘z tadqiqotimiz doirasida ayollar jinoyatchiligining ba’zi bir muhim omillarini ko‘rib chiqishga harakat qildik. Bunda biz ularning yordamida jinoiy xulq-atvor mexanizmini tushuntirishni o‘z oddimizga maqsad qilib qo‘ydik, shuningdek, ular kelgusida ilmiy kriminologik prognoz uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini e’tiborga oldik.

O‘zbekistonning jug‘rofiy-siyosiy o‘rni, unda sodir bo‘layotgan tarixiy - demografik va etno-migratsion jarayonlar ham kriminogen vaziyatga ta’siri nuqtai nazaridan mustaqil prognozlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Migratsiya jarayonlari tobora jadallashib borayotgan sharoitlarda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-demografik beqarorlashishi kuchayadi. O‘zbekistonda emigratsiyaning o‘rta va uzoq muddatli salbiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy oqibatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston aholisining etno-demografik tuzilmasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Tub aholining demografik o‘sishi daraja-sining kattaligi hamda o‘sish darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, 2000-yilda 16 yoshga to‘lmagan bolalar va o‘smirlar respublika bo‘yicha 40% ga yaqinni tashkil etgan. Mazkur yosh guruh-lari mehnatga layoqatli yoshga to‘lgunga qadar mamlakatda iqtisodiy vaziyat barqarorlashishi mushkul ekanligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, mehnat bozoridagi vaziyat yanada murakkablashishini kutish mumkin.

O‘tgan asrning 90-yillarida, iqtisodiy inqiroz va bozor iqti-sodiyotiga o‘tish sharoitlarida aholining ijtimoiy, shu jumladan, etnik tabaqalanishi kuchaydi, u aholini siyosiy va biznes-elitaga hamda asosan qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan qishloq aholisiga ajratdi.

[1] Каиржанов Э.И. Крминология.Общая часть. Алматы, 2000. С. 267.
[2] Аванесов Г.А. Криминология, прогностика, управление. - Горький. 1975. С. 323.

Migratsiya jarayonlarining kechishi va ularning jinoyatchilikka ta'sirini prognoz qilish masalasiga kelsak, prognoz faqat variativ bo'lishi mumkin, chunki migratsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarishlar juda ham ko'p, ichki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy o'zgarishlar shular jumlasidandir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub siyosiy va iqtisodiy islohotlar nihoyasiga yetkazilganida, turmush darajasi va sifati yaxshilangan, inson huquqlariga rioya etilishi ta'minlangan taqdirdagina migratsiya jarayonlarining barqarorlashishini kutish mumkin.

Migratsiyaning adabiyotlarda deyarli tilga olinmaydigan yana bir omili jug'rofiy-ekologik omil ham mavjuddir. Gap shundaki, O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasi tabiiy ofat hududi deb e'tirof etilgan. Agar bu yerda vaziyat yaqin vaqtlarda ijobiy tomonga o'zgarmaydigan bo'lsa, Orolbo'yida yashaydigan aholining boshqa min-taqalarga ko'chishi yanada kuchayishi mumkin.

Respublikada va Markaziy Osiyo mintaqasida islom aqidapa-rastligi g'oyalarining ta'sirida terroristik harakatlarning ko'pa-yishi migratsiyaning kuchayishiga turtki beruvchi mustaqil omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadigan bo'lsak, respublikada migratsiya jarayonlarini barqarorlashtirish immigratsiya, emigratsiya va ichki migratsiya sohalarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va tashkiliy-moliyaviy chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olishi lozim.

Shunday qilib, migratsiya, yuqorida qayd etib o'tilganidek, jinoyatchilikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil omil hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur o'zaro ta'sirning qonuniyatlarini o'rganish jinoyatchilikni, shu jumladan, mintaqaviy miqyosda hamda respublika miqyosida kriminologik prognoz qilishning obyektivligi darajasini yanada oshiradi.

Tabiiyki, kriminologik prognozning ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilishning yo'nalishlaridan biri sifatidagi imkoniyatlarini ushbu paragrafda ochib berish va ko'rsatishning iloji yo'q. Zotan, mazkur omillar majmui:

birinchidan, juda rang-barang bo'lib, mustaqil ilmiy qiziqish sohasini tashkil etadi;

ikkinchidan, ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, huquqiy va hokazo omillarning har biri profilaktika faoliyatining turli pog'onalarida o'z xususiyatlariga ega bo'ladi;

uchinchidan, ayollar jinoyatchiligini prognoz qilishning o'zi umuman jinoyatchilikning oldini olishga nisbatan umumiy prognostik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq.

Bu o‘rinda biz jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirishga nisbatan shunday umumiy yondashuvlardan biriga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Bu yerda dolzarb muammo – tayyorlanayotgan va amaldagi huquqiy hujjatlarni kriminologik ekspertizadan o‘tkazish zarurligi muammosi nazarda tutilmoqda. Mazkur faoliyat, eng avvalo, qonun hujjatlarini qabul qilish miqyosida zarurdir. Tashkiliy jihatdan u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti yoki Toshkent davlat yuridik instituti negizida amalga oshirilishi mumkin. Bunda kriminologik ekspertiza maxsus vakolatli davlat organlari funksiyalarini bajarmasligi kerak. Uning qarorlari ko‘proq tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lishi va tegishli huquq normalarining qabul qilinishi keskinlashishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan (yoki olib kelgan) muayyan omillarning salbiy ta’sirini prognoz qilish elementlarini o‘z ichiga olishi lozim. Mazkur faoliyat jarayonida ayollar jinoyatchiligi bilan bog‘liq muammolarga ham e’tibor berish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi JK 184-moddasi (soliq va boshqa to‘lov-larni to‘lashdan bo‘yin tovlash)ni qo‘llash amaliyotini o‘rganish natijasida olingan ma’lumotlar yuqorida zikr etilgan krimino-logik yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi. Foyda (daromad) yoki soliq to‘lanadigan boshqa obyektlarni yashirganlik uchun javobgarlikka tortilganlarning umumiy sonida ayollar 60,9% ni tashkil etadi. Bizningcha, mazkur ko‘rsatkich, masalan, qonunning mazkur normasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida ancha to‘g‘ri prognoz qilinishi mumkin edi, zotan, ushbu jinoyatni, odatda, moliya-buxgalteriya faoliyati sohasida xizmat qiladigan mansabdor shaxs sodir etadi. Ma’lumki, bu funksiyalarni asosan ayollar bajaradi.

Kriminologik ekspertiza faoliyatining prognoz qilishning jihatlari ayollarning, mehnat faoliyati sohasidagi ijtimoiy funksiyalari elementlariga asoslanishi lozim.

Ayollar jinoyatchiligining rivojlanishidagi umumiy qonuniyat-larga kelsak, yuqorida zikr etilgan holatlar bilan bir qatorda, narkobiznes sohasiga ayollarning jalb etilishi muammosiga e’tiborni qaratishni istar edik. O‘zbekistonda ayollar giyohvandligining oldini olish muammolariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot hozirga qadar amalga oshirilgan emas. Statistika ma’lumotlarida giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar 1993-yilga nisbatan 2002-yilda 5 baravar ko‘payganligi qayd etiladi.

Ushbu qilmish uchun jazoga hukm etilgan erkaklar soni 4,4% ko‘paygan bo‘lsa, xuddi shunday jinoyatlar uchun jazoga hukm etilgan ayollar soni 16,5% ga ko‘payganligini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

**14-Jadval**

| Yillar | Aniqlangan jinoyatchilar soni | Shu jumladan, ayollar va ularning ulushi (foiz hisobda) |
|---|---|---|
| 1993 | 1165 | (5,6%) |
| 1994 | 5351 | 425 (8%) |
| 1995 | 8021 | 1552 (19%) |
| 1996 | 7000 | 1097 (15,3%) |
| 1997 | 6520 | 872 (13%) |
| 1998 | 7676 | 900 (11,5%) |
| 1999 | 7288 | 860 (11,6%) |
| 2000 | 8533 | 1098 (12,5%) |
| 2001 | 7644 (636) | 1011 (210) (13%) |
| 2002 | 7041 (828) | 1130 (245) (16%) |

Bu, tabiiyki, ayollar jinoyatchiligining umumiy hajmida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar ulushining ortishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Ayollar jinoiy faolligining umumiy darajasi yaqin o'n yillikda ancha barqaror bo'lib qoladi. Ammo bunga mamlakatimizning ayrim viloyatlarida diniy aqidaparastlik, terrorizm g'oyalarining tarqalishi mavjud vaziyatga beqarorlashtiruvchi omil sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uzoq muddatli prognozlar tuzishda bu va boshqa shunga o'xshash holatlarni ham e'tiborga olish kerak.

O'zbekistonda mukammal prognozlar tuzishga statistika ma'lumotlarining yopiqligi ham jiddiy monelik qiladi. Chunonchi, milliy iqtisodiyotni tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid ma'lumotlarni faqat umumiy ko'rinishdagina olish mumkin. Vaholanki, mazkur ma'lumotlarning aksariyati prognozlar tuzishda juda qo'l keladi. Masalan, chet eldan olingan qarzlar va investitsiyalarning sarflanishi, jalb qilingan sarmoyalarning o'zlashtirilishi haqidagi ma'lumotlarning shaffofligi prognoz qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Xullas, ayollar jinoyatchiligini kriminologik prognoz qilish sohasida davlatning umumiy sa'y-harakatlari va statistika hisobotini, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa statistika ma'lumotlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim ahamiyatga ega.

Ayollarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlarning statistik hisobini yuritish shakllarini takomillashtirish zarur. Bunda ayollarga nisbatan sodir

etilayotgan jinoyatlar va zo‘ravonlik holatlarining barcha shakllari haqida to‘la va obyektiv axborot olishni ta’minlash lozim. Zotan, mazkur axborot prognozlar tuzish va tadqiqotlar o‘tkazishning muhim negizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish sohasida turli ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishga ham e’tibor berish kerak. O‘zbekistonda kriminologiya fanining mazkur sohasi deyarli rivojlanmagan. Uni rivojlantirish, bizning fikrimizcha, jinoyatchilikka, shu jumladan, ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash choralarini tanlash va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu bobni yakunlar ekanmiz, biz professional jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi professional jinoyatlarning alohida turlarining emas, umuman professional jinoyatchilikning oldini olishga nisbatan kompleks yondashuv bilan belgilanadi[1], degan fikrga to‘liq qo‘shilishimizni qayd etib o‘tmoqchimiz.

Tabiiyki, ayollar jinoyatchiligining oldini olishni takomil-lashtirishga nisbatan yondashuvlar yuqorida zikr etilgan xususiyatlar bilan chegaralanmaydi. Ushbu tadqiqotda biz takomillashtirish hozirgi zamon ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan va mazkur illatga qarshi faqat ichki ishlar organlarining kuchi bilan emas, eng avvalo, aniq ishlab chiqilgan dasturiy siyosatga asoslangan davlatning izchil faoliyati orqali samarali kurash olib borish imkonini beruvchi prinsipial yo‘nalishlarga e’tiborni qaratishga harakat qildik.

---

[1] Гуров А.И. О некоторых вопросах изучения криминального профессионализма. //Ж. Сов. государство и право. №5. 1987. -С.86.

# XULOSA

Ushbu o‘quv qo‘llanmada biz hozirgi zamon ayollar jinoyat-chiligining kriminologik tavsifini berishga, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishga, jinoyatchi ayollarning shaxsini va muay-yan ijtimoiy muhit sharoitlarida uning shakllanish mexanizmini ochib berishga, shuningdek, kriminologiyaning eng murakkab muam-molaridan biri - jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat sodir etgan ayollarga jazo tayinlash muammosini hal qilish yo‘llarini taklif qilishga harakat qildik.

Bu nuqtai nazardan ayollar jinoyatchiligining oldini olish muammosi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalambor, quyidagilar bilan izohlanadi:

-ayollar jinoyatchiligining rivojlanishida so‘nggi yillarda ko‘zga tashlangan tashvishli tendensiyalar bilan;

jamiyatga, jamiyatdagi ma’naviy-psixologik muhitga, jamiyat-ning alohida institutlariga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga ayollar jinoiy xulq-atvorining salbiy ta’siri ortib borayotgani bilan;

-ayollar jinoyatchiligining tuzilishida tamagirlik jinoyatlari etakchilik qilishi, bu jinoiy qilmishlar davlatning iqtisod tizi-miga va fuqarolarning shaxsiy mulkiga katta moddiy zarar yetkazayotgani bilan;

-ayollar jinoyat sodir etishiga turtki beruvchi o‘ziga xos sabablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib, izchil profilaktika ishini yo‘lga qo‘yishning zarurligi bilan;

ayollar jinoyatchiligi muammolarini ilmiy o‘rganish darajasining pastligi, bu ayollar jinoyatchiligining oldini olish ishlarini tashkil etishga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani bilan.

